Multidisciplinary scientific online journal | ISSN: 2181-2330

# IJODKOR O'QITUVCHI

# ТВОРЧЕСКИЙ УЧИТЕЛЬ

# CREATIVE TEACHER



doi
Crossref
EScience Press
ICI World of Journals
Google Scholar
Scientific Research
An Academic Publisher
Directory of Research Journal Indexing DRJI
RESEARCHBIB ACADEMIC RESOURCE INDEX
INFOBASE INDEX
DOAJ DIRECTORY OF OPEN ACCESS JOURNALS

# «BEST PUBLICATION»

***Ilm-ma'rifat markazi ©***

## IJODKOR O'QITUVCHI
## ILMIY-USLUBIY JURNAL

# MATERIALLARI TO'PLAMI

**5-YANVAR, 2022-YIL**

**14-SON**

Ushbu to„plamda “Ijodkor o„qituvchi ” ilmiy-uslubiy jurnaliga kelib tushgan tezis va maqolalar o„rin olgan.

Mazkur jurnalda zamonaviy ta‟lim tizimini rivojlantirish jarayonida innovatsion ta‟lim texnologiyalarini joriy etish va loyihalashtirish, integratsion ta‟limni rivojlantirishda yo„nalishlar bo„yicha kreativ g„oyalar, takliflar va yechimlarni amalga oshirish maqsad qilib olingan. Mazkur jurnal materiallaridan OTM professor-o„qituvchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari va umumta‟lim maktab o„qituvchilari, mustaqil tadqiqotchilar, magistrantlar, ilmiy xodimlar, iqtidorli talabalar hamda shu sohada ilmiy ish olib borayotgan tadqiqotchilar foydalaishlari mumkin.

**Eslatma! Jurnal materiallari to‘plamiga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma’lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to‘g‘riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.**

## TAHRIRIYAT

**Bosh muharrir**
Maqsudov Ulug„bek Qurbonovich
**Mas'ul muharrir:**
Yusufjonov Quyoshbek Komiljon o„g„li
**Mas'ul kotib**
Xasanov Tursunali Xaydarali o„g„li
*Marg'ilon shahar 11-umumiy o'rta ta'lim maktabi Ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari*
**Nashrga tayyorlovchi**
Sobirov Otabek Foziljon o„g„li
Qobilova Saidaxon Muhammadjon qizi
*Farg'ona davlat universiteti*

## TAHRIR KENGASHI A'ZOLARI

Mo'minov Qobiljon Qodirovich
***Fizika-matematika fanlari doktori professor***
Sultonali Mannopov
***O'zbekiston xalq artisti, professor***
Mamatova Nodira Muxtarovna
***Tibbiyot fanlari Doktori (Ds)***
Tuychiyeva Inoyat Ibragimovna
***Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***
Rasulova Vasila Batirovna
***Toshkent farmatsevtika instituti, Biologiya fanlari nomzodi, dotsent***
Nikadambayeva Hilola Batirovna
***Uzbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent***
Pirimov Akram Pirimovich
***Navoiy davlat pedagogika instituti, dotsent***
Shodiyev Furqat Davranovich
***Navoiy davlat pedagogika instituti, Texnika fanlari nomzodi, Dotsent***
Qurbonova Muqaddas Omonovna
***Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***
Otaqulov Fozil Sobirovich
***FarDU, bo'lim boshlig'i***
Aslanov Xakimjon Ro„ziboyevich
***FarDU, Harbiy ta'lim fakulteti Umumqo'shin tayyorgarligi sikli boshlig'i, podpolkovnik***
Karimov O„lmasbek Umaraliyevich
***FarDU o'qituvchisi***
Mamatqulov Muzaffar Odiljon o„g„li
***O'zbekiston Yoshlar ishlari agentligi Farg'ona viloyat boshqarmasi bo'lim boshlig'i***

## MUNDARIJA

| | |
|---|---|
| **Bo'tayeva Nafisa Sharipovna**<br>*GEOGRAFIK QOBIQ VA UNING UMUMIY QONUNIYATLARI* | 9 |
| **Yigitaliyev Qodirjon Odiljon o'g'li**<br>*POCHTA ALOQASIDA MIJOZLARGA XIZMAT KO'RSATISHNING TEXNOLOGIK JARAYONLARINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH* | 12 |
| **Eshonqulova Malika Zayniddin qizi**<br>*USTOZ* | 20 |
| **Allabergenova Intizor Kadamovna**<br>*THE IMPORTANCE OF USING SYNONYMS IN SPEECH IN ENGLISH LANGUAGE* | 22 |
| **F.Tillahodjayeva**<br>*EFFECT OF THE STYLISTIC MEANS IN THE SHORT STORIES(ON THE EXAMPLE OF SHORT STORIES BY P SHYUT)* | 25 |
| **Axmedova Lolaxon Xaydaralievna**<br>*SCRATCH DASTURLASH MUHITI* | 28 |
| **Baxriddinova Yorqinoy Numanovna**<br>*METOD VA METODOLOGIYA TUSHUNCHALARI TAXLILI* | 31 |
| **Berdiyeva Nilufar Doniyorovna**<br>*TEXNOLOGIYA FANINI ÒQITISHDA STEAM YONDASHUV* | 34 |
| **I.E.Uzoqov**<br>**M.X.Sarikulov**<br>*O'ZBEKISTONDA IQLIM O'ZGARISHINI OLDINI OLISH VA IQTISODIY SAMARADORLIKGA ERISHISH* | 36 |
| **Temirov Elyor Iskandarovich**<br>**Ziyodullayev Zamonali Barotovich**<br>*"KAFEDRA" MA'LUMOTLAR BAZASINI LOYIHALASH VA ISHLAB CHIQISH* | 43 |
| **Berdiyev Farxod Ochilovich**<br>*ERKIN KURASHCHILARNING MAXSUS TAYYORLOV TEXNIK MAHORATINI OSHIRISH USULLARI* | 49 |
| **Kuriyazova Dilfuza Aminovna**<br>*FIZIKA FANINI O'QITISHNING KO'RGAZMALILIGI* | 52 |
| **Boboqulova Nodira Nurmat qizi**<br>*HAYVONLAR TO'QIMALARI ASOSIDA AJRATIB OLINGAN BIRIKMALAR VA ULARNING IMMUN TIZIMI HUJAYRALARIGA TA'SIR KO'RSATKICHLARI* | 54 |
| **Baltayeva Adolat Yusupovna**<br>**Jumaniyazova Zulayxa Boltayevna**<br>*GEOGRAFIYA O'QITISH METODIKASINING O'ZIGA XOS YO'LLARI.* | 58 |
| **Karimova Mashxura**<br>*TURSUNBOY ADASHBOEVNING IJODI* | 60 |
| **Nishonboyeva Gulnora**<br>*KASBIMDAN QADR TOPDIM* | 62 |
| **Mahmudova Muhayyo Ulug'bekovna**<br>*BOSHLANG'ICH SINFLARDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR, O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISH* | 66 |

| | |
|---|---|
| **Ustemirova Ziyoda Ilyas qizi**<br>*MAKTABLARDA MATEMATIKA FANINI O'QITISHNING DOLZARB MASALALARI* | 68 |
| **Raxmatova Feruza Farxodovna**<br>**Jumayeva Shaxnoza Ibragimovna**<br>*O'ZBEK XALQ OG'ZAKI IJODI* | 72 |
| **Имомкулова Фотима**<br>*СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СУПРУЖЕСКОЙ СОВМЕСТИМОСТИ В БРАЧНЫХ ОТНОШЕНИЯХ* | 77 |
| **Hazratqulova Mahbuba Jo'raevna**<br>*MONARDA (MONARDA DIDYAMA L) – EKININI INTRODUKSIYA QILISH VA XALQ XO'JALIGIDA FOYDALANISHNING AMALIY AHAMIYATI* | 80 |
| **Narbutayev Ural Mamayusupovich**<br>*OTA-ONALARNING FARZANDLARI OLDIDAGI BURCH VA MA'SULIYATLARI* | 83 |
| **Ro'zimurodova Muhabbat**<br>*FOREIGN DIRECT INVESTMENT, TRADE AND ECONOMIC GROWTH.* | 85 |
| **Saidova Zarina Saidovna**<br>*O`ZBEK TILI O`TIMSIZ FE`LLARINING XUSUSIYATLARI* | 89 |
| **Salimova Lola Ro'ziboyevna**<br>*OLAMNING TUZULISHI PAYDO BO'LISHI VA TARAQQIYOTI HAQIDAGI GO'YALARIGA OID BA'ZI MULOHAZALARI* | 92 |
| **Сўпичакова Мухаррамхон Абдуқаххоровна**<br>*РАЦИОНАЛ ВА ИРРАЦИОНАЛ ФИКРЛАШ ЎРТАСИДАГИ ФАРҚ ТАХЛИЛИ.* | 95 |
| **Ernazarova Nilufar Ismatullaevna**<br>**Xujakeldiyev.K.N**<br>**Fayziyev SH.SH**<br>*GAT DASTURIY TA'MINOTI PHOTOMOD DASTURINING ISHLAB CHIQARSHDA QO'LLASH USULLARI.* | 99 |
| **Xurshida Rustamova Normurodovna**<br>*UMUMTA'LIM MAKTABLARINING INGLIZ TILI DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANIB DARSLARNI TASHKIL ETISHNING SAMARALARI.* | 108 |
| **Юлдашева Гулбахор Махмуджоновна**<br>*KORONAVIRUSDA XOMILADORLIKNING KECHISHI.* | 111 |
| **Ziroat Mahmudova Saydullayevna**<br>*BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA O'QITISH METODLARI.* | 114 |
| **Zokirova Nigoraxon Xaydaralievna**<br>*IT TIBBIYOTDAGI O'RNI* | 116 |
| **Anarkulov Azizjon Davlatkulovich**<br>**Muxamedov Muxammadali Mustafayevich**<br>*EKSTREMIZM VA TERRORIZMNING – JAMIYAT BARQARORLIGIGA TAHDIDI* | 118 |
| **Yusupov Arabboy Baxodirjon o'g'li**<br>**Abduraximov Iskandar Nodirjon o'g'li**<br>*YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA OILA VA JAMIYATNING O'RNI* | 125 |

| | |
|---|---|
| **Alimova Sojida Normuhammadovna**<br>**Djabborova Gulbahor Tohirovna**<br>*AMIR TEMUR VA UNING TUZUKLARIDA HUQUQIY MASALALAR* | 127 |
| **Husnida Sulaymonova**<br>*TILAK MAZMUNLI PRETSEDENT BIRLIKLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI* | 135 |
| **Matyoqubova Ziyoda**<br>*BOSHLANG'ICH SINFLARDA INTERFAOL METODLAR VA DIDAKTIK O'YINLARNING AHAMIYATI* | 138 |
| **Ibragimova Shohida Sultonnazirovna**<br>*OGAHIY LIRIKASI HAQIDA* | 143 |
| **Mirzayeva Mohiniso Saidaliyevna**<br>*OGAHIY IJODI VA UNING G'AZALLARI TAHLILI* | 147 |
| **Ashurova Shaxnoza Nasriddinovna**<br>*KO'MAKCHI FE'LLI SO'Z QO'SHILMASI VA QO'SHMA FE'LLARNI AJRATISHNING OSON YO'LLARI* | 150 |
| **Hamroyeva Gulshan Ilhomovna**<br>*MAKTAB DARSLIKLARIDA FE'L MAVZUSINING O'RGANILISHI VA O'RGATILISHI* | 155 |
| **Babaxadjayeva Ra'no Xaydarovna**<br>*SAID AHMAD HIKOYALARINI O'RGANISHDA INTERAKTIV METODLAR* | 160 |
| **Sapayeva Gulbahor Sabirovna**<br>*A.S.PUSHKIN LIRIKASINING ASOSIY MAVZULARI VA MOTIVLARI* | 163 |
| **Yulduz Matyaqubova Hayitboyevna**<br>*ADABIYOT DARSLARIDA IJODKOR TARJIMAI HOLINI O'RGATISH XUSUSIDA* | 168 |
| **Yo'ldoshev Qodir Eshqobil o'g'li**<br>*ELEKTROMOBIL AVTOMOBILLARNI O'ZBEKISTON SHAROITIDA ISHLASHINI TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA MA'LUMOTLAR* | 171 |
| **Numanov Ziyodbek Baxodirjonovich**<br>*QUR'ON KARIMNI O`ZBEK TILIGA TARJIMA QILINISHI,TARJIMALARINING RIVOJI VA UNING HOZIRGI KUNDAGI AXAMIYATI* | 181 |
| **Elshod Obloberdiyev Kamol o'g'li**<br>*BLOKSXEMADA ARALASH ALGORITMLAR TUZISH* | 188 |
| **Г.Д.Ниязова**<br>**С.С. Шарифова**<br>*ОРГАНИЗАЦИЯ РАЗВИВАЮЩЕГО ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОСТРАНСТВА В УСЛОВИЯХ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО УЧРЕЖДЕНИЯ* | 190 |
| **Nurmetova Salomat**<br>*BOSHLANG'ICH SINFLARDA XALQ OG'ZAKI IJODINING TARBIYAVIY AHAMIYATI* | 196 |
| **Sultonova Nilufar Ravshanovna**<br>**Choriyeva Aziza Narzullayevna**<br>*TA'LIM JARAYONIGA INNOVATSION YONDASHUV DARS SAMARADORLIGINING MUHIM OMILI* | 198 |
| **Xushvaqov Elbek Ashurovich**<br>*YOSHLARDA SOG'LOM DINIY E'TIQODNI SHAKLLANTIRISHNING* | 200 |

| | |
|---|---|
| *IJTIMOIY - PSIXOLOGIK OMILLARI* | |
| **Almamatova Sarvinoz Abdurasul qizi**<br>*BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANINING O'RNI* | 203 |
| **Султонова Гавхар Рахматовна**<br>*ОБУЧЕНИЕ МАТЕМАТИКЕ С ПОМОЩЬЮ КОНЦЕПТУАЛЬНОЙ МОТИВАЦИИ И ПРАКТИЧЕСКОГО ОБУЧЕНИЯ* | 206 |
| **Berdiyeva Dilsora Shoyimardonovna**<br>*O'RGAN-O'RGAT DASTURINI OLIB BORISH JARAYONI* | 211 |
| **Usmonova Muazzamxon Obokulovna**<br>*BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA PEDAGOGIK TEXNALOGIYALARDAN FOYDALANISH* | 215 |
| **Isroilova Orzuxon Karimjonovna**<br>*UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA CHET TILLARINI O'QITISH METODIKASI* | 218 |
| **Sulaymonova Mehrinigor Axadovna**<br>*O'ZBEK TILI FANINI O'QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH* | 221 |
| **Maxmudova Sarvinoz Shavkatovna**<br>*O'RXUN ENASOY BITIKLARINI O'RGATISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR* | 224 |
| **Boboyorova Gavhar**<br>*OLMOSH YUZASIDAN O'TILGANLARNI MUSTAHKAMLASH* | 227 |
| **Maturazova Yulduz Sheripboyevna**<br>*CHO`LPON SHE'RIYATIDA RAMZ VA TIMSOLLAR* | 234 |
| **Islomov Eldor Yusupovich**<br>*BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING TA'LIM-TARBIYASIDA OILANING RO'LI* | 237 |
| **Maturazova Ro'za**<br>**Maturazova Firuza**<br>*GEOGRAFIYA DARSLARINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUV* | 240 |

# GEOGRAFIK QOBIQ VA UNING UMUMIY QONUNIYATLARI

**Bo'tayeva Nafisa Sharipovna**
*Qashqadaryo viloyati Koson tumanidagi*
*90-maktab Geografiya fani o'qituvchisi Ma'lumoti oliy Toifasi birinchi*

**Annontatsiya:** *Yer sayyorasini tabiatshunoslikning ko`p fanlari: astronomiya, geologiya, geografiya, geofizika, geokimyo va boshqalar o`rganadi. Tabiiy geografiya yer sayyorasini emas, balki uning ma'lum qismini, o`ziga xos bo`lgan qobig`ini, ya'ni geografik qobiqni tabiatini o`rganadi.*

**Kalit so`z:** *litosfera, gidrosfera, atmosfera, biosfera*

Yer sayyorasining litosfera (tosh qobiq), gidrosfera (suv qobig`i), atmosfera (havo qobig`i), biosfera (hayot qobig`i)larining o`zaro bir biriga kirishuvi, o`zaro ta'siri o`zaro aloqasi natijasida geografik qobiq hosil bo`lgan.

Geografik qobiq - yerning eng yirik yagona geosistemasi, bu turli xil moddiy tarkibdan tuzilgan. Faqat shu qobiqda quyosh energiyasi to`planadi va qayta o`zgartiriladi, shu qobiqda hayot paydo bo`ldi. Inson jamiyati shakllandi va rivojlanmoqda.

Geografik qobiq tushunchasini 1930 yillarda akademik A.A,Grigorev birinchi bo`lib fanga kiritdi. Bu tushunchaning shakllanishi va rivojlantirishda A.Gumboldt, V.V.Dokuchaev, P.I.Brounov va boshqa olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlari muhim ahamiyatga ega bo`ldi. A.Gumboldt o`zining ―Kosmos‖ asarida tabiat bir butun harakatdagi va o`zgarishdagi oboekt larning o`zari aloqasidan hosil bo`lgan hosiladir deb yozadi. 19-Asrda (1892) V.V.Dokuchaev tabiatshunoslik ilgari qarab katta qadam tashlaganligini taokidlab, ―Asosan ayrim jismlar, minerallar, tog` jinslari, o`simlik va hayvonlar hamda hodisa va narsalar, olov, suv, havo o`rganilib, ular o`rtasidagi nisbat, ya'ni kuchlar, jismlar, hodisalar o`rtasida jonsiz va jonli tabiat o`rtasida mavjud bo`lgan genetik doimiy va hamma vaqt ham qonuniy aloqalar o`rnatilmas edi. Vaholangki huddi shu nisbatlar ana shu qonuniy o`zaro aloqalar tabiatni bilishning mohiyatini, tabiatni bilishning mag`zini tashkil qiladi deb yozgan edi. V.V.Dokuchaev tabiatda turli komponentlar o`rtasida aloqalar mavjudligini isbotlab bergan.

Universitetlar uchun birinchi bo`lib umumiy yer bilimi bo`yicha darslik yaratgan A.N.Krasnov (1895) ―geografiya ayrim hodisa va jarayonlarni emas, balki ularning birikmasini geografik komplekslarni o`rganadi‖ deb ta'riflagan edi.

Peterburg universitetining professori Brounov tabiiy geografiya litosfera, gidrosfera, atmosfera, biosfera kabi qobiqlarning o`zaro aloqasidan hosil bo`lgan yerning tashqi qobig`ini o`rganadi deb uqtirgan.

1932 yilda A.A.Grigorev o`zining ―tabiiy geografiyaning predmeti va vazifalari‖ nomli maqolasida tabiiy geografiya fanining o`rganish predmeti, tabiiy geografik qobiq ekanligi to`g`risida so`z yuritadi. 1937 yilda esa geografik qobiq tabiiy geografiyaning o`rganish obekti ekanligini asoslovchi maxsus monografiya yozadi. U bu asarida geografik qobiqni o`rganishda balansli usullarni muhimligini ko`rsatib bergan.

1940 yillarda L.S.Berg tomonidan rivojlantirilgan landshaft va geografik zonalar to`g`risidagi talimotini A.A.Grigorevning geografik qobiq va tabiiy geografik jarayonlar

to`g`risidagi talimotiga qarshi qo`yildi. Ko`p yillik ilmiy baxsda S.V.Kolesnik bu ikki talimot bir-biriga qarama-qarshi emasligini, balki ular geografik qobiqning turli tomonlarini aks ettirishini isbotlab berdi. 1947 yildan boshlab, tabiiy geografiyaning o`rganish obekti geografik qobiq deb ko`pchilik olimlar tomonidan tajriba natijalari olindi.

S.V..Kolesnik Grigorevning tabiiy geografik qobig`ini geografik qobiq deb nomlashni taklif qildi. Bu nom geografiya fanida asosiy tushuncha bo`lib qoldi.

Geografiyning ribojlanishiga juda katta hissa qo`shgan allomalardan biri – sayyoh, geografik tadqiqotlar tashkilotchisi, buyuk rus olimi Petr Petrovich Semyonov – Tyanshanskiydir (1827 – 1914). U geografiyaning predmeti va vazifalari masalalri bilan ham bevosita shug`ullangan. U K.Ritterning ―Osiyo Yer bilimi‖ asarining rus tilidagi nashriga yozgan so`zboshida keng va tor ma`nodagi geografiyani farqlaydi. Keng ma`nodagi geografiya Yer sharini qattiq, suyuq va gaz qobiqlari bilan birgalikda, uning boshqa sayyoralarga va unda yashaydigan organizmlarga munosabati qonunlarini to`liq tadqiq qiladi.Uning firicha keng ma`nodagi geografiya tadqiqot predmetining o`zshashligi bilan o`zaro bog`liq bo`lgan fanlarning butun tabiiy guruhidir. Fanlarning bu guruhiga matematik geografiyani, Yerni va uning tuzilishi qonunlarini o`rganadigan tabiiy geografiyani, etnografiyani va statistikani kiritadi.

Tor ma`nodagi geografiya Yer yuzasining fiziografiyasi, ya`ni uning doimiy, asrlar davomida tabiatning o`zi tomonidan belgilangan o`chmaydigan tuzulishini ham, inson qo`li bilan yaratilgan o`zgaruvchan, o`chadigan tuzilishini ham tasvirlashdir. L.S. Berg P.P.Semyonov – Tyanshanskiyning tor ma`nodagi geografiyasini mamlakatshunoslik deb hisoblagan edi. A.G. Isachenko esa (1971) yadrosini tabiiy geografiya tashkil etadigan tabiiy fan deb hisoblaydi.

XIX asrning so`ngi choragida geografiya Yer yuzasi haqidagi fan ekanligi to`g`risida tushuncha vujudga keldi. Bu tushuncha nemis geografi va geologi Ferdinand fon Rihtgofen (1833 – 1905) tomonidan rivojlantirildi. F.Rixtgofen geografiya o`simlikni Yer yuzasiga bo`lgan munosabatda, insonni esa butun tabiatga bo`lgan munosabatda o`rganish lozimligini ta`kidlagan edi. Geografiyaning eng asosiy maqsadi F.Rihtgofenga ko`ra, jonli tabiatning jonsiz tabiat bilan bilan bog`lik ekanligini hisobga olgan holda insonning jonli va jonsiz tabiat bilan aloqalari va munosabatlarini ochib berishdan iborat. U geografiyaning o`rganish predmetini quruqlik, dengiz va atmosferaning o`zaro ta`sirdagi *Yer yuzasi (Erdoberfläche)* deb hisoblagan; geografiyaning o`ziga xos maqsadi Yer yuzasida mujassam o`zaro ta`sirda namoyon bo`ladigan turli hodisalarga e`tiborni qaratilishi lozim, deb hisoblaydi. Uning fikricha, Yer yuzasining har qanday qismini geografik jihatdan o`rganishni mukammal tabiiy geografik tasvirlashdan boshlash va shundan so`ng boshqa tabiiy tavsiflar va ularnig o`zaro aloqalarini tadqiq qilish lozim.

Fridrih Ratzel (1844 – 1904) sotsial geografiyning tarkib topishiga asos solgan nemis olimi. U o`zining ―Antropogeografiya‖ deb nomlangan asarida tabiiy fenomenlarning inson tarixi yo`nalishiga ta`sirini bayon qilgan. U asosiy e`tiborni tabiiy sharotlarning insonga ta`sirini emas, balki inson faoliyatiga ta`sirini o`rgangan. F. Ratzelning asarlarida ―Biosfera‖ termini (tushunchasi) ilmiy barqarorlikka ega bo`ldi va tan olindi.

F. Ratzel geografik determinizmni sotsial darvinizm bilan to`ldirdi, ya`ni biologik qonunlarni ijtimoiy munosabatlarni o`rganishga ko`chirishga harakat qildi. U kengayishga intiladigan davlatning organizm sifatidagi g`oyaning ham asoschisidir.

Martonnega ko`ra tabiiy geografiya hududning bir butun geografik tadqiqotini o`z ichiga oladi. Uning fikricha, geografiya Yer yuzasidagi fizikaviy, biologik va inson faoliyati bilan bog`liq hodisalarni, bu hodisalarning sababiy bog`lanishlarini o`rganadi. Uningcha geografiyaning predmetini fizikaviy, biologik va inson faoliyati bilan bog`liq hodisalarning Yer yuzasi bo`yicha taqsimlanishi va bunday taqsimlanishning sabablari tashkil etadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

**1—**Tabiat bilan muloqot‖ **2009**
**2—***Yer yuzasi (Erdoberfläche)* ‖ **2011**

# POCHTA ALOQASIDA MIJOZLARGA XIZMAT KO'RSATISHNING TEXNOLOGIK JARAYONLARINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

**Yigitaliyev Qodirjon Odiljon o'g'li**
*O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi*
*Akademiyasi Test markazi o'qituvchi metodisti*

**Annotatsiya:** *Maqolada pochta aloqasi texnologik jarayonlari, pochta aloqasida mijozlarga xizmat ko'rsatishda ilg'or texnologiyalardan foydalanishning moxiyati, pochta aloqasida ko'rsatilayotgan zamonaviy xizmatlarning tavsifi, pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatish tartibi kabilar ilmiy jihatdan muallif tomonidan tahlil qilingan, pochta aloqasida mijozlarga xizmat ko'ratish jarayonlarida muammolarni yuzaga keltirib chiqaruvchi omillar tasniflangan shuningdek pochta aloqasi xizmatlarini zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda yanada takomillashtirishga oid tavsiyalar ishlab chiqilgan. Muallif mazkur masalalar yuzasidan turli ziddiyatlarni bartaraf etish maqsadida o'zining fikrlarini ilmiy asoslagan.*

**Kalit so'zlar:** *Pochta, elektron pochta, elektron raqamli imzo, Ye-XAT, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, Ye-hujjat, elektron to'lov, elektron tijorat, interaktiv xizmatlar, internet tarmog'i, yagona portal.*

Axborotlashtirish sohasidagi islohotlar izchil olib borilayotgani natijasida respublikamizning barcha tarmoqlari va davlat boshqaruvi organlari oldiga quyilgan vazifalardan kelib chiqib, zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalari va telekommunikatsiya tizimlarini rivojlantirish va ularni hayotga keng joriy qilinishiga erishilmokda.

Bugungi zamon talablariga mos pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash va mavjud vositalarni takomillashtirish orqali ko'zlangan maqsadni amalga oshirish mumkin bo'ladi. Ko'rsatilayotgan xizmatlarni yanada takomillashtirishda AKTnig dolzarbligi beqiyosdir. Hozirda ―O'zbekiston pochtasi‖ AJ va uning xududiy filliallari shuningdek pochta aloqa tarmoqlari va aloqa bo'limlarida AKTni joriy qilish keng ko'lamda amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda ko'p tarmoqli axborot industriyasini tashkil etish, zamonaviy texnologiyalar hamda AKTni iqtisodiyotning turli sohalarida keng joriy qilish shu qatorda pochta aloqasi sahasida ham sifatli xizmat ko'rsatishni tashkil yetish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan so'nggi yillarda qabul qilingan bir qancha qaror va farmonlar va hukumat qarorlari pochta aloqasida mijozlarga sifatli xizmat ko'rsatishni dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

Mamlakatimiz Prezidenti tomonidan 2020 yil 14 dekabr kuni ―Pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida‖gi PQ-4921-son qarori[1] pochta aloqasini rivojlantirishning huquqiy jixatdan qo'llab quvvatlanayotganligidan dalolat beradi.

Bugungi kunda pochta aloqasi tizimi xalqaro miqyosda va mamlakat hududlarida xat va pochta jo'natmalari bilan bir qatorda tovarlarni yetkazib berish, bank, moliya va davlat xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha o'z infratuzilmasiga ega bo'lgan muhim soha hisoblanadi.

O'tgan davrlar mobaynida ―O'zbekiston pochtasi‖ Milliy operator tarmog'ini rivojlantirish bo'yicha yetarlicha choralar ko'rilmaganligi natijasida, bir qator kamchiliklar va yechilishi kutilayotgan muammolar yig'ilib qolgan edi.

Umumjahon pochta ittifoqining Pochta rivojlanishi indeksi global reytingida[2] ―O'zbekiston pochtasi‖ AJ past o'rinlarni egallaganligi bu borada amalga oshirilishi zarur bo'lgan bir talay masalalar borligidan dalolat beradi.

Pochta aloqasida mavjud muammolarni bartaraf etib, pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatish tizimini tubdan takomillashtirish, sohaga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, pochta aloqasi xizmatlarini taqdim etish faoliyatini to'liq avtomatlashtirish orqali pochta rivojlanishi indeksi global reytingida mamlakatimizni birinchi 50talikka kiritish maqsadida Prezidentimizning yuqorida aytib o'tilgan qarori qabul qilindi[3].

Pochta aloqa sohasini rivojlantirishdan asosiy maqsad zamonaviy texnologiyalar va AKT yutuqlarini to'liq qo'llash orqali turli ko'rinishdagi axborotlarni uzatish bo'yicha mijozlar ehtiyojlarini to'la va yuqori sifatda qondirish va sohani yangi axborot texnologiyalariga asoslangan xizmatlar ko'rsatuvchi milliy operatorga aylantirishdan iboratdir.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga ta'sir ko'rsatishi, katta hajmda axborot to'plash va uni umumlashtirish imkonini berishi, boshqarishni strategik darajada tashkil etish uchun keng imkoniyatlar ochib berishini unutmasligimiz zarur.

Dunyo tendentsiyalariga asosan ko'pgina mamlakatlarda pochta aloqasi sohasini modernizasiyalash, birinchi navbatda pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatishning ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va mexanizasiyalashga, shuningdek axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llab, xizmatlarning yangi turlarini rivojlantirishga yunaltirilgan.

Pochta aloqasi sohasida ishlab chiqarish jarayonlarini kompleks mexanizasiyalash, mijozlarga xizmat ko'rsatishning texnologik jarayonlariga zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish asosida avtomatlashtirish mehnat unumdorligini ko'tarish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy vositalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

**Bugungi davrda mamlakatimiz Prezidenti tomonidan qabul qilingan Qonun asasida:**

Birinchi navbatda - pochta va kurerlik xizmatlarini taqdim etish faoliyati bilan shug'ullanib kelayotgan mahalliy va xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikda ―yakuniy manzil‖ xizmatini joriy etish, pochta aloqasining an'anaviy xizmatlarini takomillashtirish, ularni raqamlashtirish, jo'natmalarni qabul qilish, kuzatib borish va yetkazish jarayonlariga axborot texnologiyalari va tizimlarini joriy etish belgilandi. Aholi, biznes va davlat idoralariga zamonaviy xizmatlarni taqdim etish va ―Gibrid pochta‖ jo'natmalarini qabul qilish va yetkazib berish xizmatlari sonini 2 barobarga oshirish belgilandi[4].

**Ikkinchi navbatda -** mahalliy ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlarini onlayn sotish va mijozlarga yetkazib berish imkoniyatini beruvchi elektron savdo maydonchasi axborot tizimini

yaratish,logistika markazlarini tashkil etish, tovarlarni saqlash va yetkazib berishni o'z ichiga olgan xizmatlarni yo'lga qo'yish va rivojlantirish belgilandi.

**Uchinchi navbatda -** pochta aloqasi ob'ektlari orqali to'lovlarni onlayn rejimda qabul qilish respublikaning kamida 1000 ta pochta bo'limida, chekka hududlarda moliyaviy xizmatlar turlarini, xususan, aholidan to'lovlar qabul qilishni ikki barobarga kengaytirish hamda autsorsing asosida bank xizmatlari ko'rsatilishini yo'lga qo'yish belgilandi.

Bugungi kunda, ijtimoiy tarmoqlarda tez-tez ko'tarilib turadigan masalalardan biri aholini tezkor, sifatli va arzon internet bilan ta'minlash masalalaridir. Shundan kelib chiqib, ushbu yo'nalishda Vazirlik tomonidan amalga oshirilgan ishlar to'g'risida ham ma'lumot berib o'tsam, 2020 yil ―Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili‖da axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasida bir qator yirik loyihalar amalga oshirildi[5].

Aholini sifatli internet bilan ta'minlash uchun 2020 yilda ―Optik tolali aloqa liniyalarini qurish‖ loyihasi doirasida rejalashtirilgan ob'ektlarga qadar 19 ming kilometr optik tolali aloqa liniyalari qurildi. Bu esa pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatishda yangi va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish uchun keng imkoniyatlarni yaratadi.

Zamanimiz rivojlanib borayotgan ushbu davrda mobilь aloqa vositasining o'rni tobora chuqur joy egallamoqda. Pochta aloqasi xizmatlarini mobilь ilovalar va internet tarmog'i orqali ko'rsatishga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Jumladan o'tgan 2020 yil mobaynida mobil aloqa tarmog'ini rivojlantirish maqsadida 4,5 mingta baza stantsiyalari qurilib ishga tushirildi va 3 mingta baza stantsiyalar modernizatsiya qilindi. Natijada respublika aholi maskanlarini mobil aloqa bilan qamrovi darajasi 97 foizga va mobil Internet tarmog'iga keng polosali ulanish qamrovi darajasi 87 foizga yetkazildi[5]. Shularni inobatga olgan holda pochta aloqasi xizmatlarini zamon talablariga mos bo'lgan texnologiyalarga asoslangan holda amalga oshirish lozim.

Mamlakatimiz rahbari tomondan parlamentga qilingan Murojaatnomasida raqamli iqtisodiyotni barcha sohalarda keng joriy etish, raqamlashtirishni barcha yo'nalishlar bo'yicha barqaror rivojlanishi bo'yicha bir qator vazifalar belgilangan edi. Jumladan, tegishli idoralarga ―Pochta aloqasi to'g'risida‖gi qonunlarni yangi tahrirda ishlab chiqish topshirilgan edi. Ta'kidlash lozim, bu borada qisqa vaqt ichida samarali ishlar amalga oshirildi. [6]

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2007 yilning 23 avgustida «Davlat va xo'jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yuridik va jismoniy shaxslar bilan o'zaro hamkorligini yanada takomillashtirish to'g'risda» 181-qarori qabul qilingan. Ushbu qaror bilan AKTdan foydalangan holda interaktiv davlat xizmatlari to'g'risida Nizom va bazaviy interaktiv davlat xizmatlari reestri tasdiqlangan. 2011 yil 4 may «Vazirlar Mahkamasining ijro etuvchi apparatida, davlat va xo'jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlarida yagona ximoyalangan elektron pochtani va elektron hujjat aylanish tizimini joriy etish hamda ulardan foydalanish chora tadbirlari to'g'risida» gi 126 – son qaror qabul qilindi. Qarorga asosan Vazirlar Mahkamasi hamda davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati idoralari o'rtasidagi elektron axborot almashishi faqat «E-XAT» ximoyalangan elektron pochtasi va «E-hujjat» elektron hujjat aylanish tizimi orqali amalga oshirilishi ko'zda tutilgan.

Pochta aloqasining bugungi kunda eng asosiy kachiliklaridan biri bu zamonaviy texnologiyalarni maqsadli yo’naltira olmayotganligidir. Mustaqillik yillari mobaynida mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko’lamli islohotlar negizida AKTning jadal sur’atlar bilan rivojlanishi tufayli O’zbekiston Respublikasining global axborot hamjamiyatida munosib o’rin egallashiga sezilarli ta’sir ko’rsatmokda. Hozirgi kunda kunlik ish faoliyatimizga axborot texnologiyalari yashin tezligida kirib kelib hujjatlarni saqlash, ularning maxfiyligini ta’minlash har bir tashkilotning asosiy muammosidir.

Respublikamiz barcha sektorlarga AKTga jalb etilgan investitsiyalar hajmi oxirgi yillar mobaynida tahlil qilingan davlat boshqaruvi organlari va korxonalari bo’yicha sof foyda miqdori ortganligi fikrimizning isboti bo’la oladi. Xalqaro tajriba shuni ko’rsatadiki, davlat boshqaruvida AKTni qo’llash uning natijaviy samaradorligini hususan axborotning o’zaro ta’siri, qayta ishlanishi va izlanishini amalga oshirish uchun vatq qisqarishi hisobiga unumdorlikni o’rtacha 20 foizga ko’paytirish imkonini yaratadi. Davlat islohotlarini amalga oshirilishida xo’jalik boshqaruvi hamda hokimiyat organlarida axborot texnologiyalarini faol o’zlashtirish va keng joriy etish ishlari amalga oshirilmoqda.

Ma’lumki hozirgi kunda barcha mobilь aloqa vositasi orqali o’z yumushlarini qisqa vaqtda va quly tarzda amalga oshirishni istaydi. Shunday ekan pochta aloqasi sohasidagi xizmatlarni ham ayni shu talabga munosib tarzda tashkil qilish zarur.

Pochta aloqasining Elektron tijorat bozoridagi faoliyatni kengaytirish borasida amalga oshirilishi zarur bo’lgan ishlar quyidagilar hisoblanadi:

- mahalliy ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlarini onlayn sotish va mijozlarga yetkazib berish, shuningdek, ularning tovarlarni eksport qilish imkoniyatini beruvchi tizimni yaratish;
- milliy onlayn savdo maydonchasiga tadbirkorlarning ishlab chiqqan mahsulotlarini joylashtirish bo’yicha tadbirkorlar bilan shartnomalar tuzish;
- internet-tijorat sohasini rivojlantirish maqsadida kompleks tizimni joriy etish;
- internet-savdo maydonchalari egalariga o’z mahsulotlarini saqlash, ya’ni omborxona muammosini hal etish hamda internet-savdo maydoncha orqali xarid qilingan mahsulotlarni shu yerning o’zida tez fursatlarda qadoqlanib, mijozlarga yetkazib berish imkoniyatini beradigan logistika markazlarini tashkil etish.

Yuqoridagi ishlarni amalga oshirish orqali pochta aloqasidagi internet tijoratini samaradorligini oshirishga erishish mumkin bo’ladi.

Bundan tashqari zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish asosida mijozlarga sifatli xizmat ko’rsatishni tashkil etish borasida quyidagilarni amalga oshirish lozim.

Jumladan:

- pochta aloqasi obektlarida internet muammosini hal qilish va zamonaviy kompyuter texnikasi hamda mobil qurilmalar bilan ta’minlash;
- pochta jo’natmalarini qabul qilish, saralash va onlayn kuzatish imkonini beruvchi avtomatlashgan axborot tizimini joriy etish;
- pochta aloqasi obektlarida ma’lumotlar uzatish tezligini oshirish;
- xorijiy davlatlarning pochta operatorlari faoliyatini o’rganish va ―O’zbekiston pochtasiga‖ joriy etish hamda jo’natmalar almashinuvi bo’yicha hamkorlikni amalga oshirish;

- xorijiy davlatlarning tayinlangan pochta operatorlari bilan yangi texnologiyalarni ishlatish sohasida tajriba almashish va hamkorlikni rivojlantirish;
- axborot kommunikatsiya texnologiyalari negizida xizmat ko’rsatuvchi xodimlar uchun o’qish va malaka oshirish kurslarini tashkil etish;
- elektron tijorat va logistika masalalari bo’yicha xorijiy ilg’or tajribalarni o’rganish asosida pochta aloqasi korxonalari rahbarlari va mutaxassislari uchun seminar, davra suhbatlari tashkil etish;
- onlayn savdo maydonchasida tadbirkorlar va hunarmandlarning mahsulotlari to’g’risidagi ma’lumotlarni joylashtirish;
- internet-do’konlar uchun tovarlarni saqlash va yetkazib berishni o’z ichiga olgan logistika markazini tashkil etish;
- mahalliy va xorijiy internet-do’konlari bilan hamkorlikni yo’lga qo’yish;
- pochta aloqasi xizmatlarini ko’rsatishni aholiga yanada yaqinlashtirish maqsadida Mobil aloqa bo’limlarini tashkil etish.

Yuqorida ta’kidlangan masalalr pochta aloqasida amalga oshirilishi lozim bo’lgan zarur masalalar hisoblanadi. Pochta aloqasining kelajagi va moliyaviy barqarorligini ta’minlash maqsadida bu masalalrni amalga oshirish dolzarbdir.

―O’zbekiston pochtasi‖ AJ 2020 yilda dunyo mamlakatlarining 100 dan ortiq davlatlar bilan xalqaro pochta almashuvi amalga oshirib, eng ko’p xajmdagi pochta almashuvi Rossiya, Ukraina, AQSh, Germaniya va Birlashgan Arab Amirliklari davlatlari o’rtasida amalga oshirilgan[6].

Pochta aloqa korxonalari iste’molchilarga - aholi va xalq xo’jaligiga ikki yuzdan ortiq turli pochta aloqa xizmatlarini ko’rsatadi (shaharlararo va xalqaro xat junatish, yetkazib berish. qabul qilish, posilkalar, bandirollar, telefon so’zlashuvlar, telegrammalarni qabul qilish va yetkazib berish, va boshqalar).

Pochta xizmatlarini ko’rsatishda aloqa bo’limlarining ish vaqtlari hamda xaridorlar bilan ishlashning vaqti, boshlanishi va oxiri Aksionerlik Jamiyati tomonidan hokimiyatlar bilan kelishilgan xolda belgilanadi. Pochta qutisi aholiga qulaylik yaratish uchun xoxlagan vaqtda oddiy xat va pochta qartochkalarini shahar, temir yo’l, aeroport va boshqa aholi punktlaridan yubora olishlari uchun qo’yiladi. Xar bir pochta qutisida uning nomeri, kunda necha marta korrespondensiyaning olinishi hamda qaysi kuni olinmasligi ko’rsatiladi. Bu boradagi ishlarni amalga oshirishda mijozlar talabidan kelib chiqqan xolda ish yuritish maqsadga muvoqdir.

Avtomatlashtirilgan tizim WEB texnologiyasi negizida markazlashgan ma’lumotlar bazasini yuritish va dasturiy ta’minotni boshkarish imkoniyatlariga ega ―nozik mijoz tizimi‖ asosida yaratilgan. Avtomatlashtilgan tizimning Butunjahon pochta ittifoqining halqaro elektron pul o’tkazmalari «IFS light» tizimiga ulangan, bu esa pochta aloqasiga katta imkoniyatlar eshigini ochib beradi.

Ushbu tizim yordamida mahalliy va halqaro pul o’tkazmalarini amalga oshirish imkoniyati yaratiladi. Bu esa pul o’tkazmalari xizmati samaradorligini oshirishga hamda yangi zamonaviy axborot texnologiyalari asosida xizmatlar ko’rsatish uchun zamin yaratadi.

―Elektron pul o’tkazmalari‖ tizimining ishga tushirilishi bilan pochta pul o’tkazmalari texnologik jarayoni to’liq avtomatlashtirildi. Bunda mijozdan pul o’tkazmasi qabul qilingan

vaqtdan to to'lov berilgunga qadar bo'lgan jarayon avtomatlashtirilgan. Pochta xizmati bozorida raqobatbardoshlikni oshirish maqsadida elektron pul o'tkazmalarining avtomatlashtirilgan axborot tizimini amalga joriy etish bo'yicha dastur ishlab chiqilgan bo'lib, hozirgi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va yangi texnologiyalarni joriy qilish asosida ushbu dasturni takomillashtirish zarur.

O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi O'zbekiston Respublikasining axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasidagi boshqa mamlakatlar hamda sohaning xalqaro tashkilotlari bilan ikkitomonlama hamkorligini amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Butunjahon pochta ittifoqiga a'zo bo'lish orqali quyidagi imkoniyatlarga ega bo'ldi:

Butunjahon pochta konvensiyasi va qo'shimcha kelishuvlar yordamida yagona shakldagi xalqaro pochta aloqalarini yo'lga qo'yish va xalqaro pochta almashinuvlarida ishtirok etish;

Ittifoqq a'zo -davlatlar bilan pochta sohasidagi hamkorlikni tashkil etish.

Bu ishlarni sifatli amalga oshirish uchun pochta aloqasiga zarur bo'lgan narsa bu zamon talablariga moslashish va ilg'or texnologiyalar bilan integrallashish hisoblanadi.

Xorijiy mamlakatlar bilan ikki tomonlama hamkorlik. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi soha doirasida Koreya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Yaponiya, Hindiston, Singapur, Malayziya, Germaniya, Shveysariya, AQSh va boshqa ko'plab sohada ilg'or natijalarga erishayotgan mamlakatlar bilan o'zaro mustahkam aloqalarni yo'lga qo'ygan. MDHga a'zo mamlakatlar o'rtasida tashkil etilgan Aloqa sohasida hududiy hamkorlik doirasida ham soha yuzasidan samarali hamkorlik o'rnatilgan.

Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya sohasidagi xalqaro bitimlar, kelishuvlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlar o'rnatilgani xalqaro hamkorlikning asosi hisoblanadi. Texnik jihatdan korxonalarning rivojlanishi, ularni boshqarish usullarini takomillashtirishga bevosita bog'liq bo'ladi. Shu bilan birga, u yoki bu viloyatlarda nafaqat aholining to'lov qobiliyati, balki ijtimoiy an'analari, yashash muhitining o'ziga xos xususiyatlari hisobga olinishi lozim bo'ladi.

Pochta aloqa sohasiga yangi hizmatlarni joriy etishda xorij tajribasidan foydalanish, rivojlangan mamlakatlar tutgan yo'ldan yurish aloqa sohasini rivojlantirishning eng samarali yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Misol tariqasida ―Rossiya pochtasi‖ni olsak. Rossiya pochtasi keng qamrovli va juda ham rivojlvngvn soha hisoblanib aholining barcha qatlamlariga hizmat ko'rsatishni amalga oshiradi. Rossiya pochtasini o'zida ―pochtamarket‖ online tizimi joriy etilgan bo'lib mijozlarga bir qator hizmat turlarini taqdim etadi.

Rossiya pochtasida online tarzda gazeta va jurnallarga obuna bo'lish tizimi ham joriy etilgan bo'lib mijozlor uylarida yoki ish joylorida turib gazeta va jurnallarga obuna bo'lishi yoki buyurtma qilish imkonini yaratib beradi.

Rossiya pochtasining ―Pochtamarket‖ xizmati va online obuna kabi xizmatlarini ―O'zbekiston pochtasi‖ AJ da ham tadbiq etish pochta aloqasi xizmatining mijozlari safini ortishiga va daromad ko'lamini kengayishiga olib keladi.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida mijozlarga xizmat ko'rsatishning yangi turlari joriy etilishi pochta aloqasi sohasining kelajakdagi istiqbolini ta'minlab beradi.

O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi pochta aloqasi operatorlari va provayderlarining Yagona reestrini shakllantirish va yuritish uchun mas'ul organ hisoblanadi. Shuning uchun ham pochta aloqasi taqdiri va kelajakdagi faoliyati ushbu vazirlik qo'lidadir.

Yagona reestrni yuritish elektron shaklda on-line rejimida amalga oshiriladi, pochta va kurьerlik jo'natmalarini jo'natish va yetkazib berish faoliyatini amalga oshiruvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar Yagona reestrga kiritilgan kundan boshlab o'rnatilgan tartibda pochta aloqasi operatori yoki provayderi maqomiga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasiga xalqaro pochta va kurьerlik jo'natmalari orqali kirib kelayotgan tovarlar uchun bojxona to'lovlari bo'yicha qonun hujjatlarida belgilangan imtiyozlar faqat Yagona reestrga kiritilgan operator va provayderlarga qo'llaniladi.

Pochta aloqasi operatorlari va provayderlarining Yagona reestri axborot tizimini yaratish va tatbiq etish xarajatlari Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'laridan moliyalashtiriladi.

Pochta aloqasi operatorlari va provayderlarining Yagona reestrini shakllantirish va yuritish tartibi to'g'risidagi nizomga ko'ra, pochta aloqasi operatorlari va provayderlarining Yagona reestrini yuritishning asosiy vazifalari va yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

pochta va kurьerlik xizmatlarini ko'rsatuvchi pochta aloqasi operatorlari va provayderlari to'g'risidagi yagona elektron ma'lumotlar bankini yaratish;

O'zbekiston Respublikasida pochta aloqasi xizmatlari bozorining holati va salohiyati to'g'risida ma'lumotlar bazasini shakllantirish;

pochta aloqasi xizmatlari bozorini samarali rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash, shuningdek amaldagi qonunchilikning holatini baholash va takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

sohada normativ-huquqiy hujjatlar va pochta xavfsizligi talablari bajarilishini ta'minlash bo'yicha tizimli monitoring olib borish;

pochta aloqasi xizmatlari ko'rsatishni rivojlantirish va sifatli hamda raqobatbardosh xizmatlar ko'rsatilishida ko'maklashish.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida mijozlarga xizmat ko'rsatishning yangi turlari joriy etilishi pochta aloqasi sohasining kelajakdagi istiqbolini ta'minlab beradi.

Yevropa davlvtlari orasida pochta xizmatini nufuzi va mijozlarga xizmat ko'rsatish darajasi bo'yicha yetakchi hisoblangan ―Italiya pochtasi (Poste Italiane)‖ tajribalaridan foydalanib pochta xizmatini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Poste Italiane kompaniyalar guruhi to'rt biznes-yo'nalish: Pochta xizmatlari, Pochta banki, Ekspress-eltuv va kurerlik xizmatlarini o'zida birlashtirgan.

Bundan tashqari pochta alqa sohasida ―axborot kommunikatsiya tehnolgoiyalari‖ni rivojlantirish bilan bir qatorda kadrlar salohiyatini oshirish kabi masalalarga ham jiddiy e'tibor qaratish lozim deb hisoblayman. Chunki har qancha ilg'or tehnologiya bilan ta'minlangan

korhona bo'lmasin ishchilar mavjud texnologiyalardan yetarlicha foydalana olmasa yaratilgan imkoniyatlar o'z natijasini bermaydi.

Bu masalani amalga oshirish uchun keng ko'lamli rejalar ishlab chiqilishi kerak. Misol uchun ―O'zbekiston pochtasi‖ AJning xududiy filliallarida kadirlar malakasini oshirish maqsadida o'quv kurslari ochilishi va grafik asosida xodimlarning o'qitish ishlari olib borilishi kerak. Malakalarini oshirish masalasi ham dolzarb ahamiyatga egadir.

## IQTIBOSLAR:

**1.** O'zbekiston Respublikasini «Pochta aloqasi to'g'risidagi» Qonuni. Toshkent shahri, 2009 yil 22 aprel O'RQ № 211-son.

**2.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ―Pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida‖gi Qonuni. Toshkent shahri, 2020 yil 14 dekabr PQ № 4921-son.

**3.** O'zbekiston Respublikasining ―Axborotlashtirish to'g'risida‖gi Qonuni. Toshkent shahri, 2003 yil 11 dekabrь, O'RQ № 563-11 son.

**4.** O'zbekiston Respublikasining «Elektron raqamli imzo to'g'risida»gi Qonuni. Toshkent shahri, 2003 yil 11 dekabrь, O'RQ № 562-II son.

**5.** O'zbekiston Respublikasining «Axborot erkinligi printsiplari va kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni Toshkent shahri, 2002 yil 12 dekabrь, O'RQ № 439-II son.

**6.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kompьyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori. Toshkent shahri, 2002 yil 6 iyunь № 200-son.

**7.** O'zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan taqdim qilingan ma'lumotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

# USTOZ

**Eshonqulova Malika Zayniddin qizi**
*Buxoro davlat universiteti*
*Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi magistranti ,*
*Buxoro viloyati Buxoro tumani 35-umumta'lim maktab o'qituvchisi*

Ustoz-bu besh tovushdan iborat bo'lgan so'z bo'lsa-da, uning negizida osmonlar qadar ma'lumotlar jo bo'lgan. Ustozlar bamisoli shamga qiyos etiladi. Yongani sayin atrofni yoritadi, boshqalarga nur bag'ishlaydi. Ammo, kun sayin yurug'lik beradigan shamning umri xohlaydimi, yo'qmi kamayib boraveradi. Bir narsani unutmaslik kerakki, sham tugab bitgunga qadar bir xil nur sochadi.Uning maqsadi bitta, bu ham bo'lsa atrofdagilar yo'lini yoritish. Tarixda ancha allomalarimiz yetishganini bot-bot takrorlaymiz-u ularning shu darajaga yetganligida kimning mehnati,hissasi borligini doim ham eslayvermaymiz."Navoiy-ku bizga ustozdir biroq, Kimdir o'qitganku Navoiyni ham. Shunday buyuk zotga harf o'rgatgan kim? Oddiy muallim-da oddiy muallim" deya Muhammad Yusuf ham shu fikrni bildirganlar. Dunyo tamadduniga ustun bo'lib, qariyb 6 asr davomida dunyo adabiyotining sultoni hisoblanib kelayotgan Alisher Navoiy ham, - ―Haq yo'lida harf o'rgatgan ustoz oldidagi qarzni yuz ming oltinlar bilan ham uzib bo'lmasligini, ustozlar mehnati benazir‖ ekanligini aytib o'tganlar.

Ustoz so'zini men quyidagicha tahlil qilgan bo'lar edim:

U-ummon qadar mehr sohibi

S-sabr qanoat ramzi

T-toshdek metin iroda egasi

O-ona(ota)

Z-zamon qahramoni.

Prezidentimiz bejizga ustozlarning mehnatini, ularning jamiyatdagi o'rnini ko'klarga ko'tarmayaptilar. Boisi shuki, kelajak yoshlarniki, vatan ravnaqi yoshlar qo'lida. Bu yoshlarni tarbiya qiluvchilar esa shubhasiz ustozdir. Ajdodlarga munosib avlodlarni yetkazish bu beixtiyor ustoz zimmasiga ortilgan burchdir. Har birimiz ilk maktabga qadam qo'yganimizda 1-ustoz bizga bamisoli dunyo donishmandidek, bilim manbai bo'lib ko'ringan, go'yo bu insonda tuganmas bitmas bilimlar bazasi bordek... Aslida ham shunday ustozlarimiz bor. Ularning so'zlari takrorlanmas, ular shunday insonlarki, jim turib ham, ko'zlar orqali fikrlarini o'quvchiga yetkaza oladilar. Dunyoni o'rganishga, bilim olishga, intilish,izlanishga undaydilar. Ustoz shunday bir kasb egasiki, u turli xil oila farzandlaridan yangi oilani tuzadi va unga bosh bo'ladi. Ustoz shunday psixologki, qaysi o'quvchida nima muammo borligini, uni qanday yechishni biladi. Ustoz shunday sehrgarki, Mashrabni- mashhur-u dunyolar, Husaynni- Ibn Sinolarga aylantiradi.

Dunyoda kasblar xilma-xil biroq, qaysi birini o'rganmoqchi bo'lsak ham shu kasbning ustozidan ilm olmoq kerak. Haqiqiy ishining ustasidangina mohir shogirdlar yetishib chiqadi. Ustozning ta'limini, tarbiyasini olgan kishi kam bo'lmaydi. Ustoz bor kuchi, mehr-muhabbati, kezi kelganda jahli bilan bo'lsa-da shogirdining yurtga kerakli inson bo'lishi uchun harakat qiladi.

Insoniyat hayotga kelar ekan, o‘z oldiga ―Yashashdan maqsadim..‖ deya boshlanuvchi iborani ko‘p bor qo‘yadi. Barchamizning eng ulug‘, mushtarak maqsadimiz borki, bu: O‘zimizdan yaxshi nom qoldirishdir. Asrlar davomida ezgu ishlarimiz orqali yod olinishni kim ham istamaydi deysiz!. Bu natijaga erishish albatta oson emas. Biroq, yetuk ustozlardan ta‘lim-tarbiya oladigan inson oilasida ham shu singari davomiy ta‘lim – tarbiyani olsagina bu martabaga erishadi. Ustozlarning maqsadlari esa, har bir shogirdi o‘zidan ezgu nom qoldirishidir. O‘quvchining bilmagan narsalarini o‘rgatish, bilganlarini boyitish uchun ustoz doim izlanishda. Har bir kuni o‘zgacha bir imtihon. Har kuni o‘ziga beradigan savoli bugun shogirdimga nimani o‘rgata olaman?, bundan u hayotda qanday foydalanadi? Biz millatimizdagi barcha ustozlarimizning shunday savollar bilan yashayotganligiga ishonchimiz komil bo‘lsa, bu millat albatta yuksaklikka erishadi. Yangi O‘zbekistonni yangicha qurish uchun bu yetakchi omil bo‘la oladi.

Biz bu natijalarga erishishimiz uchun ustozlarga bo‘lgan e‘tibor va rag‘batni oshirishimiz zarur. Shundagini eng bilimli o‘quvchilar chet ellarning oliygohlarida emas, aynan pedagogika sohasida ilm olish uchun harakat qilar edilar.

Nega endi iqtisod, moliya yoki shunga o‘xshagan yo‘nalishlarning kirish reyting balli pedagogika yo‘nalishlaridagi ballardan ancha yuqori? Negaki bu sohalarda mablag‘ topish yo‘llari ko‘p. Yoyinki, chet davlatlarda pedagogika yo‘nalishida ish olib borayotganlar kammi? Hamma narsa xohlaymizmi yoki yo‘q mablag‘ga, rag‘batga taqaladi. Prezidentimiz o‘qituvchilarni qo‘llab quvvatlayaptilar bu ayni haqiqat. Ammo, jamiyatda o‘qituvchining yanada o‘rnini mustahkamlash uchun ko‘proq amaliy chora-tadbirlar lozim. Masalan:

a) Respublika (viloyat, tuman,shahar, qishloq)da fan o‘qituvchining reyting o‘rnini joriy etish va g‘olib o‘rinlar uchun turli mukofot va ko‘krak nishonlari tasis etish;

b) chet ellarda malaka oshirishni ofline yoki online shaklda barcha maktablarda joriy etish;

d) jonkuyar ustozlarning mehnatlarini inobatga olgan holda nafaqa yoshlarini asosli o‘zgartirish;

e) yosh o‘qituvchilar uchun (toifa olmagan) turli tanlovlar va ularning g‘oliblari uchun qandaydir imtiyozlar joriy etish;

f) o‘qituvchilar uchun kasbiy sug‘urtalar joriy etish;

va boshqalar.

Shifokorlar aynan qaysidir bir kasallikka qarshi kurashsalar, o‘qituvchilar xalqning kelajagi uchun, millatning halokatga yuz tutmasligi uchun, butun jamiyat ruhini ―kasalliklar‖dan holi tarbiyalash uchun kurashadilar!

# THE IMPORTANCE OF USING SYNONYMS IN SPEECH IN ENGLISH LANGUAGE

**Allabergenova Intizor Kadamovna**
*English teacher, Creative school named after Ogahiy under the agency of presidential educational institutions*

**Abstract:** *This article provides detailed information on synonyms, its types, uses and other similar topics.*

**Key-words:** *Synonyms, Topics, Language, Diversify Speech, Presentation, Repetition, Lexical.*

The phenomenon of linguistic units having the same meaning is called synonymy. The unit of synonymy is a word that has a common meaning. The synonym is derived from a Greek word meaning "one name". Synonyms are divided into lexical, phraseological, and syntactic synonyms, depending on the language unit.

Synonyms are also widely used in Uzbek. A group of words that are synonymous with each other is called a series of synonyms. One of the synonyms is the keyword. The keyword is popular with its synonyms and is important. It is also distinguished by its belonging to modern literary language, emotional color, stylistic neutrality, and similar features

This is especially true in English. The meanings of the word Beautiful are pretty, adorable, prepossessing, nice, attractive, lovely, pleasant, handsome, gorgeous, and so on.Although there are many words that have the same meaning, the words beautiful and beautiful are widely used in both languages. And because they're the key word, they're important. Also, these words are used differently in different areas. We can take women and men as examples.

| Fan_ kodi_yo'nalishi<br>O'qituvchi_kodi<br>Ilmiy_yo‘nalish | Ilmiy yo'nalishlar | O'qituvchilarning ilmiy yo'nalishlari |
| O‗qituvchi_kodi<br>Familiya Ism Otasini ismi | O'qituvchilar | O'qituvchi ma'lumotlari |

| | | |
|---|---|---|
| Tug'ilgan kun<br>Ish_kodi<br>Daraja_kodi<br>Xodim / mustaqil izlanuvchi<br>Ishga qabul qilingan yili<br>Manzili<br>Mobil_telefoni<br>Pasport_ma'lumotlari | | |
| O_qituvchi_kodi<br>Mavzu<br>Kasb_turi_kodi | Fanlarni taqsimlash | O'qituvchilar o'rtasida fan-larni taqsim-lash |
| FISh_Xodimning lavozimi<br>Ishga qabul qilingan yili<br>Manzil<br>Telefon | Kafedra_xodimlari | Xodimlar haqidagi ma'lumotlar |
| Semestr_kodi<br>T / C | Semestr_ma'lumoti | Semestr ma'lumotnomasi |
| Kod<br>Maxsus_kod / Yo'nalish<br>Mutaxassislik / Yo'nalish | Mutaxassislik_ma'lumoti | Mutaxassisliklar bo'yicha ma'lumotnoma |
| Yil_kodi<br>O‘quv_yili | O‘quv yili | O‘quv yili |
| Kod<br>Semestr_kodi<br>Kurs<br>Mut/yo_n kodi<br>Fan_kodi<br>Nazorat_shakli_kodi | O'quv rejasi | o'quv dasturi |
| Darajali_o_qituvchi_kodi<br>Ilmiy_daraja | Ilmiy_daraja | Ilmiy daraja |
| Ta‘lim_kodi<br>O'qituvchi<br>Fan<br>Guruh<br>Bir hafta<br>Hafta kuni<br>Bir para dars<br>Auditoriya<br>Dars turi | Ta'lim jadvali | Kafedra professor-o_qituvchilari ish jadvali |
| Fanlar_kodi<br>Fanlar | Fanlar | Fanlarning qisqa va to'liq nomlari |

| | | |
|---|---|---|
| Fan | | |
| Guruh_kodi<br>Guruh | Guruhlar | Fakultet guruhlari ro_yxati |
| Kod<br>Hafta | Hafta turi | Juft / toq hafta |
| Kun raqami<br>Hafta kuni | Hafta kunlari | Hafta kunlarining nomi |
| Bir para dars raqami<br>Vaqt | Paralar soni | Dars vaqti |
| Kod<br>Auditoriya | Auditoriyalar | Kafedra auditoriyalari ro'yxati |
| Kasb_kodi<br>Kasb turi | Kasb turi | Kasbning tabiati |

Ishlab chiqilgan infologik model asosida kerakli ma'lumotlarni saqlash uchun bir qancha jadvallar yaratildi va ular bilan ma'lumotlar yaxlitligi o'rtasi-dagi aloqani ta'minlovchi ma'lumotlar sxemasi qurildi.

Ma'lumotlarning ortiqcha va takrorlanishini bartaraf etish uchun "Kafedra" ma'lumotlar bazasi uchinchi normal shaklga keltirildi.

Foydalanuvchiga qulaylik yaratish maqsadida ma’lumotlar bazasi ochil-ganda ekranda paydo bo‘ladigan –Kafedra MB‖ tugma shakli yaratilgan.

–Kafedra MB‖ shaklida keyingi ish rejasini tanlashingiz mumkin bo'lgan tugmalar mavjud. "Hisobotlar" tugmasi - hisobotlarni ko'rish va chop etish uchun. "O'qituvchilar" tugmasi - o'qituvchilar haqidagi ma'lumotlarni tahrirlash va chop etish uchun. "Ma'lumotnomalar" tugmasi - mutaxassisliklar, fanlarni tahrirlash uchun.

"Ta'lim" tugmasi - jadvalni tahrirlash va chop etish uchun. Chiqish tugmasi tugma shaklini yopish uchun ishlatiladi.




1- rasm.Kafedra MB shakli tugmasi

–Hisobotlar‖ tugmasi formasi quyidagi hisobotlarga kirish imkonini beradi: –O_qituvchilar‖ (–O_qituvchilar‖ tugmasi), –O_qituvchilarning aloqa ma‘lumotlari‖ (–O_qituvchilarning kontaktlari‖ tugmasi), –Jadval‖ (–Jadval‖ tugmasi), –Mutaxassislik fan‖ (—Mutaxassislik fanlari‖ tugmasi), –O_quv rejasi‖ (—O_quv rejasi‖ tugmasi), –O_qituvchilarning

ilmiy ishi‖ (―Ilmiy ish‖ tugmasi), shuningdek ‑Nazoratchilar‖ (―Yakuniy ish‖ tugmasi) sizga ruxsat beradi. Asosiy shaklga qaytish uchun " Kafedra "("Ortga qaytish" tugmasi).




2- rasm ‑Hisobotlar‖ shakl tugmasi

| id_ | O'qituvchi ismi | Tamomlagan OTM | Ma'lumoti bo'yicha mutaxasislig | Ilmiy darajasi va unvoni | Pedagogik staji |
|---|---|---|---|---|---|
| 2 | Jumanov Isroil Ibragimovich | Penza politexnika instituti | Pribortsozlik | texnika fanlari doktori,professor | 35 |
| 3 | Djumanov Olimjon Isroilovich | Samarqand davlat universiteti | Amaliy matematika va informatika | texnika fanlari nomzodi,dotsent | 13 |
| 4 | Aminov Istam Barnoyevich | Samarqand davlat universiteti | Amaliy matematika | fizika-matematika fanlari nomzodi,dotsent | 31 |
| 5 | Abdullayev Abubakr Narzullayevich | Samarqand davlat universiteti | Matematika | texnika fanlari nomzodi,dotsent | 19 |
| 6 | Nazarov Fayzullo Maxmadiyarovich | Samarqand davlat universiteti | Amaliy matematika va informatika | texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD) | 6 |

3- rasm .‖O‘qituvchilar ‑hisoboti

| id | O'qituvchi ismi | Tug'ilgan oyi | | Ilmiy ish mavzusi | Ilmiy ish mavzu |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Jumanov Isroil Ibragimovich | 30.05.1941 | Razrabotka teorii, issledovanie i prakticheskoe primenenie metodov kontrolya i formirovaniya inforr | 1988 |
| 2 | Djumanov Olimjon Isroilovic | 09.07.1971 | Mikroob'ektlar tasvirlarini vizuallashtirish, tanish, sinflashtirish va qayta ishlash tizimlarini yaratish u | 2011 |
| 3 | Aminov Istam Barnoevich | 05.07.1961 | Razrabotka programmnogoobespecheniya nekotorыx razdelov teoriya veroyatnosti | 1991 |
| 4 | Abdullaev Abubakr Narzullae | 06.10.1973 | Adaptivnыe metodы kontrolya tochnosti informatsii v sistemax obrabotki dannыx nestatsionarnoy p | 1990 |
| 5 | Nazarov Fayzullo Maxmadiya | 18.08.1990 | Nostatsionar tizimlarni tashkiliy boshqarishda taqsimlangan reestr mexanizmlari asosida ma'lumotlar | 2021 |

4- rasm. ‑Ilmiy ishlar‖ hisoboti

"O'qituvchilar" tugmasi shakli "O'qituvchilar" ("O'qituvchilar" tugmasi), "Bog_lanish_ma‘l_o_qit" ("O'qituvchilarning aloqalari" tugmasi), o'qituvchilar yuklamasini ("O'qituvchilarning yuklamasi" tugmasi) yoki o'zgartirish shakllariga o'tish imkonini beradi. Asosiy shaklga qaytish "Bo'lim" ( Ortga qaytish tugmasi).




5- rasm. ‑O_qituvchilar‖ shakli tugmasi

## ADABIYOTLAR:

1.Xusainov I.G Korxonaning apparat qurilmalaridan ma'lumotlar bazasiga kiruvchi ma'lumotlar sifatini aniqlash uchun axborot tizimi.Novalnfo.ru (Elektron jurnal)-2016 yil.51-son.

2.SQL/XML.-ISO/IEC 9075-14:2003,Information Technology:Database languages: SQL.Part 14:XML-Related Specifications (SQL/XML)||(2004)

3.U.Malik,M.Goldwasser,B.Johnston.SQL for Data Analytics Packt-2019.386 p

4. Gurvits, GA Microsoft Access 2010. Haqiqiy misolda ilovalarni ishlab chiqish - BHV-Peterburg, 2010.

5. Malykhina, MP Ma'lumotlar bazalari: asoslar, dizayn, foydalanish: universitet talabalari uchun o'quv qo'llanma. - 2-nashr. - SPb .: BHV-Peterburg, 2007 yil.

6.Xomonenko, AD Ma'lumotlar bazalari: universitetlar uchun darslik. - 5-nashr, Qo'shish. - M .: SPb .: Binom-Press: KORONA bosma, 2006 yil.

8.―Ta'limning yangi axborot texnologiyalari‖. YuNESKO Ta'limda axborot texnologiyalari instituti. Moskva. 2000.

# ERKIN KURASHCHILARNING MAXSUS TAYYORLOV TEXNIK MAHORATINI OSHIRISH USULLARI

**Berdiyev Farxod Ochilovich**
*O‗zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti*
*Xalqaro kurash turlari nazariyasi va uslubiyati kafedrasi o‗qituvchisi.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada O‘zbekiston milliy sport turlaridan biri bo‘lgan erkin kurash qoidalari, turlari va erkin kurashchilarning texnik mahoratini oshiriruvchi usullar keltirib o‘tilgan.*

**Kalit so‗zlar:** *erkin kurash, texnik mahorat, usul, himoyalanish, raqib, hujum.*

Erkin kurash texnikasi —bu bellashuvni muvaffaqiyatli olib borish uchun kurashchiga zarur bo‗lgan maxsus usullar majmuasi.

Usullar — bu maqsadga yo‗naltirilgan hujum harakatlari bo‗lib, ular yordamida kurashchi raqibidan ustunlikka erishadi. Har bir usul ikki qismdan iborat. Birinchi qism usul qo‗llash uchun ushlab olish. Ushlab olishlar yuqoridan, pastdan, orqadan, oldindan, yon tomondan va boshqalarga ushlab olishlarga bo‗linadi. Ushlash usulni muvaffaqiyatli bajarishda katta ahamiyatga ega. Butun usullarni bajarish sifati ushlab olishning qay darajada oqilona amalga oshirilganligiga bog'liq. Ikkinchi qismda turli xildagi harakatlar: tik turishda - o‗tkazishlar(parterga), tashlashlar(tik turishda, parterda) bo‗lishi mumkin.

Erkin kurashchi tayyorgarligi — sportchi mashg'ulotini qamrab oluvchi, ko'p omilli jarayon bo‗lib, musobaqalarga tayyorlanish va qatnashish, mashg‗ulot jarayonini va musobaqani tashkil qilish, mashg‗ulot va musobaqani ilmiy - uslubiy va texnik tomonidan tayyorlash; kerakli shart-sharoitni, sport mashg'ulotlarini o‗qish va dam olish bilan qo‗shib olib borishini hisobga oladi.

Erkin kurashda usullarni amalga oshirish paytida bir vaqtning o‗zida oyoqlar bilan turli harakatlar Siam bajariladi, ya‘ni bular — chalishlar, qoqishlar, oldindan ilib otishlar, chirmashlar, orqadan olib otishlar. Bu harakatlaming ko‗pchiligi orqadan, oldindan, yondan, ichkaridan, tashqaridan bajarilishi mumkin.

Bir xildagi ushlash bilan bir qator harakatlarni bajarish mumkin va, aksincha, bir xil harakatning o‗zi turli ushlashlar bilan bajarilishi mumkin. Masalan, qo‗ldan va gavdadan ushlab tashlashni, zarba bilan ag‗darishni amalga oshirish mumkin. Lekin raqibni egilib qo‗l, gavda, qo‗l va bo‗yindan ushlab tashlash ham mumkin.

Erkin kurashchi har qanday usulni hujum va qarshi hujum uchun qo‗llashi mumkin. usul yoki uning bir qismini aldamchi harakat sifatida qo‗llab, kurashchi haqiqiy niyatidan raqib diqqatini chalg‗itish va boshqa usul bilan hujumni amalga oshirish uchun qulay sharoitlarni tayyorlashi mumkin.

Qarshi usullar — bu raqib hujumiga javob tariqasida bajariladigan maqsadli harakatlar bo‗lib, ular yordamida kurashchi raqibi ustidan ustunlikka erishadi.

Qarshi usullar murakkab texnik harakatlarga kiradi. Qarshi hujum uyushtirayotgan kupashchi bir zumda to‗g‗ri qaror chiqarishi va raqibi usulni amalga oshirishga ulgurmasligi uchun o‗z harakatlarini hujum qilayotgan raqib harakatlari bilan aniq moslashtirishi lozim.

Himoyalanishlar — bu raqibning usullarini (qarshi usullarni) bajarishiga to_sqinlik qiluvchi maqsadli harakatlardir.

Himoyalanishlar dastlabki va bevosita himoyalanishlarga ajratiladi. Dastlabki himoyalanish oldindan, ya‘ni raqib usulni amalga oshirishdan avval bajariladi. Bevosita himoyalanish raqib hujumini to_xtatishga qaratilgan. Bunday himoyalanish samaradorligi uning o_z vaqtida bajarilishiga bog_liq. Bevosita himoyalanish usul boshida, usulni bajarish davomida yoki usulni bajarish oxirida amalga oshirilishi mumkin. Hamma texnik harakatlar kurashchilar tomonidan turli holatlardan turib bajariladi. Asosiy holatlar quyidagilar: tik turish, parter va ko_prik.

Tik turish — bu kurashchining holati bo_lib, unda u oyoqlarda tik turadi. o_ng, chap va yalpi tik turishlar ajratiladi. Ularning har biri, o_z navbatida, baland, o_rta va past bo_lishi mumkin. Tik turishda kurashish yaqin, o_rta va uzoq masofalarda olib borilishi mumkin. Qanday holatda turish kurashchinig taktikasiga bog_liq.

Ko_prik — bu kurashchining quyidagi holati bo_lib, ya‘ni bunda u, orqaga egilib, oyoq kaftlari (ular taxminan yelka kengligida yozilgan) va bosh (istagan qismi) bilan gilamga tayanadi. Bu holatda kurashchining egiluvchanligi yaxshi bo_lishi kerak.

Kurashchi ushbu holatga kuragini gilamga tekkizmaslik uchun o_tadi.

Kurashda ko_prik bir holatda qator hujum hamda qarshi hujum harakatlarini bajarishda asosiy elementlardan biri hisoblanadi. Kurashchining texnik harakatlari zaxirasi qanchalik boy bo_lsa, ularni qanchalik katta mahorat bilan qo_llay bilsa, uning texnik mahorati shunchalik yuqori bo_ladi.

Erkin kurash texnikasi kurahchi mahoratining asosi hisoblanadi va ko_p jihatdan uning imkoniyatlarini belgilab beradi. Kurashda o_nlab usullar va ularning variantlari mavjud. Biroq bu kurashchi ularning hammasini mukammal bilishi lozim degani emas. Sportchi yanada yangi va yangi usullar, qarshi usullar hamda himoyalanishlarni egallab borishi bilan uning alohida xususiyatlari va odatlariga javob beradigan hamda uning tomonidan muvaffaqiyatli bajariladigan usullarning bir qismi keyinchalik takomillashtirish maqsadida rejaga kiritiladi.

Kurashchining har tomonlama texnik tayyorgarligi — turli sport turlarini rivojlantirishning zamonaviy darajasiga qo_yiladigan muhim talablardan biridir. Mustahkam egallash uchun texnik harakatlarni tanlashda quyidagi qoidalarga amal qilish lozim: - amaldagi musobaqa qoidalarida qaysi biri texnik harakat muvaffaqiyatli hisoblangansa o_sha texnik harakatlami egallash; - texnikaning hamma turlari ichidan sportchining alohida xususityalariga eng yaxshi javob beradigan usullar, qarshi usullar va himoyalanishlarning variantlarini egallash; - asosiy raqobatchilarning mahorati xususiyatlarini hisobga olish va ular bilan kurashishda yaxshi natija beradigan texnik harakatlarni tanlash; - avval o_rganilgan usullar va qarshi usullarni qo_llash imkoniyatini kengaytirish mumkin bo_lgan texnik harakatlarga ko_proq e‘tibor qaratish; - kurashchi zaxirasida mavjud bo_lgan usullar bilan kombinatsiyalar hamda bog'lanishlarda qo_llash mumkin bo_lgan texnik harakatlarni o_rganish; - harakat vazifasini eng oqilona hal etish xususiyatiga ega bo_lgan harakat texnikasiga o_rgatish lozim; bu kelgusida qayta o_rganishdan xolos qiladi; - kerak bo_lmagan harakat lar va ortiqcha mushak zo_riqishini bartaraf etib, texnika asoslari hamda umumiy harakat maromini egallash; - usullarga o_rgatish vaqt oralig_ida jamlangan bo_lishi zarur, chunki mashg'ulot mashg_ulotlari orasidagi uzoq tanaffiislar uning ta‘sirini pasaytiradi. Boshqa tomondan, bitta mashg_ulot darsi davomida

usullarni juda tez-tez takrorlash maqsadga muvofiq emas, chunki yangi koordinatsiyalarni yaratish asab tizimini tez toliqtiradigan qiyinchilikni yengib o_tish bilan bog_liq; - jismoniy shart-sharoitlar yetarlicha bo_lmasligi oqibatida yuzaga keladigan texnik holatlarni oldini olish maqsadida harakatlarning dinamik tavsiflariga mos keladigan yuqori darajadagi maxsus jismoniy tayyorgarlikni tashkil etish lozim. Kurashchining texnik mahoratini oshirish uchun harakatlarni bajarish paytida harakatlanishdagi xatolarni o_z vaqtida aniqlash hamda ularni paydo bo_lish sabablarini belgilash muhim ahamiyatga ega. Bunday xatolarni o_z vaqtida bartaraf etish ko_p jihatdan texnik takomillshtirish jarayoni samaradorligiga sabab bo_ladi. Harakatlarga o_rgatishda yuzaga keladigan hamma harakatlanish xatolari beshta guruhga bo_linadi: harakatlanish yetishmasligi sababli hatolar; o_qitishdagi kamchiliklar sababli xatolar; sharoitlarning g'ayritabiiyligi sababli xatolar hamda kutilmagan xatolar. Shu bilan birga, texnik takomillashtirish jarayonida yuzaga kelgan harakatlanishdagi xatolarni bartaraf etish uchun uslubiy qoidalarni ishlab chiqish zarur.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Бердиев Ф. О. СВЯЗЬ ЭМОЦИЙ С ПСИХИЧЕСКИМ СОСТОЯНИЕМ БОРЦОВ ВЫСОКОЙ КВАЛИФИКАЦИИ //ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ. – 2020. – №. SI-3.
2. Adilov, S. Q., Berdiyev, F. O., Jumaqulov, A. B., & Anarbayev, T. R. (2021). ERKIN KURASHCHILARINI MASHG_ULOT JARAYONLARIDA MODELLASHTIRISHNI ASOSIY TARKIBIY QISMLARINI O_RGANISH. *Academic research in educational sciences*, *2*(4), 1717-1722.
3. Tastanov, N. A. Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati. Darslik. Toshkent-2017, 486.

# FIZIKA FANINI O‘QITISHNING KO‘RGAZMALILIGI

**Kuriyazova Dilfuza Aminovna**
*Xorazm viloyati bog‘ot tumani 8-son maktab fizika fani o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada fizika fanini o‘qitishda ko‘rgazmalilik va uning turlari hamda fizika didaktikasi haqida ma‘lumotlar berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Fizika, o‘qituvchi, o‘quvchi, ko‘rgazmalilik, didaktik, ta‘lim, fan, ijodkorlik, qobiliyat.*

Fizika o‘quv fanidan ta‘lim berishning umumiy o‘rta ta‘lim, akademik litsey, kasb-hunar kollejlarida umumiy ta‘lim predmeti sifatida o‘qitiladigan fizika kursining maqsadi umumiy o‘rta ta‘lim negizida fizikadan fundamental bilim berish, fizik hodisalar va olamning fizik manzarasini ilmiy asosda tushuntirish orqali o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashi va falsafiy mushohada yuritish qobiliyatini rivojlantirish, nazariya va amaliyotning dialektik bog‘liqligini ochib berish, tabiatda va texnikadagi fizik jarayonlarni idrok etish salohiyatlarini oshirish, olgan bilimlarini kundalik hayotiy ehtiyojlarida va xalq xo‘jaligidagi faoliyatlari uchun tayyorlash, ta‘lim olishni davom ettirish uchun zamin yaratishni ta‘minlashdan iborat.

O‘qituvchi fizika darsini tashkil qilishda o‘qitish usulining turli shakllaridan (ma‘ruza, og‘zaki bayon qilish, masalalar yechish, amaliy ish, ko‘rgazmalilik va boshqa shakllardan) foydalanishi mumkin. Shuningdek, darslarni o‘tishda dars berishning turli noan‘anaviy usullaridan bahs-munozara, bayon, boshqotirmalar, elektron qo‘llanmalar va multimediyalardan foydalanish tavsiya etiladi.

Ana shularga tayangan holda o‘qituvchi izlanuvchanlik bilan o‘quvchilarga fanga bo‘lgan ijodiylik hissini uyg‘ota bilishi zarur. Darslarda o‘quvchilarni mustaqil fikrlashlariga turli uslublaridan foydalanib erishishimiz zarur. O‘qituvchi o‘quvchida ‖Menga fizika zarur, uni bilish, hayotda qo‘llashning uddasidan chiqishim kerak‖- degan intilishni uyg‘otsi zarur. Buning uchun dasrga pedagogik texnalogiyalarni qo‘llash yaxshi natija beradi.

Fizika fanining hozirgi yutuqlari, yosh avlodni tayyorlash sifatiga nisbatan xayotning o‘zi qo‘yayotgan talablar, ilg‘or o‘qituvchilar orttirgan katta ijodiy ish tajribasi ana shularning hammasi o‘quv dasturlarini qayta ishlash va yangi darsliklar, ko‘rgazmalar hamda uslubiy qo‘llanmalar yaratish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Ilg‘or fizika o‘qituvchilari o‘qitishning samarali usullarini zo‘r berib izlamoqdalar. Bunday o‘qituvchilar endilikda tayyor uslubiy andoza bilan qanoatlanib qolmaydilar. Ular o‘qitish va tarbiya berish jarayonlarining ilmiy negizlarini kashf etilishiga, fizika darslarining didaktik asoslariga ehtiyoj sezmoqdalar.

Umumiy didaktikaning bir qismi bo‘lgan fizika didaktikasi ham xuddi o‘sha: o‘qitishning ilmiyligi, o‘qitishning tushunarliligi, o‘qitishning tarbiyalovchi tavsifi, o‘qitishning ko‘rgazmaliligi, o‘qitishdagi sistemalilik (o‘qitishning ketma-ketligi), nazariya bilan amaliyotning bog‘liqligi, sinf bilan olib boriladigan jamoa o‘quv sharoitida o‘quvchilar bilan yakka-yakka xolda ishlash nuqtai nazarlarga asoslangan.

O‘z ko‘zi bilan kuzatish, sezgi orqali o‘zlashtirish ta‘limning ko‘rgazmaliligi deyiladi. Kuzatish isbotlab berishning o‘rnini bosa oladi va ushlab ko‘rish orqali o‘zlashtirilgan narsa xotirada ko‘proq saqlanadi. Hammaga ma‘lumki fizika fanining juda ko‘p mavzulari ko‘rgazmali qurollar, fizika asboblari va shu asboblar yordamida tajribalar o‘tkazishdir. Shunday mavzular borki, u mavzular uchun tajribalar qilib bo‘lmaydi. Bu mavzu uchun ko‘rgazmali qurollar tayyorlash kerak. Masalan, ―Atomning tuzilishi, yadro kuchlar‖ mavzusiga, albatta ko‘rgazmali qurollar shishadan diopozitiv va plyonkada rasm chizib ko‘rgazmali qurollar yasaladi. Demak bilim olish kerak bo‘lgan mavzular uchun narsalar, buyumlarning o‘zi mavjud bo‘lmasa, ularning tasviridan foydalanish kerak va shu maqsadda ko‘rgazmali o‘quv qurollarini tayyorlash lozim.

Ta‘lim berishda ko‘rgazmalilikdan foydalanish tufayli bilimlarning ko‘proq ishonchli bo‘lishga va o‘quvchilarga fikrning chuqurroq bo‘lishiga erishiladi. Ko‘rgazmalilik mavzudagi bilimlarni esda saqlashni engillashtiradi. Bolalar o‘rganayotgan fizik asbob va xodisalarni yoki ularning tasvirini bevosita ko‘rishga doimo qiziqqanliklari sababli ko‘rgazmalilik hamda o‘quvchilarda bilimlarni o‘zlashtirishda ularning faolligini oshirishga yordam beradi, bilim olish jarayonida ularning e‘tiborini darsga qaratadi.

Ko‘p yillik tajribadan shular ma‘lum bo‘ldiki, o‘rganilayotgan fizik asboblar, ko‘rgazmali qurollarni mumkin qadar turli sezgi organlari bilan idrok etishlari maqsadga muvofiq ekanligi aniqlangan. Imkoni bo‘lgan hamma narsalarni his-tuyg‘ular bilan idrok etish uchun, ya‘ni: ko‘rish mumkin bo‘lgan narsani-ko‘rish bilan, eshitiladigan narsani eshitish bilan, hidlarni hidlash bilan, ta‘mi bo‘lgan narsani, ta‘mini bilish bilan sezish mumkin bo‘lgan narsalarni, sezish yo‘li bilan idrok etish uchun imkoniyat tug‘dirishi kerak. Agar ba‘zi bir fizik asboblarni va ko‘rgazmali qurollarni bir yo‘la bir necha sezgi bilan sezish mumkin bo‘lsa, ularni bir yo‘la bir necha sezgi bilan idrok etishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Fizika o‘qitish tajribasida odatda ko‘rgazma vositalardan o‘qituvchi o‘quv ma‘lumotni bayon etayotganda yoki o‘quvchilar bilan suhbat o‘tkazish paytida foydalanadi. O‘qituvchining so‘zi bilan ko‘rgazma vositalarni birgalikda qo‘shib olib borish qonuniyatlarini borishi fizika darslarida ko‘pgina murakkab masalalarni muvaffaqiyatli hal qilish imkonini beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. https://hozir.org/mavzu-fizika-fanidan-namoyish-eksprimentlaridan-muammoli-foyda.html?page=5
2. https://fayllar.org/mavzu-fizika-talim-samaradorligini-oshirishga-xizmat-qiladigan.html
3. http://afidum310.zn.uz/files/2015/05/Fizikadan-3-metodik-qollanma.pdf
4. https://uz.denemetr.com/docs/769/index-31520-1.html
5. http://ipb.uz/post/fghfghxdfgdzxgvxdf

# HAYVONLAR TO'QIMALARI ASOSIDA AJRATIB OLINGAN BIRIKMALAR VA ULARNING IMMUN TIZIMI HUJAYRALARIGA TA'SIR KO'RSATKICHLARI

**Boboqulova Nodira Nurmat qizi**
*Qarshi davlat universiteti pedagogika instituti*

**Annotatsiya:** *Hayvonlar to'qimalari asosida ajratib olingan birikmalar eritmalari asosida tayorlangan peptid bog'lamli dori vositalari va ularning immun tizimi a'zolariga ta'sir mexanizmlari*

**Kalit so'zlar:** *Immunologiya , antigen, immun tizimi, antitana, lokal gemoliz , SSI4, immunizatsiya, timozin, to'qimali preparat, antitana xosil kiluvchi hujayralar, toksik gepatit.*

**Dolzarbligi:** Immunitet – bu organizmning o'zini barcha genetik jihatdan yot bo'lgan zarrachalar va moddalardan, ya'ni antigenlardan himoya qilish qobiliyatidir. Antigenlar organizmga tashqaridan tushishi (ekzoantigenlar) yoki organizmning o'zida ( autoantigenlar) hosil bo'lishi mumkin. Immunologik tizim juda noyob, murakkab jarayonlarni mukammal ravishda amalga oshiradigan tizim bo'lib, uning asosiy vazifasi organizmga turli yo'l bilan kirib olgan mikrob, virus va sodda hayvon hujayralarini aniqlab, ularni organizmdan chiqarib yuborishdan iborat. Immunologik tizimning yana bir muhim fazilati, bu organizmning o'zida hosil bo'lgan «yod» tuzilmalarni (autoantigen) aniqlash va ulardan organizmni tozalash qobiliyatini mujassamlashidadir. Bu tizimning o'ta noyob deb ta'kidlanishi bejiz emas, chunki tashqi muhitda mavjud bo'lgan va o'zida organizmga nisbatan begonalik asoratlarini namoyon etgan (antigen, allergen va autoantigenlar) barcha tuzilmalar immunologik tizim nazorati tufayli aniqlanadi. Dori vositalarining foydasi bilan bir qatorda, zararli ta'sirlari ham borligini inobatga oladigan bo'lsak, xayvonlar to'qimalari asosida ajratib olingan birikmalar dori vositalarini yaratish hozirgi immundavolovchi dori vositalariga bo'lgan ehtiyojni qondirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda [8,12,15]. Har bir insonning kasalliklarga chidamliligi uning immun tizimi bilan bog'liqligini inobatga olsak, birinchi navbatda sifatli hamda keng ta'sir doirasiga ega immunstimullovchi dori vositalarini yaratishda turli peptid bog'li mettalopeptidlarning ta'sirini o'rganish dolzarb yo'nalishlardan biri bo'lib bormoqda. Shu asosda bunday dori vositalarining ham aynan immun tizimiga ta'sirini o'rganish bu dolzarb muammoni yechishda muhim o'rin tutadi [5,9,11].

**Tadqiqot maqsadi** peptid bog'lamiga ega bo'lgan to'qimali eritmalarning immun tizimi a'zolariga ta'siri , immun hujayralarining taloqdagi miqdoriy o'zgarishi natijasini kuzatishdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari:**

- ikkilamchi immun tanqislik holatini hayvonlarda keltirib chiqarish va ularni turli immundavolovchi dori vositalari bilan davolash usullarini o'rganish.
- hayvonlarda AOK (antitana xosil kiluvchi hujayralar) xosil bo'lish jarayonlarini o'rganish.

- olingan natijalar asosida to'qimali preparatlarning turli dozalarda ishlatilishi va bu eritmalarning miqdoriy ta'sir mexanizmlarini yaratish ustida olib boriladigan ishlar asosida dastlabki to'qimali preparatlarni tajribaviy namunalarini yaratish.

**Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi.** Lokal gemoliz metodi, ikkilamchi immuntanqislik modeli sifatida toksik gepatit , immunizatsiya , goryaeva kamerasi

**Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari.** Ikkilamchi immuntanqislik modeli sifatida toksik gepatit olindi. Sichqonlarga uch kun mobaynida $CCl_4$ 20 % li eritmasini 0,2 ml dan qorin bo'shlig'iga yuborilgan sichqonlarga immutitetni aniqlash uchun qorin bo'shlig'ini qo'y eritrotsitlari bilan immunlab oxirgi kuni $CCl_4$ yana yuboriladi. Ikkilamchi immuntanqislik modeli kelib chiqqanligi kuzatildi. Tajribada antigen sifatida hayvonlarni immunizatsiya qilish uchun (QE) qo'y eritrotsitlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning farazlarida esa tajriba orqali olingan hisob ko'rsatgichlarini statistik tahlildan o'tkazish uchun taloqdagi AHQH lar soni aniqlandi. Ishonchlilik va xatolilik intervali ishonchliligi 95% tashkil qiladi. Qon hujayralari eritrotsit va leykotsitlar umumiy qabul qilingan uslublar orqali sanaldi. Eritrotsitlar va leykotsitlar Kamera Goryaeva asosida mikroskop ostida miqdor ko'rsatkichlari aniqlandi.

Ikkilamchi immuntanqislik xolatlari laboratoriya hayvonlari (sichqonlar)da qorin bo'shlig'iga 20% li uglerod to'rt xlorli ($CCl_4$) yog'li eritmasini 3 kun davomida 0,2 ml dan qorin bo'shlig'iga yuborilib chaqirildi. Hayvonlar talog'i tarkibidagi antitana hosil qiluvchi hujayralar soni va qo'y eritrotsitlari bilan emlash natijasida immundavolanish xususiyatlari o'rganildi.

**Olingan na'tijalar va ularning muxokamasi.**

Bizga ma'lumki tabiiy immunaktiv birikmalar ya'ni timusdan ajratib olingan zardobli peptid bog'lamlar aktivligi immun sistemasini tiklanishida muhim axamiyatga ega. Shuni inobatga olib metallopeptid qo'shimchalariga ega bo'lgan birikmalar orqali tajribalar o'tkazildi. Tajribada biz peptid bog'lamli to'qimali preparatni Timozin dori vositasi orqali immun sistemasiga ta'sirini o'rganib chiqdik. Bu tajriba davomida tabiiy xolatda olingan timik peptidga ega bo'lgan Timozin dori vositasi xamda to'qimali preparat birikmasi ustida tajribalar o'tkazildi. Tajriba quyidagi tartib buyicha olib borildi:

I- gurux. Sog'lom (intakt);

II- guruh. Nazorat(kontrol);

III- guruh.I/T+Timozin;

IV- guruh. I/T+ T/P

V- guruh. I/T+Timozin+ T/P

Guruhlarga ajratilgan hayvonlar maxsus qafaslarda ma'lum namlik va temperatura sharoitda tajriba o'tkazish honalarida bir xil kuzatuvlar asosida olib borildi. Tajriba kuzatishlarida hayvonlardagi tashqi ko'rishlarda keskin o'zgarishlar sezilmadi. Immuntanqislik chaqirilgan hayvonlarda oziqlanishlari susaydi va biroz teri o'zgarishlari sodir bo'ldi. Metallopeptid birikmasi yuborilgan hayvonlarni kuzatganimizda har bir immuntanqislik (I/T) xolatidagi hayvonlar besh kun davomida Timozin va to'qimali preparatni birikmasi turli dozalarda davolash ishlari olib borildi. Taloqdagi antitana hosil qiluvchi hujayralar soni o'zgarishi va ta'sir qilish miqdori aniqlandi. Natijalar quyidagi jadvalda yoritildi (1-jadval).

Tajriba natijalaridan shu holat aniqlandiki, toza hayvonlarga nisbatan, (5423±510) nazorat hayvonlarida antitana hosil qiluvchi hujayralar (AHQH) soni (1148±170) -4,7 marotaba kamayganligi aniqlandi. Bu esa hayvonlarda kuchli immuntanqislik holati kelib chiqqanligidan dalolat beradi ($P<0,05$). Timozin dori vositasi ta'sirida esa antitana hosil qiluvchi hujayralar (AHQH) soni (3120±190) 2,7 marotaba oshganligi kuzatilsa, to'qimali preparatni birikmasi ta'sirida antitana hosil qiluvchi hujayralar (AHQH) soni (4371±426) 3,8 marotoba oshganligi ($P<0,05$) aniqlandi. Lekin Timozin dori vositasi va to'qimali preparatni birikmasi ta'sirida ko'rsatgich (5134±487) 4,5 marotaba antitanalar miqdori ortganligi kuzatildi. Tajriba davomida metallopeptid bog'lamiga ega bo'lgan dori vositalarining eritro va leykopoezga ta'sir mexanizimi o'rganilganda miqdor jihatidan sog'lom hayvonlarning leykotsitlar miqdoriga nisbatan leykotsitlar soni tiklanganligi kuzatildi. Toza nazoratdagi hayvonlarda bu miqdor 5,8 ming dona bo'lsa, immuntanqis hayvonlarda bu miqdor 3,3 ming va Timozin to'qimali preparatni birikmasi vositasida esa bu miqdor 4,7 mingtani tashkil qildi (Jadval № 1).

**Jadval №1**

**Hayvonlar to'qimalari asosida ajratib olingan birikmalar va ularning immun tizimi hujayralariga ta'sir ko'rsatkichlari**

| № | Tajriba guruhlari | TYHQHS(mln) | | AHQ | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | Taloq hujayralariga nisbatan | | $10^6$ hujayraga nisbatan | |
| | | M±m | i/n | M±m | i/n | M±m | i/n |
| 1. | Sog'lom | 201±32 | - | 5423±510 | - | 27,1±2,5 | - |
| 2. | Nazorat | 123±22 | +1,6 | 1148±170* | -4,7 | 5,7±0,9* | -4,6 |
| 3. | I/T+Tim | 127±19 | +1,0 | 3120±190** | +2,7 | 15,6±1,0** | +2,1 |
| 4. | I/T+TP | 186±24 | +1,5 | 4371±426 | +3,8 | 23,0±2,1 | +4,0 |
| 5. | I/T+(Tim.+TP) | 207±40 | +1,7 | 5134±487** | +4,5 | 26,0±2,4** | +4,5 |

Eslatma:
* – 1- guruhga nisbatan aniq farq;
** – 2- guruhga nisbatan aniq farq;
i/n –indeks nisbati ;
(-,+) – ko'rsatkichning pasayishi yoki ortishi;
TYHQHS – taloqning yadro hosil qiluvchi hujayralari soni;
AHQH – antitana hosil qiluvchi hujayralar.

XULOSALAR

1. Hayvonlar to'qimalari asosida ajratib olingan birikmalar va ularning immun tizimi hujayralariga ta'sir ko'rsatkichlari 4,5 baravarga oshganligi kuzatildi.

2. Immundavolovchi dori vositalarining immun sistemasi va gemopoezga ta'siri asosida qilingan ishlar natijasi shuni ko'rsatdiki, xar bir dori vositasi immundavolovchi

xususiyatga va eritro-leykopoezning soni tiklanishiga ham olib kelishi tajribalar asosida isbotlandi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1- Алимова М.Т., Мажидов А.В. Влияние пестицидов на антителообразование и иммуногелуяторные популяции лимфоцитов у мышей. // Иммунология 7 – 2001. - № 2. – с. 33-35.

2- Арион В.Я. Тактивин и его биологическая активность. // Иммунология гормонов тимуса. – иммунология. – 2009. – с. 103-125.

3- Ашурпаев К.М. Нарушения иммунного статуса у больных острым холециститом с сопутствующим ожирением и возможности их коррекции. // Приобретенные иммунодефицитные состояния в клинике и в эксперименте. – Челябинск. – 2000. – с. 16-20.

4- Батырбеков А.А. Стимуляция иммуногенеза и кроветворения синтетическими металлокомплексами: Дисс. …докт. мед. наук. – М. 2011 – 278 с.

5- Белокрылов Г.А., Молчанова И.В. Иммунотропность подсолнечного масла и крахмала при пероральном введении мышам. // Бюлл. Эксперим. биологии и медицины. – 2012. - № 12. – с. 633-635.

6- Беляков И.М., Ярилин А.А., Кузменок Клетки стромы тимуса тимусное микроокружение. // Бюлл. Эксперим. биологии и медицины. – 1992. - № 6. – с. 3-

7- Борисов К.Б. Вторичный атеросклеротический иммунодефицит (ишемическая болезнь тимуса) и хирургические методы его коррекции: Автореф. дисс. … канд. мед. наук. – Москва. 2008 – 144 с.

# GEOGRAFIYA O_QITISH METODIKASINING O'ZIGA XOS YO'LLARI.

**Baltayeva Adolat Yusupovna**
Urganch tumani 42 -son
maktab Geografiya fani òqituvchisi.
**Jumaniyazova Zulayxa Boltayevna**
Urganch tumani 20- son
maktab Geografiya fani oqituvchisi.

**Annatatsiya:** *Ushbu maqola umum ta'lim maktablarida geografiya ta'lim metodikasini rivojlanishi, boshqa fanlar bilan aloqadorligi, tuzilishi, mazmuni, uslubi va usullari, ta'lim jarayonini o_rgatishdir. Bu kursda talabalarga tadqiqot usullari, ta'lim jarayon qismlari, didaktik vositalar, dars berish to_g_risida ma'lumotlar berish, dars o_tishda texnika vositalaridan foydalanish, noan'anaviy va interfaol dars haqida ma'lumot berishdan iborat.*

**Kalit so'zlar:** *Geografik jarayonlar,uslubiy qo_llanmalar, ma'ruza matnlari, ilg_or pedagogik texnologiyalar.*

**Kirish:** Jamiyat taraqqiyotini har tomonlama yetuk o_qituvchilarsiz tasavvur etish qiyin. Bugungi kun talabi esa geografik voqea va hodisalarni, geografik jarayonlarni, ularning sabab va oqibatlarini, qonuniyatlarini, tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy tushunchalarni bilim oluvchilarga etkaza olishga qodir yuksak malakali o_qituvchilarni tayyorlash hisoblanadi. Bu vazifani a'lo darajada bajarish uchun Vatanimizga fanni chuqur biladigan, metodik jihatdan yuksak tayyorgarlikka ega bo_lgan mutaxassislar kerak bo_ladi. Ushbu kursda talabalarga aynan shunday pedagog bo_lib etishishlari uchun etarlicha bilim berish va malaka shakllantirish nazarda tutilgan.

**Asosiy qism:** –Geografiya o_qitish metodikasi‖ o_quv fanini o_zlashtirishlari uchun o_qitishning ilg_or va zamonaviy usullaridan foydalanish, bu jarayonda yangi informatsion – pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o_zlashtirishda darslik, o_quv va uslubiy qo_llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, turli mavzudagi xaritalar elektron materiallar va ko_rgazmali qurollardan foydalaniladi. Ma'ruza va amaliy mashg_ulot darslarida mavzuga mos ravishdagi ilg_or pedagogik texnologiyalar qo_llaniladi.

Fanning vazifasi talabalarga - geografiya metodikasida talablar, ya'ni o_quvchilarga geografiyadan qanday bilimlar berishni aniqlash, o_quvchilarga beriladigan bilim, ko_nikma, malakalarni shakllantirish yo_llarini, ta'lim jarayonini uyushtirish shakllarini aniqlash va har bir shaklga mos metod, o_quv jarayonlari, sinfdan tashqari ishlarini belgilashni o_rgatishdan iborat. Shuningdek o_quvchilarning o_quv materiallarini o_zlashtirishi, ularning tarbiyalanishi, ta'lim jarayonida fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, sinalgan o_qitish metodlarini takomillashtirish, darslik va o_quv qo_llanmalarini yaratish va ularni jahon standartlari darajasiga yetkazish yo_llarini izlash, geografiya ta'limi jarayonini tashkil etishning zamonaviy shakllarini ishlab chiqish, yangi pedagogik texnologiyalarni geografiya ta'limida qo_llash, geografik bilimlar, tushunchalar hajmini belgilash, bilim, tushuncha, ko_nikmalarni shakllantirish metodlarini ishlab chiqish, sinfdan tashqari ishlar mazmunini ishlab chiqish va belgilash hamda boshqalarni o_rgatishdan iborat.

**Xulosa:**Fan bo_yicha bilim, malaka va ko_nikmaga qo_yiladigan talablar

Ushbu fan bo_yicha o'quvchilar quyidagi bilimlarga, malaka va ko_nikmaga ega bo_lishi kerak:

- geografiya o_qitish metodikasining tuzilishi va mazmuni, fanning metodlari va metodologiyasi, ta‘limning jarayon qismlari, maktab geografiyasining mazmuni va tarkibi, o_qitish usullari, geografiya o_qitishning vositalari, geografiya ta‘limini uyushtirishning shakllari, o_quvchilarning bilim va ko_nikmalarini tekshirish va baholash, geografiya o_qitishda qo_llaniladigan zamonaviy texnik vositalar, geografiyani o_qitishning interfaol usullari, geografiyani o_qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar haqida tassavvurga ega bo_lishi;
- ta‘lim, tarbiya turlarini va dars turlaridan foydalanishni, tegishli mavzular bo_yicha amaliy mashg_ulotlarni tashkil qilishni, geografiyadan didaktik vositalar va ulardan foydalanishni, o_quvchilarning bilim va ko_nikmalarini tekshirish va baholashni, ta‘limning zamonaviy texnik vositalaridan foydalana olishni, globus va xaritalar bilan ishlashni, geografiya darsi, o_quv ekskursiyalari, fakultativ mashg_ulotlarni uyushtirishni bilishi va ulardan foydalana olishi kerak;
- bilimlarni to_g_ri baholash, geografiya o_qitishda zamonaviy texnik vositalaridan foydalanib dars o_ta bilish, informatsion texnik vositalardan foydalanish, geografiyani o_qitishning interfaol usullaridan foydalanish, geografiyani o_qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish ko_nikmalariga ega bo_lishi kerak.

## FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ваҳобов Ҳ., Зайнутдинов А. География ўқитиш методикаси. 1-қисм Маърузалар матни. -Т.: Университет, 2000.
2. Методика обучения географии в средней школе. Под. ред. Л.М.Панчешниковой. -М.: Просвещение, 1983.
3. Қурбонниѐзов Р. География таълими методикаси. -Т.: Университет, 1992.
4. Қурбонниѐзов Р. География таълими методикаси. -Урганч, 2002.
5. Рўзиева Д., Усмонбоева М., Холиқова З. Интерфаол методлар: моҳияти ва қўлланилиши. Т.: ТДПУ, 2013.

# TURSUNBOY ADASHBOEVNING IJODI

**Karimova Mashxura**
*Namangan viloyati Norin tumani*
*Xalk ta'limi bulimiga karashli 19- umumiy urta*
*ta'lim maktabi boshlangich sinf ukituvchisi*

**Annontatsiya:** *Tursunboy Adashboyev 1939 yil 1 yanvarda Qirg'iziston Respublikasining O'sh viloyati, Olabuqa tumanidagi Safed Bulon qishlog'ida tug'ildi. Qishloqdagi 57-o'rta maktabni bitirgach, Toshkent davlat universitetining jurnalistika fakultetida (1961–1966), Moskvadagi M. Gorkiy nomidagi Adabiyot institutida (1978–1982) tahsil oldi.*

**Kalit so'z:** *Kamol, qo'sh qanotim, almanaxlar, aqlli bola.*

–Buni toping, bolalar, aytib bermang, onalar‖ nomli birinchi she'riy to'plami 1962 yilda chop etildi. Shundan so'ng shoirning –Kamolning olmasi‖ (1964), ―Biz sayohatchilar‖ (1966), –Arslonbob sharsharasi‖ (1969), –Nur daryo‖ (1975), –Olatog' – lolatog'‖ (1978), –Guldesta‖ (qirg'iz tilida, 1979), –Oslik na shesti nogax‖ (–Olti oyoqli xo'tikcha‖ latish tilida, 1983, tarjimon Leons Briyedis), –Quyushqon‖ (1984), –Arslonbob afsonasi‖ (1988), –Pesnya javoronka‖ (rus tilida, tarjimon Yunna Morits), –Uch bo'taloq va sirli qovoq‖ (1990), –Top jildiz‖ (qirg'iz tilida, 1991), –Topishmoqli alifbe‖ (1997), –Hushtak chalib turasiz‖ (A. Obidjon bilan hamkorlikda, 2002), –Oltin yolli tulpor qissasi‖ (2003), –Orzularim – qo'sh qanotim‖ (2003), –Parodiyalar‖ (kinoya, muqallid, lutf, 2010), –Osmondagi darvoza‖ (saylanma, 2012), –Qirq yolg'ondan bir yolg'on‖, –G'oz karnaychi bo'lmasin‖ (2015), –Maxfiy jang‖ (parodiyalar kitobining to'ldirilgan nashri, 2016), –Orzularim qo'sh qanotim‖, –Sichqonning orzusi‖, –Maqtanchoq chumoli‖ (2016) kabi she'riy kitoblari dunyoga keldi. Rus, turkman, qirg'iz, tojik va qozoq tillaridagi adabiy almanaxlarda turkum she'rlari bosildi. Shuningdek, T. Adashboyevning –Jashtik sapar‖ (qirg'iz tilida, 1964), ―Biz sayohatchilar‖ (1966), –Guldasta‖ (1968), –Bizdin belek‖ (qirg'iz tilida, 1967), –Ir mayrami‖ (qirg'iz tilida, 1967), –Zvonkoye detstvo‖ (rus tilida, 1981), –Chashmalarin ovozi‖ (turkman tilida, 1982), –Raduga nad arikom‖ (belorus tilida, 1986), –Navohoi guldara‖ (tojik tilida, 1988), –Solni'shko na listyax‖ (1990), ―G'aroyib qishloqning ajoyib odamlari‖ (2015) kabi turli yil va turfa tillarda chop etilgan kitoblarini ham sanab o'tish joiz.

Shoir –O'zbek bolalar adabiyoti antologiyasi‖ (She'riyat, 1-jild, 1995) va mazkur kitobning rus tilidagi –Pro solnse jarkoye rasskaz, Pro nashu zemlyu i pro nas‖ (Poeziya, 2007) nashrlariga muharrirlik qildi.

Tursunboy Adashboyev tarjima sohasida ham samarali fqaoliyat yuritib, Temirqul Umetaliyevning –To'rg'ay navosi‖ (1969), Suyunboy Eraliyevning –Tog'lar farzandiman‖ (1972), Sovronboy Jusuyevning –Dovon‖ (1974), –Qanot bilan Zarina‖ (2004), Musa Jong'oziyevning –Quvonchbekning quvonchi‖ (1983), Qanibek Junushevning –Do'ppili to'rg'ay‖ (1988), Nurmo'ldaning –Zamona‖ (1998), Nodirbek Alimbekovning –Bir kam dunyo‖ (1998), –Gulning umri‖ (1994), Samuil Marshakning –Tentak ovchi‖ (2006), Korney

Chukovskiyning ―Do‘xtir Voyjonim‖ (2006), ―Moydadir – yuvin do‘mbog‘im‖, Jovani Rabonining ―Mushuk Kotangensning arifmetika daftari‖ (1977), V. Pyuzoning ―Cho‘qintirgan ota yoki Mafiya sardori‖ (roman, 2006), S. Arapovaning ―Merri inglizchani o‘rganadi‖ (1996), V. Kulikovning to‘rt kitobdan iborat rasmli she’riy to‘plamlari (2006) va boshqa asarlarni o‘zbek tiliga o‘girib, chop ettirdi.

Tursunboy Adashboyev she’rlarining qahramonlari quvnoq, topqir, xayolkash, mehnatkash, zavqiyu ishtahasi tobida bo‘lgan aqlli bolalardir.

Kichkintoylarga qisqa va lo‘nda yozish, qissadan hissa chiqarish shoir ijodining muhim fazilatlaridan biridir.

Tursunboy Adashboyev o‘zbek bolalar adabiyotini rivojlantirishga qo‘shgan hissasi uchun 2001 yilda ―Do‘stlik‖ ordeni bilan taqdirlandi. U, shuningdek, o‘zbek va qirg‘iz xalqlari o‘rtasidagi do‘stlik rishtalarini mustahkamlashdagi xizmatlari uchun ―Qirg‘izistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat arbobi‖ unvoni va ―Manas‖ ordeni bilan ham mukofotlangan.

Tursunboy Adashboev „Kamolning olmasi― (1965), „Biz sayohatchilar― (1967), „Olatog‘-lolatog‘― (1978), „Jo‘nataman quyoshni― (1982), „Arslonbob afsonasi― (1988), „Uch bo‘taloq va sirli qovoq― (1990), „Topishmoqli alifbe― (1997) singari 20 ta she’riy to‘plam muallifi. U qirg‘iz adabiyotidan 30 ga yaqin asar tarjima qilgan. Ular orasida „Manas—ning nasriy bayoni, „Singan qilich— romani singari asarlari bor. Tursunboy Adashboev „O‘zbekiston xalq maorifi a’lochisi―(1993), „Qirg‘izistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi―(1999), „Do‘stlik― ordeni (1999), „Manas—ordeni (1995) sohibi.

Tursunboy Adashboev bola ruhiyatini yumorga moyil tarzda nozik ifodalaydi. Uning kattalar uchun yozilgan asarida ham o‘ziga hoslik sezilib turadi. Tursunboy Adashboev adabiy parodiyalar ustasi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. ―Tursunboy Adashboyev o‘zbek bolalar adabiyotini rivojlantirishi‖**2021**
2. ―Tursunboy Adashboyev tarjimon‖ **2019**
3. ―O‘zbek bolalar adabiyoti antologiyasi‖ **2008**

# KASBIMDAN QADR TOPDIM

**Nishonboyeva Gulnora**
*Yangiyo_l tuman 16-umumta'lim maktab texnalogiya fani o_qituvchisi*

Ustoz… quloqlarim ostida sehrli musiqaday jaranglovchi bu ajib so_zlarni 30 yil avval ilk bor eshitganimda, yuraklarim hayajondan hapqirib, sevinchim daryoday toshgan va o_z oldimga ulkan maqsad va vazifalar qo_ygan edim. Shundan buyon, shogirdlarim har gal ustoz… deganlarida g_ayratimga o_zgacha bir g_ayrat, shijoatimga qayta shijoat qo_shiladi. Mustaqillik sabab ko_plab sohalar qatori ta‘lim tizmimimizda ham ijobiy o_zgarishlar amalga oshirildi: Xalqaro baholash tizimi, milliy o_quv dasrurlari yaratildi. Xususiy ta‘lim muassalari, Temurbeklar maktabi hamada Prezident maktablari tashkil etildi. Mavjud umumta‘lim muassasalarida keng ko_lamda rekonstruksiya ishlari olib borilib, Yangi O_zbekistonda yangicha uslubga ega ta‘lim muassasalari soni bilan birgalikda yangicha dunyoqarash va yangicha uslubga ega fidoiy ustozlar ko_paydi.

Islohatlar samarasi o_laroq, ilgarilari paxta dalalarida paxta terib, hatto yakshanbalarini ham majburiy mehnat asosida o_tkazgan kelajak bunyodkorlari, qatori men ham bugun ko_rsa ko_z quvnaydigan keng va yorug_, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan taminlangan xonalarda ilmga chanqoq, ko_zlaridan o_t porlaydigan, bir so_z bilan aytganda, yangilikka tashna bolalarga bilim berib kelmoqdaman. Oxirgi besh yillikni men tub burilishlarga sabab bo_lgan besh yillik sifatida ayta olaman. Erkin fikrli, qog_ozbozlikdan xoli, mehtatiga yarasha haq to_lanuvchi, toifasinining oshishini yilllab kutmaydigan ustozlar davri bo_ldi bu - besh yillik.

Mustaqillik bergan ne‘matlarni oqlash uchun tinimsiz o_z ustimda ishlab kelmoqdaman. Buning samarasi o_laroq qisqa fursat ichida birinchi toifali, hamkasblari hurmatini-yu, shogirdlari mehrini qozongan, turli darajadagi tuman va viloyat miqyosida tashkil qilinayotgan o_quv seminarlari-yu ko_plab tadbirlar, milliy liboslar tanlovlovlarida shogirdlari bilan ishtirok etib, mahorat darslarini o_tib, shaxsiy hayoti-yu, ishdagi shijoati bilan hamkasblariga o_rnak bo_lib kelayotgan ustozlardan biriman.

Asrlar osha e‘zozlanib kelingan, sharafi ulug_, maqomi oliy, zalvori og_ir bir kasbda faoliyat yuritib kelayotganimdan g_ururlanaman. Man uzoq yillardan beri, Yangiyo_l tumanidagi 16-umumta‘lim maktabida dastlab boshlang_ich sinf o_qituvchisi sifatida faoliyat yuritib, jajji qalblarga ziyo nurini ulashish, ularning savod chiqarshlari bilan birgalikda, qalblarida mehr-shavqat, o_zoro do_stlik-u ahillikni singdirgan mashaqqatlar-u qiyinchiliklarni hormay-tolmay yengib o_tadigan ustoz sifatida tanilgan bo_lsam, keyinchalik, yana bir fidoiylikni nomoyon qilib, ta‘lim muassasasida pedagoglar yetarli bo_lmaganligi sababli o_z ustimda qayta ishlab yuqori sinf o_qivchilariga vatanimizning shonli o_tmishi, millatimizning millat sifatida shakllanishi va bugunidan darak beruvchi buyuk muallim sanalgan tarix fanidan dars berdim. Hozirda esa Texnologiya fani o_qituvchisi sifatida ilmga chanqoq va orasta qizlarga mehnat fanidan dars berib, ularga orastalik, turli milliy va yevropa taomlarini tayyorlash, tikuvchilik, mehmon kutish odobi singari ko_plab ishlarni o_rgatib ularning estetik didlarining oshishiga hissa qo_shib kelmoqdaman.

Kasbim aslida men uchun qalbimning to_rida gard yuqtirmay pokiza saqlaydigan eng nafis, eng inja tuyg_umdir. Maktabda o_qigan yillarim ustozlar mehridayoligi, ulug_ligi, matonat-u shijoati bilan meni takror-takror lol qoldiradigan. Bugun o_zim shunday qalb sohiblaridan biriman. Ona xalqimga o_z taqdirining haqiqiy egasi bo_lib yashash baxtini bergan mustaqillik yillarda biz haqiqiy ma'noda e'zoz topib o_z qadrimizga ega bo_ldik desam hech mubolag_a bo_lmaydi.

Shogirdalari yutuqlarini ko_rganda sevinadigan, qayg_ularini ko_rganda unga sherik bo_ladigan yana biror kasb bormikan dunyoda ...? Nazarimda yo_qday !

Ustoz…! bu so_z zamirida o_z hayotini ta'lim va tarbiyaga baxshida eta oladigan, barchaning ma'naviy ota-onasi, ilm-u marifatga yo_llovchi, ziyo tarqatuvchi, eng yaqin do_st va yo_l ko_rsatuvchi, mehr va odamiylik bulog_i, o_z sohasining zukko bilimdoni, adalat va haqiqat mezonidir. Ustozlar hurmatga, qilgan xizmatlari esa tahsinga sazavordir

Ustozlik, sen Ollohning menga atagan buyuk tuhfasi, quloqlarim ostida onajonim allasiday jaranglaydigan sehrli hikoyamsan. Aynan sen tufayli men yurda e'zoz topdim, milliy davlatchiligim, muqaddas dinim, jonajon xalqimning azaliy urf-odat-u an'analari, bobolarimning ko_hna qadamjolari haqida jo_sh urib barralla gapira oldim.

Men yana shuni ishonch ila ayta olamanki, ustozlik kasbi men va men qatori matonatli hamkasblarimga bizga o_zligimizni nomoyon qilish bilan birga, Vatanimning ozod xalq, mustaqil davlat sifatida bor bo_y-bastini, yetuk salohiyatini dunyolarga tarannum qilish baxtini berdi. Aynan shu fidoiy kasb egalarigina ona xalqimizning ravnaqiga ravnaq qo_sha oladigan yetuk kadrlarni yetishtirmoqda. Natijada ularning fidokorona mehnati-yu o_g_il-qizlarimizning azm-u shijoati olam uzra yoyilib, hurriyat bergan beqiyos imkoniyatlar asosida ertangi kunim, farovon kelajagimni tasavvur qila olaman.

Hur fikrli, ozod-u obod yurtda umrbod yashash, istiqlol bergan ne'matlarni oqlash, unga munosib farzand bo_lmoq men yetishtirgan har bir avlod ko_zlarida porlab turgan cho_g_dir. Jannatmonand yurtimning ravnaqiga ravnaq, go_zalligiga go_zallik qo_shmoq niyatida jinday bo_lsada nafim tegishi uchun har bir ma'rifatli inson qatori men ham ziyo yo_lini tanladim.

Istiqlol bilan tengdosh faoliyatim davomida juda ko_plab shogirdlar yetishtirib, hayot yo_llarida o_rinlarini topib olishlari uchun ona o_rnida ona bo_lib xizmat qilib kelmoqdaman. Muallimlik kasbining har bir zahmati ortida bir sharaf borligini men sinfini maktab reytingida yuqori o_rinlarga olib chiqish, ularni birlashtirish, ahil va inoq qilib tarbiyalash yo_lida mashaqqatlarni yengib doim barchaga o_rnak bo_lib kelayotgan ustoz sifatida ayta olaman.

Faoliyatim davomida qator Respublika va xorijiy jurnallarda maqolalarim chop etilib, turli darajadagi diplom va imtiyozli sertifikatlarni qo_lga kiritdim hamda tinimsiz izlanishlarim, tun-u kun qilgan mehnatlarim, olgan bilimlarimni mustahkamlash yo_lidagi harakatlarim natijasida birinchi toifali ustozga aylandim. Va tinimsiz izlanishda davom etmoqdaman.

Bugun istiqlol tufayli barkamol avlodning ta'lim olishi uchun barcha imkoniyatlar muhayyo qilingan. Men uchun kasbim – havo, agar unga e'tiborsizlik qilsam, nafas ololmay qolaman. Olloh nazari tushgan maskanlarda ta'lim berishdek baxtni men boshqa yurtda tuymasam kerak. Shunday ekan men uchun Yangi O_zbekiston – yangi imkoniyatlar makoni.

Fikrimcha, qayerga qo‗l cho‗zsang yetadi. Faqat senda bilim, shijoat, yangicha g‗ayrat va matonat bo‗lsa bas.

O‗tmishga ozgina nazar tashlab ko‗raylik. Paxta dalalari esingizdami hurmatli ustozlar? Menimcha, fidoiylik ko‗rsatgan hech bir muallimning yodidan ko‗tarilmaydi bu yillar… Sovuqda, qorda ham paxta terardik. Yomg‗ir yog‗sa xursand bo‗lardik, azbaroyi charchaganimizdan. Qavargan qo‗llar bilan noyabr oxirida maktabga borardik. O‗quvchilarimizchi? Ularning barchasi qish faslini yaxshi ko‗rardi. Chunki faqat qishda maktabda to‗liq dars bo‗lib unda hamma bolalar ishtirok etardi. Bahor faslining 2-oyidan yana dalaga, paxta chopiqqa, undan keyin yaganaga… Ollohga behisob hamdlar bo‗lsinkim, u kunlar ortda qoldi.

Bugun biz yangi jamiyatda yashayapmiz. Haqiqiy erkin jamiyatda. Nima qo‗lingdan keladi? Zo‗r ustozmisan, yo rassommisan, haykaltaroshmi? Yo dizayner, yoki sozanda? Balki yaxshi arxitektordirsan? Jurnalistlikka qobiliyating bormi? Yozuvchi bo‗lishni istaysanmi? orzularingni ro‗yobga chiqar. Sendan faqat harakat, harakat, harakat! Talaba bo‗lmoqchimisan? O‗qi, tayyorlan. Sen uchun ta‘lim beradigan ustozlar bisyor, shunday ekan, biz uchun hamma eshiklar ochiq.

O‗ylashimcha −Yangi‖lik zamirida oydin hayot, cheksiz imkoniyatlar, nurli kelajak bor. Bizdan esa ogohlik talab qilinadi. Bugun hayotimizda har bir insonga alohida shaxs sifatida qaraladi, odamlar davlat uchun emas, davlat odamlar uchun ishlaydi, har bir inson o‗z huquqidan munosib foydalanadi, ma‘naviy barkamol shaxslarni tarbiyalash, ma‘rifatli jamiyat tashkil etish oliy o‗ringa chiqadi.

Hamkasblarimga, shogirdlarimga doim ushbu jumlalarni bot-bot takrorlashdan hech to‗xtamayman: Qadrdonlarim, sizlar kelajak bunyodkorlarisizlar, shunday ekan, harakatdan to‗xtamasligingiz, berilgan imkoniyatlardan unumli foydalanib, jamiyatda munosib o‗rin egallashingiz va taraqqiyot uchun o‗z hissangizni qo‗shishingiz zarur. Siz bunga tayyormisiz? Qanday g‗oyalaringiz bor? O‗zbekistonning yangi bosqichi uchun nima qilmoqchisiz? Qaysi tizimni yangilamoqchisiz, insonlarga qanday yaxshilik qilmoqchisiz? Iltimos, hammasini hozir boshlang! Bu qo‗lingdan keladi deya bot-bot aytishdan charchamayman.

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan bugungi dunyoda bizning mamlakatimiz ham o‗zining munosib o‗rnini egallab bormoqda. Davlatning rivoji, taraqqiyoti, albatta, unda xizmat qilib kelayotgan kelajak bunyodkorlariga uzviy bog‗liq. Shu sababli yurtimizdagi har bir o‗sib kelayotgan yosh avlodning iste‘dodlarini yuzaga chiqarish uchun ko‗plab imkoniyatlar, shart-sharoitlardan oqilona foydalanib kelmoqdaman.

Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan −Besh tashabbus‖ loyihasi joriy qilinganda, uning mohiyanini anglagan, kelajakni oldindan ko‗ra olgan inson sifatida juda to‗lqinlandim. Birgina −Yosh kitobxon‖ tanlovining o‗tkazilishi orqali minglab yoshlarimizda kitobxonlik madaniyati shakllanib bo‗ldi, desak mubolag‗a bo‗lmaydi. Bu tanlovlar yoshlarni o‗z qobiliyatlarini ko‗rsata olishga, iqtidorlarni kashf etishga, ularni rivojlantirishga, o‗z ustida ishlashga undaydi. Ushbu loyihada kitobxonlikdan tashqari musiqa, san‘at va madaniyat sohalarida ham jiddiy o‗zgarishlar amalga oshirildi, o‗zgarishlar hayoga tadbiq qilindi. Tashkil qilayotgan har bir tadbirlarim va tanlovlarimda qizlarning o‗zgacha ruh ila yondashishlarini ko‗p yillik mehnatlarim samarasi o‗laroq qabul qilib o‗zgacha bir faxr va g‗urur tuyg‗ularini tuyaman. Bularning bari menda kasbimga yanada fidoiylik bilan yondashishimga undaydi.

Boshqacha qilib aytganda, o‗qituvchi faqat o‗qituvchi vazifasini bajarmaydi. Zarur bo‗lganda turli qiyofalarda nomoyon bo‗la oladilar. Ustozlar shaxsiy hayotlari, yurish-turishlari bilan shogirdlariga o‗rnak bo‗ladilar va ularni hayotda ajoyib ishlarga ilhomlantiradilar, qobiliyatlarini ro‗yobga chiqaradilar. Mana shunday matonatli kasbni tanlaganimdan, hamisha shogirdlarim uchun yaratgan tamonidan ularga hadya etilgan ulkan qalb sohibi bo‗lganimdan faxrlanaman.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. www.ziyo.uz internet sahifasi.

# BOSHLANG'ICH SINFLARDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR, O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISH

**Mahmudova Muhayyo Ulug‗bekovna**
*Namangan viloyati To‗raqo‗rg‗on tumani*
*7-umumiy o‗rta ta'lim maktabi boshlang‗ich sinf o‗qituvchisi*

**Annontatsiya:** *Bugungi kun o‗qituvchisiga barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdek mas'uliyatli vazifa yuklangan bo'lib, ta'lim mazmunini takomillashtirishga qaratilgan vazifalarni belgilab olish, zamon bilan hamnafas bo‗lib, ta'limning zamonaviy texnologiyalarini joriy etgan holda o‗quvchilarda o‗z faniga qiziqish uyg'otishlari, xurmat-ehtirom tuyg‗ularini shakllantirib borishlari talab etiladi.*

**Kalit so'z:** *jarayon, jadal taraqqiy, barkamol, Power Point.*

Ta'limda ijobiy natijalarga erishish, eng avvalo, yosh avlodga ilmiy bilim asoslarini puxta o‗rgatish, ularda dunyoqarash hamda tafakkur ko‗lamini kengaytirish, ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirish borasidagi ta'limiy-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish bilan belgilanadi. Bu borada ta'lim-tarbiya jarayoniga ko‗plab o‗zgartirishlar kiritilmoqda, yangicha yondoshuvlar tadbiq etilmoqda. Shulardan birisi, axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanib dars o‗tishda mashg‗ulotlar samaradorligini oshirishga erishish hisoblanadi.

O‗zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta'lim muassasalarining moddiy texnik va axborot bazasini mustahkamlash, o‗quv-tarbiya jarayonini yuqori sifatli o‗quv adabiyotlari va ilg‗or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash uzluksiz ta'lim tizimini axborotlashtirish masalasi alohida qayd etilgan. Bundan kelib chiqqan holda ta'lim jarayoniga axborot-kommunikatsion texnologiyalarini joriy etish davr talabi hisoblanadi. O‗quvchilarning fanlarga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularning aqliy va ijodiy tafakkurini, intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, fanlararo bog‗liqlikni ta'minlash, bugungi pedagogikaning muhim vazifalaridan. Darslarni ilg‗or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, o‗quvchilarni mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga, axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan oqilona foydalanishga o‗rgatish, o‗qitilayotgan fanni o‗zlashtirish sifatini oshirish ustuvor vazifa hisoblanadi. Bu borada boshlang‗ich ta'limni o‗qitishda ham turlicha uslublar qo‗llanilmoqda. Shulardan biri zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishdir. Zamonaviy axborot texnologiyalarning jadal taraqqiy etib, ta'lim sohasiga jadal kirib kelishi, hayotimizda muhim ahamiyatga ega bo‗lib borayotgani bu boradagi bilim va malakalarimizni ham mos ravishda shakllantirishni taqozo etadi. Shuning uchun, boshlang‗ich sinflarda kompyuterdan foydalanib dars o‗tish tavsiya qilindi.

Dars jarayonining muhim yutuqlaridan biri kompyuter texnologiyalari komponentlaridan foydalanishni ta'minlovchi dasturiy vositalarning yaratilishi bo‗ldi. Ayniqsa, o‗quv jarayonining tashkil qilishda bu dasturiy vositalar alohida ahamiyatga ega. Elektron qo‗llanmalarning ―Macromedia Flash‖, ―GIF Animation‖, ―Microsoft Front Page‖, ―Abobe Fotoshop‖, ―3D Max‖, ―Microsoft Power Point‖ kabi dasturiy vositalardan foydalanib yaratilganligi qulaylik tug‗dirmoqda. Chunki ular harakatli, rangli, ovozli tasvirlar yaratish

imkonini beradi. Bu esa boshlang‗ich sinf o‗quvchilarining mavzuni tez tushunib olishga, o‗zlashtirish sifatini oshishiga yordam beradi.

Boshlang‗ich sinf o‗quvchilari uchun yaratilgan elektron darslik, qo‗llanma va taqdimotlardan o‗quv jarayonida keng foydalanilmoqda. O‗qish, ona tili, matematika va tabiatshunoslik fanlarini o‗qitishda axborot texnologiyalari yordamida turli xil ko'rgazmali slaydlardan dars jarayonlarida foydalanish mumkin. Masalan: o‗qish va ona tili fanlarida katta ekranda harflarni, so‗zlarni bir-biriga qo‗shib o‗qish, so‗ngra kichik ertak va hikoyalarni o'qish, harflarni to‗g‗ri va chiroyli yozish; matematika fanida oddiy amallardan foydalanib, slaydlar yordamida masalalar yechish, turli xil hisob-kitobli o‗yinlar tashkil qilish; tabiatshunoslik fanidan tabiatdagi hodisalar haqidagi sodda slaydlar yordamida tushunchalar berish mumkin. Ushbu usullardan foydalanish yosh va bilimga chanqoq o‗quvchining og‗zaki nutqini rivojlanishiga, og‗zaki hisoblash malakasini oshishiga, ijodkorlik, izlanish va fikrlash qobilyatini rivojlanishiga turtki bo‗ladi.

Elektron taqdimotlardan darsda namoyish va ko‗rgazmali material sifatida foydalanish o‗qituvchiga katta yordam beradi. O‗quv materialining elektron taqdimotda animatsiyalar shaklida berilishi o‗tilayotgan mavzuni tushunishni yengillashtiradi va ko‗rgazmalilikni oshiradi. Namoyish slaydlarini o‗quvchilarga tarqatma material sifatida ham berish mumkin. Bunga misol qilib, 4-sinf ona tili darslarida foydalanish uchun yaratilgan ―Kelishiklar‖ mavzusidagi elektron taqdimotni aytish mumkin. Elektron darslikdan mustaqil ta'lim olishda va o‗quv materiallarini har tomonlama samarali o‗zlashtirishda foydalanish mumkin. Elektron darslikda fanning o‗quv materiallari o‗quvchiga interfaol usullar bilan, psixologik va pedagogik jihatlar, zamonaviy axborot texnologiyalari, audio va video animatsiyalar imkoniyatlaridan o'rinli foydalaniladi. Kitob. uz saytida 1-4 sinf o'quvchilari uchun deyarli barcha fanlarning elektron darsliklari mavjud. Ammo ular matn va ovoz shaklida taqdim etilmagan. Elektron darsliklarni matn va ovoz shaklida, slayd-shou ko‗rinishda berish maqsadga muvofiq. Audio va video axborotlarning o‗zaro birgalikda qo‗llanishi o‗qitish samaradorligini keskin yuksaltiradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. ―boshlang'ich ta'imdagi yangicha texnologiya‖ 2015
2. ―barkamollik bsohlang'ich ta'limdan‖ 2019
3. ―pedagogic texnologiya‖ 2021

# MAKTABLARDA MATEMATIKA FANINI O'QITISHNING DOLZARB MASALALARI

**Ustemirova Ziyoda Ilyas qizi**
*Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq tumani*
*20-umumiy o'rta ta'lim maktabi matematika*

**Anantatsiya:** *Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida matematika fanini o'qitishning maqsad va vazifalari, zamonaviy metodlari hamda bu borada ayni damda mavjud muammo-kamchiliklar xususida so'z yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Inson tafakkuri, matematik bilim, ko'rgazmali qurollar, jadvallar, kompetentsiyalar, mantiqiy fikrlash.*

Ma'lumki, matematika fani - abstrakt fan. Uning mazmuni boshidan oxirigacha inson tasavvurining va mantiqiy tafakkurining mahsulidan iborat. Fanning bunday abstrakt tuzilishi, o'zini-o'zi boyitib borishi, ya'ni yangidan-yangi matematik tushunchalar va ularning xossalarini ma'lum xossalardan hosil qila olish imkoniyati qadimdan insonning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qilib kelgan. Xatto matematik masalalarni yechish musobaqalari o'tmishda inson aqlini peshlash vositasi bo'lgan. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, matematika fanining eng asosiy vazifasi aynan o'quvchilarni o'ylashga, to'g'ri, mantiqiy fikrlashga va mushohada yuritishga o'rgatishdan iborat ekanligi oydinlashadi. Hech qaysi fan matematika fanichalik o'quvchilarni o'ylashga va fikrlashga majbur qila olmaydi. Matematika darslarida turli tuman masala, muammo va jumboqlarni yechish orqali o'quvchilar to'g'ri fikr yuritish, mantiqiy fikrlashni o'rganadilar.

Zamonaviy ta'limda ta'lim oluvchi uchun dars jarayonidan tashqari vaqtlarda ham o'z ustida ishlashlari, bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish uchun imkoniyat yaratiladi. Matematika boshqa fanlar (fizika, ximiya, tarix va hokazo) kabi haqiqiy borliqni o'rganadi. Haqiqiy borliqning tuzilishi va undagi qonun qoidalarini tadqiqot qiladi. Haqiqiy borliq haqida turli modellar yasaydi. Agar, tabiiy fanlar o'z tadqiqotlarida tajribalarga asoslanishsa, matematika tajribalarga asoslanmaydi. Matematikadagi nazariyani amaliyot bilan bog'lash bilan bog'liq muammolarni tushunish va tasavvur qilishda tajribaga murojaat qilish mumkin. Biroq tajriba metodi matematikada isbot uchun qabul qilinmaydi.

O_qituvchilarning matematika fanlarini o_qitishda yo_naltirilgan darslar jarayonini noan'anaviy shakllarda tashkil etish, ta'lim jarayonini mukammal andoza asosida loyihalashga erishish, mazkur loyihalardan oqilona foydalana olish ko_nikmalariga ega bo_lishi ta'lim oluvchilar tomonidan nazariy bilimlarning puxta, chuqur o_zlashtirilishi, ularda amaliy ko_nikma va malakalarning hosil bo_lishining kafolati bo_la oladi.

Ta'lim jarayoni o_quv materiali mazmunini yoritishga xizmat qiluvchi muayyan mavzu bo_yicha nazariy va amaliy bilimlar majmuini ifoda etish imkonini beradi. Ta'lim mazmunida, shuningdek, o_quvchilar tomonidan o_zlashtirilishi lozim bo_lgan tushuncha, ko_nikma hamda malakalarning hajmi ham o_z ifodasini topa olishi lozim. Zero, ta'lim mazmunining g_oyaviy jihatdan mukammalligi o_quvchilar tomonidan muayan bilim, ko_nikma va malakalarning o_zlashtirilish darajasi bilan belgilanadi. Buning samarasi o_quvchilar tomonidan ma'lum

tushunchalarning o_zlashtirilishi, ko_nikma va malakalarning shakllanishini ta‘minlovchi shartlarning ishlab chiqilganligida namoyon bo_ladi.

Matematika darslarida foydalaniladigan interfaol metodlardan bir nechtasining mohiyati va ulardan foydalanish usullarini ko`rib chiqamiz. ―Fikriy hujum‖ metodi. Mazkur metod o_quvchilarning darslar jarayonidagi faolliklarini ta‘minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag_batlantirish hamda bir xil fikrlash inertsiyasidan ozod etish, muayyan mazvu yuzasidan rang-barang g_oyalarni to_plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo_lgan fikrlarni yengishga o_rganish uchun xizmat qiladi.

―6x6x6‖ metodi. ―6x6x6‖ metodi yordamida bir vaqtning o_zida 36 nafar o_quvchini muayyan faoliyatga jalb etish orqali ma‘lum topshiriq yoki masalani hal etish, shuningdek, guruhlarning har bir a‘zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. Bu metod asosida tashkil etilayotgan mashg_ulotda har birida 6 nafardan ishtirokchi bo_lgan 6 ta guruh o_qituvchi tomonidan o_rtaga tashlangan muammoni muhokama qiladi. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach o_qituvchi 6 ta guruhni qayta tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarning har birida avvalgi 6 ta guruhdan bittadan vakil bo_ladi. Yangidan shakllangan guruh a‘zolari o_z jamoadoshlariga guruhi tomonidan muammo yechimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni birgalikda muhokama qiladilar.

Tabiiy ilmiy fanlar haqiqiy borliqning noma‘lum bo‘lgan xossalarni topish uchun tadqiqot o‘tkazsa, matematika moddiy dunyoning qaralayotgan modellarida yangi xossalarni topadi va yangi modellar yaratadi. Bunga borliqdagi hodisalarni yaxlit talqin qilishga imkon beruvchi matematik modellashtirishlar misol bo‘ladi. Matematika bu aniq fanlar guruhiga mansub bo‘lib, uni o‘rganish va tadqiqot qilishning boshqa fanlardan farq qiluvchi o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Jumladan:

1) matematika predmetlarining abstraktlangan xossalarini o‘rganadi. Matematik ob‘ektlar mazmundan ajratilgan holda o‘rganiladi, ya‘ni ob‘ektning ta‘mi, hidi, qattiq yoki yumshoq kabi xususiyatlar inobatga olinmaydi. Chunki, matematik ob‘ektdagi bu xususiyatlar umumlashtiriladi, abstraktlanadi va uning yordamida matematik nazariya yaratiladi. Aks holda nazariyani yaratib bo‘lmaydi.

2) matematik xulosalar (natijalar) asosan mantiqiy xulosa chiqarish bilan olinadi. Tajriba metodi bilan olingan natija matematika uchun to‘g‘ri hisoblanmaydi.

3) matematik xulosalar rad qilinmas xulosalardir.

4) matematikadagi paydo bo‘lgan abstraktsiyalar pag‘onasimon rivojlanadi, ya‘ni abstraktsiyadan abstraktsiyaga o‘tiladi.

5) matematik natijalar universal xarakterda bo‘lib, bu boshqa sohalarga ham tadbiq etiladi[5].

O‘rta maktablarda matematika o‘qitishning maqsadi quyidagi 3 omil bilan belgilanadi:

1. Matematika o‘qitishning umumta‘limiy maqsadi. 2. Matematika o‘qitishning tarbiyaviy maqsadi. 3. Matematika o‘qitishning amaliy maqsadi. Matematika o‘qitishning umumta‘limiy maqsadi o‘z oldiga quyidagi vazifalarni qo‘yadi:

a) o‘quvchilarga ma‘lum bir dastur asosida matematik bilimlar berish. Bu bilimlar tizimi matematika fani to‘g‘risida yetarli darajada ma‘lumot berish, ulami matematika faninng yuqori bo‘limlarini o‘rganishga tayyorlashi kerak. Bundan tashqari dastur asosida o‘quvchilar o‘qish

jarayonida olgan bilimlarini ishonchli ekanligini tekshira olishni o‘rganishlari, ya‘ni isbotlash va nazorat qilishning asosiy metodlarini egallashlari kerak.

b) o‘quvchilarning og‘zaki va yozma matematik bilimlarini tarkib toptirish. Matematikani o‘rganish o‘quvchilarning o‘z ona tillarida xatosiz so‘zlash, o‘z fikrini aniq, ravshan va lo‘nda qilib bayon eta bilish malakalarini o‘zlashtirishlariga yordam berishi kerak. Bu degani o‘quvchilarning har bir matematik qoidani o‘z ona tillarida to‘g‘ri gapira olishlariga erishish hamda ularni ana shu qoidaning matematik ifodasini formulalar yordamida to‘g‘ri yoza olish qobiliyatlarini atroflicha shakllantirish demakdir;

v) o‘quvchilami matematik qonuniyatlar asosida real haqiqatlarni bilishga o‘rgatish. Bu yerda o‘quvchilarga real olamda yuz beradigan eng sodda hodisalardan tortib to murakkab hodisalargacha hammasining fazoviy formalalari va ular orasidagi miqdoriy munosabatlarni tushunishga imkon beradigan hajmda bilimlar berish ko‘zda tutiladi. Bunday bilimlar berish orqali esa o‘quvchilarning fazoviy tasavvur qilishlari shakllanadi hamda mantiqiy tafakkur qilishlari yanada rivojlanadi.

¬ O‘quvchilarda matematik tafakkurni va matematik madaniyatni shakllantirish. Matematika darslarida o‘rganiladigan har bir matematik xulosa qat‘iylikni talab qiladi, bu esa o‘z navbatida juda ko‘p matematik tushuncha va qonuniyatlar bilan ifodalanadi. O‘quvchilar ana shu qonuniyatlarni bosqichma-bosqich o‘rganishlari davomida ularning mantiqiy tafakkur qilishlari rivojlanadi, matematik xulosa chiqarish madaniyatlari shakllanadi. O‘quvchilarni biror matematik qonuniyatni ifoda qilmoqchi bo‘lgan fikrlarni simvolli tilda to‘g‘ri ifodalay olishlari va aksincha simvolli tilda ifoda qilingan matematik qonuniyatni o‘z ona tillarida ifoda qila olishlariga o‘rgatish orqali ularda matematik madaniyat shakllantiriladi. 3. Matematika o‘qitishning amaliy maqsadi o‘z oldiga quyidagi vazifalami qo‘yadi:

- Matematika kursida olingan nazariy bilimlarni kundalik hayotda uchraydigan elementar masalalarni yechishga tadbiq qila olishga o‘rgatish. Bunda asosan o‘quvchilarda nazariy bilimlarni amaliyotga bog‘lay olish imkoniyatlarini tarkib toptirish, ularda turli sonlar va matematik ifodalar ustida amallar bajarish malakalarini shakllantirish va ularni mustahkamlash uchun maxsus tuzilgan amaliy masalalarni hal qilishga o‘rgatiladi.

Ta‘kidlash joizki, biror tabiiy hodisa va jarayonlarni matematika yordamida o_rganish uchun bu jarayonni soddalashtirib o_rganish zarur. Undagi ko_pxillik xossalardan biz uchun zarur bo_ladiganini ajratib olish va bunda ba‘zi xususiyatlarni e‘tiborsiz qoldirishga to_g_ri keladi. Biz uchun eng muhimi mavjud hodisa va jarayonni matematika tilida ifodalash uchun zarur bo_ladiganlarigina qoldiriladi. Hodisa va jarayonlarni bunday usulda matematika tilida ifodalashni matematik model deb atashadi[4].

- Matematikani o‘qitishda texnik vosita va ko‘rgazmali qurollardan foydalanish malakalarini shakllantirish. Bunda o‘quvchilarning matematika darslarida texnika vositalaridan, matematik ko‘rigazmali qurollar, jadvallar va hisoblash vositalaridan foydalana olish malakalari tarkib toptiriladi.

- O‘quvchilarni mustaqil ravishda matematik bilimlarni egallashga o‘rgatish. Bunda asosan o‘quvchilarni o‘quv darsliklaridan va ilmiy-ommaviy matematik kitoblardan mustaqil o‘qib o‘rganish malakalarini shakllantirishdan iboratdir.

Shunday ekan, o‘rta umumiy ta‘lim tizimida matematika fanini o‘qitishning eng asosiy vazifasi o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash, to‘g‘ri mushohada yuritish layoqatlarini (kompetentsiyalarini) tarkib toptirishdan iborat bo‘lmog‘i lozim. Fanga oid umumiy kompetentsiyalar matematika fanidan o‘quvchilar bilishi va uddalashi lozim nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni, fanga oid kognitiv kompetentsiyalar aynan yuqorida zikr etilgan mantiqiy fikrlash, o‘qib-o‘rganish va fan bo‘yicha o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalarni amaliyotda qo‘llash bo‘yicha talablarini umumiy holda belgilaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. file:///C:/Users/comp-tex/Downloads/maktablarda-matematika-fanini-o-qitishning-dolzarb-masalalari.pdf
2. https://kompy.info/matematika-fanlarini-oqitishda-zamonaviy-axborot-texnologiyala.html
3. file:///C:/Users/comp-tex/Downloads/matematika-darslarini-o-qitishda-interfaol-metodlardan-foydalanish.pdf
4. https://cyberleninka.ru/article/n/matematika-darslarini-o-qitishda-interfaolmetodlardan-foydalanish/viewer
5. ―Umumiy o_rta ta‘limning davlat ta‘lim standartlarini tasdiqlash to_g_risida‖gi qarori (1999 yil 16 avgust) //Xalq ta‘limi j. 1999. № 5

# O‘ZBEK XALQ OG‘ZAKI IJODI

**Raxmatova Feruza Farxodovna**
**Jumayeva Shaxnoza Ibragimovna**
*Buxoro viloyati Buxoro Shahar*
*Ixtisoslashtirilgan san‘at maktabi musiqiy – nazariy fanlar o‘qituvchisi*

**Annotasiya**: *Mazkur maqolada xalqimiz musiqiy merosini ajralmas qismi hisoblangan –O‘zbek xalq og‘zaki ijodi‖ haqida , hamda uning asosiy tarkiblari haqida keng ma‘lumot berib o‘tiladi.*

**Kalit so‘zalr:** *Qo‘shiq , matal, maqol, topishmoq, lapar, doston , afsona, rivoyat, asotir, ertak, Latifa , lof, termalar, folklor og‘zaki ijodi, folklorda an‘anavuylik.*

O`zbek xalqining eng qadimgi davrdan shu kunga qadar etib kelgan madaniy meroslaridan biri xalq og`zaki badiiy ijodidir. Ilmiy adabiyotda qo`llanadigan halq og`zaki badiiy ijodi yoki fol‘klor termini xalqning uzoq asrlardan beri davom etib kelayotgan og`zaki badiiy ijod namunalarini o`z ichiga oladi. Ilmiy adabiyotga birinchi marta 1846 yilda Vil‘yam Tomson tomonidan kiritilgan fol‘klor termini inglizcha ikki so`zdan - «fol‘k» ( ) «lor» ( ) dan iborat bo`lib, xalq donishmandligi donoligi kabi ma‘nolarni anglatadi

Xalq og‘zaki ijodi yozma adabiyotdan ancha ilgari paydo bo‘lgan va yozma adabiyotning bunyodga kelishi uchun zamin hozirlagan.Xalq yaratgan asarlar o‘zining g‘oyaviyligi, chuqur xalqchilligi, til boyligi va badiiyligi bilan ahralib turadi.U xalqning yengilmas irodasini, kelajakka bo‘lgan ishonchini, haqiqat, adolat,tinchlik va baxt haqidagi tasavvurlarini yaqqol aks ettiradi.Xalq shoirlari yoki jamoat tomonidan yaratilib, og‘izdan-og‘izga , avloddan-avlodga o‘tib kelgan badiiy asarlar xalq og‘zaki ijodi deyiladi.Xalq og‘zaki ijodi fol‘klor deb ham yuritiladi.Xalq og‘zaki ijodiga quyidagi janrlar kiradi: qo‘shiq, maqol, matal, topishmoq, afsona, rivoyat, asotir, ertak, latifa, lof, lapar, termalar, doston, askiya, tez aytish, masal, alla, yor-yorlar, kelin salomlar va h.k.

Lapar,lof,askiya kabi janrlar tortishuv, bahslashuv,aytishuv, hazil-mutoyiba,mubolag‘a asosida ijro etiladi.

*QO‘SHIQ* – kuyga solib aytiladigan kichik lirik sher.Qoshiqlarning quyidagi turlari mavjud:

1. Lirik qo‘shiqlar. Bunday qo‘shiqlarda insonlarning ruhiy olami, ishqiy kechinmalari aks etadi, to‘rt misralik bandlardan tashkil topadi, ular kasb,payt,o‘rin tanlamaydi: ularni istalgan vaqtda istalgan kishi xohishiga ko‘ra baland ovoz bilan yoki xirgoyi qilib aytaveradi.
2. Mehnat qo‘shiqlari:

a) Dehqonchilik bilan bog‘liq qo‘shiqlar: qo‘sh qo‘shiqlar, o‘rim qo‘shiqlari, yanchiq qo‘shiqlari (―Xo‘p maydalar‖ ), yorg‘ichoq qo‘shiqlar

b) Chorvachilik bilan bog‘liq qo‘shiqlar: sog‘im qo‘shiqlari: xo‘sh-xo‘sh govmishim, turey-turey, churiyalar.

c) Hunarmandchilik bilan bog‘liq qo‘shiqlar: charx qo‘shiqlari,bo‘zchi qo‘shiqlari,o‘rmak qo‘shiqlari (o‘zbek ayollarining gilam to‘qish bilan bog‘liq mehnat qo‘shiqlari), kashta qo‘shiqlari

3. Mavsumiy – marosim qo‘shiqlari:

Yil fasllari tasvirlangan qo‘shiqlar mavsum qo‘shiqlari deyiladi.Qadimgi qo‘shiqlarning namunalari Mahmud Koshg‘ariyning ―Devonu lug‘otit - turk‖ asari orqali yetib kelgan.Bizgacha yetib kelgan mavsumiy – marosim qo‘shiqlari quyidagilar:

a) Sust xotin (yomg‘ir chaqirish qo‘shig‘i). Sust xotin qadimgi zardushtiylik dinida muqaddas sanalgan Tishtiriyaning xalq o‘rtasida nomi o‘zgarib ketgan obrazidan iborat.Bunda bahor oylarida yomg‘ir yetarli yog‘masa, qishloq ayollari yig‘ilib, poliz qo‘riqchisiga o‘xshash qo‘g‘irchoqqa keksa ayol ko‘ylagini kiydirib, qishloqdagi barcha xonadonlarga kirishib, Susut xotin qo‘shig‘ini aytib yurganlar.Xonadon egalari ularni shodlik bilan qarshi olib, qo‘g‘irchoq ustidan suv sepishib, marosim ishtirokchilariga xayr-sadaqa qilishgna.Marosim tugagach yig‘ilgan xayr-sadaqa hisobiga Sust xotinga atab katta is chiqarishgan.

b) Choy momo (shamol to‘xtatish). Bunday qo‘shiqlarda iltijo qilinadigan Choy momo tarixan Chuy momo, ya‘ni Shamol momo obrazidan iborat bop‘lib, u zardushtiylikning shamol tangrisi hisoblangan.Bu marosim quyidagicha o‘tkazilgan: ikki kampir eski kiyim va chopon kiyib, yuzlariga qora quya surtishib, qo‘llariga aso ushlab oldinda Choy momo qo‘shig‘ini aytib yurishgan.Bo‘y yetib qolgan beshta qiz boshlariga sholcha yopib, kampirlar ortidan ergashib, qo‘shiqqa jo‘r bo‘lib yurishgan.7-8 yoshlardagi bir yoki bir necha o‘g‘il bolalar xurjun osilgan eshaklarga minishib, xonadonlardan xayr-sadaqalarni yig‘ib yurishgan.Eshakka o‘qlog‘, yumshoq supurgi va keli sopi sudratib qo‘yilgan.Marosim tugagach, yig‘ilgan xayr-sadaqa hisobiga shamol tangrisi sharafiga is chiqarilgan.Choy momo marosimlari hozir Qozog‘istonning Turkiston,Sayram atroflarida yashovchi o‘zbeklar orasida saqlanib qolgan.

MAQOL – xalqning dono, purhikmat ifodalari,yirik madaniyat arboblari,olimlar,davlat arboblarining ibratomuz gaplari, xalqning hayotiy tajribalari asosida yuzaga kelgan dono fikrlarni ixcham shaklda ifodalovchi asarlardir.Maqollar she‘riy va nasriy tuzilishga ega.Ularda mehnatsevarlik,vatanparvarlik,mardlik,saxiylik,adolat,insof,do‘stlik,olijanoblik,chininsoniy g‘oyalar,sof muhabbat,ilm olisga da‘vat kabilar o‘z eksini topgan.

Misollar: Azob ko‘rmay – rohat yo‘q, Ishl;amay yegan – og‘rimay o‘lar, Tirishgan tog‘dan oshar, Vataning tinch – sen tinch va boshqalar.

*MATAL* – ko‘chma ma‘noda ishlatiluvchi xalq majoziy iboralarining bir turi.Matal o‘z ma‘nosidan boshqa ma‘noga ko‘chirilgan so‘z birikmalaridan iborat bo‘ladi,unda o‘xshatish,kinoya,qochirma so‘z va boshqa til vositalari qo‘llaniladi.Bunda majoziy iboraning o‘z asl ma‘nosi bilan ko‘chirilgan ma‘nosi o‘rtasida mantiqiy bog‘lanish bo‘ladi.

Misollar: Temirni qizig‘ida bos, Chumchuq so‘ysa ham,qassob so‘ysin

TOPISHMOQ – narsa yoki hodisalarning ataylab yashiringan belgisi, shakli,xatti-harakati, holati va vazifasini boshqa narsa yoki hodisaslarga qiyoslash asosida topishga asoslangan she‘riy yoki nasriy tuzilishdagi savol va topshiriqlar.Topishmoqlar o‘zbeklar o‘rtasida topishmoq, jumboq ushuk, top-top kabi atamalar bilan yuritiladi.topishmoqlar xalq turmush bilan chambarchas bog‘liq holda yaratiladi.Ularning zaminida kishilarning qadimiy e‘tiqod va tasavvurlari, ularning olamni bilish va idrok etishga bo‘lgan intilishlari yotadi.

Misollar: Osh ichida tosh tosh ichida osh (o‘rik)

*AFSONA* (legenda) – xayoliy uydirmalar asos bo‘lgan kichik nasriy hikoyalar hisoblanadi.Afsona atamasi forscha fusun – sehr,avrash so‘zidan olingan.Afsonalar asosida muayyan darajada tarixiy voqea va hodisalar yotadi, uzoq davrlar o‘tishi bilan o‘zining aniq ildizlarini yo‘qotadi, voqelikni yuksak badiiylikda aks ettirmaydi.Afsona ijrochisi xalq ommasidir.Aristotel afsonalarni haqiqatdan xabar beruvchi yolg‘on hikoyalar deb atagan.Afsonalar o‘z mavzusiga ko‘ra tarixiy,toponomik,diniy,maishiy kabi turlarga bo‘linadi.

Misollar: Xazorasp, Guldursun, Ayoz qal‘a, Shohsanam ko‘shki, Obshir ota, To‘maris, Shiroq va boshqalar.Qadimgi turk adabiyotida afsona sav deb atalgan.

*RIVOYAT* – xalqning tarixiy o‘tmishi haqidagi badiiy yodnomalar.Biz rivoyatlar va afsonalar tufayli ajdodlarimiz ko‘rsatgan buyuk qahramonliklar haqidagi tarixni bilib olamiz.Rivoyatlar afsonalarga qaraganda tarixga yanada yaqin turadi.Ular ham xalq ijodidir.Ertakli ertakchi, dostonlarni baxshilar ijro etganlari holda afsona va rivoyat istalgan kishi tomonidan aytilishi mumkin.

*ASOTIR* – ibtidoiy insonlarning koinot, tabiat hodisalarining mohiyati, paydo bo‘lish sabablarini o‘zlaricha izohlash maqsadida yaratgan og‘zaki hikoyalari.Asotirlarda barcha mavjudot jonli obrazlar vositasida harakat qiladi.Biror narsa yoki hodisaningf paydo bo‘lishi (etimologiya) va yo‘qolib ketishi (esxatologiya) haqida ham juda ko‘plab asotirlar mavjud.Asotirlar ertaklarga yaqin turadi.Ularning har ikkisida ham fantastika, badiiy xayolot yetakchilik qiladi.Asotirlar bir qancha turlarga bo‘linadi: a)Etiologik miflar – tabiat hodisalari,tabiatdagi biror predmetlarning paydo bo‘lishi haqidagi miflar; b) kosmologik miflar – dunyoning paydo bo‘lishi , koinot jismlari haqidagi miflar; c)etnogonik miflar – biror urug‘, qabilaning paydo bo‘lishi haqidagi miflar; d)antropogonik miflar – insonlarning paydo bo‘lishi haqidagi miflar; e) esxatologik miflar – insonlarning kelajagi haqidagi miflar va h.k.

Misol: Aziz Momo, Oy bilan kun (oilaviy hayot haqida,bu asotirda qo‘llangan Yulduz uchdi degan tushuncha Oy uyquga ketganda, Kun bolalaridan birini olib qochmoqchi bo‘lgani bilan bog‘liqdir.)

*ERTAK* – hayot haqiqatiga asoslangan,xayolot va fantastika xususiyatlari bilan yo‘g‘rilgan , odamlarga ibrat o‘git beruvchi og‘zaki hikoyalar hisoblanadi.O‘zbeklar o‘rtasida ertaklar varsoq, cho‘pchak, masala kabi atamalar bilan yuritiladi.Ertaklarning o‘ziga xos janr xususiyatlari quyidagilar: 1.Og‘zaki hikoyaga asoslangan qiziqarli syujetga ega bo‘lishi; 2.voqealarning ongli tarzda xayoliy uydirmalar orqali aks ettirilishi; 3.estetik vazifaning yetakchilik qilishi; 4.o‘ziga xos badiiy shakily qolip hamda tilga ega bo‘lishi (ertaklar bir bor ekan, bir yo‘q ekan… kabi maxsus boshlamalar bilan boshlanib, murod maqsadiga yetibdi,birga turib, birga yashabdilar,soqoli ko‘ksiga yetibdi kabi maxsus tugallanmalar bilan yakunlanadi.)

Xalq ertaklari mazmunan 3 guruhga bo‘linadi:

1.Hayvonlar haqidagi hamda majoziy ertaklar (Susambil, bu ertakda yo‘lda eshakka ho‘kiz,xo‘roz,ikkita kalamush, arilar hamroh bo‘ladilar.Ertak qahramonlari – Ho‘kiz (munkarnakir), kalamushlar (go‘rkovlar), arilar (Azroil), xo‘roz (so‘fi), eshak (eshon), bo‘rilar)

2.Sehrli – fantastic ertaklar (Guliqahqah – bu ertakda Tilla kokilli bola shum kampirning hiylasi bilan Guliqahqahni, qirq qozonni,oynayi jahonnamoni qo‘lga kiritadi.Ertak qahramonlari: Tilla kokilli bola, Guliqahqah,chol,qush (o‘z farzandini tanimagan podshohga

tilla kokilli bola uning farzandi ekanligini aytgan), podsho (ikki xotinini vas hum kampirni otning dumiga bog‘lab o‘ldirgan), shum kampir va boshqalar. ―Bitta dev tishini kavlasa, biror odamning soni chiqibdi‖ degan mubolag‘a ham shu ertakda uchraydi ), Husniyabonu (ertak qahramonlari: Gardanshoh, Nodirai davron, Husniyabonu va boshqalar.Ertakda Husniyabonu o‘g‘rilarning boshlig‘I eshon ekanligini aytganda, podsho darg‘azab bo‘lib, uni osishga buyuradi, lekin vazirining maslahatiga ko‘ra Husniyabonu va uning doyasini dashtu biyobonga tashlab kelishadi, daraxt ostidan topib olgan xazinani Husniyabonu yetim-yesirlarga shahar qurish uchun sarflaydi.) , ―Guljamol‖

3.Hayotiy-maishiy ertaklar (Malikai Husnobod)

Voqelikka hajviy yondashish orqali aks ettirish jihatidan o‘zbek xalq ertaklari hajviy va hajviy bo‘lmagan ertaklar kabi turlarga bo‘linadi.Ishqiy-sarguzasht ertaklarda sevgida vafodorlik kuylanadi.Ertaklarni yozib olish va nashr qildirish, asosan XIX asr oxiri va XX asr boshlaridan boshlandi.

*LOF* – biror voqeani o‘ta bo‘rttirib aytish, hazil-mutoyibaga asoslangan janr.

*LAPAR* - xalq qo‘shiqlarining bir turi, asosan, iki kishi tomonidan yoki ikki taraf tomonidan aytiladi.Lapar aytishuv deb ham yuritiladi.

*TERMALAR* – pand-nasihat,odob-axloq,soz va so‘z haqida yaratilgan ijtimoiy hayotdagi turli hodisalar, shaxs va jonivorlarning ta‘rifi va tanqidiga bag‘ishlangan baxshilar tomonidan kuylanadigan 10-12 satrdan 150-200 , ba‘zan undan ham ortiq misralargacha bo‘lgan lirik,liro-epik she‘rlar.

*DOSTON* - xalq og‘zaki ijodining eng murakkab,yirik va keng tarqalgan janrlaridan biri.Doston so‘zi qissa,hikoya,shonu shuhrat,sarguzasht,ta‘rif va maqtov ma‘nolarida ishlatiladi.Dostonlar lirik doston (Mirtemirning ―Surat‖,A.Oripovning ―Yuzma-yuz‖ dostonlari), epik doston (Oybekning ―Davrim jarohati, M.Shayxzodaning ―Toshkentnoma‖, E.Vohidovning ―Istanbul fojeasi‖ dostonlari) , dramatic doston (Fitratning ―Shaytonning tangriga isyoni‖, A.Oripovning ―Jannatga yo‘l‖ dostonlari) kabi uch turga bo‘linadi.

Xalq dostonlarini do‘mbira jo‘rligida ijro etuvchi va kuylovchi san‘atkor shoir yoki baxshi deb atalgan. Xalq dostonlarini ijro etish uslubiga ko‘ra Bulung‘ur,Shahrisabz,Sherobod,Janubiy Tojikiston va Xorazm dostonchilik maktablari mavjuddir.

Fol‘klorshunoslar tomonidan o‘zbek xalq baxshilarining aytib turishi asosida 150 dan ortiq (variantlari bilan 400 dan ortiq) dostonlar yozib olingan bo‘lib, ularning ko‘pchiligi kitob holiday nashr qilingan.Bu dostonlar quyidagi turlarga bo‘linadi:

1.Qahramonlik dostonlari: bunday dostonlar urug‘chilik zamonlari bilan, xalqning ko‘chmanchilik hayoti bilan bog‘liq. ―Alpomish‖, ―Yodgor‖.

2.Jangnoma dostonlar: bunday dostonlarda o‘zaro jangu jadallar, afsonaviy yoki tarixiy urushlar, bunday urushlardagi qo‘shin yoki yakka shaxsning jasoratlari tasvirlangan. ―Yusuf va Ahmad‖, ―Alibek bilan Bolibek‖, ―Xoldorxon‖.

3.Ishqiy-romantik dostonlar : bunday dostonlarda sevgi romantikasi va fantastic sarguzashtlar uyg‘unlashib ketadi. Murodxon, Rustamxon, Kuntug‘mish,Malikai ayyor

4.Tarixiy dostonlar: bu turdagi dostonlarda tarixda bo‘lib o‘tgan voqea-hodisalar,ayrim tarixiy shaxslarning faoliyati ifoda etilgan. Edega, Shayboniynoma, Oychinor.

5.Kitobiy dostonlar: ular yaratilishi jihatidan yozma adabiy manbaga ega bo'lgan bevosita yozma adabiyot ta'sirida yaratilgan dostonlardir. Layli va Majnun, Farhod va Shirin, Zevarxon, Rustami doston.

*ASKIYA* - o'zbek xalq og'zaki jodining xushchaqchaq va kulguli bir janri.Askiya atamasi arabcha zakiy so'zidan olingan bo'lib, zehni o'tkir, so'zamol,zakovatli ma'nolarini bildiradi. Zakiy so'zining ko'plik shakli askiyo bo'lib, talaffuzda askiya ko'rinishini olgan.Askiyalarning o'z syujeti va kompozitsiyasi bo'ladi.Bu ayniqsa payrov turida ravshan ko'rinadi.Payrov askiya aytuvchilar tanlagan mavzudir.

*TEZ AYTISH* – ma'lum so'zni,so'z birikmasini yoki tovushni to'g'ri talaffuz qilishga , uni boshqa tovushglardan farqlashga o'rgatadigan,xotirani mustahkamlaydigan va nutqni o'stiradigan janr hisoblanadi.

*ALLA* - bolalarni uxlatish uchun onalar aytadigan qo'shiq.Alla ohangi beshik yoki belanchak tebranish sur'atiga mos bo'ladi.

Xalq og`zaki ijodi-fol'klor xalq tomonidan asrlar o`tib, rivojlanib, uzluksiz davom etib kelayotgan kollektiv ijodidir. U xalqning ijtimoiy hayotini, tarixini, kurash yo`lini yorqin ifodalaydi. Haqiqatdan ham halq og`zaki badiiy ijodi xalq tarixining badiiy in'ikosidir. Chunki, fol'klor asarlarida ijodkor xalqning ko`p asrlik tarixi, turmush tajribasi, tabiat hodisalariga munosabati, ijtimoiy hodisalarga qarashi badiiy ifodalangan.

# СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СУПРУЖЕСКОЙ СОВМЕСТИМОСТИ В БРАЧНЫХ ОТНОШЕНИЯХ

**Имомкулова Фотима**
*ЖСПИ Кафедра «Общая психология»*

**Аннотация:** *в статье отражены нравственные качества членов семьи, проблемы, присущие различным аспектам семейных и супружеских отношений,проблемы семьи, надежные отношения между родителями и детьми, материальная поддержка членов семьи другими лицами.*

**Ключевые слова:** *семья, развитию брачно-семейных отношений, стабильность, членов семьи.*

В настоящее время общество находится на этапе изменений и переустройств всех сфер жизни. Эти преобразования коснулись семейной системы, в которой центральное место занимают супружеские отношения Межличностное взаимодействие супругов представляет основу семейного благополучия и психологического комфорта ее членов. Качество брачных отношений во многом обусловлено совместимостью супругов, их социальным и психофизическим соответствием и согласованностью взглядов, установок и привычных форм реагирования. Общая мотивация семейного союза включает четыре ведущих мотива: хозяйственно-бытовой,нравственно-психологический, семейно-родительский и интимно-личный. Итак, мы можем вступать в брак, в основном (именно в основном, ибо хоть в какой-то степени, но и все другие мотивы также присутствуют в любом браке) ориентируясь на него:

- как на преимущественно хозяйственно-бытовой союз, т. е. искренне считая, что главное в семье — это хорошо налаженный быт и домоводство как на союз нравственно-психологический, желая найти верного друга и спутника вашей жизни, хорошо понимающего именно вас;
- как на союз семейно-родительский, педагогический, исходя из того, что главная функция семьи есть рождение и воспитание детей;
- как на союз интимно-личный, стремясь найти желанного и любимого партнера для любви. Конечно же, ни одна из этих целей не исключает других.

Но если один супруг считает главной одну из них, а другой — другую (а домашние — вообще третью), конфликты в семье неизбежны, особенно в острые, переломные, кризисные периоды семейной жизни, когда обнажаются и сталкиваются друг с другом могущие быть бессознательными главные мотивы. Следовательно, для того чтобы первичная ролевая адаптация оказалась успешной, каждому супругу нужно достаточно четко прояснить для самого себя мотивацию семейного союза, а после обговорить ее с другим супругом, не только поставив точки над«i», но и

обязательно приведя эти точки к соприкосновению, выяснив расхождения и придя к единому мнению.

Помимо достижения большего соответствия в мотивации брака первичная ролевая адаптация обязательно включает согласование представлений о характере и распределении семейных обязанностей. Межличностная адаптация предполагает взаимоприспособление супругов к особенностям личности друг друга и необходимость и возможность слияния их «Я» в одно «Мы». Говори о специфике общения супругов, следует отметить определеннуюпериодичность в эмоциональном отношении супругов. Наукой (биоритмология) установлено, что в жизни многих супругов, даже у самых совместимых по всем параметрам будут периодически наблюдаться спады эмоциональных отношений по независящим от них причинам. Учѐные считают, взлѐты и падения в эмоциональных отношениях супругов подчинены определѐнным закономерностям. Эмоциональное отношение супругов периодически проходит пять стадий, отличающихся друг от друга величиной эмоционального возбуждения, направленностью эмоций, характером их взаимоотношений:

«Первая стадия - период глубокой страстной влюблѐнности человека, когда он полностью находится под влиянием положительной установки («герой»): супруг безраздельно занимает всѐ внимание.

На второй стадии наступает некоторое охлаждение: любимого всѐ реже всплывает в его отсутствие, однако только его появление вызывает сильный прилив положительных эмоций, любви, нежности к нему.

На третьей стадии происходит дальнейшее остывание эмоционального отношения. Теперь уже в его отсутствие она испытывает своеобразный психологический дискомфорт, чувствует себя плохо, всяческие «чѐрные» мысли лезут в голову. При одном только его появлении нежность, любовь не вспыхивает. Теперь для этого необходим стимул: надо, чтобы он делал что-то приятное, доказывающее его любовь ... Это стадия привыкания.

Если на этой стадии не снизить интенсивность общения, начинается период, когда присутствие супруга вызывает неосознанное раздражение ... и создаются предпосылки для размолвок ... Но как только он - «с глаз долой» - равновесие восстанавливается.

На пятой стадии человек полностью находится под влиянием отрицательной установки, теперь супруг опять целый день не выходит из головы, но теперь - это не «герой», а «злодей» ... совместная жизнь «теряет всякий смысл». Этот этап наиболее опасен и сопровождается обычно соответствующими отношениями, когда хочется бежать не от него, а к нему, чтобы сразиться с ним да побольнее уколоть его, чтобы «всю правду в глаза ему» - и о нѐм, и о его родных».

Наступает своеобразное пресыщение друг другом. Это ведет к скуке, потом раздражению, неприязни и, в конечном счѐте, к ссорам и конфликтам. О назревании конфликта свидетельствует ряд признаков. К ним относятся прежде всего

«уменьшение количества взаимных обращений супругов друг к другу. Общение становится все более коротким, немногословным. В их речах встречаются больше безапелляционных категорических суждений и интонаций, намекающих супругу, что он как равный собеседник не воспринимается. Всѐ меньше демонстрируется желание и умение выслушать своего партнѐра.

Австралийским психологом Уолтером Тоуменом было проведено в начале семидесятых годов классическое исследование на эту тему. Он изучил тысячи семей и неизменно обнаруживал, что, несмотря на большие различия в ценностях, образовательном уровне или материальном достатке этих семей, люди, занимающие одинаковые позиции в структуре семьи, имеют очень похожие характеристики.

Есть две группы факторов, которые определяют становление психологических характеристик детей с разным порядковым номером. Во-первых, одни и те же родители склонны по-разному реагировать на появление первого и последующего ребенка и иметь по отношению к ним совершенно различные ожидания. Во-вторых, на формирование различий между детьми сильно влияет их место среди братьев и сестер. Оно во многом и предопределяет характер складывающихся между детьми отношений.

Первые дети - это нечто новое, непознанное и интересное для родителей, поэтому психологические характеристики детей с номером "один" сильно выделяются. Они зачастую оказываются для них "подопытными кроликами". В отличие от других, эти дети с самого начала получают громадную заботу и внимание со стороны взрослых. Их самочувствие и поведение постоянно волнуют окружающих. Родители с энтузиазмом берутся воспитывать ребенка, но им еще не хватает практики общения с детьми. Как правило, родители много ожидают от своих первенцев и относятся к ним с нежностью, но и наказывают их строже. С более поздними детьми родители ведут себя спокойнее и их ожидания более реалистичны.

Первенцы, как правило, показывают более высокие результаты в тестах на интеллект, чаще получают высшее образование. Они также охотнее подчиняются просьбам родителей и других взрослых. Говоря о психологических характеристиках детей, родившимся позже, необходимо отметить, что им приходится больше стараться, чтобы наладить отношения со старшими сиблингами. Может быть поэтому, они более популярны среди сверстников и восприимчивы к новизне.

## ЛИТЕРАТУРА:

1.Ковалев С.В. Психология современной семьи. – М.: Просвещение, 2009. – 208с.

2.Мы и наша семья. - М., 2009. – 209с.

3.Трухин И.А. Будущему семьянину. - С. 66

4.Херсонский Б.Г., Дворак С.В. Психология и психопрофилактика семейных конфликтов. К.: Здоровье, 2011. – 192с.

5.Шмелев А.Г. Острые углы семейного круга. М.: Знание, 2008. – 96с.

# MONARDA (MONARDA DIDYAMA L) – EKININI INTRODUKSIYA QILISH VA XALQ XO'JALIGIDA FOYDALANISHNING AMALIY AHAMIYATI

**Hazratqulova Mahbuba Jo_raevna**
*Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti*
*Meva-sabzavotchilik, uzumchilik, issiqxona xo'jaligi kafedrasi*
*o_qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Monarda o'simligi dorivor hom ashyo, mahalliy homashyo bazasi uchun iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan tabiiy manba hisoblanadi. Dorivor va ziravor xushbo_y o_simliklar turlarini kengaytirish import qilinadigan mahsulotlar hajmini kamaytiradi. Mamlakatimiz sharoitida dorivor va ziravor o'simliklar cheklangan miqdorda o'sadi, shu boisdan O`zbekiston Respublikasi uchun o'simliklarni introduksiya qilish masalasi juda dolzarbdir.*

**Kalit so_zlar:** *monarda, efir moyi, shifobaxsh, ziravor, dorivor, introduksiya, manzarali, hushbo'y.*

Dunyo mamlakatlarining aholi sonini yildan yilga oshishi, sabzavot mahsulotlariga bo_lgan talabning kundan kunga ortib borishiga sabab bo_lmoqda. Bugungi kunda O_zbekiston hududida efir moyli xom ashyoni ishlab chiqarishga katta e'tibor qaratilib, ekin maydonlari kengaytirilmoqda. Mamlakatimizning iqlim sharoitida hosildorligi yuqori bo`lgan ekinlar assortimentini tanlash dolzarb muammo hisoblanadi.



O'simliklar introduksiyasidan asosiy maqsad, ma'lum bir hududning florasini yangi iqtisodiy qimmatli turlarga ega bo'lgan o`simliklar bilan boyitish, tabiiy resurslardan to'liqroq va oqilona foydalanishdir. Shu maqsadda turli kolleksiyalarni yaratish, o_rganish va saqlash vazifalari hal etilmoqda. So'nggi yillarda efir moyiga boy ziravor va dorivor o'simliklarni o'rganishga faol qiziqishlar ortib bormoqda. Bu o'simliklar dorivor, mahalliy homashyo bazasi uchun iqtisodiy ahamiyatga ega tabiiy manba hisoblanadi. Dorivor va ziravor xushbo_y o_simliklar turlarini kengaytirish import qilinadigan mahsulotlar hajmini kamaytiradi. Mamlakatimiz sharoitida dorivor va ziravor o'simliklar cheklangan miqdorda o'sadi, shu boisdan O`zbekiston Respublikasi uchun o'simliklarni introduksiya qilish masalasi juda dolzarbdir.

***Monarda (Monarda didyama L)*** – Yalpizdoshlar (Lamiceae) oilasiga mansub bir yillik va ko'p yillik, efir moyli ziravor, shifobaxsh va achchiq aromatik o'simlik bo‗lib, Shimoliy Amerikaning sharqiy qismida keng tarqalgan, Kanada, Meksika hududlarida yovvoyi holda o‘sadi. U Evropada faqatgina madaniy holda uchraydi. shuningdek, Amerika Qo'shma Shtatlarining shimoli-g'arbiy qismida, Evropa va Osiyoning ayrim qismlarida iqlimlashtirilgan.



Umumiy nomi Amerika florasining birinchi tadqiqotchi muallifi Nikolay Monardes nomi bilan 1569 yilda nomlangan. Ushbu ekin uy sharoitida ziravor achchiq-aromatik va gulli dekorativ o'simlik sifatida yetishtiriladi

Monarda - ko‘p yillik o‘t, balandligi 0,7 - 1,5 m. Ildizpoyasi uzun, gorizontal. Monardaning poyasi ikki bargli, tik, tetraedral, mayda tuklari bor. Barglari och yashil rangda qizil tomirli, qarama-qarshi tomonda, uzunligi 6-15 sm, eni 3-8 sm, tasvirlar oval, dag‘al tishli, uchi uchli, pastda siyrak tukli, tepasida deyarli tuksiz. 3-4 sm uzunlikdagi gullar, nilufar yoki binafsha rangda. Monarda mevasi quruq. O'simlik urug'ining unib chiqishi 3 yil davom etadi. U asosan manzarali o'simlik sifatida keng o'stiriladi. Monarda quyoshli joylarni afzal ko'radi, lekin yengil soya va nam, quruq tuproqlarga chidamli. Og'ir, va kislotali tuproqlarda o'smaydi. Turli xil rangda gullaydigan navlari yaratilgan: oq, pushti, to'q qizil, binafsha. Gullash vaqti: iyul oyining oxiri- sentyabr oyining boshi.

Monarda o'ti bergamot hidiga ega va choy uchun xushbo‘y balzam sifatida ishlatiladi, bu o'simlikning inglizcha nomi - oswego choyida aks etadi. Monarda barglaridan tayyorlangan ichimlik Osvego hindulari tomonidan ishlatilgan.

Monarda hindular tomonidan dori sifatida ham ishlatilgan. Blackfoot hindulari uni kichik yaralar uchun antiseptik sifatida ishlatishgan. Choy tomoq va og'iz bo'shlig'i kasalliklari uchun ishlatilgan. Monarda zamonaviy og'iz yuvish vositalarining faol moddasi bo'lgan timolni, shuningdek, karvakrol va boshqa terpenoidlarni o'z ichiga oladi.

Monarda tarkibida biologik faol moddalar, efir moylari, C, B1, B2 vitaminlari mavjud. Bugungi kunga qadar uning tarkibiga kiruvchi 40 dan ortiq komponentlar aniqlangan. Monarda tarkibida 17-30 mg vitamin S, 1,8-2,4% shakarni o'z ichiga oladi, lekin uning tarkibidagi alfa-v-pinen, borneol, kamfen, mirsen, limonen, fenollarni o'z ichiga olgan efir moyi eng qimmatlidir. O'simlik tarkibida monosiklik spirt p-mentalin va boshqa qimmatli moddalar mavjud. . Bundan tashqari monarda asalshirali o`simliklar qatoriga kiradi.

Efir moyli o‗simliklarning agrotexnikasi, introduksiyasi, ularning morfologik, biologik va ekologik xususiyatlari, tarqalish qonuniyatlarini tatbiq etib, ularni ko‘paytirish choralarini ishlab chiqish bo‗yicha ilmiy-tadqiqot ishlari ilmiy va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

O‗zbekiston sharoitida monardani iqlimlashtirish maqsadida har tomonlama o‘rganish, ularning eng samarali namunalarini ajratib olib morfofiziologik xususiyatlarini aniqlab olish hamda madaniylashtirishga joriy etish tadbirlarini ishlab chiqish maqsadida ilmiy mavzu tasdiqlandi. Tadqiqot ob‘ekti sifatida chet davlatlardan bir nechta nav namunalari ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish maqsadida keltirildi.

Ish natijasida monardaning ham fenotipik belgilari bo‗yicha, ham mahsuldorligi jihatidan o‗rganiladi. Er usti massasi hosilining shakllanishiga va xomashyoda efir moylarining to'planishiga ob-havo sharoitining ta'sirini xususiyatlari ochib beriladi. Efir moylarining vegetatsiya fazalari bo‘yicha to‘planish dinamikasi va uning o‘simlik organlari bo‘yicha taqsimlanishi o‘rganilib, O‗zbekiston sharoitida moslashtirish uchun istiqbolli nav namunalaridan efir moylarini olish uchun o‘simliklarni yig‘ishning maqbul muddatlari tavsiya etiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. В. Ф. Пивоваров. Овощы России. Москва-2006-стр-86-89
2. Н.В.Корчашкина. Биологические особенности роста и развития видов рода монарда (Monarda L.) в условиях нечерноземной зоны Российской Федерации. Россия-2009

# OTA-ONALARNING FARZANDLARI OLDIDAGI BURCH VA MA'SULIYATLARI

**Narbutayev Ural Mamayusupovich**
*Qashqadaryo viloyati G′uzor tumani*
*54-sonli umumiy o′rta ta′lim maktabining*
*Ma′naviy ma′rifiy tarbiyaviy ishlar bo′yicha direktor o′rinbosari*

**Annontatsiya:** *Ota-ona o‘z bolalarini tarbiyalash huquqiga ega va tarbiyalashi shart. Ota-ona o‘z bolalarining tarbiyasi va kamoloti uchun javobgardir. Ular o‘z bolalarining sog‘lig‘i, jismoniy, ruhiy, ma’naviy va axloqiy kamoloti haqida g‘amxo‘rlik qilishlari shart. Bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish ularning ota-onasi zimmasiga yuklatiladi.*

**Kalit so‘z:** *muhojir.*

Ota-ona o‘z bolalarining qonuniy vakillari hisoblanadilar hamda har qanday jismoniy va yuridik shaxslar bilan bo‘lgan munosabatlarda, shu jumladan sudda alohida vakolatsiz ularning huquq va manfaatlarini himoya qiladilar. Ota-ona o‘z bolalarini tarbiyalashda boshqa barcha shaxslarga nisbatan ustun huquqqa ega.

Ota-ona bolalarining qonun hujjatlarida belgilangan zarur darajada ta’lim olishini ta’minlashi shart. Ota-ona voyaga yetmagan bolalariga ta’minot berishi shart.

**Ota va ona o‘z bolalariga nisbatan teng huquq va majburiyatlarga egadirlar.**

Farzand to‘la muomalaga layoqatli bo‘lsa, uning majburiyatlari bo‘yicha, xususan, u yetkazgan zarar oqibatida kelib chiqqan majburiyatlar bo‘yicha ona-onalar javobgar bo‘lmaydilar.

Shaxs quyidagi hollarda to‘la muomalaga layoqatli deb topiladi:

► voyaga yetganda (18 yoshga to‘lganda);

► emansipatsiya (voyaga yetmagan shaxsni to‘la muomalaga layoqatli deb topish) qilinganda;

voyaga yetmagan shaxs qonuniy nikoh munosabatlariga kirishganda.

Ota-onalik huquqlari **bolalar 18 yoshga to‘lganlarida** *(voyaga yetganda)* tugaydi.

Ko'pgina o'zbekistonlik muhojirlarning kamida ikkita farzandi bor, va ushbu farzandlar ularning ota-onalari mamlakatni tark etgandan keyin boshqa oila a'zolarining qaramog'ida qoladilar. Shu bois bolalarning e'tiborsiz qolish xavfini tug'iladi va ularning ruxiy holatiga jiddiy ta'sir ko‘rsatadi. Bu 22 noyabr kuni Toshkentda bo'lib o'tgan xalqaro forumda taqdim etilgan migratsiya ta'siriga uchragan bolalarning ahvoli to'g'risidagi tadqiqotning asosiy xulosalaridan biridir. Ushbu tadbir mamlakatda bolalar va oilalar farovonligini ta'minlash uchun ijtimoiy ishchi kasbini mustahkamlashga qaratilgan edi.

Tadqiqot «Janubi-Sharqiy, Janubiy va Markaziy Osiyoda migratsiya ta'siridan bolalarni himoyalash» loyihasining bir qismidir. Ushbu loyiha Evropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtirilgan bo‘lib, O'zbekiston Xotin-qizlar Qo'mitasi va UNICEF tomonidan amalga oshirilmoqda. Loyihaning maqsadi muhojir ota-onalard qoldirib ketgan bolalarga sifatli

ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish va bolalarni himoya qilish tizimlaridan foydalanish imkoniyatini yaratishdir.

**Mehnat muhojirlarining bolalarini qamrab olish** *"Odamlar mahalliy bandlik agentliklari orqali chet elga chiqishsa, odatda jiddiy muammolar yuzaga kelmaydi. Ammo ko'pincha ota-onalar norasmiy ravishda ketishadi va o'z farzandlariga rasmiy ravishda vasiylarni tayinlamaydilar. Bu ko'plab muammolarga olib keladi."*

Loyihani amalga oshirish O'zbekistonda 2018 yilda boshlangan va u 2020 yilda yakunlanadi. Loyiha migratsiya darajasi eng yuqori bo'lgan to'rtta viloyatda- Farg'ona, Buxoro, Surxondaryo va Xorazmda amalga oshirilmoqda. Loyihaning maqsadi migratsiya ta‘siriga uchragan oilalar duch keladigan muammolarni aniqlash va ularni hal qilishda yordam berishdir.

Loyihani amalga oshirishning dastlabki bosqichlarida Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazining (RBIMM) ijtimoiy ishchilari jabrlangan oilalarga tashrif buyurishdi. Ular oila va bolalarning ahvolini baholadilar. Bir qator boshqa tashkilotlardan, jumladan vasiylik idoralari, voyaga etmaganlar ishlari bo'yicha komissiya, Xotin-qizlar qo'mitasi, ‗Oila‘ markazi va boshqa tashkilotlardan mutaxassislar ham jalb qilindi.

Hozirgacha bir yoki ikkala muhojir ota-ona qoldirgan 204 oiladagi 403 ta bolalarning ahvoli baholandi va ularga dastlabki yordam ko'rsatildi.

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani hokimining o'rinbosari Istat Kamolovaning so'zlariga ko'ra, ushbu loyihaning asosiy vazifasi noqonuniy migratsiya bilan bog'liq muammolarni hal qilishdan iborat. «Odamlar mahalliy bandlik agentliklari orqali chet elga chiqishsa, odatda jiddiy muammolar yuzaga kelmaydi. Ammo ko'pincha ota-onalar norasmiy ravishda ketishadi va o'z farzandlariga rasmiy ravishda vasiylarni tayinlamaydilar. Bu ko'plab muammolarga olib keladi. Men ota-onalar besh yoki etti yosh bolalarini rasmiy vasiylikka tayinlanmagan qarindoshlari bilan qoldirgan holatlarga guvoh bo'lganman. Rasmiy ravishda ushbu bolalar uchun vasiylarni tayinlashimizdan keyin bir yarim oy o'tdi. Qarindoshlar bu yoshdagi bolalarni uzoq vaqt ushlab turishlari ham juda qiyin. Bunday vaziyat boshqa muammolarga olib kelishi mumkin. Ushbu muammoni hal qilish uchun Ichki ishlar vazirligi, maktablar, jamoalar va xotin-qizlar qo'mitalari bilan hamkorlik qilishimiz kerak–, dedi u.

Shuningdek, u davra suhbatlari va muhojirlarning bolalari bilan individual suhbatlar ularning muammolarini aniqlashda va ularni hal qilishning uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqishda samarali ekanligini ta'kidladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bolalar psixologiyasi
2. Pedagogic ta‘lim

# FOREIGN DIRECT INVESTMENT, TRADE AND ECONOMIC GROWTH.

**Ro‘zimurodova Muhabbat**
*Teacher of Termez State University*

**Annotation**: *This article describes the impact of foreign direct investment on development of the country, in particular one of the most important in the context of macroeconomics -the contribution of foreign investment to economic growth.*

**Keywords**: *Foreign investment, Model of Optimal Economic Growth, Capital goods, Domestic investments, Households, permanent management, Micro-level.*

*INTRODUCTION*

The positive effect of FDI is not limited to the scope of the enterprise or industry, foreign investment once additional effects on the rest of the economy, therefore their impact economic growth is often more than domestic investment.

*FDI is not only about inflows capital to the country, but also the corresponding influx of technology and know-how, as well as standards corporate governance, the question arises about the country's willingness to accept data innovation, which is associated with the level of its development.*

***MAIN PART***

Foreign direct investment (FDI) plays an important role in the country's well-being and economic development. First, FDI is not only a capital surge in country, but also the accompanying tide of technology, management, etc. Second, FDI increase competition and contribute to the development of small and medium-sized businesses. Thirdly FDI has a positive impact on employment in the country and increases the level of income of the population.

Fourth, they help reduce the trade deficit by reorientation of consumption from goods produced abroad to goods, manufactured in the country at enterprises with foreign capital. FDI affects economic development, welfare and growth in the host country. However, along with the overall positive impact of FDI on the economy, one cannot but take into account the fact that these investments are not neutral for many macro parameters, primarily for domestic investment and private consumption.

Foreign investment can crowd out domestic investment, thereby slowing down the pace economic growth, which requires a more careful analysis of the effects of FDI inflows especially in countries with a low level of development, where there is high competition for investment in profitable business. On the other hand, in most cases, the degree of influence of FDI on economic growth is higher than direct domestic investment (FDI) and due to this the negative crowding out effect can be compensated for. An additional, not yet fully explored aspect of the influence of foreign direct growth investment in developing countries is linked to a country's ability and speed adaptation of foreign investment. Due to the fact that FDI is not only an inflow capital to the country, but also the corresponding influx of technology and know-how, as well as standards corporate governance, the question arises about the country's willingness to accept data innovation, which is associated with the level of its development. In

addition, there are positive externalities (externalities) that are transferred from industries with FDI to the rest economies that enhance the impact of FDI on economic growth.

Now we are considering a Model of Optimal Economic Growth with Straight foreign investment in intermediate production. A three-sectoral economy produces two intermediate goods, which in subsequently used for the production of the final product. Capital goods produced by two firms: domestic and foreign.

Capital goods are fungible for the production of the final good and production function implicitly reflects the effect of crowding out domestic foreign production as a result of competition. The main competitive the advantage of foreign production is the advanced technology, which increases the return on investment in comparison with domestic technology (which is typical for developing countries). At the same time, the special structure of domestic investment guarantees the complementarity of domestic and foreign investments. Domestic investments are reduced if there is a decrease in capital inflows from abroad and vice versa.

The explanation for this phenomenon is quite simple. Decrease in activity of foreign investors leads to a drop in production in this sector and, accordingly, in the industry the ultimate good. The demand for labor from the end producer falls, accordingly, households receive lower wages, which in turn leads to a decrease in direct domestic investment if consumption does not decrease. We will consider foreign and domestic intermediate goods as absolutely identical from the point of view of their further processing into the final product. In that шп the case, the elasticity of production for both types of capital will be the same. Then it is reasonable to assume that, in the absence of restrictions, the producer of the final good will choose the intermediate product that is cheaper (domestic or foreign). However, in our model, the volume of production of each of the goods is limited (domestic production - the volume of available domestic investment, foreign - FDI price-to-output ratio) thus the final producer you have to optimally allocate your resources for the purchase of both goods.

Households maximize their intertemporal utility by choosing the level of consumption and the level of employment in order to satisfy the demand of domestic producers for direct domestic investment, which in the future used for the production of intermediate goods. At the same time, the level of direct foreign investment is determined exogenously in this model, and the foreign firm decides at what marginal price it is willing to purchase this investment.

In a steady state, the rate of economic growth will be determined by the inflow foreign investments and their efficiency in comparison with domestic investments, as well as the degree of openness of the country, that is, the ratio of participation foreign capital in production.

The model is divided into four sectors: the producer of the final good, the domestic and foreign producers of intermediate goods and households. Foreign direct investment includes "merger and accession, construction of new facilities, reinvestment of foreign revenue and domestic company loans." In a narrow sense, foreign direct investment refers only to the share of permanent management in an enterprise working in the construction of new structures and an economy that is not owned by an investor. FDI is private equity, as stated, long-term equity and short-term balance of payments. Foreign investment usually includes participation in governance, joint venture, technology transfer and experience. Foreign investment shares are a type, a set of foreign investments for any period. Excluding direct investment.

FDI, a small part is characterized by international factor actions, the management of ownership of a business enterprise in one country by an entity located in another country. Foreign direct investment differs from investment in a foreign portfolio, passive investment in securities of another state, for example, on state shares and bonds, the element of "management." A According to the Financial Times, "The Standard Control Descriptions use a 10 percent boundary of internationally agreed voting stocks, but also entrust control over technology, management, and even important information."

Foreign direct investment also plays an important role at the microeconomic level. Local companies expanding into foreign markets can make significant growth. In addition, the impact on several countries increases diversification. On the other hand, foreign companies operating in emerging markets can be a target for foreign direct investment and this will give investors an opportunity.

Foreign direct investment can be used by international investors at both the macroeconomic and microeconomic levels. Sustainable and growing countries of foreign direct investment are more preferable, companies investing abroad often benefit from high growth rates.

Foreign direct investment, despite its overall efficiency in stimulating growth, has many drawbacks. At a primitive level, this can create problems for the country's domestic labor markets and, in the long term, drain capital. Micro-level investments have several risks that need to be carefully considered.

FDI is the acquisition of a long-term interest in the country, thus, they are carried out in production capacity, new technologies, which distinguishes them from portfolio investments subject to short-term speculation. FDI is addressed in many areas of economics: international economics, theory of the firm, macroeconomics, marketing, etc. This work was devoted to the aspect of modeling the influence of direct foreign investment for economic growth in developing countries.

FDI has a positive impact on long-term growth in the host country and, therefore, to some extent contribute to the leveling of the economies of the investing country and host. However, differences in wealth levels may persist due to cutting consumption in order to service foreign debt.

***CONCLUSION***

When analyzing the impact of FDI on economic growth, it is necessary to take into account the level of development of the country. In general, economic growth in developing countries is higher than in developed thanks to savings on internal investments when imitating goods, as well as due to the fact that the contribution of FDI, proportional to their performance in production in economic growth is higher than the contribution of domestic investment.

After the domestic economy has reached a steady state, the degree the impact of foreign direct investment on economic growth decreases with an increase in their volume. In addition, this effect is enhanced by the negative influence the country's openness to economic growth. The contribution of FDI and PVI to economic growth has different dynamics and in many ways is determined by the country's ability to effectively adapt investments and transfer positive externalities. Positive externalities determine the gradual an increase in the

contribution of FDI to economic growth in the short term, achievements maximum level in the medium term and decrease in the long term to a constant level in contrast to the contribution of the PVI, which is monotonically increasing.

## BIBLIOGRAPHY:

1. Aghion P., Howitt P., Endogenous Growth Theory II The MIT press: Cambridge \MA, 2001.

2. Aliber R., A Theory of Direct Foreign Investment II The International Corporation, Cambridge, 1970-pp. 14-34.

3. Balasubramanyam V., Salisu M., Sapsford D., Foreign Direct Investment and Growth in EP and ISCountries II The Economic Journal, November 1996, vol.106, no.434 - pp.92-105.

4. Balasubramanyam V., Salisu M., Sapsford D., Foreign Direct Investment and Growth: New Hypotheses and Evidence, II Discussion Paper EC7/96, Department of Economics, Lancaster University, 1996.

5. Barrel R., Pain N., Foreign Direct Investment, Technological Change, and Economic Growth within Europe II The Economic Journal, November 1997, vol. 107, no.445 - pp. 1770-1786.

6. Barro R., Sala-i-Martin X., Economic Growth II The MTT press: Cambridge, Barry F., Bradley J., FDI and Trade: the Irish Host-Country Experience II The Economic Journal, Oxford November 1997, vol.107, no.445 - pp.1798-1811.

7. Bertschek I. Product and process Innovation as a Response to Increasing Imports and Foreign Direct Investments II Journal of Industrial Economics, Oxford 1995, vol.43, no.4 — pp.341-57.

8. Borensztein E., de Gregorio J., Lee J., How Does Foreign Direct Investment Affect Growth? IINBER Working Paper no. 5057, 1995.

# O`ZBEK TILI O`TIMSIZ FE`LLARINING XUSUSIYATLARI

**Saidova Zarina Saidovna**
*BuxDU magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada o`zbek tilida o`timsiz fe`llar, ularning o`timli fe`llardan farqi va ba`zi o`timsiz fe`llarning o`timli fe`l bo`lib kelishi mumkinligi haqida fikr yuritilgan.*

**Kalit so`zlar**: *o`timsiz fe`l, o`timli fe`l, morfologiya, vositali va vositasiz to`ldiruvchi, fe`l kategoriyalari, leksik usul, semantik usul.*

Hozirgi kunda yurtimizda tilga bo`lgan e`tibor yildan - yilaga ortib bormoqda. Xususan, davlat tilining nufuzi va obro‗sini ko‗tarish, ona tilimizni asrab-avaylash borasidagi sa'y-harakatlar tahsinga sazovor albatta.

Bunung natijasi o`laroq yozilgan darsliklar, o`quv qo`llanmalar, ilmiy tadqiqotlar, izlanishlar mana shu sa`y-harakatlar mahsuli sifatida e`tirof etishimiz joiz deb o`ylaymiz.

Ayniqsa fe`l so`z turkumi haqida juda ko`p ilmiy ishlar, maqolalar yozilgan. Biz ham bugungi maqolamizni aynan mana shu so`z turkumiga bag`ishlamoqchimiz.

Fe`llar harakat ma`nosini bildiruvchi so`zlardir. Grammatikada harakat so`zi juda keng bo`lib u uxlamoq , yotmoq , turmoq kabi fe`llar ifodalaydigan holatlarni, ko`rmoq, cho`chimoq, zavqlanmoq, qahrlanmoq kabi fe`llar bildiradigan psixik o`zgarishlarni, gullamoq, o`smoq kabi fe`llar bildiradigan biologik prosseslarni va shu kabi hodisalarni o`z ichiga oladi. Bulardan har birining o`ziga xos xususiy tomonlari bo`lishi bilan birga, ularning hammasi uchun umumiy bo`lgan tomoni ham bor, ya`ni bularning hammasi zamon bilan bog`liq holda yuz beruvchi hodisa hisoblanadi. Shunig uchun bu harakat hodisalarni bildiruvchi so`zlarning hammasi ―nima qilmoq ‖ so`rog`iga javob bo`ladi. Ularni bir gruppaga kiritish va ―fe`l‖ deb atashda ham xuddi ana shu umumiy xususiyati asosga olinadi.[1]

Predmetning ish-harakatini ifodalaydigan mustaqil so'zlar fe'l so'z turkumi deyiladi. **Masalan**: *uyga vazifa bajarildi, dars boshlandi.* Fe'l holat, belgining yuzaga kelishi, o'zgarishi kabi jarayonlarni ham harakat sifatida ifodalaydi. ***Masalan:*** *Bolalar dam olmoqda. Lolalar qizardi. Vatanimni sevaman.*

O`zbek tilida fe`llar xususiyatiga ko`ra quyidagi kategoriyalarga bo`linadi: O`timli va o`timsizlik kategoriyasi, bo`lishli va bo`lishsizlik kategoriyasi, zamon kategoriyasi, mayl kategoriyasi.

Ish – harakatning predmetga (to`ldiruvchiga) munosabati fe`ldagi o`timli va o`timsizlik ma`nosini hosil qiladi: *Ol, o'qi, saqla* kabilar o'timli fe'llardir. *Bor,*

[1] Hojiyev A. Fe`l. Toshkent: "Fan" nashriyoti, 1973 y-4 b.

*kel, o'tir, uxla* kabilar o'timsiz fe'llardir. Harakatning tushum kelishigidagi ot bilan ifodalangan predmetga o'tganligini (vositasiz to'ldiruvchiga), ta'sir qilishini bildiradigan fe'llar o'timli fe'l deyiladi. ***Masalan:*** *— Hammamiz shu tuproqnng suvini ichganmiz, non-tuzini yeganmiz‖ . (I.Karimov).* Bu gap *ichganmiz, yeganmiz* fe`llaridan anglashilgan harakat bevosita tushum kelishigi shaklidagi suvini, non-tuzini so`zlari bilan ifodalangan predmetga o`tadi.[2]

Ba`zan fe`l anglatgan harakat yoki holat predmetning bir qismiga o`tishi yoki harakat o`tgan predmet shu harakatning bajarilishida vosita bo`lishi mumkin. Bunday holda o`timli fe`llar jo`nalish va chiqish kelishigi shaklida qo`llangan otlar bilan ham birikadi. Masalan: otni mining-otga mining, nonni oling- nondan oling. Biron predmetga bevosita o'tmaydigan harakatni anglatadigan fe'llar o'timsiz fe'l deyiladi. ***Masalan:*** *Do'stim kecha qishloqqa ketdi.*[3]

Fe'llardagi o'timli-o'timsizlik 2 xil ifodalanadi.

1. ***Leksik*** **- semantik usul**. Bunda fe`llar o`z leksik ma`nosiga ko`ra biror affiks olmagan, hech qanday shakl o`zgarishisiz (o`zak-negiz holida) o`timli yoki o`timsiz bo`ladi. Masalan: *ol, ko'r, kiy, ich, saqla, so'ra, och, yech*. Odatda, quvnamoq, sevinmoq, erinmoq, uxlamoq kabi holatni anglatadigan fe'llar, yugurmoq, yurmoq, yetmoq kabi harakatni anglatadigan fe'llar o'timsiz bo'ladi.

2. ***Morfologik*** usul. O'timli-o'timsizlikning morfologik usul bilan ifodalanishida fe'l nisbatini yasaydigan qo'shimchalar (o`zlik, majhullik, orttirma nisbat qo`shimchalari) o`timli-o`timsiz fe`llarni belgilab beradi. Fe`l o`zak-negizga nisbatan qo`shimchalari qo`shilganda, fe`lning o`timli-o`timsizligi quyidagicha yuz beradi: 1) o'zlik va majhullik nisbat qo'shimchalari o`timli fe`lni o`timsiz fe`lga aylantiradi: so`radi-o`timli fe`l, so`raldi-o`timsiz fe`l, ko`rdi-o`timli fe`l, ko`rindi – o`timsiz fe`l. So`radi o`timli fe`liga qo`shilgan –l majhullik nisbat qo`shimchasi, ko`rdi o`timli fe`liga qo`shilgan –in o`zlik nisbat qo`shimchasi so`radi, ko`rdi fe`llarini o`timsiz fe`llarga aylantirdi .

2) orttirma nisbat yasovchi qo'shimchalar, aksincha , o'timsiz fe'lni o'timli fe'lga aylantiradi: kuldi-o`timsiz fe`l, kuldirdi-o`timli fe`l, yurdi-o`timsiz fe`l, yurgizdi-o`timli fe`l, uxladi - o`timsiz fe`l, uxlatdi-o`timli fe`l.

3) orttirma nisbat qo'shimchalari orqali o`timli fe`ldan yana o`timli fe`l hosil qilinadi: esladi- o`timli fe`l, eslatdi- o`timli fe`l, ichdi- o`timli fe`l, ichirdi-o`timli fe`l.

---

[2] Hamroyev M. Muhamedova D. Shodmonqulova D. G`ulomova X. Yo`ldosheva Sh. Ona tili. Toshkent: "iqtisod – moliya" 2007 y-125 b.

[3] Hamroyev M. Muhamedova D. Shodmonqulova D. G`ulomova X. Yo`ldosheva Sh. Ona tili. Toshkent: "iqtisod – moliya" 2007 y-125b.

Fe'l ko'p ma'noli bo'lganda, u bir ma'nosiga ko'ra o'timli, boshqa ma`nosiga ko'ra o'timsiz bo'lishi mumkin. ***Masalan:*** *kitob o′qiydi - o′timli, maktabda o′qiydi - o′timsiz.*[4]

Qo`shma fe`llarda o`timli va o`timsizlik ma`nosi yetakchi qismga qarab bo`linadi. Masalan: *aytib berdi, yozib chiqdi, ko`ra boshladi* qo`shma fe`llarda *aytib, ko`ra, yozib* yetakchi qismning o`timli ekanligi shu fe`llarning o`tmli ekanligini ko`rsatadi. Aksincha, qo`shma fe`llarning yetakchi qismi o`timsiz fe`ldan bo`lsa, butun qo`shma fe`l o`timsiz bo`ladi: *o`sa boshladi, quvonib ketdi, kulib qo`ydi kabi.*[5]

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak fe`l turkumiga oid barcha hodisalarning mohiyatini to`la bayon etish, ularning kelib chiqish asosini to`laqonli ochib berish juda katta hajm talab etadi. Shunga qaramay biz bugungi maqolamizda fe`l so`z turkumi , o`timli va o`timsiz fe`llarning ma`no tuzilishi haqida biroz bo`lsada ma`lumot bera oldik deb o`ylayman.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Hojiyev A. Fe`l. Toshkent: ―Fan‖ nashriyoti, 1973 y
2. Hamroyev M. Muhamedova D. Shodmonqulova D. G`ulomova X. Yo`ldosheva Sh. Ona tili. Toshkent: ―iqtisod –moliya‖ 2007 y
3. Sodiqova M. Fe`l stilistikasi. Toshkent: ―Fan‖ nashriyoti, 1975 y

[4] Hamroyev M. Muhamedova D. Shodmonqulova D. G`ulomova X. Yo`ldosheva Sh. Ona tili. Toshkent: “iqtisod – moliya” 2007 y-126 b.

[5] Hamroyev M. Muhamedova D. Shodmonqulova D. G`ulomova X. Yo`ldosheva Sh. Ona tili. Toshkent: “iqtisod – moliya” 2007 y-126 b.

# OLAMNING TUZULISHI PAYDO BO'LISHI VA TARAQQIYOTI HAQIDAGI GO'YALARIGA OID BA'ZI MULOHAZALARI

**Salimova Lola Ro'ziboyevna**
*Xorazm viloyati Xozarasp tumani*
*16 sonli geografiya fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada Olamning paydo bo'lishi haqidagi fikrlar va izlanishlar orqali bizga malim bo'lgan g'oyalar va qarashlarni yanada kengroq va chuqurroq o'rganishga va yoritishga harakat qilindi.*

**Kalit so'zlar:** *Olam tushunchasi, litosfera, atmosfera, gidrosfera, biosfera, noosferalar, Quyosh, Oy,Pifagor, Aflotun, Geliosentrik, A l-Farg_oniy , Beruniylar, Galiley, Yer shari, Xarita, Somon yo_li.*

Olam — bizni o_rab turgan, cheksiz makon va zamonda yastanib yotgan moddiy dunyo — borliq. Olam ko_zga ko_rinmas o_ta kichik zarrachalardan to zamonaviy teleskoplar yordamida kuzatish mumkin bo_lgan barcha jism (materiya)lardan iborat.

Hozir kuzatish mumkin bo_lgan Olamda taxminan yuz milliard galaktika va ularning har birida o_rta hisobda yuz milliard yulduzlar bor. Biz yashab turgan galaktikalardan biri Somon yo_li bo_lib, u Quyosh kabi 150 milliarddan ortiq yulduzlar va yulduzlararo fazodan iborat. Shuningdek, har bir yulduz Quyosh tizimidagi 9 ta sayyoralar kabi planetalardan tashkil topgan. O_z navbatida, sayyoralar ko_p yoki o'z tabiiy yo_ldoshlarga ega bo'lmadi. Masalan, Yerning tabiiy yoldoshi bitta — Oy, Marsniki — ikkita, Saturnniki — 16 ta.

Yer Olamning noyob qurilmasi. Uning asosiy xususiyati magnit maydoni, geografik qobiq, litosfera, atmosfera, gidrosfera, biosfera, noosferalarning mavjudligidir. Inson ham ona tabiatning noyob va takrorlanmas hosilasiki, hozirgacha Yerdan boshqa Olamning biror joyida tirik mavjudotning borligi aniqlanmagan. Aytilganlar bizni o_rab turgan Olamning takrorlanmas rang-barangligi, o_ziga xosligidir. Olam tushunchasining shakllanishi odamzodning paydo bolishi va ular ongining taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqdir. Bu borada olimlar turlicha fikrva mulohazalarni bildirganlar. Arxeolog olimlarning fikriga qaraganda, qadimgi „uddaburon odam–lar 3,5 — 2,6 mln yil m uqaddam Afrika materigida paydo bo_lgan. Ular uchun Olam tushunchasi o_zlari yashab turgan joy, ko_rgan va bilgan narsalardan iborat bo_lgan. Lekin aqlli inson (homosapiens) taxminan 50 — 40 ming yil avval paydo bo'lgan. Bu davrda odamlar toshdan qurol yasashni, olovdan foydalanishni, eng asosiysi gapirishni o_zlashtira boshlaganlar.

Aytilganlardan insonlarning Olam to_g_risidagi tushunchalari tobora o_zgarib borganligini anglash mumkin. Dastlab o_zlari yashab turgan va nigohi yetgan joy ular uchun Olam bo_lsa, keyinchalik, hayot ehtiyojlari tufayli uzoqdagi hududlarga borishi, ko_chib yurishi bilan ularning Olami ham kengaya borgan. Odamlar tomonidan yozuvning ixtiro qilinishi inson ongi — tafakkurining taraqqiyotidagi buyuk inqilob deb atash mumkin. Negaki ular o_zlarini o_rab turgan narsa va hodisalarni yozib qoldirish imkoniyatiga ega bo_ladilar. Italiyalik olim Silvana Daniyelening fikricha, odamlar butun so_z yoki tushunchani ifodalovchi so_z belgilarini miloddan 12 ming yil muqaddam, ehtimol undan ham oldin yaratgan. Bu yozuvda bitilgan

ma‘lumotlar asosida o‗tmishdagi insonlarning Olam to‗g‗risidagi dunyoqarashlarini bilib olamiz.

Yozma manbalarga ko‗ra xarita tuzgan kishilar o‗zlari yashab turgan joyni Olamning markazi (masalan, Afina, Aleksandriya, Misr) deb belgilaganlar. Buyuk faylasuflar Aristotel (mil. aw . IV — III asr), Pitolemey (milodning II asri) Olamning markazida qo‗zg‗almas Yer, uning atrofida barcha osmon jismlari joylashadi va harakatlanadi deb geosentrik g‗oyaga asos soldilar. Geosentrik (geo — yer, sentr — markaz) g‗oyaga ko‗ra Dunyoning markazida Yer, barcha osmon jismlari Yer atrofida aylanadi. Geliosentrik (gelio — Quyosh, sentr — markaz) g‗oyani yunon olim i Pifagor (mil. avv. VI — V asr) va uning safdoshlari yaratdi. Faqat ular dunyoning markaziga butun borliqqa hayot beruvchi „Markaziy oy― ni, ya‘ni Q uyoshni qo‗yishdi. Yerni shar shaklida deb hisoblashdi. Polyak astronomi Nikolay Kopermikning fikricha, Olamning markazida Quyosh joylashgan, uning atrofida butun osmon jismlari, jumladan, Yer ham aylanib turadi. Ushbu geliosentrikni qo‗llab-quvvatlagan va boshqa sayyoralarda ham hayot borligini yoqlagani uchun Jardano Bruno 1600- yilda Rim shahrida o‗tda kuydiriladi. Galiley esa 1633- yilda ,,tavba― qilib kechirim so‗ragani uchun omon qolgan.

Vatandoshlarimiz A l-Farg‗oniy va Beruniylar ham shu g‗oya tarafdori bo‘lganlar. Olam va hayotning paydo bo‘lishi to‗g‗risidagi tushunchalar o‗tmishda kishilarning osmon jismlari harakatini qiziqish bilan kuzatishlari natijasida kelib chiqqan. Lekin osmon jismlari qachon va qanday paydo bo‘lganligi, ularda kechadigan turli hodisalarning sabablari jumboqligicha qolavergan. Inson ongi Olam sirlarini bilishda ojizlik qilgani va o‗zlarini ham xudo yaratganligiga ishonganligi uchun osmon jismlarini xudolarning timsoli deb bilganlar. Masalan, qizg‗ish sayyora Mirrix (Mars)ga qonni yaxshi ко‗radigan „urush xudosi– deb, bizga eng yaqin sayyora Zuhra (Venera)ga ,,go‗zallik xudosi" deb nom berganlar.

Qadimgi yunon afsonalariga ko‗ra, osmonda ko‗ndalang yo‗nalgan Somon yo‘lining durdona (yulduz) lari bu „yunon xudosining ko‗kragidan otilib chiqqan sut― deb talqin qilingan. Darhaqiqat, barcha mavjudotning yaratuvchisi yagona ilohiy kuch bo‘lgan. Bu qudratli ilohiy kuch bir-biridan bajaradigan vazifasiga ko‗ra farq qiladigan xudolarni yaratgan. Masalan, hali tepada osmon, pastda esa Yer bo‘lmasdan burun okean xudosi Apsu va dengiz xudosi Jiamata dunyoda hukmronlik qilgan. Keyinchalik Yer xudosi Geya, shamol xudosi Eol, Yer osti xudosi Pluton, Yer osti olov xudosi Vulkan, suv (dengiz) xudosi Neptun va boshqa xudolar odamlar e‘tiqodida paydo boMa boshlagan va ularga sigMnishgan. Lekin musulmon xalqlari yagona yaratuvchi Ollohdan boMak hech qanday xudo yo‗q degan fikrdadirlar.

Demak, Olamda mavjud bo‗lgan turlicha geometrik ko‗rinishdagi to‗rsimon makonlarning birortasida bir paytning o‗zida kengayish kuzatilsa, boshqa joylarida siqilish bo‘lib turadi deb aytsa bo‗ladi. Turli joylarda uzluksiz sodir bo‘layotgan bunday jarayonlar Olam taraqqiyotining asosiy xususiyatlarini belgilab beradi. Shunga o‗xshash fikrni O‗zbekiston Milliy universitetining geografiya fakulteti dotsenti P.N . G ‗ulomov ham ta‘kidlagan. Olamning kelajak taqdiri esa moddiy jarayonlarning nisbati va o‗zaro ta‘siri bilan uzviy bog‗liq. Shubhasiz, u bir holatdan ikkinchi holatga o‗tib turadi. Har holda yuqorida ko‗rib o‗tilgan Olam taqdiri modellarining qaysi biri hayotiy ekanligini kelajakdagi yangi kashfiyotlar natijasi ko‗rsatadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.P.Baratov. A. Saotov ― Umumiy Tabiiy Geografiya‖. T. 2010

2.Bokov V.A., Seliverstov Yo.P., Chervanov I.G. Obshee zemlevedenie. SPB 1999,

3. Gerenchuk K.I., Bokov V.A., Chervanov I.G. Obshee zemlevedenie. M. «Visshaya shkola», 1984,

4. Kalesnik S.V. Umumiy yer bilimi qisqa kursi. «O‘qituvchi». T. 1966, .

5. Krivolutskiy A.E. Golubaya planeta. M., «Mısl», 1985,

6. Milkov F.N. Obshee zemlevedenie. M., «Visshaya shkola», 1990,

7. Mirzaliev T. Kartografiya. T., 2002,

8. Neklyokova P.P. Obshee zemlevedenie. M., «Prosvehenie», 1967, I i II chast.

9. Anoshko V.S., Trofimov A.M., Shirokov V.M. Osnovo geograficheskogo prognozirovaniya. Minsk., 1985

# РАЦИОНАЛ ВА ИРРАЦИОНАЛ ФИКРЛАШ ЎРТАСИДАГИ ФАРҚ ТАХЛИЛИ.

**Сўпичакова Мухаррамхон Абдуқаххоровна**
*Андижон тумани 3-умумий ўрта таьлим мактаби*
*математика фани ўқитувчиси*

**Аннотация:** *Ушбу мақолада рационал ва иррационал фикрлаш ўртасидаги фарқ нимада эканлигини ва фикрлашнинг қайси турини ривожлантириш яхшироқ эканлигини кўриб чиққанмиз. Рационал фикрлаш мантиқий принципга асосланиб, ҳис-туйғулар, кайфият, барча субъектив шакллар таъсирини блоклайди. Иррационал фикрлаш, аксинча, фикрларни бирон бир рамка билан чегараламасдан, аввало ҳис-туйғулар ва тажрибаларни англатади.*

**Калит сўзлар:** *Рационал, иррационал, қарор қабул қилиш, рационал ва иррационал фикрлаш, сезги, хаѐл, ѐритиш, мантиқ.*

Қарор қабул қилиш ва сезги билан бошқариш ѐки эҳтимол бирдан иккита усулни қўллаш мумкин бўлади. Рационал ва иррационал фикрлаш ўртасидаги фарқ нимада эканлигини ва фикрлашнинг қайси турини ривожлантириш яхшироқ эканлигини кўриб чиқамиз. Рационал фикрлаш мантиқий принципга асосланиб, ҳис-туйғулар, кайфият, барча субъектив шакллар таъсирини блоклайди. Иррационал фикрлаш, аксинча, фикрларни бирон бир рамка билан чегараламасдан, аввало ҳис-туйғулар ва тажрибаларни англатади.

Рационал ва иррационал фикрлаш бир бутунликнинг қарама-қарши томонлари. Кўпгина одамлар бошқа қобилиятларни ривожлантирмасдан рационал ѐндашишга содиқ қолишни афзал кўришади. Аммо фикрлашнинг ушбу икки тури бир-бирини мукаммал равишда тўлдириши мумкин. Қарама-қарши фикрлаш усулларини ўрганиб, турли хил номаълум ҳолатларда тезроқ ҳаракатлана олиш мумкин.

Рационал фикрлаш ривожланган одамлар далилларга, мантиққа, аниқ фикрларга таянадилар. Улар шошилмайди, ҳатто қарор қабул қилишда ҳам суст бўладилар. Улар ҳар бир қадамни диққат билан кўриб чиқадилар, мавжуд маълумотларни таҳлил қиладилар ва таққослайдилар. Бундай одамлар қуйидаги кўникмаларга эга:

1. Муаммоларни таҳлил қилиш: Қарор қабул қилиш учун улар аввало муносабатларни тушуниш учун вазиятни қисмларга, тафсилотларга ажратадилар.
2. Тафсилотларни синтез қилиш: Расмни тўлиқ кўриш учун муаммонинг алоҳида қисмлари бир бутунга бирлаштирилади.
3. Фактларни солиштириш: Турли хил ҳодисалар ўртасидаги фарқларни таққослаб, улар содир бўлаѐтган нарсаларга ҳисса қўшган умумий нарсани аниқлайдилар.
4. Ҳақиқатнинг тубига этиб бориш ва муаммонинг илдизини кўриш учун улар кераксиз элементлардан воз кечади.
5. Ахборотни тизимлаштириш. Олинган фактлар бир бутунга бирлаштирилади.

Дунѐда ҳамма нарса ўзаро боғлиқ, бир-биридан алоҳида мавжуд бўладиган бундай ҳодиса йўқ.

Ушбу техникалардан ҳам илмий фаолиятда, ҳам кундалик ҳаѐтда фойдаланиш мумкин. Математика, кимѐ, физика, биология каби аниқ ѐки табиий фанларни яхши кўрадиганлар орасида рационал фикрлаш янада ривожланган бўлади.

Иррационал фикрлаш ҳиссиѐтларга, ўз-ўзини англашга ва ҳиссиѐтларга ҳамда импульсив қарор қабул қилишга асосланган. Иррационал фикрлаш тамойилларини кўриб чиқамиз:

1. Сезги. Бу ҳар қандай далил ва мантиқ билан қўллаб-қувватланмайдиган бир хил олдиндан сезиш, туйғу. Бу вазиятда юрак айтгандай ҳаракат қилиш керак, аксинча эмас.

2. Ёритиш. Тўсатдан тўғри қарорни англаш, тўғри фикрнинг бир зумда пайдо бўлиши.

3. Хаѐл. Бу одамнинг амалий кўникмаларидан фойдаланмасдан вазиятни моделлаштириш ва муаммони ҳал қилиш қобилиятидир.

4. Бу мантиқсиз фикрлашнинг асосидир, шунингдек ҳиссий реакциялар, руҳий тушунчалар, медитация, онг ости, тафаккур ва бошқаларни қўшиши мумкин. Иррационал фикрлаш санъатни севадиган, ижод қиладиган, мўъжизаларга ишонадиганлар орасида кўпроқ ривожланади.

Ҳар қандай ѐшда фикрлашнинг иккала турини ривожлантириш мумкин. Бу инсонни ўз устида доимий ишлашни талаб қиладиган доимий жараѐн. Ҳам катталар, ҳам талаба фикрини шакллантиришга ѐрдам берадиган турли хил машқлар мавжуд. Агар инсон ўз маҳоратинини оширишни, заиф томонларинини ривожлантирмоқчи бўлса, у ҳолда «Ҳиссий интеллект» онлайн курсидан ўтиши керак бўлади. Шахсий кўрсаткичларингизни қандай яхшилашни ўрганиш, мотивация, одатлар, идрок ва ҳиссий ҳолат билан ишлашни ўрганишдир.

Инсоннинг психотипининг тўртинчи элементи бу унинг қандай ҳаракат қилиши билан боғлиқ. Вазиятга қараб ҳаракат қиляпдими ѐки олдиндан тайѐргарлик кўрганми.

Бу одамлар ўртасидаги асосий фарқ: рационалистлар ва иррационалистлар. Инсон бир вақтнинг ўзида иккаласи ҳам бўлолмайди - ѐ режалаштиради ѐки ўз-ўзидан ҳаракат қилади.




Рационалистлар аниқ режа тузадилар: бир кун, бир йил, беш йиллик давр учун, ҳаѐт учун глобал режа. Вақтни бошқариш бўйича барча классика ва вақтни бошқариш дарсликларида ѐзилганларнинг барчаси фақат рационалистлар учун мўлжалланган.

Шафқатсиз одамни оқилона зерикиш деб аташ мумкин, чунки ақлли одам учун режадан четга чиқиш жуда ноқулай.

Муаммо шундаки, иррационалистлар 90% ҳолларда ўзлари билан самарасиз кураш бошлайдилар.

Атрофдагилар ва биринчи навбатда ўзлари мантиқсиз, бепарво, тартибсиз аҳмоқлар деб ўзларини қоралашади.

Бизга болалигимиздан ҳамма нарсани режалаштириш ва режага мувофиқ ҳаракат қилиш кераклигини ўргатишган: кечқурун портфел йиғинг, бешинчи синфда катта бўлганингизда ким бўлишингизни билинг, атайлаб институтни танланг, босқичма-босқич мартаба қуринг, олти ой ичида таътилга тайѐргарлик кўринг, бир неча йил олдин ўз ҳаѐтини қандай яшашни билинг (ѐки яхшироқ - пенсияга қадар).

Ушбу ижтимоий босим ўз-ўзидан ҳаракат қилиш учун ички мойиллик билан тўқнаш келганда низо келиб чиқади. Ташқи можаролар сўкиниш ва танбеҳга айланади (сиз ваъда қилдингиз-у, қилмадингиз!) Мантиқсизнинг ички можаролари – доимий ўз-ўзини танқид ва хавотирга айлантиради.



Режалар барбод бўлган ва форс-мажор ҳолатлари бошланган вазиятда рационал ўзини ишончсиз ҳис қилади, у саросимага тушиб қолади ва унинг оёғи остидан ер том маънода йўқолади. Режа мантиқий асос, унинг ҳаѐтий йўналишидир. Режани рационалликдан узоқлаштирганда, у сувда чорасиз сузишни бошлайди.

Бу иррационалистлар учун осонроқ: улар вазиятга жуда осон муносабатда бўлишади, улар ўзгаришларга мослашишда жуда мослашувчан. Агар ақлли одам мантиқсиз каби иш тутса, у доимо реацияга киришса, у фактларни баҳолашга, режа тузишга улгурмайди. Натижада, у ушланиб қолади ва стресс спиралига айланади.




Рационалистлар қўриқчилардир. Улар ўз хазиналарини асраб-авайлайдилар ва кейинги авлодларга ўтказадилар. Рационалистлар юқори даражада ривожланган қадриятлар тизимига ега бўлиб, улар томонидан бошқарилади. Улар нима яхши, нима ѐмон, нормалар, қоидалар, усуллар нима эканлигини аниқ биладилар. Улар ҳар қандай ҳодиса ва ҳодисага баҳо берадилар.

Иррационалистлар тадқиқотчилардир, улар ҳамма нарсани синаб кўришади, улар олдинги тажрибани четга суриб қўйишади. Ҳар бир вазият улар учун янги. Улар ихтирочи. Булар кашшофлар. Улар қоидаларни бузишдан бошқа иложи йўқ.

## ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

**1.** Алихонов С. (2011) Математика ўқитиш методикаси. Чўлпон номидаги нашриѐт – матбаа ижодий уйи, Тошкент.

**2.** Алимов Ш. А., Холмуҳаммедов О. Р., Мирзааҳмедов М. А. (2010) Алгебра (умумий ўрта таълим мактабларининг 8-синфи учун дарслик, қайта ишланган 2- нашр). ‒Ўқитувчи‖ нашриѐт – матбаа ижодий уйи, Тошкент.

**3.** Ўзбекистон миллий энсиклопедияси (2000-2005).

4. Ф.М.Фихтенгольц, Математик анализ асослари, 1-том, Т.Ўқитувчи нашриѐти 1970 йил.

5. Веб сайт https://www.google.com/search.

# GAT DASTURIY TA‘MINOTI PHOTOMOD DASTURINING ISHLAB CHIQARSHDA QO‘LLASH USULLARI.

**Ernazarova Nilufar Ismatullaevna**
*Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti dotsenti*
**Xujakeldiyev .K.N**
*Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institute*
*(PhD) doktori dotsent v.b*
**Fayziyev SH.SH**
*Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institute*
*(PhD) doktori, dotsent v.b.,*

**Annotatsiya:** *GAT orqali ko‗pgina bajariladigan jarayonlar kompyuter yordamida amalga oshirilib, raqamli formatdagi tasvirlardan foydalaniladi. Tahliliy fotogrammetrik qurilmalarda ishlashdan raqamli fotogrammetriyaga o‗tilganda fotogrammetrik jarayonlarni avtomatlashtirishni ta‘minlab beruvchi ko‗plab dasturiy va texnik mahsulotlar majmuasi talab qilinadi.*

*Raqamli fotogrammetriyaning texnik vositalariga raqamli metrik fotokameralar, fotometrik skanerlar, stereomonitorlar va fotogrammetrik ishlovchi stansiyalarni misol qilib keltirish mumkin. Dasturiy fotogrammetriya vositalariga (DFV) esa «Talka», «Delta», «Photomod» va boshqa bir qator DFVni keltirib o‗tish mumkin.*

**Annotation:** *Many processes that support GAT use computer-based and digital images. The transition from analytical photogrammetric devices to digital photogrammetry requires a wide range of software and hardware to automate photogrammetric processes.*

*Examples of digital photogrammetry include digital metric cameras, photometric scanners, stereomonitors, and photogrammetric workstations. Software photogrammetric tools (DFV) include Talca, Delta, Photomod, and a number of other DFVs.*

**Kalit so‘zlar:** *Raqamli fotogrammetriya, stereomonitor, PHOTOMOD tizimi, geografik asos, deformatsiya, Dasturning interfeysi, fotogrammetrik skaner, texnologik sxema, 3D vektor obekt.*

**Keywords:** *Digital photogrammetry, stereomonitor, PHOTOMOD system, geographical basis, deformation, Program interface, photogrammetric scanner, technological project, 3D vector object.*

**KIRISH.** O‗zbekiston Respublikasi mustaqil davlat bo‗lgandan keyin barcha sohalar kabi geodeziya, kartografiya sohalari ham rivojlanmoqda. Geodezik topografik ishlarni takomillashtirishda va qishloq xo‗jaligi joyni o‘rganish va baholash, topografik kartalarni yangilashda masofadan turib zondlash ishlarini olib boruchi dronlardan olingan materiallarni qayta ishlashda sun‘iy yo‗ldosh geodezik priyomniklari yordamida aniqlash va qo‗llash uchun zarur bo‗lgan topogeodezik ma‘lumotlarga bo‗lgan talabni oshib borishi. Hozirda olib borilayotgan ilmiy va amaliy ishlarni yanada mukammallashtirish maqsadida sohaga doir yangi texnika va texnologiyani hayotga tatbiq qilishga katta ahamiyat berilishini toqazo qilmoqda.

GISni yaratishda asosiy e‘tiborni geografik asosni to_g_ri tanlashga qaratiladi, chunki u boshqa ma‘lumotlarni bir-biri bilan bog_lash, obektlar koordinatalarini aniqlash, qatlamlarni ketma-ket yoki biror bir mavzu bo_yicha joylashtirish va tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi va bu jarayonning kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi bilan bog_liq bo_lgan fotogrammetrik tadqiqotlarning zamonaviy rivojlanish bosqichi hisoblanadi.

Raqamli fotogrammetriyada ko_pgina bajariladigan jarayonlar kompyuter yordamida amalga oshirilib, raqamli formatdagi tasvirlardan foydalaniladi. Tahliliy fotogrammetrik qurilmalarda ishlashdan raqamli fotogrammetriyaga o_tilganda fotogrammetrik jarayonlarni avtomatlashtirishni ta‘minlab beruvchi ko_plab dasturiy va texnik mahsulotlar majmuasi talab qilinadi.

Raqamli fotogrammetriyaning texnik vositalariga raqamli metrik fotokameralar, fotometrik skanerlar, stereomonitorlar va fotogrammetrik ishlovchi stansiyalarni misol qilib keltirish mumkin. Dasturiy fotogrammetriya vositalariga (DFV) esa «Talka», «Delta», «Photomod» va boshqa bir qator DFVni keltirib o_tish mumkin.

1. «PHOTOMOD» fotogrammetrik tizimida aero- va kosmos tasvirlarni qayta ishlashning texnologik sxemasi bilan tanishtirish.
2. Dasturning interfeysi bilan tanishtirish.
3. Dasturning tugmachalar menyusi imkoniyatlari va asosiy hamda qo_shimcha muloqot darchalarining vazifalari bilan tanishtirish.

***Ishlash uchun kerakli dastlabki materiallar:***PHOTOMOD 4.2 Demo dasturiy majmuasi. «PHOTOMOD» dasturiy majmuasi uchun texnik hujjatlarga misollar.

***Umumiy ma‘lumotlar:***«PHOTOMOD» tizimidan foydalangan holatda raqamli fotogrammetriya bilan ishlashning texnologik sxemasi taxminiy holatda quyidagi 1.1-rasmda keltirilgan.

Fotogrammetrik ishlar majmuasi tarkibida sxemaga muvofiq uchta asosiy bosqichlar ajratib ko_rsatiladi:

1. Dastlabki bosqich o_z ichiga quyidagi bajariladigan ishlar ketma-ketligini oladi:

– maishiy planshetli skanerlar bilan ishlash holatlarida tasvirlarni skanerlash va ularni ***PHOTOMOD ScanCorrect*** dasturida tahrirlash. Maxsus professional holatdagi fotogrammetrik skanerlardan foydalanilganda ***PHOTOMOD ScanCorrect*** dasturidan foydalanish bajariladigan ishlar ketma-ketligidan tushirib qoldiriladi;



***1-rasm. «PHOTOMOD» tizimidan foydalaniladigan yo‘nalishlar texnologiyasi.***

– ***PHOTOMOD Montage Desktop*** modulida loyihani yaratish;

– Tasvirga olish qurilmasida (Tahrirlash kamerasi – Redaktor kamer) ko_rsatkichlarni kiritish yoki mavjud kameralarni tanlash;

– Loyihaning nomini kiritish, uning tipi, qisqacha tavsifi va koordinatalar tizimini tanlash;

– Tasvirlarni va dastlabki mo_ljalga olish blokini kiritish.

2. Fototriangulyatsiya tarmog_ini yaratish bosqichi o_z ichiga quyidagi bajariladigan ishlar ketma-ketligini oladi:

–kameralarni tanlash, tasvirlarning ichki va o_zaro mo_ljalga olinishi, tayanch nuqtalarini kiritish va o_lchash, bitta marshrutdagi va qo_shni marshrutlardagi kesishuvchi tasvirlar bo_yicha tayanch va bog_lovchi nuqtalarni o_lchash imkonini beruvchi ***PHOTOMOD AT*** modulida tasvirlar blokini qayta ishlash;

–***PHOTOMOD AT*** modulida tasvirlar blokida bog_lovchi nuqtalarni tahrirlash va filtrlash, avtomatik qidirish, undan ***PHOTOMOD Solver*** tenglashtirish moduliga avtomatik o_tishni amalga oshirish imkoniyati ham mavjud;

–***PHOTOMOD Solver*** modulida blokni tenglashtirish va tashqi mo_ljalga olish elementlarini hisoblash;

–Tenglashtirishda qoniqarli natijalar olingandan keyin «Tarmoqni qayta ishlash» bosqichiga o_tish, aks holda esa ***PHOTOMOD AT*** modulida o_lchashlarni tekshirish va tahrirlashni amalga oshirishga qaytish;

–Tasvirlarni epipolyar transformatsiyasini amalga oshirish.

3. Modellarni qurish va olingan natidalarni uzatish bosqichi quyidagi bajariladigan ishlar ketma-ketligini o_z ichiga oladi:

– vektor oyektlarni (***PHOTOMOD StereoDraw***) *yoki* ***PHOTOMOD VectOr*** formatidagi xarita obektlarini 3D stereovektorizatsiyasi;

– tashqi formatdagi 3D vektorlarni yoki ***PHOTOMOD VectOr*** modulida uzatish ehtiyojining tug_ilishi;

– ***PHOTOMOD DTM*** modulida TIN relef modelini tuzish va tahrirlash;

– gorizontallarni tuzish va tahrirlash;

– turli xil stereojuftlar bo_yicha tuzilgan gorizontal va releflar modellarini tikish;

– TIN‘ va 3D vektor obektlarni tashqi formatga yoki ***PHOTOMOD VectOr*** moduliga eksport qilish ehtiyojining yuzaga kelishi;

– tashqi formatga yoki ***PHOTOMOD VectOr*** xarita moduliga eksport qilish imkoniyati mavjuligi bilan birgalikda ***PHOTOMOD Montage Desktop*** modulida barcha blokda qat‘iy relef modelini (balandlik matritsalari) yaratish;

– tashqi formatda yoki ***PHOTOMOD VectOr*** xarita modulida saqlash bilan, ***PHOTOMOD Mosaic*** modulida sahifalarni kesish imkoniyati mavjudligini ta‘minlagan holatda barcha tasvirlar blokining ortofotoplanini tuzib chiqish;

– DEM, TIN‘, vektor obektlar va gorizontallarni tashqi formatga yoki ***PHOTOMOD VectOr*** xaritasiga eksport qilish ehtiyoji tug_ilishi;

– ***PHOTOMOD VectOr*** modulida qo_yilgan ortofotoplan bo_yicha monorejimda qo_shimcha vektorizatsiyani amalga oshirish;

– Raqamli xaritalar va ortofotoplanni tuzish, standart sahiflarda kesish, ramkali rasmiylashtirishni yaratish va nashrga chiqarishni amalga oshirish.

**Ishlarni bajarish tartibi:**

PHOTOMOD Montage Desktop modulini ishga tushirish.

PHOTOMOD Montage Desktop tizimi asosiy modulini ishga tushirishni bir necha usullarda amalga oshirish mumkin:

– Windows operatsion tizimida (OT) standart menyu asosida: *«PUSK (Ishga tushirish) / Programmi (Dasturlar) / PHOTOMOD / PHOTOMOD Montage Desktop»;*

– Sichqonchaning o_ng tugmachasini bosish orqali chiquvchi  – tasvirini bosish orqali;

– Windows operatsion tizimida ish stolining o_ng past burchagida joylashgan *(PHOTOMOD System Monitor)* ni ishga tushirish orqali;

– Sichqoncha o_ng tugmachasini dasturiy paket o_rnatilgandan keyin Windows operatsion tizimi Ish stolida hosil bo_lgan *(PHOTOMOD Montage Desktop)* tasviri ustida bosish orqali.

Modulning ishga tushirilishida modulni ochish variantlarini tanlash imkonini beruvchi muloqot darchasi hosil bo_ladi (2-rasmga qaralsin).




***2-rasm. «Zapusk (Ishga tushirish) PHOTOMOD Montage Desktop» muloqot darchasining ko_rinishi.***

***Oxirgisini ochish (Otkrit posledniy)*** **–** dasturning so_nggi ishlashi davomidagi loyiha ochiladi;

***Ochish/boshqarish (Otkrit/upravleniye)***– Loyihalarni boshqarish (***Upravleniye proyektami)*** muloqot darchasi ochiladi;

***Yaratish (Sozdat)*** **–** yangi loyihani yaratish darchasi ochiladi;

***Import*** – PHOTOMOD tizimi eski versiyalari formatida ularni import qilish uchun loyihalarning ro_yxati aks ettirilgan muloqot darchasi ochiladi;

***Loyihasiz (Bez proyekta)*** – bu buyruq berilganda Montage Desktop moduli hech qanday loyihani ochmasdan ishga tushadi, ya‘ni bu turli xil tiplardagi resurslarni (vektor obektlar, balandlik matritsalari, TIN‘ va hakozolar) yuklash va qarab chiqish imkoniyatini beradi;

***Chiqish (Vixod) –*** PHOTOMOD tizimidan uni ochmasdan chiqish uchun foydalaniladi.

Muloqot darchasida ***Loyihasiz (Bez proyekta)*** tugmachasi tanlanadi.

PHOTOMOD Montage Desktop dasturiy modulining interfeysini o_rganish: bunda tugmachalar menyusi, uskunalar paneli va xatcho_plar bilan tanishish imkoniyati tug_iladi; dasturning asosiy va qo_shimcha darchalari xususiyatlari bilan tanishiladi.

Loyiha bilan ishlashni tugallash va dasturdan ***«Chiqish»*** (***Vixod)*** tugmacha menyusi orqali chiqish amalga oshriladi.

***Loyihani yaratish va tarmoqni shakllantirish (PHOTOMOD Montage Desktop moduli bilan ishlash)***

***Ishning maqsadi:***

1. PHOTOMOD Montage Desktop moduli interfeysi bilan tanishishi;
2. Joriy loyihani yaratish va tarmoqni shakllantirish bo_yicha ishlarning mazmuni va bajarilish ketma-ketligini o_rganish;
3. PHOTOMOD Montage Desktop dasturiy moduli vositalari yordamida loyihani tuzish va tarmoqni shakllantirish ishlarini bajarish algoritmi bilan tanishish;
4. PHOTOMOD dasturida loyihani yaratish va tarmoqni shakllantirish majmuaviy ishlarini mustaqil tarzda bajarish.

***Ishni bajarish uchun kerakli dastlabki materiallar:*** PHOTOMOD 4.2 Demo dasturiy majmuasi. «PHOTOMOD» (Aerofototasvir – Demo-loyiha) PHOTOMOD 4.4. Dasturiy majmuasi. 4 ta skanerlangan tasvirlarga misollar va texnik xujjatlar.

***Umumiy ma‘lumotlar:***

PHOTOMOD Montage Desktop dasturi PHOTOMOD raqamli fotogrammetriya tizimida aosiy qobiq dasturi hisoblanadi va loyihalarni yaratishda qo_llaniladi, shuningdek turli xil modullarni ishga tushirishda foydalaniladi (3-rasmga qaralsin).




***3-rasm. PHOTOMOD Montage Desktop dasturining ishchi darchasi.***

***Ishlarni bajarish tartibi:***

***PHOTOMOD Montage Desktop*** modulini ishga tushirish. Modulni ishga tushirishda muloqot darchasida modulni ochish - ***«Yaratish» (Sozdat)*** variant tanlanadi.

Ochilgan muloqot darchasida (4-rasmga qaralsin) loyihaning nomi va qisqacha tavsifi kiritiladi, mos keluvchi loyiha tipi tanlanadi va dastlabki koordinatalar tizimi beriladi.




***4- rasm. Yangi loyihani yaratish uchun muloqot darchasining umumiy ko_rinishi.***

Uskunalar panelida joylashgan tugmachalardan foydalangan holatda marshrut kiritiladi, bu nomlanishni kiritish va mo_ljalga olishni bajarish ko_zda tutiladi, keyin esa tasvir qo_shiladi (5-rasmga qaralsin), tasvir dastlab tayyorlab olingan rastr tasvirlar yig_indisi kiritilgan fayllar katalogidan tanlanadi va loyihaga rastr kirtiladi, bunda PHOTOMOD Montage Desktop ish stolining uskunalar paneli yuqorigi qismida joylashgan mos keluvchi –  piktogrammasi tanlanadi.




***5- rasm. Tasvirlarni kiritish uchun muloqot darchasining ko_rinishi.***

Barcha rast tasvirlar kiritilgandan keyin tarmoqni shaklantirish talab qilinadi, bunda tasvirlar marshrutlar ichida joylashtirilib, marshrutlar esa o_ng ketma-ketlikda, ***«Blok tahrirlovchisi» (Redaktor bloka)*** uskunalar paneli yordamida joylashtiriladi (6-rasmga qaralsin).




*6- rasm. «Blok tahrirlovchisi» (Redaktor bloka) muloqot darchasining ko_rinishi.*

5. Loyiha bilan ishlashni tugallash va dasturdan ***«Chiqish» (Vixod)*** tugmacha menyusi yordami chiqish amalga oshiriladiva to_rtta skanerlangan tasvirdan foydalanib, yangi loyiha yaratilsin.

***Tarmoqni o_lchash. PHOTOMOD AT dasturiy moduli bilan ishlashda asosan***

1. PHOTOMOD AT (*Aerial Triangulation*) dasturiy moduli interfeysi bilan tanishish;
2. Fototriangulyatsiya blok tarmoqlarini va marshrutlarni tuzib chiqish ishlarining mazmuni va bajarilish ketma-ketligini o_rganish;
3. PHOTOMOD AT moduli vositalari yordamida fototriangulyatsiya blok tarmoqlarini va marshrutlarni tuzib chiqish ishlari algoritmi bilan tanishish;
4. PHOTOMOD dasturida mustaqil holatda fototriangulyatsiya blok tarmoqlarini va marshrutlarni tuzib chiqish ishlarini bajarish.

***Ishlash uchun kerakli dastlabki materiallar:*** PHOTOMOD 4.2 Demo dasturiy majmuasi. «Aerofoto tasvirlar – Demo-loyiha» misoli tasvirlash ishlari olib borilgan bulsa.

***Umumiy ma‘lumotlar: PHOTOMOD AT*** dasturiy moduli marshrutlarni tuzish va fazoviy triangulyatsiya bloklari tarmoqlarini tuzish maqsadlarida foydalaniladi. ***PHOTOMOD AT*** modulida dastlabki ma‘lumotlarni qayta ishlash jarayoni tasvirlarning ichki mo_ljalga olinishi, koordinatalarni kiritish va tayanch nuqtalarini o_lchash, ko_ndalang va bo_ylama kesishish sohalarida bog_lovchi nuqtalarni o_lchashni o_z tarkibiga oladi. Barcha kerakli dastlabki ma‘lumotlarni yig_ib olgandan keyin ***PHOTOMOD Solver*** modulida fototriangulyatsiya blokini tenglashtirish amalga oshiriladi.

***PHOTOMOD AT*** modulini ishga tushirish loyiha dispetcheri (boshqaruvchisi) orqali yoki *«Moduli (Modullar) / AT (CTRL+A)»* menyusidan foydalanilib amalga oshirilishi mumkin.

***PHOTOMOD AT*** modulida ishlash fazoviy triangulyatsiyani bir nechta bosqichlarda amalga oshirish ishlari ketma-ketligidan tashkil topgan (7-rasmga qaralsin).




*7- rasm. PHOTOMOD AT modulining muloqot darchasining ko_rinishi.*

Modul darchasi raqamlangan tarzdagi, loyihani qayta ishlash bosqichlariga mos keluvchi tugmachalarga ega hisoblanadi. Kerakli bosqichga o_tish quyi qismda joylashgan ***Bosqichlar*** (***Etapi*** ) menyusi yordamida amalga oshiriladi yoki modul darchasida mos keluvchi raqam tanlanadi. Yangi loyiha bilan ishlash davomida barcha bosqichlarni ketma-ketlikda bosib o_tish tavsiya qilinadi.

Qayta ishlangan loyihalar bilan ishlashda hohlagan bosqichga o_tish mumkin, bunda kiritilgan joriy o_zgartirishlar mos ravishda o_zgartirishlar va natijalar tarzida yangilanish orqali amalga oshiriladi.

***Ishlarni bajarish tartibi:***

1. ***«Loyiha boshqaruvchisi» (Dispetcher proyekta)*** darchasidan foydalangan holatda PHOTOMOD AT modulini ishga tushirish.

2. Ochilgan muloqot darchasida ***«1.Ichki mo_ljalga olish» (1.Vnutrenneye oriyentirovaniye)*** bo_limini tanlash.




Ichki mo_ljalga olish – ko_rsatkichlar qiymatlarini hisoblash uchun, raqamli tasvir koordinatalari tizimida koordinatalar tizimini nisbiy holatda mo_ljalga olish va holatini belgilash maqsadlarida bajariladi. Bundan tashqari ichki mo_ljalga olish tasvirlarning tizimli tarzdagi deformatsiyalarini tavsiflovchi ko_rsatkichlarni aniqlash uchun ham qo_llanilishi mumkin. Ichki mo_ljalga olish ishlari bajarilishi davomida aniqlangan natijalar bo_yicha ko_rsatkichlar qiymatlari tasvirlar koordinalari tizimida raqamli tasvir koordinalarini o_lchashlarni o_zgartirish maqsadlarida foydalaniladi.

**Xulosa**

Maxsus masalalarni, ya‘niy kadastrdan foydalanuvchilarning imkon boricha ularning talablarini oldindan hisobga olib, chora-tadbirlar ko‗rish, kadastrni boshqaruvdagi muammolarni hal qilishni oldindan tayyorgarlik ko‗rish, mablag‗ bilan ta‘minlash masalasini hal etish, kadastrning huquqiy meyorini isloh qilish, malakali mutaxasislarni jalb qilish, siyosiy tashkilotlar tomonidan yordam bo‗lishiga ta‘minlash kiradi va bundan tashqari, Geodezik topografik ishlarni takomillashtirishda va qishloq xo‗jaligi joyni o‗rganish va baholash, topografik kartalarni yangilashda masofadan turib zondlash ishlarini olib boruchi dronlardan olingan materiallarni qayta ishlashda sun‘iy yo‗ldosh geodezik priyomniklari yordami orqali aniqlash, qo‗llash asosiy va dolzarb ko‗rsatkichlardan biri bo‗lib xizmat qiladi. GIS ning tarkibi qatlamli ma‘lumotlar yig‗indisidan iborat, deb tushuniladi, masalan, boshlang‗ich qatlam relyef bo‗yicha ma‘lumotlarni o‗zida saqlasa, boshqa qatlamlar gidrografiya, yo‗llar, aholi yashash joylari, tuproqlar va boshqa ma‘lumotlarni o‗zida to‗playdi. Bu qatlamlarning har birida ma‘lum mavzuli ma‘lumotlar to‗plashga va GAT dasturiy taminotlari orqale kadastrdan foydalanuvchilarning imkoni bir necha barobarga oshirish mumkinligini yuqorida keltirilgan amaliy ko‘rsatma misolida ham ko‘rish mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‗YXATI:

**1.** O‗zbekiston Respublikasining «Geodeziya va kartografiya to‗g‗risida» gi qonuni. № 417-I, 1999

**2.** Muborakov X. Geodeziya va kartografiya. Toshkent, «O‗qituvchi», 2002

**3.** Nazarov A.S. Koordinatnoy obespecheniye topografo-geodezicheskix i zemelno-kadastrovix rabot / A. S. Nazarov. – Minsk : Ucheb.sentr podgot., povisheniya kvalifikasii i perepodgot. kadrov zemleustroit. i kartografo-geod. slujbi. 2008. – 83 str.

**4.** Serapinas B. B. Osnovi sputnikovogo pozisionirovaniya: Uchebnoye posobiye. M.: Iz-vo Mosk. Un-ta, 1998, - 84 s.

6. Trevogo I.S., Shevchuk P. M. Gorodskaya poligonometriY. Moskva, «Nedra», 1986, -199 str.

7. Nazarov A.S. FotogrammetriY. Uchebnoye posobiye dlya studentov VUZov. Mn.: Izd. «TetraSistems», 2006. – 368 s.

8. Instruksiya po fotogrammetricheskim rabotam pri sozdanii sifrovix topograficheskix kart i planovM., SNIIGAiK. 2002.- 100 s.

9. GOST R51833-2001. FotogrammetriY. Termini i opredeleniY.

10. «Photomod 4.4». Rukovodstvo polzovatelya (elektronnoye izdaniye) / Rakurs.- Moskva,2007.

## INTERNET SAYTLARI:

11. http://www.allpravo.ru/library/doc99p/instrum5237/item5256.html.

12. http://www.gendocs.ru/v5511/лекция_-_ведение_кадастра_за_рубежом.

13. http://www.geodetics.ru/geodezseti.html.

# UMUMTA‘LIM MAKTABLARINING INGLIZ TILI DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANIB DARSLARNI TASHKIL ETISHNING SAMARALARI.

**Xurshida Rustamova Normurodovna**
*Navoiy viloyati, Uchquduq shahar*
*10 - maktab. Ingliz tili fan o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Bugungi kunda yosh avlodning xorijiy tillarni o‘rganishga qiziqishi ortib bormoqda. Shu bois, umumta‘lim maktablarida xorijiy tilni, jumladan ingliz tilini o‘qitish darslarda interfaol metodlardan foydalanishni talab etadi. Ushbu maqola umumta‘lim maktablarining ingliz tili darslarida interfaol metodlardan foydalanib darslarni tashkil qilishning samaralariga bag‘ishlangan.*

**Kalit so‘zlar:** *Metod, interfaol metod, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interfaollik.*

Mamlakatimizda axborot jamiyatini shakllantirish, barcha sohalarda eng ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirilyapti. Xususan, bu jarayonda interfaol (interaktiv) xizmatlarning imkoniyatlari yuqori baholanmoqda. O‘zbek tilining izohli lug‘atida ‗‘interfaol‘‘ tushunchasiga axborotlarni kompyuter tarmog‘i orqali qabul qilish yoki uzatishga asoslanish deya ta‘rif berilgan. Vikipediyada esa interaktivlik ob‘yektlar o‘rtasidagi o‘zaro harakat xarakteri va darajasini ochib beruvchi tushuncha sifatida baholangan bo‘lib, axborot nazariyasi, informatika va dasturlash, telekommunikatsiya tizimlari, sotsiologiya, sanoat dizayni va hokazo sohalarda qo‘llanilishi aytiladi. Bir so‘z bilan aytganda, interfaollik – tizimni tashkil etish tizimi bo‘lib, bu tizmning qismlari o‘rtasida axborot almashinuvini yo‘lga qo‘yish orqali muayyan maqsadga erishishdir.

Interfaol metod – ta‘lim jarayonida o‘quvchilar hamda o‘qituvchi o‘rtasidagi faollikni oshirish orqali o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo‘llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta‘limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o‘tkazish, o‘quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma‘ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko‘pligi, o‘quvchilar tashabbus ko‘rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo‘lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo‘lib, ular ta‘lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o‘ziga xos ahamiyatga ega . Hozirda ta‘lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo‘nalishlardan biri interfaol ta‘lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Barcha fan o‘qituvchilari dars mashg‘ulotlari jarayonida interfaol usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar. Interfaol usullarni qo‘llash natijasida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o‘z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog‘lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko‘nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi. Interfaol ta`lim jarayonida dars o`quvchilarning o`zaro muloqotlari asosida amalga oshiriladi.

Interaktiv ingliz so`zidan olingan bo`lib, «Interakt», ya`ni, Inter - bu «o`zaro», «akt»

- harakat, ta`sir, faollik ma`nolarini bildiradi. Interfaollik, bu - o`zaro ikki kishi faolligi, ya`ni, bunda o`quv-biluv jarayoni o`zaro suhbat tariqasida, dialog shakldа (kompyuter aloqasi) yoki o`qituvchi-o`quvchilarning o`zaro muloqotlari asosida kechadi. Interfaollik - o`zaro faollik, harakat, ta`sirchanlik, o`quvchi-o`qituvchi, o`quvchi-o`quvchi (sub`yekt-sub`yekt) suhbatlarida sodir bo`ladi. Interfaol metodlarning bosh maqsadi - o`q jarayoni uchun eng qulay muhit vaziyat yaratish orqali o`quvchining faol, erkin, ijodiy fikr yuritish, uni ehtiyoj, qiziqishlari, ichki imkoniyatlarini ishga solishga muhit yaratadi. Bunday darslar shunday kechadiki, bu jarayonda bironta ham o`quvchi chetda qolmay, eshitgan, o`qigan, ko`rgan bilgan fikr- mulohazalarini ochiq-oydin bildirish imkoniyatiga ega bo`ladilar. O`zaro fikr almashish jarayoni sodir bo`ladi. Bolalarda bilim olishga havas, qiziqish ortadi, o`zaro do`stona munosabatlar shakllanadi.

Chet tilini o‘qitish metodikasida zamonaviy hisoblangan interfaol metodlar olimlar tomonidan ishlab chiqilgan va ularni an‘anaviy metodlarga nisbatan samaradorlik darajasi ko‘proq ekanligi isbotlangan. Interfaol metodlar o‘quv jarayonining bilim salohiyatini an‘anaviy metodlarga nisbatan ancha ko‘taradi. Chunki, interfaol metodlarda o‘quvchining o‘zi mustaqil holda erkin fikr yuritadi, o‘qituvchi bilan hamkor sifatida ishlaydi. Zamonaviy texnologiyalar orqali chet tili o‘qitilar ekan, unda o‘quvchi o‘zi dars jarayonini rejalashtiradi, o‘zi belgilagan o‘quv rejasi asosida shug‘ullanadi, o‘qitish metodlarini o‘quvchi va o‘qituvchi hamkorlikda tanlaydi, o‘quv materiali muhokamasida ishtirok etadilar. Bunda o‘quvchilar birbirlariga yordam beradilar.

Interfaol ta‘lim usuli – har bir o‘qituvchi tomonidan mavjud vositalar va o‘z imkoniyatlari darajasida amalga oshiriladi. Bunda har bir o‘quvchi o‘z motivlari va intellektual darajasiga muvofiq ravishda turli darajada o‘zlashtiradi.Interfaol ta‘lim texnologiyasi - har bir o‘qituvchi barcha o‘quvchilar ko‘zda tutilgandek o‘zlashtiradigan mashg‘ulot olib borishini ta‘minlaydi. Bunda har bir o‘quvchi o‘z motivlari va intellektual darajasiga ega holda mashg‘ulotni oldindan ko‘zda tutilgan darajada o‘zlashtiradi . Interfaol mashg‘ulotlarni amalda qo‘llash bo‘yicha ayrim tajribalarni o‘rganish asosida bu mashg‘ulotlarning sifat va samaradorligini oshirishga ta‘sir etuvchi ayrim omillarni ko‘rsatishimiz mumkin. Ularni shartli ravishda tashkiliy-pedagogik, ilmiy–metodik hamda o‘qituvchiga, o‘quvchilarga, ta‘lim vositalariga bog‘liq omillar deb atash mumkin. Ular o‘z mohiyatiga ko‘ra ijobiy yoki salbiy ta‘sir ko‘rsatishini nazarda tutishimiz lozim.Interfaol mashg‘ulot turlari ko‘p bo‘lib, ularni dars mavzusining xususiyatlari hamda ko‘zda tutilgan maqsadlarga muvofiq tanlanadi va tegishlicha tayyorgarlik ko‘riladi. Interfaol mashg‘ulotda ishtirok etish uchun o‘quvchilarning tayyorliklariga o‘ziga xos talablar qo‘yiladi, bular mashg‘ulotda faol ishtirok etish uchun zarur bilimlarni o‘zlashtirganlik, muloqotga tayyorlik, o‘zaro hamkorlikda ishlash, mustaqil fikrlash, o‘z fikrini erkin bayon qilish va himoya qila olish ko‘nikmalari va boshqalardan iborat. Mashg‘ulotda vaqtdan unumli foydalanish zarur shart hisoblanadi. Buning uchun zarur vositalarni to‘g‘ri tanlash, tayyorlash hamda mashg‘ulot o‘tkazuvchilar va ularning vazifalari aniq belgilangan bo‘lishi lozim. Interfaol metodlar bilan an‘anaviy ta‘lim usullari orasida o‘ziga xos farqlar mavjud bo‘lib, har bir o‘qituvchi bu farqlarni qiyoslashi, ularning bir biriga nisbatan afzalliklari va kamchiliklarini darsni rejalashtirish va uni o‘tkazish usullarini tanlashda to‘g‘ri hisobga olishi zarur. Bunda yangi bilimlarni berish, ko‘nikmalarni shakllantirish, rivojlantirish, mustahkamlash, bilimlarni takrorlash, amalda qo‘llash mashg‘ulotlarida hamda o‘quv fanining

xususiyatlarini hisobga olgan holda har bir mavzu bo‘yicha mashg‘ulot uchun eng maqsadga muvofiq bo‘lgan interfaol yoki boshqa metodlarni to‘g‘ri tanlash nazarda tutiladi.To‘g‘ri tanlangan metodlarni qo‘llash mashg‘ulotning qiziqarli va samarali bo‘lishini ta‘minlaydi.

## FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг 2012 йил10-декабрдаги ―Чет тилларни ўрганиш тизимини янада такомиллаштириш чора тадбирлари тўғрисида‖ ги ПҚ №1875-сонли қарори.

2. Ўзбекистон Республикаси олий ва ўрта махсус таълим вазирининг–Магистратура тўғрисидаги низом‖ 2012 йил 29 октябрдаги 418-сонли буйруғи.

3.Íiraga M.K. Cultural, Psychological and Typological Issues in Cognitive Linguistics. – Armsterdam, Philodelphia: Benjamin, 1999. – 338 p.

# KORONAVIRUSDA XOMILADORLIKNING KECHISHI.

**Юлдашева Гулбахор Махмуджоновна**
*Andijon Abu Ali Ibn Sino nomidagi*
*jamoat salomatligi texnikumi, Onalikda hamshiralik parvarishi kafedrasi o‗qituvchisi,*

**Annotatsiya:** *Dunyoda sodir bo‗layotgan umumiy tashvish va asabiy holatlarni tushungan xolda, ta‘kidlash kerakki, homiladorlikni kechishiga xavf soluvchi asosiy omil bu – stress (ruhiy zo‘riqish)dir. Asoslanmagan yangiliklarni o‘qishdan bosh tortish, gigienik tartiblarga amal qilish va pozitiv bo‗lish lozim. Yo‗ldosh va onaning salomatligi homilani virusdan himoyalaydi.*

**Kalit so‗zlar:** *COVID-19, Koronavirus, homiladorlik, fiziologik holat, infektsiya, stress, platsentar to‗siq, astma, diabet, buyrak yoki jigar kasalliklari.*

COVID-19 bilan kasallanish xavf guruhlari orasida homilador ayollar alohida o‗rin egallaydi. Ma‘lumki, homiladorlik bu fiziologik holat bo‗lishiga qaramay, bir qator a‘zo va tizimlarning, shu jumladan, immun tizimning o‗zgarishi bilan kechadi. Shu sababli homiladorlik vaqtida infeksiyalarga nisbatan sezuvchanlik sezilarli darajada oshadi. Koronavirus homilaning rivojlanishiga qanday ta‘sir qilishini shifokorlar hali ham kam bilishadi. Biroq, koronavirus bilan kasallangan homilador ayollar boshqa sog‗lom insonlarga qaraganda og‗irroq alomatlarni ko‗rsatmaydi.

Ko‗pgina odamlar kabi, virusni yuqtirganda, homilador ayollar odatda yo‗tal, isitma, nafas qisilishi, bosh og‗rig‗i va hidni yo‗qotish kabi yengil va o‗rtacha darajadagi alomatlarga duch kelishadi. Aksariyat ayollar bir necha kun ichida tiklanadi.

Koronavirus infektsiyasi bilan bog‗liq cheklovlar bo‘lishi tabiiy. Ammo dam olish, jismoniy faoliyat va turmush tarzini to‗g‗ri tashkil etish (ijtimoiy masofa, gigiena va himoya tartiblari) bilan bu qiyinchiliklarni engish mumkin. Homila koronavirus infektsiyasining bevosita nishoni emas. Virus homilaga teratogen ta‘sir ko‗rsatmaydi. Platsentar to‗siq homila uchun ishonchli to‗siq bo‗lgani bois chaqaloqlar sog‗lom tug‗iladi. Ko‗p narsa onaning holati va koronavirus infektsiyasining og‗irlik darajasiga bog‗liq. Odatda tug‗ruq engil o‗tadi, ya‘ni bolalar kasallik alomatlarisiz tug‗iladi. Eng muhimi – ularni o‘z vaqtida alohidalash.

Agar onada COVID-19 ga shubha tug‘ilsa yoki bemorlar bilan aloqada bo‘lgan bo‘lsa, emizishni to‘xtatmasligi kerak deb hisoblanadi. Ammo ayolda yuqori isitma yoki virusli infektsiyaning boshqa alomatlari bo‘lsa va shifokor ko‘krak suti bilan o‘tadigan va bolaga zararli ta'sir qiladigan dori vositalarini buyurgan bo‘lsa, ko‘krak bilan boqish davolash vaqtida to‘xtatiladi. Ushbu davrda ona sutini sog‘ish orqali laktatsiyani ushlab turish va sog‘aygandan keyin ko‘krak bilan boq?ishni davom ettirish lozim.

Homilador ayollar xam oddiy odamlar kabi zararlanishdan saqlanishlari lozim. COVID-19 ni tarqalishini tirsagiga yo‘talib, kasal odamlar bilan aloqa qilishdan saqlanib, qo‘llarni tez-tez sovun va suv yoki spirt asosli qo‘l sanitariya vositalari bilan yuvish orqali to‘xtatish mumkin.

Juda kamdan-kam hollarda homilador ayollarda jiddiy alomatlar mavjud. Yurak muammolari, astma, diabet, buyrak yoki jigar kasalliklari bo_lganlar alohida xavf guruhiga kiradi, ularga uyda qolish va iloji bo_lsa, har qanday ijtimoiy aloqadan qochish tavsiya etiladi.

Homilador ayollar uchun ba‘zi viruslar juda xavflidir, ammo Covid-19 ushbu toifaga tegishli ekanligi haqida hech qanday dalil yo_q. Britaniyalik olimlar tadqiqotda ishtirok etishga rozi bo_lgan homilador ayollar yordamida hamon ma‘lumot yig_ishmoqda va ushbu muammoni o_rganishmoqda.

So_nggi paytlarda virusning og_ir shakliga chalingan ayollar erta tug_ilgan chaqaloqlarni dunyoga keltirganligi haqida xabarlar paydo bo_ldi. Biroq, erta tug_ilishning aniq sabablari hali ham noma‘lum.

Homiladorlik davrida o_sayotgan homila ayolning o_pkasi va yuragiga bosim o_tkaza boshlaydi, bu esa qon aylanishini qiyinlashtiradi. Agar homilador ona Covid-19 bilan og_ir kasal bo_lsa, bu uning ahvolini yomonlashtirishi va nafas olishni qiyinlashtirishi mumkin. Bunday hollarda shifokorlar kasalxonada ayolni diqqat bilan kuzatib boradilar.

"Isitmani keltirib chiqaradigan jiddiy kasalliklar ba‘zan erta tug_ish va tug_ilish bilan bog_liqdir.

Ko_p hollarda koronavirusga chalingan bemorlarda shifokorlar ayolning muddatidan oldin qisqarishi bo_lgani uchun emas, balki uning nafas olishiga yordam berish kerak bo_ladi. Kasallik abort qilish xavfining oshishiga olib kelishi haqida hech qanday dalil yo_q.

Virusning onadan homilaga yuqishi mumkin. Onadan bolada koronavirus yuqtirgan bir necha holatlar haqida eshitganmiz, biroq barcha chaqaloqlar tuzalib, shifoxonadan chiqarilgan. Chaqaloqni aniq qayerdan yuqtirganligini aniqlash juda qiyin: bachadonda, tug_ruq paytida yoki tug_ilgandan keyingi dastlabki daqiqalarda bo_li mumkin.

Homilador onalardan o_zlarini va bolasini himoya qilish uchun o_zlarini izolyatsiya qilishni va shifokorga rejalashtirilgan tashriflarni kechiktirishi mumkin. Homilador ayollar muntazam tekshiruvlarga borishlari kerak. Ushbu tashriflarda esa shifokorlar tomonidan extiyotkorlik bilan gigiyena qoidalariga rioya qilgan holda bemorni qabul qilishi va yordam berishi tavsiya etiladi.

Covid-19 tashxisi tasdiqlansa - kasallikning yengil shakli bo_lsa, homilador ayollar terapevt nazorati ostida uyda davolanishlari mumkin. Kasallikning o_rtacha va og_ir shakllari bilan kasalxonaga yotqizish talab etiladi. Bunday holatda, homilador ayolni izolyatsiya qilingan palataga joylashtirishni tavsiya qiladi.

Covid-19 bilan kasallangan ayollarning aksariyati bir necha kundan keyin o_tib ketadigan yengil alomatlarga duch kelishadi.

Homilador ayollarga agar ishlaydigan bo‘lsa, uyda ishlashga to_g_ri keladi. Homilador ko_proq surunkali kasalliklar, masalan, astma, diabet, buyrak yoki jigar kasalligi va boshqalar bo_lsa, ijtimoiy aloqalardan qochishi va uyini tark etmasligi kerak bo_ladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ya.N. Allayorov, D.Q. Tosheva, D.O‗. Yusupova Onalikda hamshiralik parvarishi. Kasb-hunar kollejlari uchun o‗quv qo‗llanma. 2018 y.

2. Ya.N.Allayorov Akusherlik va ginekologiya Tibbiyot kollejlarining 3720101 – davolash ishi feldsheri yo‗nalishi o‗quvchilari uchun o‗quv qo‗llanma «O‗zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent – 2013 y.

3. Allayorov Ya.N., Tosheva D.G., Yusupova D.O‗. ―Onalikda hamshiralik parvarishi‖, ―Voris‖ nashriyoti, T., 2012y.

4. Veb saytlar https://www.google.com/search?
https://www.bbc.com/russian/features-52584870

# BOSHLANG‗ICH SINFLARDA MATEMATIKA O‗QITISH METODLARI.

**Ziroat Mahmudova Saydullayevna**
*Toshkent tumani 9-IDUM.*
*Boshlang‗ich sinf o‗qituvchisi.*

**Annatatsiya:** *Ushbu maqola boshlang‗ich maktab matematikasida barcha didaktik materiallar uchun umumiy topshiriqlarning murakkabligi bo‗yicha tabaqalashtirilishi va umumiyligi haqida.*

**Kalit so'zlar:** *O'qitish xarakteridagi materiallar, arfmetik materiallar,didaktik materiallar*

Boshlang‗ich maktabda matematika o‗qitish metodikasida mustaqil va nazorat ishlari, o‗quvchilardan individual yozma so‗rov o‗tkazishning samarali vositalari yaratilgan. Ba‘zi didaktik materiallar dasturning chegaralangan doiradagi masalalarining o‗zlashtirilishini reyting tizimida nazorat qilish uchun, boshqalari boshlang‗ich maktab matematika kursining barcha asosiy mavzularini nazorat qilish uchun mo‗ljallangan. Ayrim didaktik materiallarda (ayniqsa, kam komplektli maktab uchun mo‗ljallangan) o‗qitish xarakteridagi materiallar, boshqalarida esa nazoratni amalga oshirish uchun materiallar ko‗proqdir.

Boshlang‗ich maktab matematikasida barcha didaktik materiallar uchun umumiy topshiriqlarning murakkabligi bo‗yicha tabaqalashtirilishidir. Bu materiallar tuzuvchilarning g‗oyasiga ko‗ra ma‘lum mavzu bo‗yicha topshiriqning biror usulini bajarishi o‗quvchining bu mavzuni faqat o‗zlashtirganligi haqidagina emas, balki uni to‗la aniqlangan darajada o‗zlashtirganligi haqida ham guvohlik beradi.

O‗qitish samaradorligining zaruriy va muhim sharti o‗quvchilarning o‗rganilayotgan materialni o‗zlashtirishlari ustidan nazoratdir. Didaktikada uni amalga oshirishning turli shakllari ishlab chiqilgan. Bu o‗quvchilardan og‗zaki so‗rash; nazorat ishlari va mustaqil ishlar; uy vazifalarini tekshirish, testlar, texnik vositalar yordamida sinash kabi usullardir. Didaktikada dars turiga, o‗quvchilarning yosh xususiyatlariga va h.k. bog‗liq ravishda nazoratning u yoki bu shaklidan foydalanishning maqsadga muvofiqligi masalalari, shuningdek, nazoratni amalga oshirish metodikasi yetarlicha chuqur ishlab chiqilgan.

Matematika o‗qitish metodikasida ―o‗quv materialini o‗zlashtirilish darajasi‖ tushunchasining mazmuni to‗la ochib berilmagan.O‗qituvchilar uchun qo‗llanmalarda didaktik materialning u yoki bu topshirig‗i qaysi darajaga mos kelishini aniqlashga imkon beradigan mezonlar aniq emas. Amaliyotda o‗qituvchilar ko‗pincha biror topshiriqning usullarini biri boshqalaridan soddaroq yoki murakkabroq deb aytadilar. Bundan tashqari, didaktik materiallar qanchalik san‘atkorona tuzilgan bo‗lmasin, ularning mazmuni va tuzilishida qanchalik sermahsul va chuqur g‗oyalar amalga oshirilmasin, ular baribir barcha metodik vazifalarni tezda hal etishga qodir emas, chunki hech qanday o‗rgatuvchi mashina o‗qituvchining intuisiyasini, ya‘ni hissiyotini almashtira olmaydi.

Shunday qilib, didaktik materiallarni o‗quvchilarning o‗quv materialini o‗zlashtirish darajasini nazorat usullaridan biri sifatida qarash lozim. Shu bilan birga muayyan usul mazkur sinf, mazkur o‗qituvchi uchun eng yaxshi usul bo‗lmasligi ham mumkin. Shu sababli didaktik materiallar o‗qituvchini o‗quvchilarning bilimlarni o‗zlashtirish darajasini aniqlash imkonini

beradigan individual tekshirish uchun nazorat turlarini tuzishdan xalos eta olmaydi. Bu umummetodikaning asosiy vazifalaridan biridir. Arifmetik material kursning asosiy mazmunini tashkil etadi. Boshlang_ich kursning asosiy o_zagi natural sonlar va asosiy miqdorlar arifmetikasidan iborat. Bundan tashqari, bu kursda geometriya va algebraning asosiy tushunchalari birlashadi.

Boshlang_ich sinf matematika kursi maktab matematika kursining organik qismi bo_lib hisoblanadi.1-4 sinflarda o_qitiladigan matematikaning eng asosiy va o_quvchilar yoshiga mos bo_lgan elementar tushunchalari beriladi. Yuqori sinflarda shu tushunchalar kengaytirilgan, chuqurlashtirilgan va boyitilgan holda o_qitiladi. Demak, boshlang_ich sinf matematikasining mazmuni yuqori sinf matematikasining mazmunini ham belgilab beradi. Boshlang_ich matematikaning tuzilishi o_ziga xos xususiyatlarga ega:

1. Arifmetik material kursning asosiy mazmunini tashkil qiladi. U natural sonlar arifmetikasi, asosiy miqdorlar, algebra va geometriya elementlarining propedivtik kurslari asosiy bo_lim shaklida o_qitilmasdan arifmetik material bilan qo_shib o_qitiladi.

2. Boshlang_ich sinf materiali konsentrik tuzilgan. Masalan, oldin ko_nikmalarni raqamlash o_qitilsa, keyin 100 ichida raqamlash va arifmetik amallar bajarish o_qitiladi. Undan keyin 1000 ichida arifmetik amallar bajarish, keyin ko_p xonali sonlar ichida. Bularni o_qitish bilan birga raqamlash, miqdorlar, kasrlar, algebraik va geometrik materiallar qo_shib o_qitiladi.

3. Nazariya va amaliyot masalalari o_zaro organik bog_langan xarakterga ega.

4. Matematik tushuncha, xossa, qonuniy bog_lanishlarni ochish kursda o_zaro bog_langan.

5. Har bir tushuncha rivojlantirilgan holda tushuntiriladi. Masalan, arifmetik amallarni o_qitishdan oldin uning aniq mohiyati ochiladi, keyin amalning xossalari, keyin komponentlar orasidagi bog_lanish, keyin amal natijasi, oxirida amallar orasidagi bog_lanish beriladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO_YXATI:

1.Barkamol avlod - O`zbekiston taraqqiyotining poydevori.- T.: «Sharq» nashriyot-matbaa kontserni, 1997.

2. Axmedov M. .Abduraxmonova N.Jumaev M.E. Birinchi sinf matematika darsligi.)Toshkent. –Sharq‖ 2005 yil., 160 bet

3 Axmedov M va boshqalar. To`rtinchi sinf matematika darsligi. Toshkent. –O`qituvchi‖ 2005 yil

4. Axmedov M. .Abduraxmonova N.Jumaev M.E. Birinchi sinf matematika darsligi metodik qo`llanma.)Toshkent. –Sharqr‖ 2005 yil.,

5.Bikbaeva N.U, R.I.Sidelnikova,G.A.Adambekova. Boshlang`ich sinflarda matematika o`qitish metodikasi. (O`rta maktab boshlang`ich sinf o`qituvchilari uchun metodik qo`llanma.) Toshkent. –O`qituvchi‖ 1996 yil.

# IT TIBBIYOTDAGI O‗RNI.

**Zokirova Nigoraxon Xaydaralievna**
*Abu Ali ibn Sino nomidagi Andijon jamoat salomatligi texnikumi, Tibbiyotda axborot texnoliyalari fani o‗qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Sog‗liqni saqlash sohasiga AT ning joriy etilishi xizmat ko‗rsatish sifatini oshirish, xodimlar ishini sezilarli darajada tezlashtirish va bemorlarga xizmat ko‗rsatish xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi.*

**Kalit so‗zlar:** *IT, AT, Sog‗liqni saqlash, sub‘ektiv diagnostika, ma‘lumot, optimal antiviral.*

Zamonaviy dunyoda axborot texnologiyalari (IT) hamma joyda qo‗llaniladi. Sog‗liqni saqlash ham bundan mustasno emas. Zamonaviy IT ishlanmalari aholiga tibbiy yordam ko‗rsatishni tashkil etishning yangi usullarini ishlab chiqishga ijobiy ta‘sir ko‗rsatmoqda. Ko‗pgina mamlakatlar sog‗liqni saqlash sohasida yangi texnologiyalardan uzoq vaqtdan beri faol foydalanmoqda. Bemorlar va xodimlarning telekonsultatsiyalarini o‗tkazish, turli muassasalar o‗rtasida bemorlar haqida ma‘lumot almashish, fiziologik ko‗rsatkichlarni masofadan turib qayd etish, real vaqt rejimida operatsiyalarni kuzatish — bu imkoniyatlarning barchasi tibbiyotga axborot texnologiyalarini joriy etish orqali taqdim etilmoqda. Bu sog‗liqni saqlash sohasini axborotlashtirishni yangi rivojlanish bosqichiga olib chiqadi, uning faoliyatining barcha jabhalariga ijobiy ta‘sir ko‗rsatadi.

Sog‗liqni saqlash sohasiga AT ning joriy etilishi xizmat ko‗rsatish sifatini oshirish, xodimlar ishini sezilarli darajada tezlashtirish va bemorlarga xizmat ko‗rsatish xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi. Ushbu imtiyozlar endi har bir klinikada mavjud.

Bugungi kunda tibbiy axborot tizimlari faol rivojlanmoqda, bu muassasalarning yanada samarali va tezroq ishlashiga imkon beradi. Yangi tibbiy axborot texnologiyalarini rivojlantirishga yo‗naltirilgan moliyaviy investitsiyalar ularning rivojlanishi va takomillashuviga ijobiy ta‘sir ko‗rsatadi.

Sog‗liqni saqlashda zamonaviy IT imkoniyatlari sog‗liqni saqlashning barcha jabhalariga ijobiy ta‘sir ko‗rsatishi mumkin. Tibbiyotda axborot texnologiyalaridan foydalanish ham quyidagilarga imkon beradi: byudjet cheklovlari, doimiy siyosat o‗zgarishi va xodimlarning etishmasligi butun dunyo bo‗ylab sog‗liqni saqlash muassasalari oldida turgan muammolardir. Ushbu muammolarni hal qilishning murakkabligini inkor etib bo‗lmaydi, ammo IT allaqachon shifokorlar va davlat sektori yordamiga kelmoqda.

Zamonaviy tibbiyotda raqamlashtirish va bemorlar tarixi bilan qog‗ozdan elektron ma‘lumotlar bazasiga o‗tish muhim o‗rin tutadi, bu esa tibbiyot muassasalari ishining samaradorligini oshiradi va sezilarli darajada osonlashtiradi. Katta shaharlarda axborot texnologiyalari oldinga siljiydi: ular bemorlarning hisobini yuritadi, tekshiruvlar natijalarini saqlaydi va shifokorlar uchun masofaviy o‗qitish imkoniyatlari mavjud. Tibbiyot xodimlarining ixtisosligi va malakasi to‗g‗risidagi ma‘lumotlar, dori vositalari haqidagi farmatsevtik ma‘lumotlar – bularning barchasi qulay elektron formatga o‗tkaziladi. Biroq, ma‘lumotlarni

saqlashning o‗zi tibbiyotga yordam berishda IT chegarasidan uzoqdir. Yana bir funktsiya - shaxsiy dori-darmonlarni ishlab chiqish, kasalliklarni tashxislash va samaraliroq davolash usullarini bashorat qilishda foydalanish mumkin bo‗lgan tibbiy ma‘lumotlarni tahlil qilishdir.

An‘anaga ko‗ra, tibbiyot faqat shifokorlarning tajribasi va malakasiga tayanadi, ammo bu yondashuv bilan noaniqliklar muqarrar. AT fanidan foydalanish birinchi navbatda inson omilining ta‘sirini kamaytirishi va bemorlar uchun yaxshi natijalarni berishi mumkin.

Bugungi kunda patologik xulosalarning aksariyati bir asr oldin ishlab chiqilgan qo‗lda, sub‘ektiv diagnostika usullarining natijalariga asoslangan. Darhaqiqat, ma‘lumotlar nafaqat dunyodagi eng og‗ir sog‗liq muammolarini hal qilish potentsialiga ega, balki biz optimal antiviral dorilarni topish usulini tubdan o‗zgartirishi mumkin.

Ehtiyotkor klinik kadrlar - So‗nggi yillarda butun dunyo bo‗ylab tibbiy maqsadli jamg‗armalar xodimlarning etishmasligi yoki moliyalashtirilmasligi muammosini hal qilishda yordam berish uchun texnologiyaga tobora ko‗proq murojaat qilmoqda.

Reproduktivlikni yaxshilash - Kasallikning o‗zgaruvchanligi tibbiyot sanoatidagi eng katta muammolardan biridir.

O‗zbekiston axborot texnologiyalarini rivojlantirishga ham juda katta e‘tibor qaratmoqda. Chakana savdo, moliyaviy tahlil yoki bank ishi kabi sohalarda turli yechimlar keng va muvaffaqiyatli qo‗llaniladi.

Texnologiyadan foydalanishning ortib borayotgan ahamiyati tibbiy ta‘limning barcha jabhalarida majburiy ma‘lumotlarni tahlil qilish va ma‘lumotlarni boshqarish ko‗nikmalarini talab qiladi. Sog‗liqni saqlash tashkilotlari o‗z ishlarida ma‘lumotlarni qayta ishlash jarayonlaridan tobora ko‗proq foydalanayotganligi sababli, ularning xodimlari (ham shifokorlar, ham ma‘muriy xodimlar) tegishli IT vakolatlariga ega bo‗lishlari shart. Ushbu texnologiyalarning tarqalishini ta‘minlash uchun o‗qitish, qo‗llab-quvvatlash va tajriba almashish uchun sharoitlar yaratilishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, innovatsiyalarni joriy etishning sekinlashishiga yo‗l qo‗ymaslik kerak. Ma‘lumotlarni boshqarishni avtomatlashtirish muhimroq vazifalarga sarflanishi mumkin bo‗lgan katta miqdordagi vaqt va resurslarni bo‗shatadi. Bir narsa aniq: sog‗liqni saqlashning kelajagi yanada sifatli tibbiy xizmat ko‗rsatadigan yangi texnologiyalarni joriy etish nuqtai nazaridan ancha ijobiy ko‗rinadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.Aripov, B.Begalov, U.Begimquloy, M.Mamarajabov, Axborot texnologiyalari, T: Noshir 2009-yil
2. Ugrinovich N.D. "Informatika va axborot texnologiyalari", BINOM. Bilim laboratoriyasi, 2003-yil
3. Журнал IT Manager
4. Veb sayt https://www.google.com/search?q=IT+ni+tibbiyotdagi+orni

# EKSTREMIZM VA TERRORIZMNING – JAMIYAT BARQARORLIGIGA TAHDIDI

**Anarkulov Azizjon Davlatkulovich**
*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti kafedra boshlig‘ining o‘rinbosari, i.f.f.d. (PhD), dotsent.*
**Muxamedov Muxammadali Mustafayevich**
*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, kafedra katta o‘qituvchisi.*

**Аннотация:** *Ushbu maqolada bugungi kunda ekstremizm va terrorizmning jamiyat barqarorligiga ta'siri hamda ekstremistik va terrorchilik faoliyatlariga qarshi kurashishda O‗zbekistonning tutgan o‗rni o‗rganilgan. Shuningdek, bu boradagi salbiy oqibatlarni oldini olish bilan bog‗liq takliflar keltirilgan.*

**Kalit so‘zlar**: *ekstremizm, terrorizm, tinchlik, vahima, jamiyat qadriyatlari, xavfsizlik, buzg‘unchilik.*

**Аннотация:** *В данной статье изучено влияние экстремизма и терроризма на стабильность общества и роль Узбекистана в борьбе с экстремистской и террористической деятельностью. Также были высказаны предложения по предотвращению негативных последствий в этом отношении.*

**Ключевые слова**: *экстремизм, терроризм, мир, паника, ценности общества, безопасность, разрушение.*

**Annotation:** *This article examines the impact of extremism and terrorism on the stability of society and the role of Uzbekistan in the fight against extremist and terrorist activities. Proposals were also made to prevent negative consequences in this regard.*

**Keywords:** *extremism, terrorism, peace, panic, values of society, security, destruction.*

Olam yaralibdiki, tinchlik-osoyishtalik insoniyat uchun tengsiz ne’mat bo‘lib kelgan. Borliqdagi barcha ezgu maqsadlarning ro‘yobi eng avvalo shu ne’matga bog‘liqdir. Bunday tengsiz ne’mat qadriga yetish, saqlash va uni yanada mustahkamlash hozirgi kunimizning dolzarb masalalaridan biriga aylanib borayotgani hech kimga sir emas, albatta. Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, bugun biz o‘z oldiga ezgu va ulug‘ maqsadlar ko‘yib, tinch va osoyishta hayot kechirayotgan, o‘z quchi va imkoniyatlariga tayanib, rivojlanishning o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lini tanlagan, jamiyatda inson qadrini ulug‘lashdek oliy maqsadlarga erishish yo‘lida ulkan natijalarni qo‘lga kiritayotgan jannatmakon o‘lkada yashamoqdamiz.

Biroq uzoq davarlardan bizga ma’lumki, yaxshilik bilan yomonlik, ezgulik bilan yovuzlik kabi nisbiy kuchlar bo‘lganidek, inson hayotiga raxna soluvchi ofatlar ham mavjud. Ulardan biri esa diniy aqidaparastlik, ekstremizm va terrorizmdir. Bu kabi ofatlar o‘tgan asrning so‘nggi o‘n yilligi va XX1 asrga kelib, o‘zining jirkanch qiyofasini namoyon eta boshladi. Bu esa o‘z navbatida xalqimizdan ana shunday holatlarning din niqobi ostida yo‘g‘rilgan, siyosiy manfaatlarni ko‘zlab amalga oshirilayotgan nayranglarga aldanib qolmasliklarini talab qiladi.

Ekstremizm va terrorizm insoniyat bilan birga XXI asrga kirib kelgan, eng xavfli ijtimoiy illatlardan biridir. Diniy rangbaranglikni rad etishi bilan mamlakat taraqqiyotining muhim tarixiy omili bo'lgan fuqarolararo hamjihatlikka rahna solishiga, aqidaparastlar nafaqat ijtimoiy hayotning siyosiy, iqtisodiy yoki madaniy sohalariga zarar yetkazishi, balki jamiyatga ommaviy tarzda psixologik bosim o'tkazib, eng mudhish oqibatlarga olib kelishiga hamda dinni siyosiylashtirish va soxtalashtirish orqali mamlakatdagi ijtimoiy barqarorlikni izdan chiqarishga qaratilgan har qanday harakatning oldini olishda barchamizning oldimizda turgan hayotiy muhim masalalardan biridir.

Jamiyatda qabul qilingan qadriyatlar va me'yorlarga zid qarashlarni ilgari surish, keskin qarashlar va choralarga moyillik ekstremizmning asosiy xususiyati hisoblanadi. Ekstremizm va terrorizm dunyodagi deyarli barcha mamlakatlarda shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlariga tahdid solmoqda. Albatta, bu jarayonlar barchamizni ogohlikka chaqiradi. Boisi, tinchlik bo'lmagan joyda taraqqiyotga yo'l yo'q. Yurtimizda turli sohalarda erishilayotgan barcha ulkan yutuqlarimizning zamirida jamiyatimizda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalikning ahamiyati kattadir.

Ekstremistik va terroristik tuzilmalarning asosiy maqsadi aslida jamiyatni qo'rquv va vahimada tutib turish va shu yo'l bilan omma ongida noilojlik, ertangi kunga ishonchsizlik tuyg'ularini shakllantirishga qaratilgan. Bu esa o'z navbatida ijtimoiy hayotning turli jabhalarida barqarorlikka erishishni so'ndirish va jamiyat taraqqiyotini jiddiy shikastlanishiga olib keladi. E'tiborlisi shundaki, ekstremistik va terroristik ruhdagi tuzilmalarning hech biri biror bir shaklda o'zlari jar solayotgan, o'zlari ―intilayotgan‖ jamiyat qurilishi modelini taklif etolmaydi. Yana tan olish kerakki, ommaviy axborot vositalarining rivoji va axborot omili ta'sirining kuchayishi ham bugungi kunda ekstremizm va terrorizmning hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydigan darajada ko'zga tashlanadigan ijtimoiy hodisaga aylanishiga olib kelmoqda.

Ekstremizm va terrorizm illatining so'nggi paytlarda tobora kuchayib borayotgani mazkur muammoning naqadar dolzarb ekanini ko'rsatadi. Bugungi kunda ekstremizm va terrorizm alohida mamlakatlarning milliy xavfsizligi va umuman jahon hamjamiyatiga jiddiy tahdid uyg'otayotgan omilga aylanib ulgurgan. Umumbashariy muammoga aylangan ekstremizm va terrorizmni jahon hamjamiyati faqat birgalikda, turli tor geosiyosiy manfaatlardan voz kechgan holda harakat qilibgina yenga olishi mumkinligi aksariyat davlatlar tomonidan tan olingani ayni haqiqatdir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bu borada: ―Ayni vaqtda dunyoning ba'zi mintaqalarida yuzaga kelgan notinch vaziyat aholi migratsiyasi kuchayishiga, bu esa, o'z navbatida, terrorizm va ekstremizmning tarqalishiga hamda ularning global muammolardan biriga aylanishiga olib kelmoqda. Bunday vaziyatda milliy davlatchiligimiz, mustaqilligimiz, aholimizning tinch va osoyishta hayoti va xavfsizligimizni saqlash biz uchun eng ustuvor vazifaga aylanib bormoqda‖[6] deya ta'kidlaganlar.

Aytish joizki, turli ekstremistik va terroristik tashkilotlar Markaziy Osiyo davlatlaridagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni izdan chiqarishga qaratilgan faoliyatini davom ettirmoqda. Shu nuqtai-nazardan, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev jahon hamjamiyati e'tiborini Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash maqsadida amaliy hamkorlikni

---

[6] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 22.12.2017-y.

yanada mustahkamlash, terrorizm va ekstremizm, transmilliy jinoyatchilik va narkotrafik tahdidlariga qarshi samarali kurashishni BMT preventiv diplomatiya usullaridan foydalangan holda, shuningdek, MDH, SHHT, YEXHT va boshqa nufuzli xalqaro hamda mintaqaviy tuzilmalar mexanizmlari doirasida ta’minlash mumkin ekaniga, xavfsizlikka tahdidlarni ―o‘ziniki va o‘zgalarniki‖ deb ajratishdan voz kechish, ―yaxlit xavfsizlik‖ tamoyiliga amalda rioya qilish zarurligiga qaratmoqda.

Bizning xalqimiz terrorizm dahshatini o‘z boshidan bir necha bor kechirgan, bu buzg‘unchilik harakatining aziyatlarini juda yaxshi tushunadi. Jumladan, Toshkentda ro‘y bergan fevral voqealari, Surxondaryo viloyatining Sariosiyo, Uzun tumanlaridagi xunrezliklar, poytaxtimizdagi xorijiy davlatlar elchixonalarida terrorchilik akti sodir etishga bo‘lgan urinishlar, Andijon voqealari va boshqa terroristik harakatlarning bari ana shu yovuz kuchga birikkan jangarilarning konstitutsiyaviy tuzumga qarshi xurujlari edi. Yurtimizda ushbu illatlarga qarshi kurashish, uning sabablarini oldini olish bo‘yicha jahon hamjamiyatiga namuna bo‘la oladigan darajada o‘ziga xos tajriba shakllangan.

Respublikamizda Prezidentimiz boshchiligida hukumatimiz tomonidan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash borasida jahon hamjamiyati uchun namuna bo‘lishi mumkin bo‘lgan samarali ishlar qatorida quyidagilarni qayd etish mumkin:

- to‘g‘ri yo‘ldan adashganlarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ularni sog‘lom hayotga qaytarish maqsadida mazkur shaxslar bilan keng jamoatchilikni jalb etgan holda tushuntirish-profilaktika ishlarini tizimli tashkil qilish, ularni maxsus ro‘yxatdan chiqarish bo‘yicha mexanizm yaratildi. Mazkur mexanizmning samarasi sifatida aqidaparastlik g‘oyalari ta’siriga tushgan 16 mingdan ziyod fuqarolarning ichki ishlar organlarining maxsus hisobidan chiqarilishi jamiyatda katta ijobiy rezonans berdi;

- yoshlarni ilm-ma’rifatga o‘rgatish, ularga islom dinining insonparvarlik mohiyati, islom madaniyatining asl qadriyatlarini yetkazish, ma’rifiy islom ta’limoti, buyuk ajdodlarimizning ulkan ma’naviy merosini chuqur o‘rganish, jamiyatda diniy va milliy bag‘rikenglik va hamkorlikni mustahkam qaror toptirish orqali aholi, ayniqsa, yoshlarda aqidaparast g‘oyalarga nisbatan mustahkam ma’naviy himoya qobig‘i shakllantirish maqsadida Imom Buxoriy va Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Samarqandda hadis va kalom ilmi maktabi, Buxoroda tasavvuf maktabi, Qashqadaryoda aqida maktabi, Farg‘onada islom huquqi (fiqhi) ilmiy maktablari ochildi. Shuningdek, Davlat Rahbari darajasida respublikada mavjud diniy konfessiya rahbarlari bilan muloqotlar uyushtirilib, barcha din vakillariga keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda;

- har yili O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining diniy ekstremizmga qarshi kurash, millatlararo va konfessiyalararo hamkorlikni yanada kuchaytirishga yo‘naltirilgan kompleks tadbirlar dasturi qabul qilinadi. Ushbu dastur doirasida davlat va jamoat tashkilotlari, mahalla yig‘inlarida, aholining turli qatlamlari orasida ekstremizm va terrorizm bilan bog‘liq tahdidlarning oldini olishga qaratilgan seminar, uchrashuv va davra suhbatlari o‘tkazish yo‘lga qo‘yilgan;

- aqidaparastlik g‘oyalari tarqalishini oldini olish uchun OAV va boshqa axborot yetkazish vositalaridan samarali foydalanishga urg‘u berilmoqda. Xususan, ―Diniy ekstremizm – kelajakka tahdid‖, ―Ekstremizm va terrorizm – taraqqiyot kushandasi‖, ―Ogoh bo‘ling

–Sekta‖, –Din niqobi ostidagi axborot xurujlari‖ nomli bukletlar tayyorlanib, mahallalarga, turli vazirlik, tashkilot va idoralar orqali aholiga yetkazilmoqda;

- xorijdagi mehnat migrantlari, talabalar va vaqtincha istiqomat qilayotgan vatandoshlarimizni ekstremistik oqimlar ta’siriga tushib qolishini oldini olish yuzasidan zarur tadbirlar amalga oshirilmoqda. Respublikamizning taniqli ulamolari Rossiya Federatsiyasining Moskva, Sankt-Peterburg, Yekaterinburg, Novosibirsk va Qozon shaharlari, Chuvash Respublikasi, Sibir o‘lkasi, Sverdlovsk va Omsk viloyatlariga Ukrainaning Kiyev shahriga xizmat safariga yuborilib, mazkur tashriflar davomida o‘tkazilgan diniy-ma’rifiy uchrashuvlarda ma’rifiy islom ta’limoti hamda hozirda buzg‘unchi oqimlar tomonidan noto‘g‘ri talqin qilinayotgan –hijrat‖, –jihod‖, –shahidlik‖ kabi tushunchalarning asl mohiyati haqida keng tushunchalar berilmoqda.

Dunyoda ekstremizm va terrorizm tahdidlari, ayniqsa, so‘nggi yillarda kuchayib borayotgani ularga qarshi, asosan, kuch ishlatish yo‘li bilan kurashish usuli o‘zini oqlamayotganidan dalolat beradi. Prezidentimizning BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasidagi nutqida xalqaro terrorizm va ekstremizmning ildizini boshqa omillar bilan birga, jaholat va murosasizlik tashkil etishi, shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma’rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifa ekaniga e’tibor qaratildi. Bu borada ko‘p hollarda tahdidlarni keltirib chiqarayotgan asosiy sabablar bilan emas, balki ularning oqibatlariga qarshi kurashish bilangina cheklanib qolinmoqda. Shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma’rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir. Ayni paytda aqidaparastlik, ekstremizm va terrorizm (xalqaro terrorizm) dunyo ahlining xavfsizligiga jiddiy tahdid solayotgani ko‘pchilikka sir emas. Yovuz niyatli ekstremistik va terrorchi oqimlarning tarafdorlari xalqimizning tinch-totuv hayotiga raxna solishga, ayniqsa, kelajagimiz egalari bo‘lgan yoshlarimizni yo‘ldan ozdirishga harakat qilmoqdalar. Bu yovuz niyatlilarning farovon hayotimizni ko‘ra olmaslik kayfiyati, tuzumimizga qarshi tajovuzdan iborat urinishlari barcha taraqqiyparvar kishilarni g‘azablantirmoqda. Ularning bunday xatti-harakatlarini qonun ham qattiq qoralaydi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining tegishli moddalarida ekstremistik, boshqa ta’qiqlangan tashkilotlar tuzish, ularga rahbarlik qilish, ularda ishtirok etganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Shunday ekan, qabih va razil to‘dalar har qancha urinishmasin, bizni o‘z tanlagan yo‘limizdan chalg‘ita olmaydi. Davlatimiz muntazam ravishda ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash va uni oldini olish borasida izchil siyosatni yuritib kelmoqda. Shu nuqtai-nazardan, Prezidentimizning ikki global ahamiyatga ega, ya’ni yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumlashtirilgan xalqaro huquqiy hujjat – BMTning –Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro konvensiya‖sini ishlab chiqish hamda BMT Bosh Assambleyasining –Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik‖ deb nomlangan maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish haqidagi takliflari barcha mamlakatlar tomonidan katta qiziqish bilan qabul qilindi va qo‘llab-quvvatlandi.

Darhaqiqat, jadal suratda o‘zgarayotgan bu zamonda eskicha yondashuv o‘z samarisini bermaydi. Yoshlarni o‘zimiz tarbiya qilmasak, ota-bobolarimiz yurgan yo‘ldan yurmasak, ular erishgan yutuqlarga yeta olmaymiz. Respublikamizda so‘ngi yillarda ekstremizm va terrorizmga qarshi ma’rifiy yo‘l bilan kurash olib borishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu

yo‘lda aholining huquqiy savodxonligini oshirish, ekstremistik oqimlar safiga adashib kirib qolgan, qo‘li qonga botmagan va qilgan ishidan chin dildan pushaymon bo‘lganlarga nisabatan kechirimlilik siyosatini olib borish, yosh avlodning turli buzg‘unchi oqimlar safiga kirib qolishining oldini olish bo‘yicha muntazam targ‘ibot ishlarini olib borish dolzarb vazifalar etib belgilangan. O‘z navbatida, mamlakatimizning ekstremizm va terrorizmga qarshi ma’rifiy yo‘l bilan kurash olib borayotgani ko‘plab davlatlar va xalqaro tashkilotlar hamda mustaqil ekspertlar tomonidan yuqori baholanmoqda. Bu borada targ‘ibot-tashviqot ishlari muhim o‘rin tutmoqda. Ommaviy axborot vositalaridagi chiqishlar, tumanlardagi umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlarida, mahallalarda huquqni muhofaza qilish idoralarining rahbar xodimlari, qishloq va mahalla fuqarolar yig‘inlari raislari, masjidlarning imomlari, ota-onalar vakillari, o‘qituvchi va o‘quvchilar ishtirokida suhbat va uchrashuvlar, ―Ekstremizm va terrorizm – insoniyat dushmani‖ mavzuida yig‘ilishlar, ushbu mavzudagi videofilmlar, profilaktik tadbirlar o‘tkazilmoqda.

Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash davlatlarning doimiy e’tiborini, uning oldini olish va bartaraf etishga qaratilgan ko‘p qirrali siyosatni amalga oshirishda sabrlilik va sobitlikni talab etadi. Shakllanib, keng tarmoq otgan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashmagan davlatlar zaiflashib, o‘z xalqi va mamlakati osoyishtaligi va barqaror rivojlanishini xavf ostida qoldiradi. Darhaqiqat, ekstremizm va terrorizm bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan yagona jarayonning birin-ketin rivojlanadigan bosqichlaridir. Shunday ekan, ekstremizm va terrorizm global miqyosga chiqqan hozirgi sharoitda, davlat unga qarshi kurashda ichki va tashqi omillarning ta’sirini hisobga olgan holda, muvozanatlashtirilgan strategiyani ilgari surishi kerak.

Ayni paytda ekstremizm va terrorizm bilan bog‘liq ta’qiqlangan har qanday faoliyat Markaziy Osiyoda asosiy tahdidlarlan biri bo‘lib qolmoqda. Bunda birinchi galdagi vazifalardan biri mintaqa davlatlari va xalqaro hamjamiyatning sa’y-harakatlarini birlashtirishni taqozo etmoqda. Shu munosabat bilan O‘zbekistonda ―2021-2026-yillarga mo‘ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasi‖ni (keyingi o‗rinlarda Milliy strategiya) qabul qilinishi mazkur noqonuniy faoliyatni mamlakatimiz va qo‘shni davlatlarda nafaqat avj olishini balki, ushbu faoliyatga qarshi kurashishga qaratilagan chora-tadbirlarni o‘zida mujassamlashtiradi hamda bir qator ustuvor yo‘nalishlar va asosiy vazifalarni amalga oshirish zarurligini talab etadi.

Quyidagilar qabul qilingan Milliy strategiyaning ustuvor yo‘nalishlari etib belgilangan [2]:

- vatanlarvarlik, an’anaviy qadriyatlar va bag‘rikenglik mafkurasini targ‘ib qilish;

- voyaga yetmaganlar va yoshlar orasida ekstremizm va terrorizm g‘oyalari tarqalishining oldini olish;

- ayollar huquqlarini himoya qilish hamda ularning ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishdagi rolini kuchaytirish;

- uzoq muddat xorijda bulgan fuqarolarni ekstremizm va terrorizm g‘oyalari ta’siridan himoya qilish;

- Internet jahon axborot tarmog‘idan ekstremistik va terrorchilik maqsadlarda foydalanishga qarshi kurashish;

- fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborotvositalarini ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishga keng jalb qilish;

- ekstremistik va terrorchilik harakatlarini sodir etganlik hamda ularni moliyalashtirganlik uchun huquqiy ta’qib va javobgarlikka tortish choralarini takomillashtirish;

- ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish sohasidagi normativ- huquqiy bazani takomillashtirish;

- ushbu sohadagi xalqaro va mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish.

Fikrimizcha, O‘zbekistonda ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash hamda ushbu noqonuniy faoliyat ta’sirida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan salbiy holatlarni oldini olish maqsadida quyidagi vazifalarni amalga oshirilishi lozimdir:

- ekstremizm va terrorizm tahdidlarini oldini olishning xalqaro-huquqiy asoslarni takomillashtirish va har qanday ta’qiqlangan faoliyatni amalga oshirganlik uchun javobgarlikning muqarrarlik tamoyilini keng targ‘ib qilish;

- ekstremizm va terrorizm tahdidlariga ogoh turish borasida ijobiy natijaga erishgan davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan mazkur sohada hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini kengaytirish;

- chet el davlatlarida bo‘lib turgan O‘zbekiston fuqarolari bilan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha olib borilayotgan profilaktik choralarning samaradorligini oshirish;

- nafaqat O‗bekiston balki, butun Markaziy Osiyoda ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha birgalikdagi harakatlar doirasida axborot almashinuvi va hamkorlikni rivojlantirishga yordam beruvchi xalqaro tashabbuslarni kengaytirish. Yuqorida qayd etilgan tadbirlarni amalga oshirilishi natijasida ekstremizm va terrorizmning jamiyat barqarorligiga ta‘sir etuvchi tahdidlarni oldini olish bo‘yicha huquqiy, tashkiliy va mafkuraviy mexanizmlarning samarali tizimini shakllantirishga hamda jamiyatning turli qatlamlarida ekstremistik va terrorchilik g‘oyalarining tarqalishiga to‘sqinlik qilishda davlat organlari faoliyatining samaradorligini oshirishiga erishish mumkin.

Xulosa o‗rnida shuni aytish mumkinki, insoniylik qiyofasini butunlay yo‘qotgan, tinch aholiga jabr-sitam, o‘lim tahlikasini solib turish jirkanch muddaosiga aylangan qora kuchlar dunyoning qaysidir burchagida hali ham bor ekan, hamisha hushyor va ogoh bo‘lishimiz, ekstremizm va terrorizmga qarshi hamma bab-baravar kurashishi kerak. Chunki, qayerda bo‘lmasin terrorizm harakati ro‘y bersa, vujudida zarra odamgarchiligi, mehr-oqibati bor insonni bezovta qiladi. Shu bilan birga ba’zan chuqur o‘yga tolib, o‘zinga o‘zing, jamiyatdagi bu kabi noshudlar, xattoki dinni o‘ziga niqob qilib olgan ekstremist va terroristlar insonlarni qo‘rqitib, dahshat solib, zo‘ravonlik qilish va boshqa qabihliklar bilan shug‘ullanuvchi bu kimsalarni ham ona tuqqanmikin? Volidasi qulog‘iga alla aytib, qalbiga mehr-oqibat urug‘ini qadaganmikin? – deb aytging keladi. U yer – bu yerdagi xunrezliklarni kuzatib, bu toifadagilar insoniy tarbiya olmagan, kishi bilmas joylarda berkinib, vahshiylikka o‘rgatilgan manqurtlar emasmi, deb o‘ylab qolasan. Har vaqt, har joyda – xoh ko‘chada, xoh transportda, xoh odamlar gavjum to‘planadigan hududlarda o‘ta xushyor bo‘laylik, ogohlikni bir dam

bo‘shashtirmaylik. Shundagina biz albatta terror degan balodan holi bo‘lamiz va jamiyatimiz barqaror bo‘ladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ―2017-2021 yillarda O‗zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‗nalishi bo‗yicha Harakatlar strategiyasi to‗g‗risida‖gi PF-4947-son Farmoni. 07.02.2017 y. // Toshkent, Xalq so‗zi, 2017 y. 8 fevral.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ―2021-2026 yillarga mo‘ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida‖gi PF-6255-son Farmoni. 01.06.2021 y. https://lex.uz/docs/5491626

3. Islomov Z. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma‘naviy-ma‘rifiy asoslari. O‘quv qo‘llanma. To‘ldirilgan, qayta ishlangan nashri. ―Toshkent islom universiteti‖ nashriyot-matbaa birlashmasi –T.: -2013. 98, 236-b.

# YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA OILA VA JAMIYATNING O'RNI

**Yusupov Arabboy Baxodirjon o'g'li**
**Abduraximov Iskandar Nodirjon o'g'li**
*Farg'ona davlat universiteti Harbiy ta'lim fakulteti talabalari*

**Annottatsiya:** *Maqolada yoshlarni vatanparvar shaxs sifatida kamol topishida oila va jamiyatning o'rni haqida ilmiy ishlar olib borilgan.*
**Kalit so'zlar:** *Vatanparvarlik, loqaydlik, oila, jamiyat, farzand.*

Vatan ostonadan boshlanadi, deyishadi. Vatan bu- oilamiz, jamiyatimiz, xalqimizdir. Aynan shu xalqmizning bir mo'jaz qismi borki uni "Oila" deyishadi. Ko'p jihatdan vatan ravnaqi, uning tinchligi va osoyishtaligi oilaga bog'liq. Irmoqlardan loyqa suv kelar ekan, daryodan zilol suv kutish shart emas. Shu sababdan ko'plab dunyo mamlakatlari "Oila qo'rg'oni"ga jiddiy e'tibor berishib, uning ravnaqini birinchi o'ringa qo'yishadi. Oila-jamiyatning tayanchi. Farzandlarimiz ongida elu yurtga, Vatanga muhabbat tuyg‘ulari oilada, yashab turgan mahallada shakllanadi. Mamlakatning ertangi kuni, tinch va obod bo‘lishi eng oldin mana shu kichik jamiyatda o‘sib-unayotgan bolalarimizga bog‘liq. Qaysi oilada, qaysi mahallada tarbiya yaxshi yo‘lga qo‘yilar ekan, o‘sha oila, o‘sha mahalla gullab-yashnaydi.

Oila, odob-axloq va ta‘lim-tarbiyaga e‘tibor qon-qonimizga singib ketgan burchlarimizdandir. ―Bir bolaga yetti qo‘shni ota-ona‖ degan ibratli maqol ham aynan xalqimizga xos. Mana shu maqolning o‘zi ham farzand tarbiyasi, oilaparvarlik biz uchun qanchalik muhim ekanini bildiradi. Mahalla ahli, ayniqsa keksalar ko‘chada nobop ish qilayotgan bola oldidan hech qachon beparvo o‘tib ketmagan, shu zahotiyoq tanbeh berib to‘g‘ri yo‘lga chaqirgan. Zero, har tomonlama chiroyli, odobli, go‘zal xulqli bo‘lish, nafsni poklashga buyuruvchi muqaddas dinimiz Vatanparvarlikka katta ahamiyat beradi. Oiladagi muhit ota-ona o‘z ma‘suliyatlarini his qilishi bilan barqaror bo‘ladi. Bolalarning Vatanparvar shaxs bo‘lib ulg‘ayishi uchun ota-ona bilan bir qatorda mahalla-kuy ham katta ibrat maktabidir.

―Qush uyasida ko‘rganini qiladi‖, deb bejiz aytmagan xalqimiz. Farzand tarbiyalayotgan ota-ona har bir harakati, yurish turishi, muomalasi bilan o‘zaro munosabatida olijanob fazilatlarni namoyon eta bilishi kerak. Chunki bola tabiatan nihoyatda taqlidchan va kuzatuvchan bo‘ladi. Shuning uchun uning yon- beridagilar o‘z odatlari bilan ba‘zan o‘zlari sezmagan holda ularga ta‘sir qiladilar. Farzand tarbiyasida ota-ona muhim o‘rin tutadi. Bola ota-ona tomonidan tarbiyalanar ekan, uning qay tartibda kamol topishi bevosita ota-onaga bog'liqdir. Bu esa o‘z navbatida oiladagi nosog‘lom muhitda tarbiyalanayotgan boladan ―ma‘naviy kasal‖ insonlar shakllanishiga olib kelishi mumkin. Shu tufayli ham shaxsning Vatanparvar sifatida shakllanishida oila katta ahamiyat kasb etadi. Oilada ota-onalar beparvo, davlat va xalq manfaatlariga bepisand bo'lar ekan, ushbu holat farzand hulqiga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Ular esa jamiyatga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Inson hayoti davomida biror shaxsni o‘ziga o‘rnak deb biladi, bundan inson u kabi hayot kechirishni, u erishgan yutuqlar kabi muvaffaqiyatlarga erishishni, yuksak cho‘qqilarga

chiqishni ko‘zlaydi. Bugun jamiyatning yosh a‘zolari o‘z hayotlari uchun ayrim jamiyat vakillarining fikrlash va hayot tarzini o‘rnak qilib olishlari ko‘p muammolarni keltirib chiqarmoqda. XXI asrda turli hayot tarzlari va g‘oyalar raqobatga kirishdi. Bunda muvaffaqiyatga erishish uchun har bir davlat o‘zligini saqlagan holda diniy va milliy qadriyatlarini boshqalarga anglatishni asos qilgan mafkuraga ega bo‘lishi lozim. Aks holda, o‘zlikni yo‘qotish, bebaho qadriyatlardan voz kechish kishini taraqqiyotdan ajratib, uni tobe, mustaqil fikri yo‘q manqurtga aylantirib qo‘yadi. Hozirgi kunda g‘arazli maqsadlarni amalga oshirish uchun zimdan olib borilayotgan fitnalar ba‘zi millatlarning o‘zligini yo‘qotishga qaratilganini sezish mumkin. Bunda e‘tibor xududlarini egallash emas, balki inson ongini egallashga yo‘naltirilgan. Albatta bola tarbiyasi o‘ta murakkab va ma‘suliyatlidir. Bu har bir ota-onadan o‘z ustida muntazam ishlashni, bolalar tarbiyasiga oid barcha ma‘lumotlardan baxobar bo‘lib borishni talab etadi. Farzand tarbiyasi bu shunchaki tajriba, oddiy ko‘rsatma va bilimlar jamlanmasi emas, balki o‘z ichiga diniy-axloqiy bilimlar, dunyoviy-ilmiy bilimlar, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, yurtga, xalqiga bo'lgan muhabbatni shakllantirilishi lozim bo'lgan butun bir borlliqdir. Qaysiki farzandda bu shakllangan ekan, u chin ma'noda Vatanparvar shaxsdir.

Siz yuqoridagilardan amin bo'ldingizki vatanparvarlikning bunyod etilishi avvalo oila bilan chambarchas bog'liq ekan. Shu tufayli ham davlatimiz oilani muhofaza qilish, ajrimlarni qisqartirish uchun qator harakatlarni amalga oshirganki, ular bugungi kunda o'z natijasini berib kelmoqda.

Davlatimiz oila farovonligini ta'minlashni, uning barbod bo'lishini kamaytirish va oldini olishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. O'zbekiston Respublikasining 1992- yilda qabul qilingan Konstitutsiyasining ⅩⅣ bobi oilaga bag'ishlangan bo'lib, u o'zida to'rt(63, 64, 65, 66- moddalar)ta moddadan iboratdir. "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega", deyiladi ularning birida.

1998- yil birinchi prezidentimiz tomonidan mazkur yilni "Oila yili", deb atalishi, aynan mazkur yili huquq tizimida "Oila kodeksi"ning joriy etilishi chin ma'noda oila institutini rivojlantirish uchun qo'yilgan dastlabki dadil qadamlardan biri bo'ldi. Davlat tizmida oilaga doir siyosiy jarayonlarni tilga olsak, albatta ular talaygina. Lekin biz o'z fikrimizni dalillashga shuning o'zi kifoya qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Vatanparvar shaxsni tarbiyalashning eng ustuvor yo'li bu avvalo oila va jamiyatni mustahkamlash, ota-onani tarbiya etishdir. Shundagina fidoyi insonlar soni saflarimizda yanada ko'payadi, shundagina davlatimiz yanada ravnaq topadi, shundagina ertamizga ishonch, g'urur paydo bo'ladi. Zero, qaysiki davlatda Vatanparvar shaxslar ko'p ekan, ana shu davlatning buguni go'zal, ertasi porloqdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. https://lex.uz

# AMIR TEMUR VA UNING TUZUKLARIDA HUQUQIY MASALALAR

**Alimova Sojida Normuhammadovna**
*Samarqand viloyati Narpay tumani*
*47- umumiy o`rta ta'lim maktabi o`qituvchisi*
**Djabborova Gulbahor Tohirovna**
*Samarqand viloyati Narpay tumani*
*60-maktab tarbiya va huquq fani o_qituvchisi*

**Annotatsiya:** *O'rta asrlarda juda qudratli va kuchli saltanat hisoblangan Amir Temur davlati va uning o'rnida vujudga kelgan temuriylar davlati mexanizmi yaxshi tashkil etilgan ichki tartib va mustahkam intizomni ta'minlab turadigan barqaror huquqiy tizimga ega edi. Bu davrning huquqiy manbalarini islom huquqi, unga asoslangan va mazmunan dunyoviy xarakterga ega bo'lgan «Temur tuzuklari», qadimgi turk huquqiy odatlari (to'ralar) hamda Temur va temuriylar tomonidan chiqarilgan huquqiy hujjatlar, jumladan, farmonlar, buyruqlar, tarxon yorliqlari va hokazolar tashkil etgan. Amir Temur davlati doirasida asosan uning turkiy xalqlari ichida keng yoyilgan islom sunniylik oqimining hanafiylik mazhabi mustahkam qaror topdi.*

**Kalit so_zlar:** *Amir Temur davlati, ijtimoiy adolat , Temur tuzuklari, jinoyat-protsessual huquqi, raiyat qozilari, islom huquqi.*

Temur tuzuklarida ijtimoiy adolat va jazo siyosati masalalari .Ma‘lumki, o‘z tarkibida 26 davlatni birlashtirgan Amir Temur imperiyasi aniq ishlab chiqilgan ijtimoiy adolat qoidalariga asoslangan jazo siyosatisiz boshqarilishi qiyin edi. Bu siyosat eng avvalo, musulmon davlatida amalda bo‘lgan islom huquqi va o‘sha davrning konstitutsiyaviy hujjati bo‘lgan ―Temur tuzuklari‖da o‘z ifodasini topgan. ―Tuzuklar‖da jinoyat va jinoyat-protsessual huquqi – jinoyatlarga jazo berish, xususan mansabdor shaxslar tomonidan o‘z mansabini suiste‘mol qilganlik jinoyatlari uchun jazo tayinlash masalalari, har bir shaharda adolat uylari, qozixona-dorul-amorat tashkil qilish, qozi Askar, ahdos va raiyat qozilari, ularni tayinlash, yolg‘on guvohlik uchun jazo tayinlash va boshqa masalalarga alohida e‘tibor qaratilgan.

Tuzuklardan ko‘rinadiki, Amir Temur ochiq yuzlilik, rahm-shafqat bilan xalqni o‘ziga rom qilgan, adolat o‘rnatishga harakat qilib, iloji boricha jabr- zulmdan uzoqroqda bo‘lishga intilgan. Ayniqsa, mansabdor shaxslar tomonidan mulkni o‘zlashtirish, talon-taroj qilish hollarida odillik bilan ish tutganligini ko‘rish mumkin. Xususan, moliya vazirlari davlatning moliya ishlariga xiyonat qilib, o‘zlarining qo‘l ostidagi mol-mulkdan o‘zlashtirib olgan bo‘lsalar va agar bu ularga taalluqli maoshga teng bo‘lsa, o‘sha o‘zlashtirilgan mablag‘ davlat xazinasiga sovg‘a, in‘om sifatida qaytarib olingan. Agar uning miqdori maoshdan ikki barobar ortiq bo‘lsa, mol-mulki tortiq sifatida davlat hisobiga o‘tkazilgan.

Tuzuklarni o‘rganish, jinoyat va jazo masalalarida Amir Temur o‘z mamlakatida qadimiy turk-mo‘g‘ul an‘analari, udumlariga, shuningdek, Chingizxonning Yaso qonunlariga ham amal qilganligidan dalolat beradi. Xususan, ―Tuzuklar‖da ―O‘g‘rilar xususida buyurdimkim, ular qayerda bo‘lmasin, tutib olinsa, Yaso bo‘yicha jazolansin. Kimki birovning molini zo‘rlik bilan

tortib olgan bo‘lsa, mazlumning molini zolimdan qaytarib olib, egasiga topshirsinlar‖ ,- deyiladi.

Amir Temur davlatida bu kabi huquq manbalarining mavjudligi, ularning harakati, bajarilishi va rioya qilinishi ustidan qattiq nazoratning bo‘lishi, shubhasiz, qonunchilikni mustahkamlashga xizmat qilgan. Agar sipohiy qo‘l ostidagi kishiga zulm o‘tkazsa, bunda u xizmat doirasidan tashqari chiqqan sanalib, sipohiyning o‘zi jabrlanuvchilarga topshirilgan. Bu holda jabrlanuvchi sipohiyni hohlagancha jazolashi mumkin bo‘lgan. Agar katta va mahalliy boshliqlar o‘z vakolatlari doirasidan chiqib, o‘zlaridan kichik darajadagi kishilarga zulm o‘tkazsalar, ularga mol-mulkiga qarab jarima solish nazarda tutilgan. Shuningdek, dorug‘a va shahar voliylari hokimlari xalqqa jabr-zulm qilsalar, ularni ham jinoyatlariga mos ravishda jazoga tortish nazarda tutilgan.

–Tuzuklar‖da biror kishining aybi isbotlanganda, unga nisbatan faqat bitta jazo qo‘llanilishi, ya‘ni agar jarima solinsa, darra bilan urmaslik, darra bilan urilsa, jarima solmaslik to‘g‘risida gapiriladi. Bu kabi jazolash usullari Temur davridayoq, aynan bir jinoyat uchun ikki marotaba jazoga tortish mumkin emasligi to‘g‘risidagi qoida mustahkamlanganligini ko‘rish mumkin. Yuqoridagilar bilan birga, bir kishining mol-mulki zo‘rlik bilan tortib olinganda, uning mulkini qaytarib olib berish bilan cheklanilgan. Badanga jarohat yetkazish bilan bog‘liq harakatlar: tishni sindirish, ko‘zni ko‘r qilish, quloq va burunni kesish, sharob ichish, zino qilish, ya‘ni eriga bevafolik qilish kabilar jinoyat hisoblanib, shariat qozisi yoki ajrim chiqaruvchi qoziga olib borib topshirilgan.

–Tuzuklar‖ da faqat bir o‘rinda, ya‘ni mamlakatlar, qo‘shinlar va aholi ahvolidan xabardor bo‘lib turish tuzugida tan jazosi va qatl etish to‘g‘risida ochiq-oydin yozilgan. Boshqa hollarda iloji boricha o‘lim jazosini qo‘llamaslik yoki uni qo‘llash borasida shoshmaslik va odillik bilan ish ko‘rish to‘g‘risida so‘z yuritiladi: –Saltanat saroyining ishonchli va e‘tiborli kishilari bo‘lmish vazirlar xususida shunday buyruq berdim, agar saltanat ishlarida ular xiyonat etsalar, saltanatni ag‘darishga jazm qilgan bo‘lsalar ham, ularni o‘ldirishga shoshilmasinlar. Avvalambor ularni ayblovchi va xabar yetkazguchilarning kimligini tekshirib ko‘rsinlar‖. Shuning uchun Temur vazirlarni tanlashda ularning to‘rt xislatlarini e‘tiborga olib, vazir etib tayinlaganligini ko‘rish mumkin.

–Tuzuklar‖dan ko‘rinishicha, har bir chegara, shahar va viloyatga xabarchi kotiblar tayinlangan bo‘lib, ularga o‘z joylaridagi voqea-hodisalar haqidagi xabarlardan doimo voqif etib turish vazifasi yuklatilgan, agar bo‘lib o‘tgan voqea-hodisalar haqida xabarlarni yozmasalar, ularga barmoqlarini kesish yoki yolg‘on xabar bersalar, qo‘shinga tegishli ishlarni yashirsalar, qo‘llarini kesish kabi tan jazosiga tortishga hukm etilgan. Amir Temur adolatparvar hukmdor sifatida tuhmat yoki g‘araz maqsadlarda yolg‘on xabarlar orqali hech kimni jazolamaslikka harakat qilgan, bunday shaxslarning o‘zi odatda qatl etishga hukm etilgan, shuningdek, mamlakatda bekorchi, ishsizlar, xususan gadoylar va tilanchilar sonini kamaytirishga harakat qilgan. Bu borada gadoylar va tilanchilar majburiy ishga jalb etilgan, agar shundan keyin ham o‘z harakatlarini davom ettirsalar uzoq mamlakatlarga sotib yuborish yoki badarg‘a qilish kabi jazolarni qo‘llagan. Bu bilan Amir Temur mamlakatda bekorchilik va u orqali kelib chiqishi mumkin bo‘lgan turli jinoyatlarga jumladan qaroqchilik, bosqinchilik, o‘g‘rilikka qarshi kurashganligini ko‘rish mumkin: –Yo‘l ustiga kuzatuvchilar, zobitlar tayinlansinlarki, yo‘llarni

qo‘riqlab, yo‘lovchilar, savdogarlar, musofirlarni kuzatib, mol-mulki va boshqa narsalarini manzildan-manzilga yetkazib qo‘ysinlar‖.

Yuqoridagilarga ko‘ra, Tuzuklardagi jazo siyosatini tahlil qilib, uning ijtimoiy adolat, xususan qonunga rioya etish, kezi kelganda insoniylik, gunohiga yarasha jazo tayinlash tamoyillariga asoslanganligini ko‘rish mumkin.

Umuman olganda, Amir Temur davlatchilik siyosatining yangi sifatlari mamlakatning iqtisodiy-xo‘jalik jihatdan tez rivojlanganligidan, shaharlar o‘zining ijtimoiy qiyofasini tubdan o‘zgartirib, yirik hunarmandchilik, savdo, madaniy, ma‘muriy markazlarga aylanganligida, dehqonchilik madaniyati yuksak darajada taraqqiy etganligida ko‘rish mumkin. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimov asarlarida Amir Temurning Turkiston va uning tashqarisida olib borgan obodonlashtirish, bunyodkorlik faoliyati aniq tarixiy manbalar asosida tahlil qilgan. ―Eng muhimi, mazkur qurilishlar geografiyasi birgina Turkiston bilan chegaralanib qolgan emas. ... Amir Temur Movarounnahr va Xurosonning shahar va qishloqlarida, hatto Janubiy Ozarbayjon va Qobul kabi uzoq yerlarda ham obodonlik ishlarini olib borgan, sug‘orish inshootlarini qurdirgan. ... Tarix – bu ko‘hna dunyoda o‘tgan ko‘p jahongirlarni biladi. Ularning aksariyati faqat buzgan. Amir Temurning ulardan farqi shundaki, u umr bo‘yi, bunyodkorlik bilan mashg‘ul bo‘lgan‖.1

Amir Temurning davlatchilik siyosati deganda millatimizning moziyda ham, hozir ham dunyoga namuna bo‘layotgan davlatchilik madaniyatimiz, milliy davlatchilik institutimiz bir butunligicha ilmiy tafakkurimizda namoyon bo‘ladi. Ul ulug‘ zot tavalludining 671 yillik arafasida milliy g‘urur bilan ta‘kidlaymizki, sohibqironning davlatchilik siyosati -milliy davlatchiligimiz ravnaqi yo‘lida eng muhim davr hisoblanadi. Bu yillarda milliy davlatchiligimiz nafaqat chet el hukmronligi asoratidan ozod bo‘ldi, balki o‘z taraqqiyotining shaklan va mazmunan tamoman yangi bosqichiga ko‘tarilib, hayotda butun bo‘y-basti bilan, namoyon bo‘ldi. Hali XIV asrning 80-90 yillarida Osiyo, Yevropa mintaqalarida bunday andozadagi, qonun va adolatga asoslangan, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy- madaniy jihatlardan taraqqiy etgan, xalqaro nufuzi baland davlat yo‘q edi. Amir Temurning quvvai-hofizasida allaqachon yo‘g‘rilgan davlatchilik san‘ati mamlakatning ichki va tashqi siyosatida butun borligicha namoyon bo‘ldi. Buni eng avval davlatni idora qilish tizimida va o‘tkazilgan iqtisodiy, moliyaviy, harbiy, diplomatik, madaniy kabi yo‘nalishlardagi islohotlarda ko‘rish mumkin. Binobarin, bu davrda davlat boshqaruvining takomillashgan tizimi joriy etildi va unga bilimli, tadbirkor, ma‘naviy komil rahbarlar tayinlandiki, bu ijtimoiy sifatlar jamiyatning barcha jabhalariga samarali ta‘sir o‘tkazdi, amalda tub ijobiy o‘zgarishlarga olib keldi. Jumladan, foydali ekin maydonlari kengaydi, yangi sug‘orish inshootlari barpo etildi, dehqonchilik madaniyati yuksaldi.

Movarounnahr shaharlari ijtimoiy qiyofasini o‘zgartirib,Sharq me‘morchilik uslubini o‘zida mujassamlashtirib, obodonlashdi. Mamlakat aholisida vatanparvarlik, kasb-korga ishonch bilan kirishish kayfiyati oshdi, siyosiy-mafkuraviy jihatdan faollashishdi, milliy-ma‘naviy ruhoniyat yuksaldi. Buni Amir Temur davlatni boshqarishda mamlakat aholisining barcha ijtimoiy qatlamlari vakillariga tayanganligidan, quvvai-hofiza va mashvarat bilan siyosat yuritganligidan ham bilsa bo‘ladi. Amir Temur avvalo qudratli davlatqurgan. Davlat qudratli bo‘lmasa betakror ma‘naviy meros ham, obidalar ham, tarixiy yodgorliklar ham bo‘lmasdi. O‘zbekistonning bugungi ozodligini mustahkamlash davrida Amir Temur biz uchun buyuk

davlat asoschisi sifatida qadrlidir. U davlat poydevorini qurgan, davlatning huquqiy asoslarini barpo etgan. Uning davlatchilik borasidagi fikrlari nafaqat o‘z davri, balki kelgusi avlodlar uchun ham katta ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, Burxoniddin Marg'inoniyning «Hidoya» to'plami bu mazhabning asosiy shariat qo'llanmasi sifatida qabul qilingan edi. Hanafiya qonunlari nisbatan yumshoqroq va qulayroqligi, xalqlarning mahalliy an'analarini e'tiborga olganligi sababli mamlakatimiz hududida mustahkam qaror topgan edi. Unga binoan mahalliy huquq normalari (huquqiy odatlar) shariat bilan moslashtirilib, muvofiqlashtirilib joriy etilgandi. Shu tariqa, islom huquqi mazkur davrda o'zgarishsiz, bir xilda amalda bo'lgan, deb bo'lmaydi. Chunki bu yerda islom huquqi xuddi «Temur tuzuklari» singari dunyoviy qonunchilik normalari bilan to'ldirib borilgan.

Davlat harbiy monarxiya davlati bo'lganligidan armiya va aholining unda xizmat qiluvchi tabaqasi turk va turk-mo'g'ul urug'laridan chiqqan kishilardan tashkil topib, qadimiy turk huquqiy odatlari (to'ralar) huquqning ikkinchi manbayi vazifasini bajardi. Ayniqsa, davlat boshlig'ini saylash, armiya va uning tuzilishi hamda ta'minoti, oila va nikohning ba'zi masalalari, masalan, yesirlik, shuningdek, suvdan foydalanish borasida ko'plab huquqiy odatlar mavjud bo'lgan . Keyinchalik, «Tuzuklar» yozilganida bu odatlar, harbiy qurilishga oid masalalar yozma qonunchilik bilan mustahkamlangan.

Temur va tefnuriylar davlatining eng muhim huquqiy manbayi «Temur tuzuklari» bo'lgan. Uni konstitutsiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan hujjat deb atash mumkin. Chunki unda davlat hokimiyati va idora organlarining tuzilishini, ularning vazifalarini, sud, harbiy va moliya tizimini tartibga soluvchi normalar o'z ifodasini topgan. Huquqshunos olim Z.Muqimov «Temur tuzuklari»ning huquqiy jihatlarini ko'rsatib, quyidagilarni ta'kidlaydi: «Undagi huquqiy normalarni hozirgi zamon huquq tarmoqlari bo'yicha guruhlantirganda quyidagicha holatni ko'rish mumkin: a) davlat huquqiy normalari — davlat boshlig'i, vazirlar, devonlar (tarmoq boshqaruv organlari), devonbegi, davlatni boshqarish prinsiplari (mashvarat, kengash, maslahat, to'ra va tuzukka asoslash), mahalliy boshqaruv, harbiy va fuqaro boshqaruvini amalga oshirish maqsadida chegara viloyatlarini suyurg'ol qilib berish va hokazo; b) fuqarolik va moliya huquqi normalari — yer, mulkning shakllari: suyurg'ol, iqta, tanho, ularni berish tartibi, bunday mulklarni olganlarning majburiyatlari, omonatlar, soliqlar, jangda yarador va halok bo'lgan askarlar ta'minoti va boshqalar; d) jinoyat va jinoyat-protsessual huquqi — jinoyatlarga jazo berish, har bir shaharda adolat uylari, qozixona — dorul-amorat tashkil qilish, qozi askar, ahdos va raiyat qozilari, ularni tayinlash, yolg'on guvohlik uchun jazo tayinlash va boshqalar; e) harbiy huquqiy normalar— armiyani tuzish, uning qo'mondon tarkibi va ta'minoti, harbiy xizmat va xizmatchilarni moddiy-ma'naviy rag'batlantirish, harbiy guruhlar, to'plar va bo'limlarni tuzish kabi masalalarni o'z ichiga oladi. Temur o'z davlatida qadimiy turk-mo'g'ul an'analari, udumlariga rioya qilganligi uchun uning davlatida Chingizxonning Yaso qonunlari ham huquq manbayi sifatida qo'llanilgan. Chingizxon bilan Turkistonga kelgan mo'g'ullar va turkiy qabilalar dastlab musulmon bo'lishmagan. Shuning uchun ular musulmonchilikni qabul qilgunlaricha Yaso va huquqiy odatlar huquqning asosiy manbayini tashkil qilgan. Temur davlati esa musulmon davlati edi. Shuning uchun Yasoga harakatdagi huquq manbayi deb qaralishi shariat huquqiga xilof hisoblanardi. Ammo jinoyat va jazo masalalarida Yasoga ham amal qilinganligini ko'rish mumkin. Jumladan, «Tuzuklar»da:

«O'g'rilar xususida buyurdimki, ular qayerda bo'lmasin, kim tutib olsa, Yaso bo'yicha jazolansin»,' deyiladi. Bu ba'zi hollarda Yaso normalari ham huquq manbayi sifatida amalda bo'lganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, harbiy qurilish masalalarida Yasodan qabul (retsepsiya) qilingan hukmlar ham yo'q emas. Masalan, sipohning yaroq-jabduqdari va anjom-jihozlari tuzugi Yaso bilan bir xil talablarni qo'ygan. Temurbek davlatida bu kabi huquq manbalarining mavjudligi, ularning harakati, bajarilishi va rioya qilinishi ustidan qattiq nazoratning bo'lishi, shubhasiz, qonunchilikni mustahkamlashga xizmat qilgan.

«Tuzuk» iborasi turkiy so'zdan olinib, «qonun», «qoida», «nizom», «tartib» ma'nolarini anglatadi. «Temur tuzuklari» o'sha davrning qonunlar to'plami bo'lgan. Unda yuqorida qayd etilganidek, ko'pgina o'ziga xos konstitutsiyaviy me'yorlar o'z aksini topgan. «Temur tuzuklari» XIV asrning ikkinchi yarmiga oid ijtimoiy-siyosiy voqealarni, Temur saltanati, uning davlat tizimi, boshqarilishi, sud qurilishiga oid juda muhim qoidalar va ma'lumotlarni o'zida aks ettirgan tarixiy hujjatdir. Tuzilishiga ko'ra ikki qism (maqola)dan iborat bo'lib, birinchi qismi tarjimayi hoi mazmuniga ega. Unda 150 yil davom etgan mo'g'ul-chig'atoy sulolasi istibdodidan qutulish, O'rta Osiyoda markazlashgan davlatni tuzish bilan bog'liq ijtimoiy-siyosiy voqealar bayon etiladi. Ikkinchi qismi esa ulkan davlatning valiahd va amirzodalar tomonidan qay tarzda boshqarilishi, yirik mansabdorlarni tayinlash, harbiy qurilish, sud yuritish, armiyani tuzish, saflash ta'minoti kabi masalalami o'z ichiga oladi, «Saltanat qurish, davlat ishlarini bir necha tuzukka bog'ladim va saltanatda boshqarish haqida qo'llanma yozib qoldirdim», — deyiladi «Tuzuklar»da'. «Temur tuzuklari» — Temur kodeksi, ya'ni Amir Temurning davlatni idora qilish qonun-qoidalarining tamoyillari to'plamidir. Undan biz o'rta asrlardagi mavjud hukmron siyosiy qarashlar, qoidalar, qonunlarni va ular haqidagi asosli tamoyillarni o'rganamiz.

Temur o'z «Tuzuklari»da aniq va ravshan qilib davlatni idora qilishda o'n ikki tamoyilga asoslanganligi haqida hikoya qiladi. Bular quyidagilardan iborat edi:

Birinchisi — islom dini va shariat qoidalariga rioya qilganligi, uni qo'llab-quvvatlaganligi edi. Uning o'zi «Tuzuklar»da shunday deb yozadi: «Birinchisi — davlat va saltanatimga bog'lagan mening birinchi tuzugim — tangri taoloning dini va Muhammad Mustafoning shariatiga dunyoda rivoj berdim. Har yerda va har vaqt islom dinini quwatladim». Demak, Amir Temur o'z saltanatini tuzishda, boshqarishda yangi diniy ideologiyani yaratmasdan, tayyor ota-bobolarining dini — islomni tanlaydi. Asosiy qonun qilib ana shu islom dini zaminida vujudga kelgan shariatni qabul qiladi. Navbatdagi kkinchi muhim tamoyil esa davlat, mamlakat ustunlarini tashkil qilgan turli tabaqalar va toifalar bilan birgalikda bamaslahat ish ko'rish, siyosat yurgizish bo'ldi. Amir Temurning ulug'ligi va donishmandligi shundaki, u faqat qo'shinga, zo'rlikka emas, birinchi navbatda ommaga, xalqqa tayangan holda davlatni boshqardi, muhim ishlarni ular bilan kelishgan holda olib bordi. Sohibqiron o'z vorislariga vasiyat qilar ekan, jamiyatni turli tabaqalarga va toifalarga bo'linishi va ularning tutgan o'rinlari muhim ekanligini, davlatni boshqarish ularsiz mumkin emasligiga ishora qiladi. Sinfiy kurash emas, balki tabaqalar o'rtasida kelishuv siyosatini olib borishni vasiyat qiladi. Uchinchi tamoyil maslahat, tadbirkorlik, faoliyat va hushyorlik-ehtiyotkorlik bilan g'anim qo'shinlarini yenggani, boshqa davlatlarni o'z saltanati tarkibiga qo'shib olganida edi. Gap shundaki,Amir Temur uchun tadbirkor, kengash bilan ish ko'rish, ehtiyotkorlik bir qonunday edi. Saltanatim ishlarini murosayu madora, muruwat va sabr-toqat bilan yurgizdim.

To'rtinchisi — davlat ishlarini saltanat qonun-qoidalariga asoslangan holda boshqarish tamoyili. Amir Temurning hukmronligi to'ra va tuzukka, ya'ni davlat va huquqqa tayangan holda amalga oshirildi. Shuning uchun ham uning kuch va qudrati beqiyos bo'ldi. Amirlar, vazirlar, sipoh, raiyat (omma) hammasi o'z vakolatlariga — huquq va burchlariga ko'ra harakat qildi. Bu yerda biz Amir Temur davlatini faqat harbiy diktaturaga emas, ko'proq huquqiy davlat tamoyillariga asoslanganini ko'ramiz.

Beshinchisi — amirlar va sipohiylar bilan yaxshi munosabatda bo'lish, ularga izzat va hurmat ko'rsatib, martaba va unvonlarini hurmatlash tamoyili. Oltinchisi — adolat va insof bilan ish ko'rish, gunohkorga ham, begunohga ham rahm-shafqat qilish- tamoyili. «Haqqoniyat yuzasidan hukm chiqardim», — deb yozadi Amir Temur. Yettinchisi — sayyidlar, ulamoyu mashoyix, oqilu donolar, muhandislar, tarixchilarni e'tiborli shaxslar deb izzat va hurmat qilish tamoyili. Ular bilan suhbatda bo'lgan hamda ulardan maslahatlar so'ragan. Aksincha, buzuqi va og'zi shaloq g'iybatchi odamlarni o'z majlisiga yaqinlashtirmagan, ularning gaplariga quloq solmagan.

Sakkizinchisi — azmu jazm bilan ish tutish, ya'ni qanday ishni amalga oshirishga qaror qilgan boisa, unga butun vujudi bilan kirishib, oxiriga yetkazish tamoyili. Nimaiki degan bo'lsa, unga amal qilgan. Odam Atodan Hotam ul-anbiyo (payg'ambarning oxirgisi Muhammad)gacha o'tgan shohlar va payg'ambarlarning ishlarini, qonun va qoidalarini surishtirgan, o'rgangan va yaxshi tomonlarini qabul qilgan.

To'qqizinchisi — raiyat (oddiy xalq) hol-ahvolidan doimo ogoh bo'lish tamoyili. Ularning ulug'larini og'a qatorida, kichiklarini esa farzand o'rnida ko'rgan. Har shahar va qishloqning urf-odatiga, qonun va qoidalariga hurmat bilan qaragan.

O'ninchisi — turku tojik, arabu ajamning turli toifalaridan o'z panohiga kirgan kishilarga hurmat bilan qaragan. Do'stlik qilgan kishilarga nisbatan muruwat, ehson, izzatu ikrom haqqini ado etgan. Kimki dushmanlik qilib, keyin undan pushaymon bo'lib, tavba qilgan bo'lsa, dushmanligini unutgan. Unga muruvvat ko'rsatgan.

O'n birinchisi — farzandlar, qarindoshlar, oshna-og'ayni, qo'ni-qo'shnilar va u bilan do'stlashgan kishilarni davlat martabasiga erishganda ham ularni unutmagan. Ularga hamma vaqt birdek izzat va hurmat ko'rsatgan. Do'stu dushman bilan kelishib yashagan.

O'n ikkinchisi — do'st-dushmanligiga qaramay, har joyda ham sipohiylarni hurmat qilgan.

Temur, saltanat ishlarida to'rt narsaga amal qilgin, ya'ni: 1) kengash; 2) mashvaratu maslahat; 3) qat'iy qaror, tadbirkorlik va hushyorlik; 4) ehtiyotkorlik. Amir Temur hukumatni, xususan, vazirlarni tanlashga katta e'tibor beradi. Uning fikriga ko'ra, vazirlikka da'vogar shaxs to'rt sifatga ega bo'lishi kerak. Birinchisi — asillik, toza nasllik; ikkinchisi — aql-farosatlilik; uchinchisi - sipohi raiyat ahvolidan xabardorlik, ularga nisbatan xushmuomalada bo'lishlik; to'rtinchisi - sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik. Sohibqiron kimda-kim ana shu to'rt sifat egasi bo'lsa, uni vazir yoki maslahatchi etib tayinlash mumkin deb hisoblagan. Mamlakat ishlarini, raiyat va sipoh ixtiyorini unga ishonib topshirsa bo'ladi, deydi u. O'z navbatida u hukmdor tomonidan bunday vazirga to'rt imtiyoz berish kerak, deb hisoblaydi: ishonch, e'tibor, ixtiyor va iqtidor. Ana shunday ikki tomondan ko'rsatilgan sifatlar va imtiyozlar berilgandagina vazir o'z vazifasini mustaqil, ishonchli bajaradi, deb hisoblaydi Amir Temur.

Sohibqironning fikriga ko'ra, agarda vazir uydirma gaplarga quloq solsa, jabr-zulm qilsa, o'ziga yoqmagan kishilarni yo'qotish payida bo'lsa, bundaylarni vazirhkdan tushirish lozim.

«Nasliyu zoti yomon, hasadchi, gina-kek saqlovchi, qora ko'ngilli kishilarga zinhor vazirlik lavozimi berilmasin» (75-bet).Amir Temurning fikriga ko'ra, ayniqsa, moliya, mulkiy ishlar bilan shug'ullanuvchi vazir nihoyatda pok, adolatli bo'lishi kerak. Chunki, u to'g'rilik bilan vazirlik ishiga kirishib, davlatning moliya ishlarini diyonat, savob bilan, nafsi buzuqlik qilmay, omonatga xiyonat etmay bajarar ekan, unday vazirni eng oliy martabalarga ko'tarish zarur. Va aksincha, buzuqlik ishlari bilan vazirlikni boshlasa, ko'p o'tmay, unday saltanatdan xayri baraka ko'tariladi. Dono vazir shuldirki, deb hisoblaydi Amir Temur, o'z o'rniga qarab, goh qattiqqo'llik, gohida esa muloyimlik bilan ish yuritadi, gohida esa ortiqcha qattiqqo'llik ham qilmaydi, muloyimlik ham. Ana shunday ish tutgan vazir saltanat ishlarini to'g'ri yuritadi, deb hisoblaydi.

Amir Temur muhim masalalardan bo'lgan davlatning uch belgisi to'g'risida juda aniq o'z fikrini bildiradi: «...davlatu saltanat uch narsa bilan: mulk, xazina va lashkar bilan tig'dir» (76-bet). Bundan aniq ko'rinib turibdiki, Amir Temur davlat saltanatini xazinasiz, lashkarsiz tasawur qilolmaydi. Har qanday mustaqil davlat ana shu yuqoridagi belgilarga ega bo'lishi shart, aks holda esa unday davlat mustaqil bo'la olmaydi, deydi u va vazirlarni raiyatga, elga, vatanga xizmat qilishda halollik, poklik, adolatlilik tamoyillariga amal qilishga da'vat etadi.

Sohibqiron vazirlar kabi amirlarga ham katta e'tibor bilan qarab, ularni asosiy jang maydonlarida sinab tanlaydi. U o'zining amirlarini asli toza, pok naslli, aql-farosatli, bahodir, dovyurak, tadbirkor, sergak, ehtiyotkor, oldini va orqasini o'ylab ish ko'radigan bahodirlar deb ta'riflaydi. U shunday tizim o'rnatadiki, birining o'rniga ikkinchisi, boshqacha qilib aytganda, biri bo'lmasa, boshqasi ishni boshqarib ketavergan. Masalan, amirlar to'g'risidagi tuzuklarda, agarda amirlardan jangda birortasi halok bo'lsa, uning o'rnini o'rinbosari egallaydi va uni «amirlikka nomzod» («muntazir ul-amorat») deb ataganlar.

Amirlarning eng kattasi — amir ul-umaro, ya'ni amirlarning amiri bo'lib, shohning yo'qligida uning vazifasini bajarib, sipohga buyruq bera oladigan darajadagi shaxsdir. Amir Temur uch yuz o'n uch kishidan to'rt nafarini beklar begi etib, bir kishini esa, amir ul-umaro etib tayinlaydi. G'ayratli, or-nomusli bo'lgan yana o'n ikki kishiga ushbu tartibda yuqori daraja berganligini aytadi.

Bundan tashqari, Amir Temurning qayd etishicha, o'sha uch yuz o'n uch amirdan yuztasi - o'n boshi, yuztasi — yuzboshi, yuztasi — mingboshi bo'lgan. Jang paytlarida amir ul-umaro — amirlarga, amirlar - mingboshilarga, mingboshilar - yuzboshilarga, yuzboshilar - o'n boshilarga boshliq degan buyruq ham berilgan. Shu bilan bir vaqtda o'nboshining ishini yuzboshiga, yuzboshining ishini mingboshiga, mingboshining ishini amirga, amirnikini esa, amir ul-umaroga buyurmasligi ham tayin etiladi. Ana shunday temir zanjir timsolida tashkil qilingan sipohning jangovarligi doimo yuqori darajada bo'lgan. Amir Temur davlatning belgilari, bayroqlari, nog'ora-tug'lariga ham jiddiy e'tibor bergan. Ularni amirlarga taqdim etish qoidalari ham qat'iy qilib belgilab qo'yilgan. Uning farmoniga binoan o'n ikki katta amirlarning har biriga bitta bayroq (alam) va bir nog'ora berilgan. Amir ul-umaroga esa bayroq va nog'ora, tuman tug'i va chortug'i taqdim etgan. Mingboshiga esa bir tug' va karnay (nafir) berilgan. Yuzboshi va o'nboshilarga esa har biriga bittadan burg'u taqdim etilgan. To'rt beklar begining har biriga bittadan bayroq, nog'ora, chortug' va burg'u berilgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO_YXATI:

1. Amir Temur o'gitlari. –T.: Navro'z, 1992.- 63 b.
2. Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. – T.: Universitet, 2007. - 323 b.
3. Begmatov E. Joy nomlari-ma'naviyat ko'zgusi. – T.: Ma'naviyat, 1998.- 64 b.
4. Бобоев Х. Амир Темур и его взгляды. – Т.: –Ўзбекистон‖, 1992. – 82 б.
5. Беруний Абу Райхон. Қадимги халқлардан қолган ѐдгорликлар.
1- Танланган асарлар. 1-жилд. – Т.: Фан, 1968. – 486 б.
6. Березиков Е. Великий Тимур. – Т.: Шарқ, 1994. – 335 б.
7. Додхудоева Л.Н. Тимуриды: тенденции политического, социального и экономического развития. – Душанбе, 2003. – 156 b.
8. Jabborov I. O'zbeklar: turmush tarzi va madaniyati: etnotarixiy lavhalar. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, M.Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, O'zbekiston Tarixi Davlat muzeyi. – T.: O'qituvchi, 2003. - 208 b.
9. Jaloliddin Rumiy. Ichingdagi Ichindadur. – T.: Yangi asr avlodi, 2003. – 199 b.
10. Jalolov A. O'zbekiston: mustaqillik, ma'naviyat, mafkura. – T.:
1- O'zbekiston, 1994.-96 b.
11. Jo'raev N. Tarix falsafasi: tushuncha, mohiyat va siyosat. – T.:
1- Ma'naviyat, 1996.-192 b.
12. Клавихо. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура (14031406). – М., 1990. – 107 с.
13. Ibrohimov A. Bizkim o'zbeklar : milliy davlatchiligimiz asoslari haqida mulohazalar. – Toshkent : Sharq, 1999. - 400 b.
14. Ибн Арабшах. История Амир Тимура. Ачоиб ал-макдур фи тарихи Таймур. /Автор перевода Хайдарбек Бобобеков. 3-е издание. – Ташкент, 2008. - 239 с.
15. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimizning takomil bosqichlari. – T.: Sharq, 1996.- 144 b.
16. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
17. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharotida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – Toshkent: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
18. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. – T.:
1- O'zbekiston, 2009. – 24 b.
19. Sh.M.Mirziyoev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: O'zbekiston, 2017. – 104 b.
20. Sh.M.Mirziyoev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b.

# TILAK MAZMUNLI PRETSEDENT BIRLIKLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

**Husnida Sulaymonova**
*AndDU magistranti*
*Andijon davlat universiteti professori f.f.d Shaxobiddinova Sh. taqrizi asosida*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada tilak mazmunidagi birliklar lingvistik tasniflanadi, tilshunoslikda o‗rganilish tarixi tahlil qilinib, lingvokulturologik obyekt sirasiga kiritilishi asoslanadi.*

**Kalit so‗zlar**: *nutqiy janr, tilak, duo, qarg‗ish, fatik muloqot, mulozamat-manzirat shakllari.*

**Annotation**: *In this article, units of wish content are linguistically classified, the history of linguistics is analyzed, is included in the list of linguocultural objects.*

**Key words:** *speech janre, wishes, volition, obtestation, blessing.*

Yer yuzida millat yoxud elat borki, har birining o‗ziga xos milliyligi, qadriyatlari, urf-odatlari bor. Milliy mentallik xususiyatlarini o‗zida aks ettiruvchi qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi hisoblanadi, ana shu millatning borligini, mavjudligini ko‘rsatadi, bardavomligining asosi hisoblanadi. O‗zbek xalqi asrlar davomida sayqallanib, takomillashib, qadrlanib, e‘zozlanib kelayotgan bardavom, bebaxo qadriyatlarga ega: hayotining har kunini duogo‗ylik, yaxshi tilak bildirish kabi qadriyatlari bilan boshlaydi. Azaliy urf-odatlarida, marosimu an‘analarida, umuman kundalik hayotining har jabhasida ezgu niyatlar bildirib, umrining mazmunini boyitadi. Mana shu har bir bildiriladigan tilakda, duolarda o‗zbek milliy koloritini ochib beruvchi kalit so‗zlar, milliylik aks etgan semalar uchraydi. Chunki duolar ham ajdodlardan asrlar osha bugungacha yetib kelgan og‗zaki ijod namunalari hisoblanadi.

Tilaklar masalasi rus, ingliz, ispan va arab tillarida optativ kategoriya, nutqiy janr, muloqot akti sifatida alohida olinib ishlangan bo‗lib, T.V.Meshkova, A.R.Gubanov, M.Ch.Kremshokalova, G.F.Gubanovalarning optative model, ―samimiyat‖ konsepti, tilak-istak diskursiga to‗xtalgan tadqiqot ishlarida, M.M.Baxtin, V.V. Dementeyev, M.Y.Fedosyuklarning nutqiy janrga bag‗ishlangan ishlarida ko‗rinadi [2, 3, 6.]. O‗zbek tilshunosligida N.Uluqovning ―O‗zbekcha diniy matnlarda ekzotik leksika‖, Mahmud Sattor ―O‗zbek udumlari‖, Adhamjon Ashirov ―O‗zbek xalqining qadimiy e`tiqod va marosimlari‖ nomli kitoblarida tilak, niyat, olqish, qarg`ish kabi milliy realiyalarning mazmun mohiyati ochib berilgan. [1, 4, 5] S.Mo‗minovning ―O`zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari‖ mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida o‗zbeklarning o‗ziga xos muloqot xulqi ijtimoiy-lisoniy nuqtai nazardan tadqiq etilgan bo‗lib, mazkur ishda tilak mazmunidagi birliklar fatik muloqot shakllariga kiritiladi, mulozamat-manzirat shakllari deb ham yuritiladi. Xususan, muallif quyidagi fikrlarni bildirib o‗tadi: ―Muloqot xulqi muammosini milliy xarakter, millat aholisining o‗ziga xos urf-odatlari, qadriyat va an`analarini hisobga olmasdan turib mutlaqo o‗rganish mumkin emas. Chunki muloqot xulqi millat xarakterining uzviy bir qismi bo‗lib, ular bir-biri bilan chambarchas bog‗liqdir‖. [5. 36] D.M. Hasanovaning magistrlik dissertatsiyasi ham fatik muloqot shakllari tahliliga bag‗ishlangan bo‗lib, mazkur ishda fatik

muloqot keng qamrovda olib tahlilga tortiladi. Ya`ni bunda fatik muloqotning hududiy xoslanishi, jins bilan bog‗liq jihatlari, yosh bilan bog‗liq tomonlari, kasb-kor bilan bog‗liq tomonlari tahlil ostiga olinadi. ―Matnning antroposentrik tadqiqi‖ nomli monografiyasida D.Xudoyberganova tilaklarni pretsedent birliklar tarkibiga kiritadi: ―Pretsedent birliklar hisoblanuvchi pretsedent jumlalar ham til egalari lisoniy xotirasida saqlanuvchi birliklar bo`lib, ularga barqaror biriklamalar(frazeologizm, turg`un o`xshatish va metaforalar, nutqiy etiketlar, qarg‗ish va duolar) kiradi. ― [8. 97]

Fikrimizcha, lingvokulturologik tahlil obyekti sifatida olinganda tilak mazmunidagi duo, qargi`sh, olqishlar fatik muloqot shakllaridan alohida ajratib olinib, kengroq chuqurroq tahlilga tortilishi lozim. Chunki tilaklarda milliy koloritni yaqqol namoyon qiluvchi sema va kodlar mavjud . ―O‗zbek xalqi orasida bolani beshikka belashda qarindosh urug‗lar va mahallada hurmatli -e`tiborli, uvali-juvali, nikohi buzilmagan, ayollar tanlangan. Bulardan biri doya momo (enaga) yoki o‗zining katta buvisi bo‗lishi shart edi. Bolani beshikka belash jarayonida ―Qo‗rqmas botir bo‗lgin, sog‗lom o‗sgin, uzoq yashagin!‖ degan niyat bildirib turiladi.‖ [1. 83] yoki ―Egasi keldi bobovlari qochsin, bolajonim beshigida tinch yotsin‖, ―beshik bolasi bek bolasi bo‗lsin‖ kabi tilak-istaklar bildiriladi, mana shu tilaklarning o`zida bir qancha madaniy kodlar kelib chiqadi. Beshik o`zbek tili etnografizmlaridan biridir. Beshik o`zga xalqlarda uchramaydigan, o`zbek bolasining tug`ilganidan ikki-uch yoshigacha yotib orom oluvchi oshiyonidir. Beshik – chaqaloqni belab va tebratib uxlatish uchun tol yoki tut yog‗ochidan yasalgan yo‗rg‗a oyoqli maxsus moslama; tebratma belanchak. [ 7.294]. Beshikka belashda bildiriladigan tilaklar ham turlicha bo‗lib chaqaloqni birinchi bor belanganda boshqa tilak, har kunlik belash jarayonida boshqa tilaklar aytiladi. Bu esa tilaklarning tildagi funksional jihatlarini tahlil etishni taqozo etadi. Jumladan, bolani ilk bor yangi beshikka belaganda quyidagicha: ―Ilohim, beshiklari o`ziga buyursin. Bergan bolasi esli-hushli, rizqli, nasibali bo`lsin. Ko`zi hayoli, yuzi iboli, ko`ngli rahmli, dasturxonli bo`lsin. Sutiga ega qilsin. Boshi toshdan bo`lsin. Ota-onasi rohatini ko`rsin. Umri bilan bergani rost bo`lsin. Ketidan jo`ra-jo`ra o`g`illar bersin. Bu tabarruk chillaxonalarda yaxshi niyat qilib fotihaga qo`l ochganlarning barchasi niyatiga yetsin. Befarzandga farzand, bemorlarning dardiga shifo, keksalarga iymon, jumlayi mo`minga insofu tavfiq bersin‖; bolani har safar beshikka belaganda: ―Bismillahir rohmanir rohiym. Egalari kirsin, bobovlari chiqsin. Taxtida yotib vaqtida tursin. Uyqusi halovatli osuda bo`lsin. Eson-omongina orom olib, tiniqib tursin‖. Mazkur tilaklar matnida o‗zbek lingvomadaniyatiga xos bo‗lgan ―esli-hushli, rizqli nasibali bo‘lmoq‖, ―boshi toshdan bo‘lmoq‖ ―sutiga ega bo‘lmoq‖ ―yaxshi niyat qilib fotihaga qo‘l ochmoq‖ kabi iboralar, ―chillaxona‖, ―dasturxon‖ lingvomadaniy kodi ishtirok etishining o`zi tilaklarning lingvokulturologik ahamiyatini ko`rsatib beradi.

To`y marosimlarida aytiladigan tilaklarga e`tibor qaratilsa, kelin-kuyovga bildiriladigan yaxshi niyatli tilaklar orqali o`zbek xalqiga xos bo`lgan butun boshli to`y marosimlari assotsiatsiyasi yuzaga keladi: ― Jo`ra, baxtli bo`linglar, to`qqiz oyu to`qqiz kundan keyin beshik to`ylarda xizmat qilaylik‖, ―Hudoyim o`g`il farzandlar bersin, sunnat to`ylarida ham o`zimiz xizmatda bo`laylik‖ (kuyovning do`sti tomonidan bildiriladigan tilak). Mazkur tilak o`zbek xalqining har bir a`zosi ongi shuurida saqlanib, to`y marosimlarida bu matnga qayta qayta murojaat qilinadi va bu o`z o`rnida nikoh to`yidan keyin, beshik to`yi, sunnat to`yi kabi lingvomadaniy realiyallarni assotsiatsiyalaydi. Bu kabi tilaklarni ko`plab keltirish va tahlil

qilish mumkin va aynan mana shunday tahlil bugungi tilshunoslikda e`tiborga olinishi zarur bo`lgan ishlar sirasiga kiradi.

## ADABIYOTLAR:

1. Ashirov A. O‗zbek xalqining qadimiy e`tiqod va marosimlari. –Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‗zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2007, –B. 87.
2. Бахтин М.М. Проблема речевых жанров // М.М.Бахтин. Литературно-критические статъи. –Москва, 1986, –С .428-472.
3. Дементъев В.В. Теория речевых жанров. (Коммуникативные стратегии кулътуры). – М, 2010. –С 597.
4. Mahmud Sattor. ―O‗zbek udumlari‖. Cho‗lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. –T, 2007.
5. Mo‗minov S.M. O`zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari: Filol. fan. d-ri… dis. avtoref. –T, 2000. 36-b.
6. Мешкова Т.В, Свеклова О.В, Губанов А.Р. Оптативностъ как лингвистическая категория синкретичные полипредикативные конструкции // Вестник Чувашского университета. 2016, –С. 227-230.
7. O‗zbek tilining izohli lug‗ati. 5 jildli. 1-jildi. –Toshkent.:‖O‗zbekiston milliy ensiklopediyasi‖ Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. –B. 294.
8. Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. O‗zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. ―Fan‖ nashriyoti. –T, 2013. –B.97.

# BOSHLANG_ICH SINFLARDA INTERFAOL METODLAR VA DIDAKTIK O_YINLARNING AHAMIYATI

**Matyoqubova Ziyoda**
*Xorazm viloyati Hazorasp tumani 10-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Kirish**. Boshlang_ich sinf o_quvchilarining qiziquvchanligi va bilishga bo_lgan ehtiyojini hisobgaolgan holda pedagogik va axborot texnologiyalaridan darslarda samarali foydalanish bugungikun pedagoglaridan zamon bilan hamnafas bo_lishni talab qiladi.

Boshlang_ich sinflarda innovatsion texnologiyalardan foydalanish orqali o_quvchilarni darsdagi faolligiga erishilinadi, dars mazmuni o_quvchilarga tushunarli tilda bayon etiladi.

Bu borada –Tushunchalar tahlili‖, –Charxpalak‖, –Zinama-zina‖ singari metodlar bilan bir qatorda –O_zim tekshiraman‖, –Bo_lishi mumkin emas‖, –Ortiqchasini top‖, –Juftini top‖ singari didaktik o_yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

–Tushunchalar tahlili‖, –Charxpalak‖, —Zinama-zina‖ metodlarida boshlang_ich sinflarda o_tiladigan barcha o_quv fanlarida foydalanish mumkin. Ushbu metodlardan dars jarayonida foydalanilganida juftlikda yoki kichik guruhlarda ishlash mumkin.

Boshlang‘ich sinflarda yozma va og‘zaki nutqni rivojlantirishning innovatsion usuli sifatida turli xil o‘yinlardan foydalaniladi. Shuni esda tutish kerakki, boshlang‘ich sinf bolasi hali ham bunday o‘yinlarga moyil bo‘ladi. O‘quvchilarining ichki imkoniyatlarini ochishda o‘z isbotini topgan metodlarni berib o‘tamiz.

O‘qish darsining boshida soddalashtirilgan «Aqliy hujum»dan foydalanish. Bu esa o‘quvchilar bilimlarini takrorlagan holda, o‘tilgan materiallarni eslab qolishga, yangi bilimlar olishga tayyorgarlik ko‘rishda yordam beradi.

«Men o‘zimni namoyon qilaman». Yangi adabiy tushunchalar bilan tanishishdan oldin, o‘quvchilar o‘zlarini eng yaxshi tomondan ko‘rsatish taklif qilinadi. Ushbu uslub ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishdan tashqari, notiqlik mahoratini rivojlantirishga yordam beradi. Yaxshi rivojlangan monologga ega bo‘lgan o‘quvchi mantiqiy, izchil va oqilona ravishda o‘z fikrlarini ifoda eta oladi, o‘quv dasturidagi murakkab savollarga batafsil javob bera oladi, darsliklar, badiiyadabiyot va xalq og‘zaki ijodi matni ustida mustaqil ishlay oladi.

–So‘zlarni taqqoslash‖. Bunda o‘quvchilarga har xil ma‘noga ega bo‘lgan ikkita so‘zni (qazilma va ko‘pyoq) taqqoslash taklif qilinadi. O‘quvchilarning vazifasi ushbu so‘zlarning o‘zaro bog‘liqligiga imkon qadar ko‘proq misollar keltirishdir.

«Nostandart vaziyatlarni taklif qilish». Bu matn bilan ishlashda o‘quvchilarni kutilmagansavollarga javob berish so‘raladi:

Odamlar boshlarida yurishni boshlasalar nima bo‘ladi?

Agar sut jo‘mrakdan oqib chiqsa nima bo‘ladi? va hakozo

Bugungi jadal rivojlanib borayotgan davrda o_quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga o_rgatish, o_z ustida ishlash ko_nikmasini hosil qilishda o_qituvchining roli katta. bunda har bir o_qituvchining oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri yangi pedagogik texnologiyaning innovatsion usullaridan dars jarayonida o_rinli foydalanish va o_quvchilarning yakka tartibda

ishlashiga erishishdir. ―**Tafakkur buluti‖ metodi**. Ushbu metod ―klasster‖ metodining bir shakli hisoblanib, o‗quvchilarda ixtiyoriy muammo xususida erkin, ochiq o‗ylash va shaxsiy fikrlarini bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi.

Mazkur metod turli xil g‗oyalar o‗rtasidagi fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi.

Maktab ostonasiga ilk qadam qo'yib boshlang‘ich sinfga qabul qilingan bolaning faoliyatida o'yin asosiy o'rinni egallaydi. O'yin ularning eng sevimli mashg‘uloti bo'lib, ular har qanday mashg‘ulotni o'yin bilan uyg‘unlashtirishga harakat qiladilar.Shunday ekan, o'qituvchi o'quvchi faoliyatidan ularning sevimli mashg‘uloti-o'yinni siqib chiqarmasdan, undan maqsadga muvoffiq foydalanish bilan talim jarayonining samaradorligini oshirishga imkon beradi.Ta‘lim jarayonida qo'llaniladigan didaktik o'yinlarni biz mazmuniga va amalga oshirish shakliga kura ikki xil tasnif qilamiz:

1. Mazmuniga ko'ra.
2. Amalga oshirish shakliga ko'ra.

1. Mazmuniga ko'ra didaktik o'yinlar quyidagi turlarga bo'linadi: tinch o'yinlar; harakatli o'yinlar; aralash turdagi o'yinlar.

2. Shakliga ko'ra didaktik o'yinlar quyidagi turlarga bo'linadi: musobaqa o'yinlari; sahna o'yinlari.

Quyida 1-sinf «Ona tili» darslarida qo'llash mumkin bo'lgan didaktik o'yinlar mazmuni bilan tanishtiramiz. Shu bilan birga, har bir o'yinni o'tkazish tartibini uch variantda misol tarzda keltiramiz. Didaktik o'yinlar mazmuniga ko'ra, qilingan tasnifga asoslanib joylashtiriladi.Shuni eslatib o'tish joizki, ona tili va o'qish darslarida qo'llash uchun tavsiya qilinayotgan didaktik o'yinlardan foydalanishda qat‘iy chegara mavjud bo'lmay, boshqa yuqori sinflarga ham moslashtirib foydalanish mumkin.Tinch o'yinlarga quyidagilarni kiritish mumkin: ‖O'zim tekshiraman‖, ‖Hikoya,‖ «U kim, bu nima?‖, ‖Topag‘on‖, ‖Noto'g‘ri jumla‖, ‖Bo'lishi mumkin emas‖, ―Harflarni top‖, ‖O'qib ko'r-chi‖, ‖Davom ettir‖, ‖Safar‖, ‖Sirli so'z‖, ‖Zanjir‖, ‖O'yin – topishmoq‖, ‖Bu meniki‖, ‖Tez javob‖, ‖Rebus‖, ‖Krossvord».Pedagogik amaliyot jarayonida qo‘llanilgan ushbu o'yinlarning ayrimlaridan misollar keltiramiz.―Hikoya‖ o'yinida, o'qituvchi doskaga bir nechta so'z yozib qo'yadi. O'quvchilar mustaqil ravishda shu so'zlar ishtirokida hikoya tuzadilar. Hikoya tuzish jarayonida o'quvchilarning lug‘at boyligi ortishi bilan birgalikda, gaplarni to'g‘ri tuzish, tovushlarni to'g‘ri tashkil qilish va mustaqil fikrlash malakasi shakllanadi.O'quvchilarning vaqt-vaqti bilan rag‘batlantirish ularning o'ziga bo'lgan ishonchini orttiradi. Bu o'yindan ona tili darslarida yoki darsdan tashqari mashg‘ulotlarda, to'garaklarda foydalanish mumkin.

1- variant: Nafisa, soat, yomg‘ir, kitob.

2- variant: Olma, kasal, o'rtoq, Abduvali.

3- variant: Mushuk, bobo, poliz, non, sichqon.

―U kim, bu nima?‖ o'yinida, stol ustiga bir qancha predmetlar terib qo'yiladi. O'qituvchi shu predmetlardan birortasini ta‘riflaydi. O'quvchilar shu belgilar asosida gap nima haqida borayotganligini topadilar.Bu o'yinning afzallik tomoni shundaki, undan dars davomida o'quvchilar diqqatini jamlash, qo'llarga dam berish maqsadida yoki yangi tovushlar bilan tanishtirish, ona tili darslarida yangi mavzuni bayon qilish jarayonida ham foydalanish mumkin.Bu o'yin o'quvchilarda, ziyraklik, sinchkovlik sifatlarini va mustaqil fikrlash

malakalarini shakllantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, bu o'yindan dam olish daqiqalarida ham unumli foydalanish mumkin―Quruvchi‖ o'yini o'quvchilarni guruhlarga bo'lib, darsda o'tilgan mavzuni yoki yangi mavzuni mustahkamlash qismida yoki darsdan tashqari vaqtda o'tkazilishi mumkin. O'qituvchi avvaldan darsga tayyorgarlik ko'rib, qog‘ozdan yoki penoplast bo'lakchalaridan –g‘ishtchalar‖ yasaydi va bu –g‘ishtchalarga‖ savol yozilgan qog‘ozchalarni yopishtirib chiqadi. –g‘ishtchalar‖ soni o'quvchilar soniga teng yoki ko'p bo'lishi kerak, guruhlarga –minora‖ yoki –devor‖ qurishlari uchun joy ajratiladi. Har bir guruhdan bittadan bola chiqadi va –g‘ishtcha‖ ni olib savolni o'qiydi. Agar savolga bolalar to'g‘ri javob topsalar o'zlarining –maydoncha‖ lariga –g‘isht‖ ni teradilar. Agar noto'g‘ri javob bersalar, o'qituvchi –g‘ishtcha‖ ni olib qo'yadi. O'yin shu tahlidda barcha o'quvchilar bittadan –gishtcha‖ olib bo'lgunlarga qadar davom etadi. –Qurilish maydonchasi‖ da eng ko'p g‘isht tergan o'quvchilar guruhi g‘olib hisoblanadi.

Aralash tipdagi o'yinlarga quyidagilar kiradi: ‖Nima yo'qolib qoldi‖, ‖Pochtachi‖, ‖Kun va tun‖, ‖Qarmoq‖, ‖Meni tushun‖, –Iztopar‖, ‖So'z o'yini‖, ‖Xat kimniki‖, ‖Izma-iz‖.―Nima yo'qolib qoldi‖ o'yinida, stol ustida bir necha yoki alohida buyumlar sur‘ati tushirilgan kartochkalar joylashtiriladi. O'quvchilar stol ustini yaxshilab kuzatib, narsalarni eslab qoladilar. Shundan so'ng o'qituvchi o'quvchilarga bildirmasdan ularning bittasini olib qo'yadi. O'quvchilar stol ustidan nima yo'qolib qolganini topishlari lozim. Bu o'yindan darsda va darsdan tashqari mashg ‘ulotlarda foydalanish mumkin.Bu o'yin ayniqsa alifbe davrida harflarni o'rganish jarayonida juda qo'l keladi. –Qarmoq‖ o'yini: Bu o'yindan barcha darslarda qo'shimcha savollar berish yoki turli ertaklarda foydalanish mumkin. Baliqchalar shaklidagi qog‘ozchalarga savollar yoziladi va bir chetiga temir qistirg‘ichlar qistiriladi. Qarmoq shaklidagi tayoqchalarning uchiga ip va ipning uchiga magnit bo'lakchasi bog‘lab qo'yiladi.Boshlang‘ich sinf matematika darslari uchun juda ko'plab didaktik o'yinlar yaratilgan. Matematikadan sanoqqa doir ba‘zi didaktik o'yinlarni quyidagi guruhlarga tasniflash mumkin.

1- guruh. Birinchi o'nlik doirasidagi son tarkibi malakalarini mustahkamlovchi o'yinlar: –Buyumlarni 10 gacha sanash‖, «To'g‘ri va teskari sanash», « Ikkini qo'shish va ayrish».

2- guruh. Son tarkibini mustahkamlovich o'yinlar: «4 soni va raqami», ‖Teatr‖, ― Nima o'zgardi?‖. «Norvoncha», «Zanjircha».

3- guruh. O'nlikdan o'tib hisoblash malakalarini mustahkamlovchi o'yinlar: «Ketgan kim?» va x.k.

4- guruh. Bir necha birlikka kamaytirish va orttirish, masalasini yechish malakalarini mustahkalovchi o'yinlar: «Topchi, qancha?» va x.k.

1-guruh bo'yicha –Buyumlarni 10 gacha sanash‖ ga doir didaktik o'yin: –Jimjitlik‖.Didaktik topshiriq: bolalarning oddiy sanoq haqidagi tushunchalarni aniqlash va mustahkamlash.O'yin topshirig‘i: aniq buyumlarni –xayolda‖ sanab, kerakli sonni barmoqlar bilan ko'rsatish.O'yinning borishi: o'quvchi boshlovchilik vazifasini bajaradi.

O'qituvchi:

- Bolalar, –Jimjitlik‖ o'yinini o'ynaymiz. Men sizlarga hozir har xil narsalarni ko'rsataman. Siz ularning sonini topishingiz kerak bo'ladi.Bolalar birdan gapga tushib ketadilar.- Yo'q bolalar. Javob qaytarishdan oldin qo'l ko'tarish kerak. O'qituvchi bolalarga doira va cho'plarni sanatadi.

- Endi men sizlarga narsalarni ko'rsataman. Sizlar ovoz chiqarmasdan sanab, qancha bo'lganini barmoqlaringiz bilan ko'rsatasiz.O'qituvchi 4 ta qo'g‘irchoqni ko'rsatganda bolalarning hammasi 4 ta barmog‘ini ko'rsatadi. Sinfda jimjitlik. Bolalarning butun diqqat-etibori topshiriqni bajarishga qaratilgan.O'qituvchi:

- Barakalla hammangiz to'g‘ri hisobladingiz. Endi men sanoq cho'pni bir qo'limdan ikkinchi qo'limga olaman, sizlar esa ularni ovoz chiqarmasdan sanang, keyin menga qancha bo'lganini ko'rsatasiz.Bolalar o'qituvchining harakatlarini kuzatib sanashadi va 10 ta barmog‘ini ko'rsatishadi.

O'qituvchi: - Endi kvadratlarni sananglar,- deydida, taxtachaga ketma-ket kvadratlarni qo'yadi. Bolalar sanashadi va 6 ta barmog‘ini ko'rsatishadi.Bu o'rinda bolalarning birinchi o'nlik haqidagi bilimlarining taxminiy darajasi aniqlanadi, qancha narsa ko'rsatilsa, o'shani barmoq bilan sanab ko'rsatish malakasi mustahkamlanadi.

Bundan tashqari, ularda ovoz chiqarmay, ―Xayoldа‖ sanash ko'nikmalari ham shakllanadi. Bolalar aslida sanashga ovoz chiqarib takrorlamasdan birdaniga erisha olmaydilar, jim o'tirishni talab etuvchi o'yin qoidasigina ularni bunga majbur qiladi va ular ovoz chiqarmay sanaydilar. Bunday qilishning qulay tomoni shundaki, bolalarning butun diqqat e‘tibori faqat topshiriqni bajarish bilan band bo'ladi. Keyingi darsda o'yin shartlari yana ham murakkablashtiriladi. Bu o'yin orqali o'quvchilarda tez harakat qilish malakasi mustahkamlanadi. Shu bilan birga topshiriqni kim tez, kim esa sekin bajarayotganini aniqlab olish imkoni tug‘iladi.

Ma‘lumki, boshlang‗ich ta‘lim — ta‘lim tizimining poydevori hisoblanib, o‗quvchilarni o‗qitish sifati unga bog‗liq bo‗ladi va bu boshlang‗ich maktab o‗qituvchisi zimmasiga katta mas‘uliyat yuklaydi. Uzoq vaqt davomida ta‘lim tizimida boshlang‗ich maktab «ko‗nikmalar maktabi» bo‗lib keldi, ya‘ni o‗quvchi keyingi ta‘lim olish uchun o‗qish, yozish, hisoblash kabi asosiy ko‗nikmalarni o‗zlashtirishi kerak bo‗lgan ta‘lim bosqichi sifatida qaralgan. Bugungi kunda boshlang‗ich maktab boshqacha tasavvur etiladi. Bugungi kunda u ta‘lim tizimida bolaning birinchi tajribasi — ta‘lim olish kuchlarini sinash joyi bo‗lib qolishi kerak. Ushbu bosqichda faollikni, mustaqillikni rivojlantirish, idrok etish faolligini saqlab qolish va bola ta‘lim dunyosiga shaxdam kirib borishi uchun sharoitlar yaratish, uning salomatligini va emotsional xususiyatlarini mustahkamlash muhim. Bugungi kunda o‗quvchilarning aynan mana shu sifatlari ta‘lim jarayoniga AKT‘ni joriy etish bilan rivojlanayotganligining guvohi bo‗lmoqdamiz.

**Xulosa**. O'yin ijodiyligi bilan ajralib turadi. U mumkin qadar boy faol xarakter«ijodiy maydoni» ga ega bo'ladi. O'yin – bu faoliyat, jarayon va o'qitish metodidir. O'yinlar turli maqsadlarga yo'naltirilgan bo'ladi. Ular didaktik, tarbiyaviy,ta'lim faoliyatini rivojlantiruvchi va ijtimoiylashuv maqsadlarda qo'llaniladi. O‘yinlarga bir necha misollar keltirish mumkin: «zinapoya», «izohli lug‘at»,«rolli o'yinlar», «6x6 metodi», «fikrlar hujmi», «aqliy hujum» va h.k.Ta'limda didaktik o'yinlar o'qitish vazifasiga xizmat qiladi va qiziqarli, maroqli, tushunarli darajada olib boriladi. Bolalar g‘olib chiqish maqsadida jondili bilan mashq qiladilar, materialni yaxshi o'zlashtiradilar.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdullaeva H. A., Bikbaeva N.U. va boshq. Boshlang‘ich ta'lim konstepstiyasi. Boshlang‘ich ta'lim. 1998. 6 –son, -12 – 24 betlar.

2.Abdurahmanova N., Jumaev M., O'rinboeva L. Boshlang‘ich sinflar uchun matematikadan didaktik materiallar. -T.: «Istiqlol», 2004, - 65 bet.

3.Azizxo'jaeva N.Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.-T.: «O'qituvchi», 2003. – 23 – 48 bet.

4. Abdieva D. Soros bilan hamkorlik – yutuqlar kaliti. Boshlang‘ich ta'lim. 2003. 2-son, 17- 22 bet.

5. Bo'ronova Sh. Ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish. Uzluksiz ta'lim. 2004. 3-son. - 34-38 betlar.

6. Bikbaeva N., Yangiboeva E. 2-sinf matematika darsligi. -T.: «O'qituvchi», 2008. - 112 bet.

5 YANVAR / 2022 YIL / 14 – SON

# "OGAHIY LIRIKASI HAQIDA"

**Ibragimova Shohida Sultonnazirovna**
*Urganch shahar 5- son umumiy*
*o'rta ta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

*Ushbu uslubiy ko'rsatma " Ogahiy lirikasi haqida " deb nomlangan bo'lib unda Ogahiy hayoti va ijodi, uning she'riyat olami, lirikasidagi nozik nuqtalar tahlil qilinib o'rganildi. Ushbu ko'rsatmadan fan o'qituvchilari va fanni mustaqil o'rganuvchilar foydalanishlari mumkin.*

**Amaliy mashg‘ulotlarni bajarish bo'yicha uslubiy qo_llanma**

Muhammadrizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy barakali ijod qilgan sa'natkor sifatida Navoiyga qiyoslanadi. Ulug‘ o‘zbek shoiri, tarixnavis, tarjima maktabining asoschisi va davlat arbobi Muhammad Rizo Ogahiy 1809 yil 17 dekabrda Xiva shahri yaqinidagi Qiyot qishlog'ida Erniyozbek mirob oilasida tug'ilgan. Shoir boshlang'ich ma'lumotni Qiyotda olgan, keyin Xiva madrasalarida o'qigan. Uch yoshligida otasi o‘lib, amakisi Munis tarbiyasida qoldi.

Shoir 1845-yilda otdan yiqilib, oqsaydigan bo'lib qoladi va 1857-yilda miroblik vazifasidan istefo beradi. Mukammal mustazod kashfiyotchisi bo'lgan Ogahiy 1874-yilda 65 yoshida vafot etgan. Qolgan umrini ijodga bag'ishlaydi yilda Ogahiy amakisi Munisdan ajraldi, Olloqulixon uni Munis o'rniga mirob etib tayinladi.

Shoirning fors-tojik tilidan qilgan tarjimalari ham o'zbek adabiyoti xazinasidan joy olgan. Bular: Mirxondning «Ravzat us safo», Muhammad Mahdiy Astrobodiyning «Tarixi Jahonkushoyi Nodiriy», Z.Vosifiyning «Bad. vaqoye», Ali G'ijduvoniyning «Miftoh ut tolibin», Muhammad binni Shayx Muhammmad Muqim Hirotiyning «Tabaqoti Akbarshohiy», Muhammad Yusuf Munshiyning «Tazkirai Muqimxoniy», Rizoqulixon Hidoyatning «Ravzat us safoyi Nosiriy»,

Kaykovusning «Qobusnoma»,Muhammad Vorisning «Zubdat ul hikoyot», «Sharhi daloyil al hayrat»,S.Sheroziyning «Guliston»,A.Jomiyning «Yusuf va Zulayho», Badriddin Hiloliyning «Shoh va gado»,Nizomiy Ganjaviyning «Haft paykar» kabi asarlardir. Bu tarjimalar Ogahiyning nafaqat shoir, davlat arbobi, balki yetuk tarjimon ham bo'lganligini ko'rsatadi.Asarlari: «Firdavs ul-iqbol», «Zubdat-ut tavorix», «Gulshani davlat», «Riyoz ud-davla», «Jome ul voqeoti sultoniy», «Shohidi iqbol» kabi tarixiy asarlari, «Tavizul-oshiqin» («Oshiqlar tumori», 19 janrdagi asarlar mavjud) devoni, «Ustina» (rajaz bahrida yozilgan), «Bizki bukun...», «Arzimas», «Navroz», «Choy», «Bolmasa bo'lmasun, netay» (Navoiy g'azaliga nazira, radd ul-matla, radif shakliy va mazmuniy mukammallikni ta'minlagan), «Donoyi oliyjohlar» (davlatchilik, davlatni oqilono boshqarishdan, amaldorlar qanday bo'lishi kerakligidan bahs etuvchi g'azali) kabi she'rlari, «Ogohnoma» qasidasi (M. Rahimxon II (Feruz) ga bag'ishlangan) va boshqalar.

Ma‘lumki, badiiy til keng imkoniyatlarga egaligi, adabiy tildan farqli o_laroq, shevalarga xos bo_lgan so_zlar (dialektizmlar), turli kasb-hunar sohalari,uslubiy qatlamlar, tarixiy, eskirgan so_zlarni qo_llay olishi bilan ajralib turadi [O_zbek shevalari morfologiyasi, 1984:47]. Adabiyotning asosiy quroli – so_zning kuchidan samarali foydalanib, asarlarini bashariyat uchun mangu tuganmas xazina sifatida qoldirgan shoir, tarixnavis, tarjimon hamda davlat va

jamoat arbobi Muhammad Rizo Ogahiy serqirra ijod sohibidir. Uning «Ta‘viz ul-oshiqin»(«Oshiqlar tumori») deb nomlangan devonida g_azal, muxammas, murabba‘,musaddas, masnaviy, shuningdek, fard, tuyuq, qit‘a, ruboiy, muammo kabi yigirmadan ortiq janrdagi salkam yigirma ming misrali lirik merosi jamlangan. Ogahiy Sharqning xilma- xil she‘riy shakllaridan to_liq foydalangani holda ularda ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-didaktik, tabiat tasviri bilan bog_liq mavzularni haqqoniy aks ettirdi. Lekin shoir she‘riyatining aksariyat qismi ishqiy mavzudadir.Ogahiy lirikasida ishq-muhabbat yetakchi motivlardan biridir. Bu motiv nafaqat ko_hna, an‘anaviy, ayni vaqtda zamonaviy va betakror xususiyatlarga ham ega [Tojinazarova H. 2010:23].

Shoir badiiy tafakkurining ko_lami va ko_rkamligiga nazar tashlar ekanmiz,Ogahiy o_z ijodida turli she‘riy san‘atlar- mubolag_a, tashbeh, istiora, tamsil,tazod, husni ta‘lil, talmeh, tardi aks, kitobat, tazmini muzdavaj kabilardan mohirona foydalanganligining guvohi bo_lamiz. Bu til vositalari shoir she‘riyati, xususan, g_azallari qurilishining zuvalasi pishiq, puxta, ta‘sirchan va jozibadorligini ta‘minlagan.

Ulardan ayrimlarini tahlilga tortmoqchimiz.

Qasdi jon ul ko_zlar etmish emdi yo_q chiqmoq amon,
Bermayin jon ul iki zolim arosidan sango

yoki

Visoling ohulari rom esa menga tong yo_q-
Ki, ikki ko_zdur iki mavjlig_ bulog_ mango

yoki

Ko_zi bir sayyodkim, qosh yosi-yu kirpik o_qi
Jon qushin sayd etkali bo_lmishdurur asbob ango,-

baytlarida shoir yor hajridagi oshiq tasvirini chizar akan, 1-baytda yorning ko_zlarini zolimga, 2-baytda ohuga va 3-baytda sayyod (ovchi)ga qiyoslab,tashbeh san‘atidan samarali foydalangan. 2-baytda oshiq ko_zlari tashbehi ham berilib, ko_z buloqqa mengzalgan. Bu ikki xil mohiyatga ega: 1) har bir tashbeh oshiq yoki yorga tegishli ekanligiga ko_z alohida o_xshatish asosiga ega bo_ladi; 2)buloq – arab tilida ―ayn‖ deb atalib, ham buloq, ham ko_zni anglatadi, natijada o_ziga xos so_z o_yini hosil bo_ladi. Bu esa ijodkor g_oyasini kitobxon qalbiga ta‘sirchanroq yetkazishga imkon bergan.

Ikki mushkin kokili ostida gulgun chehrasi,
Husn ganjidurki, yotmish ikki ajdar ustida,-

baytida Ogahiy tashbehning eng go_zal namunalaridan birini qo_llagan. Yorning go_zal yuzini ganj (boylik)ga, sochini esa ajdarga o_xshatgan. Bu baytda Sharq rivoyatlarida keng tarqalgan qarash – ilon (ajdar)lar xazina qo_riqchilari ekanligiga inonch aks etgan. Hazrat Navoiyning ―Farhod va Shirin‖ dostonida ham Farhod sandiqning sirini topishga (xazinaga) intilar ekan, yo_lida ajdarga duch kelishi bayon qilinadi. Bu bilan maqsadga (ishqqa) yetishishda ulkan sinovlar mavjudligiga ishora qilinadi. Sochning qoraligi (mushkin) va yor yuzini yopib turishi shu jihatdan ajdarga o_xshatilgan.

Ijodkor o_z she‘rlari qurilmasida mubolag_a san‘atiga alohida ahamiyat bergan:

G_aming tunida menga hech tiyralik yetmas,
Ki onda shu‘layi ohim erur charog_ mango

yoki

Vaslig_a yetushkan chog_ bag_rim o_ldi yuz pora,
Oni tiyg_i mujgoni tildimu ekan oyo
yoki
Jahon bozorida sindurdi yoqut-u guhar qadrin,
Durafshon nuqta birla la‘li xandoning_a sallamno
yoki
Bu ra‘no qad bila gar bog_a kirsang, sarv ila shamshod,
Bo_lub banda turarlar bir ayoqda ehtirom aylab.

1-baytda oshiq o_z ohi shu‘lasidan tunlari chirog_ sifatida foydalanishi, 2-baytda oshiq bag_rining yor mujgon (kiprik)lari tig_idan yuz pora bo_lishi, 3-baytda ma‘shuqaning la‘l labi qimmati jahon bozorlarida yoqut va gavhar narxini sindirishi, 4-baytda yorning go_zal qaddini ko_rib tik o_suvchi sarv va shamshod daraxtlarining ma‘shuqaga hurmat ko_rsatib, bir oyoqda turishi kabi holatlar mubolag_a san‘atining yuksak va keng tarqalgan namunalaridir.

«Husni ta‘lil» arabcha ―chiroyli dalillash‖ ma‘nosini bildiradi. Adabiy asarlarda tasvirlanayotgan biror hodisaga shoirona biron sabab ko_rsatish san‘ati shu nom bilan ataladi‖ [Hojiahmedov H.2000:27]. Ogahiy bu san‘atdan foydalangani holda takrorlanmas timsoliy ifodalar yaratgan:

Xoli mushkinlarki, yer tutmish labi shirinida,
Xayli hindudurki, g_avg_o qildi shakkar ustida.

Yuqoridagi misralarda xushbo_y hidli xolning ma‘shuqa shirin labi ustida makon topishi «hindular to_dasi shakar ustida g_avg_o qilyapti»tarzida g_ayritabiiy dalillangan.Bu xil husni ta‘lil san‘ati shoir ijodida talaygina.

Olida ham sarv-u gul, ham g_uncha bo_lmishdur xijil,
Ul paridin o_zgaga bo_hton qad-u ruxsor-u lab,-

baytini ijodkor mubolag_a va tashxis san‘atlari bilan boyitgan, ya‘ni yor go_zalligi-yu latofati oldida sarv, gul va g_unchaning xijolat chekishi mubolag_ali tasvir, shuningdek, tashxis san‘atini yuzaga keltirgan.

Ogahiy baytlar bitar ekan, bir nechta she‘riy san‘atlarni ipga marjon tergandek tizib qo_yadi:

Agarchi Yusuf ahli husn sulton-u azizidur
Nigorim olida lekin g_ulomi xor-u kamtardur.

Baytda tasvirlangan mahbubaning go_zallikda tengsiz Yusufdan ham ortiq ekanligini kitobxon yorqinroq tasavvur qilishi uchun shoir talmeh va mubolag_adan foydalangan.

Karaming erur manga usru oz, sitaming manga erur usru ko_b,
Kel-u maqsadimg_a etur mani bu oz-u ko_ping ko_p-u oz etib,-

misralarida muallif tazod(oz-ko_p) va tardi aks(oz-u ko_ping – ko_p-u oz) san‘atini she‘r badiiyligi uchun qo_llagan.

Tajohuli orif san‘ati ham shoir she‘rlari jozibadorligini ta‘minlashda alohida mohiyatga ega. Bu jihatdan Ogahiyning «Gavharmu ekan oyo» hamda «Ko_zimga jilvagar ul yor» g_azallari deyarli boshdan-oyoq ushbu san‘at asosiga qurilganligi bilan xarakterlanadi. Masalan:

Ko_zimga jilvagar ul yormu ekan oyo,
Va yo pari manga duchormu ekan oyo.
Quyoshmudur kecha kulbam aro tulu‘ etmish,

Va yoxud ul mahi ruxsormu ekan oyo, –

baytlarida mahbubaning o_zi pariga, yuzi esa quyoshga qiyos qilinadi-yu,lekin yor yoki pari, yor yuzi yoki quyosh ekanligi aniq aytilmaydi, shoir o_zini bilib-bilmaslikka soladi. Aslida esa u mahbubaning go_zalligini pariga va yuzini esa quyoshga qiyoslab, go_zal manzara yaratyapti.

Javring chekibon joni hazin chiqqoli yetdi,

Ey jon-u jahon, joning uchun jonima rahm et,-

baytida ijodkor bir xil(«j») tovush takroridan foydalanib, alliteratsiya usulidan mohirona foydalangan.

Shu jihatga ham alohida e‘tibor qaratish lozimki, Ogahiy lirikasida xilma-xil qofiya san‘atlari qo_llangan. Ular she‘rning ohangdorligi, ta‘sirchanligini ta‘minlashga xizmat qilgan. Jumladan, shoirning « Jondur fido» deb nomlanuvchi g_azalining maqta‘dan tashqari barcha baytlari tarse‘ san‘ati asosida bitilgan:

Ey sabohatlig_ yuzingg_a mehri raxshondur fido,

Be halovatlig_ labingg_a obi hayvondur fido.

Ogahiy she‘riyati har qanday bachkanalikdan, o_rtamiyonachilikdan tamomila xoli yuksak ishqiy-tasavvufiy she‘riyatdir. To_g_ri, unda falsafiy-tasavvufiy, ijtimoiy-siyosiy, ta‘limiy-axloqiy ohanglar yo_q emas. Umuman,uning she‘riyati rangin. Lekin bu mavzularning aksariyatini birlashtiruvchi narsa ishqdir, muhabbatdir. Ogahiy she‘riyati mazmunan chuqur, falsafiy teran bo_lishi bilan birga badiiy jihatdan ham barkamol asarlardir. Uning timsollar olami, tashbeh-u qiyoslar silsilasi o_ziga xos, yangicha. Shoir har san‘atning,har bir detalning, ungacha ilg_amagan qirralarini, borilmagan ma‘naviy hudud kengliklarini kashf etishga harakat qiladi. Ogahiy lirikasining, umuman Ogahiy ijodining salmoqli qismini ishq-muhabbat mavzusi, oshiq va ma‘shuqa obrazlari, bular orqali kishining tabiiy tuyg_usi, sevgi haqidagi fikrlari egallaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hojiahmedov A. She‘r san‘atlarini bilasizmi? – T.: Sharq, 2001.

2. Lapasov J. Mumtoz adabiy asarlar o_quv lug_ati. – T.: O_qituvchi, 1994.

3. Ogahiy. Asarlar.1-jild.– T.: G_afur G_ulom nomidagi adabiyot va san‘at, 1972.

4. Yo_ldoshev R. Ogahiy leksikasi bo_yicha kuzatishlar // O_zbek tili va adabiyoti, 2007. – №2. – Б.72-75.

5. Tojinazarova H. Ogahiy lirikasining badiiy-lisoniy tahlili // Til va adabiyot ta‘limi, 2010. – №6 – B.22-25.

6. O_zbek shevalari morfologiyasi. –Toshkent, 1984. – Б.47.

7. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. – Toshkent, 2000. – Б.

# OGAHIY IJODI VA UNING G‘AZALLARI TAHLILI

**Mirzayeva Mohiniso Saidaliyevna**
*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada hayoti davomida sermazmun ijod qilgan shoir, ijodkor, davlar arbobi Ogahiyning ijodiy merosi, uning ijodidagi janrlar tavsifi, ijodkor asarlarining biz uchun naqadar ahamiyatli ekanligi yoritilgan. Shuningdek, Ogahiyning g'azallari tahlil qilib berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *shoir, Ogahiy, ijod, g'azal, ijod, mirob, mirob, adabiyot, she'riyat, tasavvuf, radif.*

Xalqimiz uchun suyukli bo‘lgan ijodkor Ogahiy ijodidagi dunyoqarash, ruh, badiiy mazmun tasavvuf ta'limoti bilan yo'g'rilib ifoda etilgan asarlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Uning "Arzimas" radifli g'azalida ham insoniylikni mukammal jabhalari sari ko'tarilish g'oyalari, tasavvufning umuminsoniy masalalari orifona talqin etiladi. Bu asar shoirning hayotiy sarguzashtlarining xulosasi, uning dunyo' qarashidagi haqparastlik, haqiqatbinlikning shakllanishidan tug'ilgan. Bir so'z bilan aytganda, bu g'azal dunyoning g'atfiu anduhidan zardob bo'lgan shoir qalbining afg'onidir.

Badiiyat ilmini chuqur egallagan shoir, uni she'riyatida o'rni bilan qo'llay oladi va badiiy usul imkoniyatlaridan foydalanib ajabtovur she'riy manzaralar chizdi. Mazkur g'azal ham boshdan-oyoq tazod san'ati asosida qurilgan bo'lib, bu bir tomondan o'quvchiga fikrni chuqurroq anglatishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, she'rxon idrokini charxlashga yordam beradi. G'azal baytlarida tazodning turli xil suratlari sayqallangan. G'azal matla'sidanoq buni anglash qiyin emas:

***Dahr bazmu ayshi anduh-u g'amiga arzimas,***
***Sharbati jonparvari muhlik samig'a arzimas.***

Shoir bu dunyoning ayshu ishratlari, o'tkinchi rohat-farog'atlari uning g'am-u anduhlariga arzimasligini, vaqtincha jonbaxsh etuvchi sharbatlari esa jon oluvchi zahri zaqqumga aylanishini chuqur ta'kidlaydi. G'azalning ikkinchi baytida silsilaviy taftish yanada takomillashadi. Shoir iqroricha, agarchi yuz yil yor vaslining munavvar tongidan bobahra bo'lsangiz ham, bu shodlik "bir zamonlig'" hajrning, ayriliqdagi zulmatning zulmidagi qayg'uga arzimaydi:

***Yuz yil o'lsang yor vaslining safolig‘ subhida,***
***Bir zamonlig' hajri - shomi muzlamig'a arzimas.***

Lirik qahramon yana shunga amin bo'ladiki, inson umr bo'yi hayotini davr-u davronda, to'y ustiga to'yda, bazm ustiga bazmda o'tkazsada, bir nafaslik g‘am, motam musibati, ayriliq zulmati hammasini yuvib ketadi va bu o'tkazgan surur damlar hech narsaga arzimaydi:

***Yetsa davrondin sanga gar umrlar sur uzra sur,***
***Bir nafas yetgan malol-u motamig'a arzimas.***

Inson yuragi va tafakkuri ortiqcha sevinchni ham, g'amni ham ko'tara olmaydi. Haddan ziyod sevinchdan hovliqib, atrofidagilarni ham taniyolmay qoladi yoki ozgina g'amdan mutlaqo

tushkinlikka tushib egilib qoladi. Shoir sevinchli kunlar abadiy uning o'rnini qayg'uli onlar egallashi mumkinligini an-baytga kuchliroq faryod bilan bayon qiladi, ya'ni o'limni eslatadi:

***Lalidin gar jon topub quchsang muroding shohidin,***
***Naz vaqti paykaring pech-u xamig'a arzimas.***

Zero inson har qanday chog'da ham o'limning haqligini yodda tutmoq darkor. Baytning mazmunidan, yor vasliga vosil sarmast qalb baxtiyor damlarda har narsani unutadi, ammo ajal vaqti yetganda, vujudini o'lim tahlikasi bosganda, tanasi o'lim bilan olishayotgan damdagi azobdan titraydi o'sha qalb. Demak, shoir xulosa qiladiki, visol murodiga yetmoqlik jon berish azoblari oldida hech gapmas, arzimas hoi. Ko'rinadiki, g'azalning barcha baytlari bir-biri bilan bog'liq, bir-birini to'ldiradi, mazmuniiii chuqurlashtiradi, dalillaydi. Tubandagi baytda ham yetakchi mavzu yangicha qirralarda ochilgan:

***Madhinga ochsa ulus gar xush iborat birla til,***
***Bir qabih alfoz ila qilg'on zamig'a arzimas,***

Ya'ni til shunday narsaki, u insonni bir lahzada ko'kka chiqarsa, bir lahzada yerga kirgizdirib yuboradi. Shuning uchun o'sha bir lahzalik madh va maqtovdan esankiramaslik darkorki, bu madhlar bir og'iz achchiq so'zga yoki qalbni og'rituvchi qa'pol muomalaga arzimaydi, chunki bu birgina badso'z sizning qalbingizni sindiradi. Navbatdagi bayt lirik qahramonning o'z-o'ziga va o'zgalarga taskin-o'g'it aralash murojaati, xitobi tarzida bitilgan. Uning iqroricha: bu dunyoning boru yo'g'iga sabr qilish, borlikda kekkayib, yo'qlikda egilib qolmaslik, ko'pida ham, ozida ham o'zini teng tutish iozim. Zero, borlikdagi baxt kamlikdagi g'amga arzimaydi:

Teng tut amvoli jahon beshu kaminikim, oning Inbisoti beshi anduhi kamig'a arzimas. Shoir g'azalni naqadar zukko mushohada bilan boshlagan bo'lsa, shunchalik teran hayotiy o'g'it bilan yakunlaydi: Istabon aysh, Ogahiy, g'am boshinga kelturmakim, Dahr bazm-u ayshi anduhi g'amiga arzimas. Shoir insonga doim raxna solib kelgan nafs balosidan ogoh etadi, nafsni deb, o'tkinchi aysh-ishratni deb o'z boshiga ortiqcha g'am-tashvish orttirmaslikni maslahat beradi. Zotan, har qanday "bazm-u aysh" "anduhi g'amga arzimaydi deya xulosalaydi. Bu nazmiy falsafa va xulosa hali hanuz o'zining hayotiy qudratini saqlab kelmoqda. U Ogahiy zamondoshlari uchun qanchalik qadrli bo'lsa, bugungi kun va kelajak uchun ham undan-da ko'proq saboq bo'lgulik ahamiyatga ega.

Har davr va zamon uchun mashhur va manzur bo'lgan bu g'azal aruzning ramali musammani mahzuf vaznida (foilotun-foilotun-foilotun-foilun) bitilgan. Ogahiyning adabiy merosi xalqimiz ardog'idagi umrboqiy, mo'tabar ma'naviy xazina. Olimlarimiz e'tirof etganlaridek, Ogahiy ijtimoiy hayotning ilg'or shaxsi sifatida ham, adabiy jarayonning yuksak iste'dodi sifatida ham qadr-qimmati zamon o'tgan sari ortib bormoqda. Uning pandnoma, oshiqona, rindona g'azallari, muazzam tarjimalari-yu nodir tarix kitoblari bugungi istiqlol kunlarimizda, milliy ma'naviyatimiz, milliy ongimiz qaytadan shakllanayotgan bir davr da dasturil amal bo'lib xizmat qilishi tabiiy. Bu ulkan ma'naviy boylik har birimizning siyratimizga singmog'i, qalblarimizga jo bo'lmog'i lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S.Matjon, Sh.Sariyev. O‘zbek adabiyoti. T., 2007
2. B.Qosimov, N.Jumaxo‘ja. O‘zbek adabiyoti. 10-sinf uchun darslik.T., 2001
3. B.Jalilov va bosh. O‘zbek adabiyoti. T., 2006.
4. B.To‘xliyev. Adabiyot . T., 2005.

5 YANVAR / 2022 YIL / 14 – SON

# KO'MAKCHI FE'LLI SO'Z QO'SHILMASI VA QO'SHMA FE'LLARNI AJRATISHNING OSON YO'LLARI

**Ashurova Shaxnoza Nasriddinovna**
*Qashqadaryo viloyati, Muborak tumani 1-o'rta umumta'lim maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

**Kirish.** Muhtaram Birinchi Prezidenti Islom Abdug_aniyevich Karimov o_zining ―Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch‖ asarida ta'lim – tarbiya haqida quyidagi fikrlarni bildirgan. ―Ma'naviyatni shakllantirishga bevosita ta'sir qiladigan yana bir muhim hayotiy omil – bu ta'lim – tarbiya tizimi bilan chambarchas bog_liqdir. Ma'lumki, ota – bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo_lmish ilm – u ma'rifat, ta'lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan‖.

Albatta, ta'lim – tarbiya – ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, ya'ni xalq ma'naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir. Binobarin, ta'lim – tarbiya tizimini va shu asosda ongni o_zgartirmasdan turib, ma'naviyatni rivojlantirib bo_lmaydi. Shu bois bu sohada yuzaki, rasmiy yondashuvlarga, puxta o_ylanmagan ishlarga mutloqo yo_l qo_yib bo_lmaydi. Maktab ta'lim – tarbiya masalasi davlat va jamiyat nazoratida o_lishi asosiy qonunimizda belgilab qo_yilgan. Shu bilan birga, bu keng jamoatchilik, butun xalqimizning ishtiroki va qo_llab – quvvatlashishini talab qiladigan umummilliy masaladir.

Muxtasar qilib aytganda, oxirgi yillarda ta'lim tarbiya sohasida amalga oshirgan, ko_lami va mohiyatiga ko_ra ulkan ishlarimiz, biz ko_zlagan ezgu niyatlarimizga erishish hech kimdan kam bo_lmaydigan hayot barpo etish, yoshlarimiz, butun xalqimizning ma'naviy yuksalishi yo_lida mustahkam zamin yaratdi, desak hech qanday xato bo_lmaydi. Barchamizga ayonki, inson qalbiga yo_l avvalo ta'lim – tarbiyadan boshlanadi. Shuning uchun qachonki bu haqda gap ketsa, ajdodlarimiz qoldirgan bebaho merosni eslash bilan birga, ota – onalarimiz qatori biz uchun eng yaqin bo_lgan yana bir buyuk zot – o_qituvchi va murabbiylarning olijonob mehnatini hurmat bilan tilga olamiz. Biz yurtimizda yangi avlod, yangi tafakkur sohiblarini tarbiyalashdek ma'suliyatli vazifani ado etishda birinchi galda na shu mashaqqatli kasb egalariga suyanamiz, ertaga o_rnimizga keladigan yoshlarning ma'naviy dunyosini shakllantirishda ularning xizmati naqadar beqiyos ekanini o_zimizga yaxshi tasavvur qilamiz. Xalqimiz, unib – o_sib kelayotgan farzandlarimizning ong – u shuurida tarixiy adolatga ishonch va insoniylik faziliyatlarini qaror toptirish, ularning ma'naviy olamini kengaytirishda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega ekani bilan ayniqsa e'tiborlidir.

Fe'l ustida ishlashda izchillik, bo_limlar orasidagi bog_lanish, dastur materialining hajmi, uni har bir sinfda o_rganish usullariva vositalari shu so_z turkumini o_rganish vazifasi, uning lingvistik xususiyatlari va kichik yoshdagi o_quvchilarning bilish imkoniyatlariga qarab belgilanadi. O'quvchilarda ko'pinchs ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi va qo'shma fe'llarni ajratishda bir qancha muammolar kelib chiqishi mumkin. Buni bartaraf etish uchun, avvalo, qo'shma fe'l va ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasining farqini o'quvchiga yaxshi anglatish lozim.

Yasashga asos qismga yasovchi vosita sifatida *aylamoq, qilmoq, etmoq, olmoq, bermoq* singari so'zlar qo'shilib yangi fe'l yasalishi ham mumkin. Masalan, javob berdi, olib keldi, bayon qildi, kasal bo 'ldi va hokazo.

Bunday yo'l bilan, odatda, qo'shma fe'llar hosil bo'ladi.

Qo'shma fe'llar tarkibiga ko'ra ikki turli bo'ladi: a) ot+fe'l tuzilishidagi qo'shma fe'llar. Masalan, *tasdiq qildi, vayron bo'ldi* kabi; b) fe'l+ fe'l tuzilishdagi qo'shma fe'llar. Masalan, *borib keldi, kirib chiqdi, olib keldi* kabi.

Fe'ldan boshqa so'zlarga *qilmoq, aylamoq, etmoq, bo'lmoq* fe'llarining qo'shilishidan hosil bo'lgan qo'shma fe'llar ot+fe'l tuzilishidagi qo'shma fe'llarni hosil qiladi. Masalan, *bayon qilmoq (etmoq, aytmoq), turmush qilmoq, o'sal bo'lmoq, o'sal qilmoq, bayram qilmoq (etmoq), yangi bo'lmoq, shunday bo'ldi, taraq etdi* kabi.

**Ikki fe'lning o'zaro birikishidan hosil bo'lgan fe'llar fe'l+fe'l tuzilishidagi qo'shma fe'llar sanaladi.** Bunday qo'shma fe'llarning birinchi qismi fe'lning *-b (-ib),* ba'zan *-a* ravishdosh shaklida bo'ladi. Shaxs-son, zamon, bo'lishli-bo'lishsizlik singari qo'shimchalar qo'shma fe'lning ikkinchi qismiga qo'shiladi. Masalan, *sotib olmoq, olib keldi (ola keldi).*

Ot+fe'l tuzilishidagi qo'shma fe'llarda ikkinchi qismni tashkil etgan *ayla* uslubiy xoslangan bo'lib, faqat badiiy uslub doirasida qo'llaniladi. *Qilmoq, etmoq, bo'lmoq* fe'llari esa uslubiy betaraf so'zlardir. Masalan, *javob qildi, javob berdi, javob etdi, javob ayladi* kabi qo'shma fe'llar o'zaro sinonimik munosabatda bo'lib, ular uslubiy jihatdangina farqlanadi. *Javob ayladi* badiiy uslubga xos, qolganlari uslubiy betaraf so'zlar sanaladi.

*Ishlab chiqdi, ishlab bo'ldi, ishlay boshlad'i, ishlab yuribdi, ishlab qo'ydi, ishlab yubordi, ishlab yozdi, ishlab turibdi, ishlab ko'rdi* singari so'zlarga e'tibor bersangiz, ularning hammasi bir umumiy ma'noni — «ishlamoq» ma'nosini ifodalaydi. Bu ma'no, asosan, ravishdosh shaklidagi birinchi qismdan anglashiladi. Ikkinchi qism esa birinchi qismdan anglashilgan leksik ma'noga turli qo'shimcha ma'nolarni (harakatning boshlanishi, davomiyligi, tugallanishi, oson bajarilganligi, tez bajarilganligi, harakatni bajarishga uringanligi kabi) ma'nolarni yuklaydi.

Bunday so'zlar ham tuzilishiga ko'ra, fe'l+fe'l tarzida bo'ladi. Birinchi fe'l so'zning asosiy leksik ma'nosini ifodalaydi. Shuning uchun u yetakchi fe'l sanaladi. Ikkinchi qismi esa birinchi qismga (yetakchi fe'lga) qo'shilib, unga turli xil qo'shimcha ma'nolarni yuklaydi, lekin yetakchi fe'lning leksik ma'nosini o'zgartirib yubormaydi.

Undan yangi fe'l hosil bo'lmaydi. Shuning uchun bunday fe'llarga ko'makchi fe'llar deyiladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, faqat ko'makchi fe'l vazifasini bajaruvchi alohida fe'llar mavjud emas. Bir qator mustaqil fe'llar yetakchi fe'l qo shilganda ko'makchi fe'l vazifasida keladi.

Ularga quyidagilar kiradi*: boshla, yot, tur, bor, o'tir bo'l, bitir, bit, ol, ber, qol, qo'y, chiq, bor, kel, ket, yubor, tashla, sol, tush, yot, qara, boq* va boshqalar.

Yuqoridagi fe'llar faqat yetakchi fe'lga qo'shilgandagina ko'makchi fe'l vazifasida keladi. Yetakchi fe'l esa ravishdoshning -(i)b va -a, -y shakllarida bo'ladi.

Masalan,




Keyingi so'zlar ko'makchi fe'llar bo'lib, ular ravisbdosh shaklidagi yetakchi felga qo'shilib, turli xil qo'shimcha ma'nolarni anglatmoqda.

Fe`l turkumi yuzasidan ham qiziqarli o`yin – topshiriqlar uyushtirish mumkin.

Chunonchi ―**Yo`qolganni top**‖ o`yini.

Bunda shaxs yoki ma`lum bir hayvonning ish-harakatini ifodalovchi so`zlarni topib qo`yish, muayyan so`roqqa javob bo`ladigan so`zlar uyasini tuzish kabilar. Masalan, bir qatordagi o`quvchilar ―Qo`y nima qiladi?‖, ―It nima qiladi?‖ kabi savollarni bersa, ikkinchi qatordagi o`quvchilar nomlari aytilgan hayvonlarning ish-harakatini bajarishini sanaydilar.

I - qator: It nima qiladi?

II – qator: It huradi, qo`riqlaydi, uxlaydi, sakraydi, o`ynaydi, tishlaydi, chopadi, yuguradi, talashadi.

II – qator: Qo`y nima qiladi?

I – qtor: Qo`y ma`raydi, o`tlaydi, kovush qaytaradi, yuradi, yuguradi, boqiladi, yotadi, sakraydi, qo`zilaydi, jun beradi, sut beradi, semiradi, so`yiladi.

O`quvchilar nutqini badiiy bo`yoqdor fe`llar bilan boyitishda ―**Ma`nosini kim chaqdi?**‖ o`yinini qo`llasa bo`ladi. Musobaqalashayotgan birinchi qatordagi o`quvchilar frazeologik birikmalar bilan almashtirish mumkin bo`lgan fe`llarni aytadi, ikkinchi qatordagi o`quvchilar esa shu fe`lni frazeologik birikma bilan almashtirishlari kerak.Masalan,

| I qator | II qator |
| --- | --- |
| Gapirmadi ─ | og`ziga talqon soldi |
| Quvondi ─ | do`ppisini osmonga otdi |
| G`azablandi ─ | tepa sochi tikka bo`ldi. |
| O`ldi ─ | joni uzildi, qazo qildi. |
| Tushundi ─ | mag`zini chaqdi. |
| Charchadi ─ | tinkasi quridi. |
| Uxlamadi ─ | mijja qoqmadi. |
| Qo`rqdi ─ | yuragi dov bermadi. |
| Ajablandi ─ | yoqasini ushladi. |
| Aralashdi ─ | bosh qo`shdi. |
| Ochqoldi ─ | qorni piyozning po`stiday bo`ldi. |
| Uylandi ─ | boshi ikkita bo`ldi. |
| O`ldirdi ─ | boshini yedi. |
| Yutqazdi ─ | boy berdi. |
| Kutilmaganda ─ | tomdan tarasha tushganday. |
| Uxladi ─ | ko`zi ketdi, ko`zi ilindi. |

Maqtanadi — aravani quruq olib qochadi. Achchiqlandi — fig`oni falakka o'tariladi.

Esankiramoq — hushini yo`qotmoq.

Uyalmasdan — qaysi yuz bilan. Hurmatlashdi — o`tqazgani joy topolmadi.

Xuddi shu o`yinning boshqa turi har bir frazeologik birikmani ma`nodoshi bilan almashtirish talab qilinadi.

| I qator | | II qator. |
|---|---|---|
| Do`ppisini osmonga otdi | – | boshi osmonga yetdi. |
| Og`ziga talqon soldi | – | –lom-mim‖ demadi. |
| Joni uzuldi | – | olamdan o`tdi. |
| Yoqasini ushladi | – | hayratda qoldi. |
| Yuragi shuv etib ketdi | – | yuragi orqasiga tortib ketdi. |
| Mijja qoqmadi | – | ko`z yummadi. |
| Yuragini hovuchlab | – | jonini hovuchlab. |
| Qo`ldan bermoq | – | boy bermoq. |
| Yuzaga chiqmoq | – | ro`yobga chiqmoq. |
| Esi og`di | – | aqldan ozdi. |
| Shamolga uchmoq | – | zoye ketmoq. |
| Shovqin solmoq | – | boshiga ko`tarmoq. |
| Ta`bi xira bo`ldi | – | ta`bi tirriq bo`ldi. |
| Og`zi bormadi | – | tili bormadi. |
| Oila qurmoq | – | bir yostiqqa bosh qo`ymoq. |

Yoki qo`shma fe`llar yuzasidan ham shunday o`yin o`tkazish mumkin. Bunda ham birinchi guruh biror qo`shma fe`l aytsa, ikkinchi guruh shu fe`lning ma`nodoshi(sinonimi)ni topadi. Masalan:

| I qator | II qator |
|---|---|
| Imzo chekmoq | qo`l qo`ymoq |
| Shod bo`lmoq | xursand bo`lmoq |
| Taslim bo`lmoq | qo`l ko`tarmoq |
| Odam qilmoq | voyaga yetkazmoq |
| Sotib olmoq | xarid qilmoq |
| Tasdiq qildi | tasdiq bo`ldi |
| Bayon qildi | hikoya qildi |
| Kasal bo`ldi | tobi qochdi |
| Yugurib bormoq | chopib bormoq |
| Bayon qilmoq | izhor qilmoq |

| | |
|---|---|
| Taklif qilmoq | iltimos qilmoq |
| Amal qilmoq | rioya qilmoq |
| Baxsh etmoq | ato qilmoq |
| Tamom qilmoq | ado qilmoq |
| Jur`at etmoq | jasorat qilmoq kabi. |

Bunday o`yin-topshiriqlar boshqa bo`limlarda (morfologiya, sintaksis) ham davom ettiriladi.

**Xulosa**

Yuqorida ta`kidlanganidek, ona tili ta`limining bosh maqsadi o`quvchilarni ijodiylikka, mustaqil fikrlashga, ijodiy faoliyat mahsulidan o`z vaqtida o`rinli foydalanishga o`rgatishdan iborat bo`lar ekan, o`quvchilar o`z fikrlarini isbot- dalillar bilan asoslay olishlari kerak bo`ladi. Buning uchun asosiy e`tiborni o`quvchilarda nutqiy ko`nikmalarni shakllantirishga qaratilmog`i zarur. Demak, har qaday sharoit(holat)da ham o`quvchilar mustaqil fikrlab gapirishlari zarur. Bunday faoliyatning ko`rinishlari juda ko`p. Shulardan biri o`quvchilarga muammoli savollar bilan murojaat qilishdir. Bunda o`quvchiga tayyor ma`lumotlarga asoslangan savollar emas, fikrlashga undaydigan, chuqur mulohaza qiladigan, mulohaza natijasini mustaqil ravishda javob beradigan savollar berish maqsadga muvofiq sanaladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sh.Mirziyoyevning 2019-yil 15-iyunda Toshkentda bo_lib o_tgan ―Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi‖ mavzudagi anjumandagi nutqidan.

2.I.A.karimov ―Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch‖ ―Ma'naviyat‖ Toshkent.2008-yil.35-bet.

3. O_zbekiston Respublikasining ―Ta'lim to_g_risidagi qonun‖ // Barkamol avlod - O_zbekiston taraqqiyotining poydevori.- Toshkent.: Sharq, 1997, 20-29 bet.

4. O_zbekiston Respublikasining ―Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to_g_risida‖ gi qonun // Barkamol avlod- O_zbekiston taraqqiyotining poydevori.- Toshkent.: Sharq, 1997, 31-61 bet.

5. Barkamol avlod orzusi- Toshkent.: 1999, 205- b. 10. Azizxodjayeva N.H ―Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat‖- Toshkent.: TDPU, 2017, 174 bet.

6. Boshlang_ich ta'lim Konsepsiyasi, Boshlang_ich ta'lim jurnali. Toshkent, 2013.

7. Fuzailov S., Xudoyberganova M. Ona tili (3- sinf uchun darslik). Toshkent.: O_qituvchi, 2017

8. Xudoyberganova M., Muxtorova M., 3-sinfda ona tili darslari. Toshkent.: O_qituvchi, 2015.

9.G_ulomova X. So_z turkumi gapni o_rganish. Boshlang_ich ta'lim jurnali. Toshkent, 2017.

# MAKTAB DARSLIKLARIDA FE'L MAVZUSINING O'RGANILISHI VA O'RGATILISHI

**Hamroyeva Gulshan Ilhomovna**
*Qashqadaryo viloyati, Muborak tumani 1-o'rta umumta'lim maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

**Kirish.** O_zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-iyun kuni Toshkentda bo_lib o_tgan ―Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash davr-talabi‖ mavzuidagi anjumanda so_zlagan nutqida yosh avlod tarbiyasi haqida alohida to_xtalib o_tdi.

―Bizni hamisha o_ylantirib keladigan yana bir muhim masala - bu yoshlarimizning odob-axloqi,yurish-turishi, bir so_z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog_liq. Bugun zamon shiddat bilan o_zgaryapti. Bu o_zgarishlarni hammadan ham ko_proq his etadigan kim-yoshlar. Mayli, yoshlar o_z davrining talablari bilan uyg_un bo_lsin. Lekin ayni paytda o_zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug_ zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o_zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan‖, deya ta'kidladi Prezidentimiz. Haqiqatdan ham ta'lim-tarbiyasiz yuksak natijalarga erishib bo_lmaydi.

O_zbekistan Respublikasining iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy sohalarda rivojlanishi ko_p jihatdan uzliksiz ta'lim –tarbiya tizimini yangilash va Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ro_yobga chiqarishning yuqori sifat ko_rsatkichini ta'minlash hamda ta'lim mazmunini Davlat ta'lim standartlari asosida takomillashtirish bilan uzviy bog_liqdir.

Fe'l ustida ishlashda izchillik, bo_limlar orasidagi bog_lanish, dastur materialining hajmi, uni har bir sinfda o_rganish usullariva vositalari shu so_z turkumini o_rganish vazifasi, uning lingvistik xususiyatlari va kichik yoshdagi o_quvchilarning bilish imkoniyatlariga qarab belgilanadi.

**Fe'l mavzusini o_rganishda asosiy vazifalar:** so_z turkumi sifatida fe'l so_z turkumini o_rganish, o_quvchilar nutqini fe'llar orqali boyitish, og_zaki va yozma nutqda fe'llardan to_g_ri foydalanish ko_nikmasini shakllantirish, o_quvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantirish, Grammatik mavzu bilan bog_liq holda ayrim imloviy qoidalarni o_zlashtirish hisoblanadi. Bu vazifalar bir-biri bilan bog_liq holda amalga oshiriladi.

**Fe'lni o_rgatishda asosiy vazifa:** ―Fe'l so_z turkumi‖ degan tushunchani shakllantirish, bo_lishli va bo_lishsiz fe'llarning ma'nosini, shakliga qarab farqlash ko_nikmasini hosil qilish, bo_lishsizlik qo_shimchasi –ma ning taalaffuzi va imlosini o_rgatish hisoblanadi.

Fe'lning harakat bildirishi yuzasidan o_quvchilarda aniq tasavvur hosil qilish uchun o_qituvchi ularga shu darsdagi mehnat jarayonini tasvirlashni, ya'ni o_quvchilarning o_zlari bajarayotgan ish-harakatni aytishni so_raydi, suhbat o_tkazadi. Suhbatda ―O_qituvchi nima qildi? O_quvchilar nima qildilar? Hozir o_qituvchi nima qilyapti?O_quvchilar nima qilyaptilar? Endi o_quvchilar nima qiladilar? O_qituvchi nima qiladi?‖ kabi savollardan ham foydalanadi.suhbat jarayonida o_quvchilar o_qituvchi rahbarligida fe'llarni so_rog_I bilan yozib boradilar. Masalan, nima qildi?-so_zladi,tushuntirdi. Nima qildilar?- yozdilar, tingladilar. Nima qilyapti? – tushuntiryapti, so_rayapti. Nima qilyaptilar?- javob beryaptilar, yozyaptilar,

tinglayaptilar.nima qiladi?- tekshiradi, ko_radi. Nima qiladilar?- ishlaydilar, yozadilar, bajaradilar.

Suhbatdagi yoki o_quvchilar aytgan gaplardan birini gap bo_lagi jihatidan tahlil qilish asosida xulosa chiqaradilar: nima qilyapti? nima qiladi? nima qildi? kabi so_roqlarga javob bo_lib, predmet harakatini bildirgan so_zlar fe‘l deyiladi. Fe‘l gapda kesim vazifasini bajaradi.

Mavzu yuzasidan o_quvchilarda ko_nikma hosil qilish uchun so_roq berib fe‘lni aniqlash, gap mazmuniga mos fe‘lni tanlab qo_yish, aralash berilgan so_zlardan, shuningdek, rasmga qarab gap tuzish kabi mashqlardan foydalaniladi. O_quvchilarda so_z turkumlarini bilish ko_nikmasi ularning belgilari yig_indisini egallashlari asosida shakllantiriladi. Masalan, *gul, guldor, gulladi* so_zlarining qaysi so_z turkumiga kirishini bilish uchun II sinf o_quvchisi quyidagicha fikr yuritadi: ***nima?*** – *gul,* bu so_z narsani bildiryapti, ko_plikda qo_llanadi – *gullar,* bu ot; *guldor* so_zi ***qanday?*** so_rog_iga javob bo_lyapti, narsaning belgisini bildiryapti, bu – sifat; *gulladi* so_zi ***nima qildi?*** so_rog_iga javob bo_lyapti, narsaning holatini bildiryapti, bo_lishsiz shaklda qo_llanadi – *gullamadi,* bu – fe‘l.

Boshlang_ich sinflar dasturi o_quvchilarni so_z turkumlari mustaqil va yordamchi so_z turkumlariga bo_linishi bilan maxsus tanishtirishni ko_zda tutmaydi, ammo o_qituvchi bolalarni so_z turkumlarining belgilari bilan amaliy tanishtiradi. Masalan, o_quvchilar mustaqil so_z turkumlari: ot, sifat, son, olmosh, fe‘lning gap bo_lagi vazifasida kelishini, bog_lovchi gap bo_lagi bo_lmasligini biladilar

**So_z turkumlarini o_rganishdagi asosiy vazifa:** o_quvchilarning og_zaki va yozma nutqini o_stirish, lug_atini yangi ot, sifat, son, fe‘llar bilan boyitish, o_quvchilar shu vaqtgacha foydalanib kelayotgan so_zlarning ma‘nosini aniq tushunishiga erishish, bog_lanishli nutqda u yoki bu so_zdan o_rinli foydalanish malakasini o_stirish hisoblanadi. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun so_z turkumlarini o_rganish jarayonida sinonim, antonimlar (terminlar berilmaydi) ustida muntazam ish olib boriladi, o_quvchilar ko_p ma‘noli so_zlar, ularning o_z va ko_chma ma‘noda ishlatilishi bilan tanishtiriladi. Bunda ta‘limni o_quvchilarnipg shaxsiy tajribalari, bevosita ko_rganlari, radiodan eshitganlari, kitobdan bilib olganlari bilan bog_lash muhim ahamiyatga ega.

O_quvchilarda kuzatish, muhim narsalarni sezish ko_nikmalarini shakllantirish, atrof-muhit haqidagi bilimlarini boyitish bilan bir vaqtda ularning nutqini o_stirish vazifasi ham amalga oshiriladi.

Fe‘l so‘z turkumini o‘qitishda quyidagi o‘yin texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshiradi.

**«Klaster» metodi**

**Klasterni tuzish qoidalari**:

- Topshiriqni diqqat bilan o_qib chiqing.
- Fikrlarni tarmoqlantirish jarayonida paydo bo_lgan har bir fikrni yozing.
- Imlo xatolar va boshqa jihatlarga e‘tibor bermang.
- Belgilangan vaq tugamaguncha yozishni to_xtamang, fikringizni jamlashga harakat qiling.
- Fikrlarni chegaralamang, ular o_rtasida o_zaro aloqadorlikka e‘tibor qarating




---

- Imlo xatolar va boshqa jihatlarga e'tibor bermang.
- Belgilangan vaq tugamaguncha yozishni to_xtamang, fikringizni jamlashga harakat qiling.
- Fikrlarni chegaralamang, ular o_rtasida o_zaro aloqadorlikka e'tibor qarating



**«Aqliy hujum» metodi**

Ushbu metod turli tarzda qo_llanilishi mumkin. Masalan, qandaydir mavzuni muhokama qilish uchun yangi savol tashlash orqali istalgan qandaydir muammoni hal etish mumkin. Asosiy qoidalari quyidagilar:

1- Aytilayotgan barcha g_oyalar bir biriga nisbatan muhimlikda tengdir.
2- Kiritilayotgan g_oyalarga nisbatan tanqid mavjud emas.
3- G_oyani taqdim etayotgan paytda so_zlovchining gapini bo_lmaslik.
4- So_zlovchiga nisbatan baholovchi komponent mavjud emas.

1-topshiriq. O`qituvchi ўquv jarayonida tashabbusni o`z qo`liga shunday oladi: u auditoriyadagi barcha talabalarga savol beradi va qandaydir maxsus mavzuga dahldor barcha mumkin bo`lgan fikrlarni aytishni so`raydi.

2-topshiriq. Barcha xato g`oyalarni ham aytishga ruxsat beradi, aytilayotgan fikrlar ichida birgina asosiy mavzu saqlanib qolishi shart. Fikr sharhlanmaydi, tanqid qilinmaydi, baholanmaydi.

**1-topshiriq**

(F) – Fikringizni bayon eting

(S) – Fikringizni bayoniga biron sabab ko’rsating.

(M) – Korsatilgan sababni tushuntiruvchi misol keltiring.

(U) – Fikringizni umumlashtiring.

**«FSMU» metodi**

**Metodning maqsadi**: Mazkur metod o_quvchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o_zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko_nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

**Metodni amalga oshirish tartibi:**

4. Talabalarga mavzuga oid bo_lgan yakuniy xulosa yoki g_oya taklif etiladi.
5. Har bir talabaga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog_ozlarni tarqatiladi.

**Xulosa**

Men bu mavzuni yoritish orqali yetarli bilim, ko_nikma va malakalarga ega bo_ldim. 3-sinflarda fe‘l so_z turkumini o_rganishning metodik tamoni bilan ham tanishib chiqdim. Mavzuni to_liq yoritish uchun uning asosini- kirish, asosiy qism, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlardan tashkil etgan. Fe‘l so_z turkumi haqida umumiy ma‘lumotlar keltirib o_tdim. Masalan: fe‘l haqida tushuncha, fe‘lning shaxs – sonda qo_lanilishi, fe‘l zamonlari, fe‘l nisbatlari, fe‘l mayllari, fe‘lning vazifadosh shakllari to_g_risida qisqacha ma‘lumotlar keltirib o_tdim. Fe‘l so_z turkumini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o_tish uchun ham bir qancha metodlar keltirib o_tdim. «Venn diagrammasi», «FSMU» metodi, ―BBB‖ (bilaman, bilishni xohlayman, bilib oldim), «Insert» metodi, «Aqliy hujum» metodi va boshqalar. .Bundan tashqari 3- sinflarda fe‘l so_z turkumni o_rgatish bo_yicha dars ishlanma ham o_z aksini topgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

I Sh.Mirziyoyevning 2019-yil 15-iyunda Toshkentda bo_lib o_tgan ―Ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi‖ mavzudagi anjumandagi nutqidan.

2.I.A.karimov ―Yuksak ma‘naviyat yengilmas kuch‖ ―Ma‘naviyat‖ Toshkent.2008-yil.35-bet.

3. O_zbekiston Respublikasining ―Ta‘lim to_g_risidagi qonun‖ // Barkamol avlod - O_zbekiston taraqqiyotining poydevori.- Toshkent.: Sharq, 1997, 20-29 bet.

4. O_zbekiston Respublikasining ―Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to_g_risida‖ gi qonun // Barkamol avlod- O_zbekiston taraqqiyotining poydevori.- Toshkent.: Sharq, 1997, 31-61 bet.

5. Barkamol avlod orzusi- Toshkent.: 1999, 205- b. 10. Azizxodjayeva N.H ―Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat‖- Toshkent.: TDPU, 2017, 174 bet.

6. Boshlang_ich ta‘lim Konsepsiyasi, Boshlang_ich ta‘lim jurnali. Toshkent, 2013.

7. Fuzailov S., Xudoyberganova M. Ona tili (3- sinf uchun darslik). Toshkent.: O_qituvchi, 2017

8. Xudoyberganova M., Muxtorova M., 3-sinfda ona tili darslari. Toshkent.: O_qituvchi, 2015.

9.G_ulomova X. So_z turkumi gapni o_rganish. Boshlang_ich ta‘lim jurnali. Toshkent, 2017.

# SAID AHMAD HIKOYALARINI O‘RGANISHDA INTERAKTIV METODLAR

**Babaxadjayeva Ra'no Xaydarovna**
*Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumani 11-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi ona tili va adabiyot fani o‘qtuvchisi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada o‘zbek yozuvchisi Said Ahmadning ―Sobiq‖ va ―Qoplon‖ hikoyalarini yosh avlodga o‘rgatishda qo‘llaniluvchi innovatsion metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan. Asosan quyidagi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanilgan: ―Muammoli vaziyat‖, ―5 savolga 5 javob―, Besh bo‘lakli matn‖, ―KZIX‖*

**Kalit so‘zlar:** *yozuvchi, interaktiv usul, metod, adabiy ta‘lim, yangicha yondashuv.*

Bugungi kunda yosh avlodni tarbiyalashda, ularga bilim berishda dunyo tan olgan ilmiy-innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish davr talabi. Pedagogik texnologiyalarning bugungi kunda eng ommaviylashgan turlaridan biri-bu interaktiv metodlardir. Interaktiv metodlar o‘quvchi va o‘qituvchining birgalikdagi faoliyati bo‘lib, asosan o‘quvchilarni fikrlashga undaydi. Kerakli xulosalarga kelishni, ular o‘zini tahlil qilishni va amaliyotda qo‘llashni o‘rgatadi. O‘qituvchining asosiy vazifasi bu yerda o‘quvchilarga yo‘l ko‘rsatish, yo‘nalish berish, eng to‘g‘ri xulosani aytishdan iborat.

Ma‘lumki, 6-sinf adabiyot darsligida Abdulla Said Ahmadning ―Qoplon‖ va ―Sobiq‖ hikoyalari berilgan. Adabiy ta‘limda yosh psixologiyasiga ko‘ra 6-sinflarga dars o‘tish jarayonida o‘qituvchilarga ko‘proq o‘yin metodlardan foydalanish tavsiya etiladi. Bu usul o‘quvchilar e‘tiborini darsga jalb qilishda yordam beradi, albatta. Said Ahmad hikoyalarini o‘rgatishda o‘ylantiradigan, muammoli vaziyat hosil qiluvchi va shu bilan birga o‘quvchini darsga qiziqtiradigan metodlardan foydalanish samaralidir.

Said Ahmad hikoyalari o‘ziga xos mazmun va xarakterga ega bo‘lib, jamiyat rivojiga xalaqit berayotgan mayda nuqson, kamchiliklarga e‘tibor qaratilgan. Yozuvchi hikoylarida ko‘tarilgan ijtimoiy muommolar mubolg‘a usuli asosida tasvirlangan. Ularni sodda tilda, yangicha yondashuv va usullar asosida o‘quvchilarga yetkazib berish zamonaviy o‘qituvchilarning asosiy talabidir.

Adabiy ta‘limda ―Qoplon‖ hikoyasini o‘quvchilarga o‘rgatishda ―Muammoli vaziyat‖, ―5 savolga 5 javob‖ usullaridan foydalanish yaxshi natija beradi.

*―Muammoli vaziyat‖ metodi.* Ushbu metod o‘quvchilarni teran fikr yuritishga va muammolarni hal qilishga o‘rgatadi.

O‘quvchilar topshiriqni quyidagicha bajaradi:

II Hikoya satirik asarning yaxshi namunasi bo‘lib, kishilardagi xushomadgo‘ylik, laganbardorlik, o‘z manfaati yo‘lida andisha va mulohazaga bormay surbetlarcha ish tutishi, odamlarning amal kursisiga qarab munosabat ko‘rsatishi kabi yaramas illatlar tasvirlangan.

III Qurbonboy obrazi orqali oriyatsiz, o‘z maqsadi yo‘lida hech qanday ishdan tap tortmaydigan, insofsiz, vijdonsiz, ablah bir shaxs qiyofasi ko‘rsatib berilgan.

IV Hikoya oxirida shuni anglash mumkinki, sobiq direktor Tillayev bu ―it‖ ni taniyman deb, insofsiz va laganbardor Qurbonboyni nazarda tutgan.

―*5 savolga 5 javob*‖ *usuli.* Bunda tarqatma material yoki ekranda o‘quvchilar e‘tiboriga test javoblari shaklidagi ma‘lumotlar havola etiladi:

A ― Bola-chaqali, kamxarj odam. Imoratini yetti yildan beri bitkazaolmasmish‖ B ‒Odamning yaxshisini darrov taniydi‖

C ―- Bizning it qalay?‖

D ‒Qoplonga ancha o‘rganib qolgan ekan, to yarim kechgacha ikki ko‘zi to‘rt bo‘lib itni poyladi‖

E ‒It uyning savlati bo‘ladi ―

| /R | Savollar | Javob | Ball |
|---|---|---|---|
| 1 | Qurbonboy nutqiga tegishli qatorni toping? | E | |
| 2 | Qurbonboy obraziga mos qatorni toping? | A | 1 |
| 3 | Qoplon ta‘riflangan qatorni toping? | B | |
| 4 | Yangi direktorning nutqini toping? | C | 1 |
| 5 | Tillayev obraziga mos qatorni toping? | D | |
| | Jami: | | 5 |

O‘quvchilarning javoblari tekshiriladi va to‘plagan ballari umumlashtirilib, baholanadi.

‒*Sobiq*‖ *hikoyasini o‘rganishda* ‒Besh bo‘lakli matn‖, ‒KZIX‖ metodlaridan foydalanilsa yaxshi samaradorlikka erishish mumkin.

‒*Besh bo‘lakli matn*‖ usuliga tayangan holda guruhlarga ‒Sobiq‖ hikoyasi matni besh qismga ajratib beriladi. O‘quvchilar matn bilan tanishadilar va uning mazmunini bir-birlariga yetkazadilar. Bunday usul qisqa vaqt ichida hikoya matni bilan tanishish imkoniyatini beradi. O‘qituvchi hikoya matnini guruhlarga taqsimlaydi va har guruhdan matnni ifodali o‘qish, mazmunini so‘zlab berish, matndagi tarixiy va tushunilishi qiyin bo‘lgan so‘zlarning ma‘nosini izohlash kabi vazifalarni topshiradi.

‒*KZIX*‖ *(Kuchli jihatlar, zaif tomonlar, imkoniyatlar, xavf-xatar) metodi.* ‒Sobiq‖ hikoyasini o‘rganishda, asar qahramonlariga tavsif berishda ‒KZIX‖ metodidan foydalanilsa, yaxshi samara beradi. O‗quvchilar to‘rtta guruhga ajratiladi, har bir guruh tavsifga olinayotgan subyektning bir tomoni haqida ma‘lumot beradi (boshqa guruhlarga qo‘shimcha qilish imkonini berish mumkin). ‒Sobiq‖ hikoyasidagi bosh obraz (ismi keltirilmagan) tavsif berish uchun qo‘llangan ‒KZIX‖ metodi quyidagicha bajarilishi kutiladi:

K (kuchli jihatlari) - mexanizator judayam g‘ayratli va kuchli. U mehnatkashligi tufayli birinchi kuniyoq to‘qqiz tonna, ikkinchi kuni esa to‘qqiz yarim tonna paxta teradi.

Z (zaif tomonlari) - sodda, qaysar, xo‘jayinining gapini ikki qilolmaydigan, xo‘jayinining fe‘lidan qo‘rqadigan odam, hatto shu qo‘rqoqligi tufayli bir tadbirga borib to‘rt kun shomollab yotib qoladi.

I (imkoniyatlar) - katta maqsadlar yo‘lida intilayotgan yaxshi bir mehnatkash insonni asrab-avaylash, uning kuchidan oqilona foydalanish, har bir odam o‘z o‘rnida, o‘z vazifasini sidqidildan bajarishi mumkin edi

X (xavf-xatar) - mexanizator yuqori ko‘rsatgichda paxta tergani uchun juda tez dabdabozliklarga uchrashi, rais uni shu tadbirlarga juda ko‘p jalb qilishi, paxta terimi darrov tugab qolishi, traktorini chang bosib dalaning qoq markazida qolib ketishi

Yuqoridagi metodlar o‘qituvchilarga interaktiv dars o‘tish usuli sifatida tavsiya etiladi. Ulardan qay darajada foydalana olish esa har bir o‘qituvchining metodik mahoratiga bog‘liq.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Adabiyot . 6-sinf uchun darslik . / S. Ahmedov, R. Qo‘chqorov, Sh. Rizayev. Toshkent: ‖Ma‘naviyat‖, 2017;

2. Abdullayeva, O. O. (2021). ABAY IJODINI O'RGANISHDA SAVOL VA TOPSHIRIQLAR USTIDA ISHLASH. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, 2(3), 4-9.

3. Abdullayeva, O. O. (2021). IBROYIM YUSUPOV IJODI ASOSIDA O‘QUVCHILARNING VATANPARVARLIK TUYG‘ULARINI O‘STIRISH. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, 2(3), 176-180.

4. Botirboyev, F. P., Abdullayeva, O. O., & Shermatova, U. S. (2021). O'LJAS SULAYMONOV IJODINI O'RGANISHDA SAVOL VA TOPSHIRIQLAR USTIDA ISHLASH. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, 2(4), 2013-2018. https://doi.org/10.24411/2181- 1385-2021-00834;

# A.S.PUSHKIN LIRIKASINING ASOSIY MAVZULARI VA MOTIVLARI

**Sapayeva Gulbahor Sabirovna**
*Urganch tumani 44-son Umumiy o'rta ta'lim maktabi*
*―Rus tili‖ fani o̱qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada buyuk rus shoiri A.S.Pushkin ijodi lirikasining asosiy mavzulari va motivlari to'liq ochib berishga harakat qilingan. Shoir ijodining dunyo adabiyotida naqadar ahamiyatga ekanligi yoritib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *She'riyat, ijod, adabiyot, Ozodlik, Chadayevga, lirika.*

A.S.Pushkin ijodining ajralib turadigan xususiyatlaridan biri uning ijodiy iste'dodining g'ayrioddiy ko'p qirraliligi. Shoirning samimiy realistik lirikasi shoir ijodining nihoyatda muhim qismi bo'lib, u daho yengillik va teranlikka to'la. Lirik sovg'a shoirga o'z his -tuyg'ularini va kayfiyatlarini ifoda etish, ijtimoiy, siyosiy va adabiy hayotdagi o'zgarishlarga keskin va tezkor munosabat bildirish imkoniyatini beradi. Birinchidan, Pushkin o'zining asrlari davomida ilgari surilgan qarashlarning matbuot kotibi, siyosiy erkinlik qo'shiqchisi. Uning qarashlari 1817 yilda yozgan "Ozodlik" asarida eng aniq aks etgan. Asar muallifning turli his -tuyg'ularini aks ettiradi: ozodlikka bo'lgan ishtiyoq, zolimlarga qarshi g'azab. Ikkinchi misraning oxirgi satrlari o'quvchilar uchun inqilobiy tuyuldi:

***Dunyo zolimlari! titroq!***
***Va siz, diqqat bilan va diqqat bilan,***
***Turing, qulagan qullar!***

Xuddi shu mavzu, erkinlik va avtokratiyaga qarshi kurash mavzusi "Chadaevga" she'rida yangraydi. Pushkin vatanni "go'zal ruhiy impulslar" bag'ishlashga, uning ozodligi uchun kurashishga chaqiradi. U uchun o'z vataniga muhabbatni kurashdan ajratib bo'lmaydi va u avtokratiya qulashi muqarrarligiga va rus xalqining ozod bo'lishiga ishonadi: "U ko'tariladi, o'ziga tortadigan baxt yulduzi!"

Aleksandr Pushkin siyosiy lirikasining yorqin namunasi "Qishloq" she'ridir, unda muxolifat usuli tufayli krepostnoylikning adolatsizligi va shafqatsizligi aniq va keskin ta'kidlangan. O'zini "insoniyat do'sti" deb atagan Pushkin, "o'zlariga mehnat, mulk va dehqon vaqtini o'zlashtirgan" "yovvoyi zodagonlar" haqida gapiradi. Dehqonlarning shafqatsiz ekspluatatsiyasi va hukmron tabaqaning farovonligi shoirni qalbining tubiga qo'zg'atdi va undan achchiq so'zlar chiqib ketdi: "Qani, mening ovozim yurakni bezovta qilsa!" Uning qizg'in orzusi - "zulm qilinmagan xalq" ni va mamlakat bo'ylab ko'tarilgan "ma'rifiy ozodlikning go'zal tongini" ko'rish. Erkinlik, kurash, xalq baxti mavzusi shoirning barcha ijodidan o'tadi. Bu erda uning "Ertaklar", "Sibirga", "Arion" va boshqa she'rlari bor. Pushkin ko'plab ajoyib she'rlarni eng ajoyib tuyg'u - do'stlikka bag'ishlagan. Tabiatan, juda xushmuomala Pushkinning ko'plab do'stlari bor edi. Bu, birinchi navbatda, har yili she'rlarini bag'ishlagan litsey do'stlari. Do'stlik u uchun odamlarni hayot uchun kuchli ittifoqqa birlashtiruvchi, hayot kurashida kuch -quvvat bag'ishlaydigan kuch edi. U har doim ruhiy dunyoviy jamiyatdan ko'ra yaqin do'stlarini afzal ko'rgan:

***Va men tan olaman, men yuz baravar azizman***

***Yosh tırmıklar, baxtli oila,***

***Aql qayerda qaynaydi, qaerda men o'z fikrlarimda erkinman.***

Do'stlik madhiyasini uning "1827 yil 19 oktyabr" quvg'indagi litsey do'stlariga yo'llagan xabari deb atash mumkin. She'r katta va chinakam muloyimlik bilan, do'stlarga bo'lgan samimiy muhabbat tuyg'usi bilan isitiladi.

Pushkin she'rlari orasida shoir o'z tabiatining ajoyib she'riy kuchi va muhabbati bilan rasm chizganlari muhim o'rinni egallaydi. Ona tabiatga bo'lgan muhabbat she'rlar, she'rlar va "Evgeniy Onegin" romanida o'zining badiiy ifodasini topdi. Avvaliga uning she'rlari romantik xarakterga ega, masalan, "Dengizga" she'ri. Unda undovlar, manzillar, ritorik savollar, epitetlar va metaforalarga to'la nutq bor. Dengizning poetik qiyofasi she'rda shoirning o'z taqdiri, quvg'in taqdiri va xalqlar taqdiri haqidagi mulohazalari bilan birlashtirilgan. Dengiz unga isyonkor va erkin element, kuchli va mag'rur go'zallikning tirik timsoliga o'xshaydi. Haqiqiy peyzaj lirikasida Pushkin tashqi qiyofasi bilan kamtarin, ammo yuragi uchun aziz, tabiatning go'zalligini o'ziga tortadi. Uning Evgeniy Onegindagi kuz, qish suratlari, Baxchisaray favvorasidagi ajoyib Qrim tabiati tasvirlari naqadar ajoyib! Hamma uning "Qish oqshomi", "Qishki tong", "Bulut", "Yana tashrif buyurdim" va boshqa she'rlarini yaxshi biladi.

Pushkin shoirni hayotning har bir jozibali ovoziga javob beradigan aks -sadoga o'xshatdi. Shoir lirikasi bizni uning hayotning ma'nosi, insonning baxti haqidagi fikrlari, axloqiy idealini, ayniqsa sevgi haqidagi she'rlarda mujassamlashgani bilan tanishtiradi. Sevgilining ideali shoirga "sof go'zallik dahosi", "eng pokiza joziba, eng toza namuna" sifatida taqdim etiladi. Sevgi ham fojiali - rashk, ajralish, o'limga xosdir. Uning lirik qahramoni Pushkin har doim umidsiz sevganining baxtini tilaydi:

***Men seni juda samimiy, juda nozik sevardim,***

***Qanday qilib Xudo sizni sevgilingizga boshqacha bo'lishini beradi.***

Ko'pincha Pushkin she'rida sevgi mavzusi lirik manzara bilan birlashadi, bu shoirning his -tuyg'ulariga juda mos keladi. Bu, ayniqsa, "Osmon porlagan erni kim biladi", "Gruziya tepaliklarida tungi tumanlar yotadi" she'rlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Shoir lirikasining asosiy mavzulari uning romantik she'rlarida, Pyotr I haqidagi asarlar to'plamida, Poltava va Belkin she'rlarida, "Evgeniy Onegin" romanida va Boris Godunov fojiasida ham ajralib turadi.

Ammo men, ayniqsa, yana bir mavzuga to'xtalmoqchiman - bu shoirning taqdiri, uning shafqatsiz Nikolaev reaktsiyasi sharoitida tayinlanishi haqidagi fikrlar. U to'g'ridan -to'g'ri Dekembristlarning qonli qirg'ini taassuroti ostida yozilgan "Payg'ambar" she'rini yaratadi. Shoir-fuqaro payg'ambar qiyofasida paydo bo'lib, o'zining olovli, erkin so'zini odamlarga etkazadi. Faqat o'sha shoir, Pushkinning so'zlariga ko'ra, har doim qalbi va fikri bilan xalqi bilan. Faqat u o'z maqsadini oqlay oladi: insoniylikdagi yuksak his -tuyg'ularni haqiqatli she'riy so'z bilan uyg'otish. U shoirni "fe'l bilan odamlarning qalbini kuydirishga" chaqiradi.

O'z ishini yakunlab, A.S. Pushkin "Men o'zimga yodgorlik o'rnatdim ..." she'rida, odamlarni e'tirof etish va sevish huquqini qo'lga kiritganini da'vo qiladi:

***... Liram bilan yaxshi tuyg'ularni uyg'otdim,***

***Men shafqatsiz yoshimda Ozodlikni ulug'ladim***

***Va u yiqilganlarga rahm -shafqat qilishga chaqirdi.***

Maqtov va tuhmatni befarqlik bilan qabul qilib, "haqoratdan qo'rqmaslik, toj talab qilmaslik", Pushkin o'z kasbiga ergashdi. Pushkin lirikasi, shoirning zamonaviy hayotiga jonli

javob sifatida, ayni paytda o'z vaqtidan oshib ketadi va bizning davrimizda ham o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Biz Pushkinda uning hayot haqidagi tasavvurining to'liqligini, quvnoqligini, erkinlikni sevishini, yuksak insoniyligini, Vatanga xizmat qilishga da'vatini qadrlaymiz. Menimcha, Pushkin she'rlari abadiydir, ular "har zamon va xalqlarning" turli avlod vakillari uchun qiziqarli.

Pushkin lirikasining durdona asarlari - bu murakkab qotishma bo'lib, unda hamma narsa muhim: har bir tasvir, har bir badiiy detal, ritm, intonatsiya, so'z. Nima uchun asarlar matnini chuqur tahlil qilish ularning ma'nosi va badiiy o'ziga xosligini to'g'ri tushunish uchun asos bo'ladi. Faqat she'rlarning tematik xususiyatlari bilan chegaralanib bo'lmaydi - ularning majoziy tuzilishini, janr va uslubning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish kerak. Pushkin lirikasining majoziy "so'z boyligini" o'zlashtirish juda muhim. Ko'pgina she'rlarda biz kalit so'zlar-tasvirlarni topamiz, ularning orqasida ma'lum bir biografik, adabiy yoki psixologik kontekst bor. "Ozodlik" va "iroda", "avtokratiya", "taqdir", "do'stlik" va "sevgi", "hayot" va "o'lim", "dengiz" va "qirg'oq", "tinchlik" va "bo'ron", "qish" "," Bahor "va" kuz "," shoir "va" olomon "- bu so'zlarning har birida ma'nosi va ovozida Pushkin ko'p ranglar va soyalarni topdi. Ular uning fikrlari va kayfiyatlarining "uzoq aks -sadosi" ga o'xshaydi.

Pushkin lirikasida shoirning ma'naviy va ijodiy qiyofasini, uning dinamik badiiy tizimining asosiy xususiyatlarini aks ettiruvchi murakkab, ko'p darajali lirik "ko'zgular" tizimi rivojlandi. Pushkin lirikasining asosiy mavzularini va motivlarini o'rganish ularning barqarorligiga, takrorlanishiga, o'zgaruvchanligiga, harakatiga va ichki qo'ng'irog'iga diqqat bilan qarashni talab qiladi.

Pushkinning hayotning eng muhim qadriyatlari haqidagi g'oyalari erkinlik, sevgi va do'stlik, ijodkorlik haqidagi she'rlarda aks etgan. Bu lirik mavzular yaxlit, barkamol shaxsning turli tomonlarini ifodalaydi. Ular o'zaro ta'sir o'tkazadilar, xuddi bir -birlarini "tikayotgan" kabi qo'llab -quvvatlaydilar, lirik ijodkorlik chegaralaridan oson chiqib, Pushkin dostoni olamiga kirib boradilar. Bu shoirning o'zi uchun eng aziz bo'lgan narsalar haqidagi fikrlarining yagona doirasi.

*Erkinlik mavzusi*- Pushkin lirikasining eng muhim mavzularidan biri. Pushkin uchun erkinlik - hayotdagi eng oliy qadriyat; u holda, hatto yoshligida ham, u o'z mavjudligini tasavvur qila olmasdi. Erkinlik do'stlikning asosidir. Erkinlik - ijodkorlik uchun shart. Erkinliksiz hayot qorong'u va dahshatli ohanglarda bo'yalgan. Hatto shoir har doim ozodlik tushunchasi bilan bog'liq bo'lgan taqdir ham, Pushkinning so'zlariga ko'ra, uning qudratiga bog'liq bo'lib, uning bulutlaridan ozodlik nuri tushganda, "muqaddas dalil" ga aylanadi ("II Pushchin" she'riga qarang). , 1826). Erkinlik g'oyasi Pushkin dunyoqarashining asosi bo'lib kelgan. Sankt -Peterburgdagi ijodkorlik davrida Pushkinga erkinlik birinchi navbatda mutlaq, umuminsoniy qadriyat sifatida ochib berildi. Erkinlik vaqt va makondan tashqarida, u eng oliy yaxshilik va Abadiyatning hamrohi. Unda shoir jamiyatni va uning kamchiliklarini bartaraf etish istiqbolini baholash uchun o'lchovni topdi.

Matn 1817-1819 - Pushkinning ozodlik haqidagi g'oyalarining aks -sadosi. Ularni "Ozodlik", "Qishloq", "Chadaevga" she'rlarida aks ettirgan she'riy tasvirlar allegorik obrazlardir: Ozodlik va "Muqaddas Ozodlik" ("Ozodlik"), "Maftunkor baxt yulduzi" ("Chadaevga"), "Ma'rifatli erkinlik ... go'zal tong" ("Qishloq"). Bu tasvirlar Qonunning "ijobiy" allegorik tasvirlari ("Ozodlik"), "avtokratiya qoldiqlari" ("Chadaevga"), " Odamlar zulm qilinmagan "(" Qishloq ").

Erkinlik haqidagi allegoriyalar" dunyoning zolimlari "," nohaq kuch "," tojli yovuz "," qullik "(" Ozodlik "va" Qishloq ")" salbiy "alegoriyalaridan farq qiladi. , "Yovvoyi xo'jayin", "zo'ravon tok", "Tinimsiz egasi", "Oriqlarning bandasi" ("Qishloq"). "Ozodlik" ijtimoiy-falsafiy asarida (1817) shoir dunyoga bir yoqlama, qiziqqan tomoshabin sifatida qaraydi. U qayg'uradi va g'azablanadi, chunki bu dunyoda qamchilar hushtak chaladi, kishanlarning temirlari shildiraydi, taxtda "nohaq kuch" o'tiradi. Butun dunyo va nafaqat Rossiya, erkinlikdan, ozodlikdan mahrum, shuning uchun hech qaerda quvonch, baxt, go'zallik va yaxshilik yo'q. 1820-1824 yillardagi Pushkin romantik lirikasida. erkinlik mavzusi markaziy edi. Romantik shoir nima haqida yozmasin - xanjar, "ozodlikning maxfiy qo'riqchisi", chidab bo'lmas zolimlarning momaqaldirog'i ("Xanjar"), isyonkor serblarning etakchisi Georgi Cherni ("Karageorgiya qizi"), Bayron yoki Napoleon ("Napoleon", "Dengizga"), do'stlariga yozgan xabarlarida o'z fikrlari va kundalik faoliyati haqida - erkinlik motivlari she'rlarga kirib, ularga o'ziga xos ko'rinish berdi. Sharmandali shoir Delvigga yo'llagan maktubida: "Bitta erkinlik - mening kumirim", deb e'lon qildi.

Dengiz - har qanday tabiiy va insoniy elementning ramzi. Uning xohish -irodasida odamni o'rab turgan dunyo elementining irodasi, kuchi va oldindan aytib bo'lmaydiganligi namoyon bo'ladi. Bu ijtimoiy hayotning "elementlari" bilan uyushmalarni keltirib chiqaradi: g'alayonlar, inqiloblar, qo'zg'olonlar. Pushkin dengizni isyonkor ruhiy portlashlarga ega bo'lgan tirik mavjudotga o'xshatadi. Bu romantik shoirning ruhiga va u hurmat qilgan "daholar" ga yaqin insonparvar "erkin element". She'r Napoleon va Bayronga xos "epitaf" ni o'z ichiga oladi. Bu "shoshilib ketgan" daholarni eslab, Pushkin ularda nafaqat inson ruhining elementar tamoyillarining yorqin ifodasini ko'radi, balki she'rning markaziy tasviri - dengiz tasvirining ramziy ma'nosini chuqurlashtiradi.

*1820 -yillar oxiri - 1830 -yillar. Pushkin erkinlikni shaxsiy mustaqillik, "shaxsiy qadr - qimmat" deb tushunadi.* Agar ilgari shaxsiy erkinlik mavzusi mahbus, surgun mavzusi fonida vujudga kelgan bo'lsa, demak, u so'nggi yillardagi ishida jamoat, shaxsiy va ijodiy hayot hodisalarini ancha kengroq qamrab olgan. U o'z yozuvlaridan birida shunday ta'kidlagan: "Klan zodagonlaridan balandroq qadr -qimmat bor, ya'ni: shaxsiy qadr -qimmat". Shaxsiy huquqlarning har qanday buzilishi, qanday sharoitda bo'lishidan qat'i nazar, shoir tomonidan odamni bostirish, uning "mustaqilligiga" urinish, uni kamsitish, qul darajasiga tushirish istagi sifatida baholandi.

***Do'stlik va sevgi*** *qo'shiqlari* - Pushkin lirikasining sevimli sohasi. Do'stlar va seviklilarga bag'ishlangan ko'plab she'rlarda, uning bu yuksak hayotiy qadriyatlar haqidagi tushunchasi ochilgan, do'stlar va sevimli ayollarning yorqin tasvirlari yaratilgan. Pushkinga bo'lgan do'stlik va muhabbat yoshlikning hamrohidir, ular "yosh hayot girdobida" paydo bo'ladi va insonga umr bo'yi hamroh bo'ladi. Pushkinning do'stona muloqotga, do'stlarning tushunishi va qo'llab - quvvatlashiga bo'lgan ehtiyoji, sevish va sevilish zarurati kabi o'zgarmas edi. Do'stona she'riy xabar janrida yozilgan ko'plab she'rlar, ruhiy jihatdan eng yaqin odamlarga bag'ishlangan: litsey o'quvchilari ("birinchi do'st" II Pushchin, "yuksak payg'ambarga xayollar" va "Parnassiyalik birodar" A.A.). Delvig, "taqdirga ko'ra, akaga birodar" V.K.Kuxelbeker), "doimiy do'st" P.Ya. Chaadaev, shoirlar P.A.Vyazemskiy, N.M.Yazikov, E.A.Baratinskiy. Ammo Pushkin do'stlikni nafaqat ikki kishi o'rtasida paydo bo'ladigan munosabatlar deb tushungan. "Do'stlik" - bu "taqdir bilan" yaqin bo'lgan odamlar doirasi, bu litseyda shakllangan "birodarlik", "bizning

ittifoqimiz". Do'stlik manifesti - "19 oktyabr" she'rining ettinchi misrasi. Shoir do‗stlik ittifoqi negizidagi uyg‗unlik, go‗zallik, erkinlik, ―beparvolik‖ ni ta‘kidlaydi, uni ruh bilan qiyoslaydi, do‗stlar o‗rtasidagi aloqalarning mustahkamligini tasdiqlaydi. Litsey o'quvchilarining do'stligi na "taqdir" injiqliklariga, na o'zgaruvchan baxtga bog'liq. Birodarlik litseyining "vatani" - Tsarskoe Selo, "do'stona musiqalar soyasida" litsey o'quvchilarini taqdirning o'zi birlashtirgan joy (she'rda Italiyada vafot etgan N.A. Korsakov va F. F. Matyushkinning romantik portretlari bor; , A.M. Gorchakov va A.A. Delvig, ular bilan shoir Mixaylovskaya surgunida uchrashgan, V.K. Kuxelbecker haqida). Do'stlikni Pushkin shoirlarni bir -biriga bog'laydigan "shirin ittifoq" deb ham tushungan. "Yazikovga" (1824) xabarida bu ittifoqning asosi ko'rsatilgan - ijodkorlik, ilhom.

Aleksandr Sergeevich Pushkin - dunyoga mashhur shoir, nosir, publitsist, dramaturg va adabiyotshunos - tarixga nafaqat unutilmas asarlar muallifi, balki yangi adabiy rus tilining asoschisi sifatida kirdi. Pushkin haqida gapirganda, darhol rus xalq shoiri obrazi paydo bo'ladi. Shoir Pushkin - xalqaro miqyosda tan olingan daho, uning asarlarining leksikasi betakror, uning so'zlarining tasviri keng va mutlaqo betakror, she'rlarining hissiy va falsafiy komponentining chuqurligi barcha mamlakatlar va barcha avlod o'quvchilarini hayratga soladi va hayajonlantiradi. Ammo shunga qaramay, Pushkin lirikasi alohida e'tiborga loyiqdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Husanboeva Q. Adabiyot-ma‘naviyat va muvtaqil fikr shakllantirish omili. T.: ―Alisher Navoiy nomidagi O`zbekiston milliy kutubxonasi‖ nash. 2009 yil 365.

2. Babanskiy Yu.K. Hozirgi zamon umumiy ta‘lim maktabida o`qitish metodlari. –T.: O`qituvchi. 1990. -228b.

3. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. –T.: O`qituvchi. 2002. -490 b.

4. Boyboboev T. O`quvchilarda badiiy ijod ko`nikmalarini shakllantirishning ba‘zi usullari. Til va adabiyot ta‘limi, 1994. №1. -B. 24-27.

# ADABIYOT DARSLARIDA IJODKOR TARJIMAI HOLINI O_RGATISH XUSUSIDA

**Yulduz Matyaqubova Hayitboyevna**
*Xorazm viloyati Hazorasp tumani 35-son umumiy o'rta ta'lim maktabi ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada ijodkor hayoti va ijodini ta'lim bosqichlarida o_rganishning ahamiyati,shakl va usullari ,ijodkor tarjimai holini o_rganishda uning o_z asarlaridan foydalanishning ahamiyati,yozuvchi tarjimai holi va uning uslubi o_rtasidagi aloqadorlik yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *didaktik tahlil, tarjimai hol, klaster,yozuvchi biografiyasi, adib shaxsiyati.*

Umumta'lim maktabida badiiy asar o_rganilar ekan, uni ilmiy va didaktik tahlil etib xulosalar chiqarishga uruniladi. Badiiy asar tahlilidan ilmiy xulosalar chiqarmoq uchun yozuvchining pozitsiyasini tushunish kerak bo_ladi, buning uchun esa ijodkorlarning tarjimai holi bilan tanish bo_lish talab etiladi, shundagina u yoki bu hayotiy hodisaga adib qanday munosabatda bo_lganligidan xabardor bo_lish mumkin. Maktab adabiy ta'limida yozuvchilar umr bayoni 2 sababga ko_ra o_rganiladi:

1) Adiblar millat ahlining diqqat e'tiborida turgan kishilar, ularning shaxsiy hayoti va tabiatida o_quvchilar uchun namuna bo_ladigan jihatlar ko_p. Binobarin, yozuvchi hayoti o_quvchilarga ma'naviy namuna maktabi sifatida o_rgatiladi.

2) Adiblarning hayot yo_li asarlarida o_z izini qoldiradi.

Binobarin, ijodkorlarning hayot va ijod yo_llari va shaxsiyatlari borasidagi ma'lumotlar ularning asarlarini tushunishga kalit hamdir. Yozuvchi biografiyasi haqidagi ma'lumot hamma sinflarda ham beriladi. Ammo o_smir yoshidagi o_quvchi bilan o_spirin yoshidagi o_quvchining adiblar tarjimai holini o_rganish o_ziga xos didaktik jarayonlar tarzida kechadi.

O_smir yoshidagi bolalar yoki 5-6-sinflarning o_quvchilari hali adabiy asarlar yaratish badiiy zaruriyat ekanini unchalik tushunmaydilar. Buning ustiga ular adib shaxsiyatining badiiy asarda aks etishini ham to_liq anglamaydilar. Shu sababdan ham 5-8-sinflarning darsliklarida yozuvchilar haqida o_quvchilarga eng umumiy ma'lumotlar berish bilan kifoyalanadi. Odatda, 5-8-sinflarda adiblarning biografiyalarini o_rganishiga alohida soat ajratilmaydi. Binobarin, yozuvchi haqida uzoq to_xtalish zaruriyati yo_q. Shuning uchun darsliklarda o_quvchilarning o_zlari o_qib olishlari mumkin bo_lgan ma'lumotlar beriladi. Bu yoshdagi o_smirlarda hissiy bilish kuchli bo_ladi, abstrakt tafakkur, bilishning diduksiya usuli yetarlicha rivojlanmagan bo_ladi. Shu bois ko_rgan, sezgi organlari orqali qabul etilgan tushunchalar mustahkam o_zlashtiriladi. Sabab-oqibat bog_lanishlari haqidagi mulohazalar unchalik anglashilmasligi mumkin.

O_smir yoshidagi o_quvchilarning psixologik xususiyatlari boshqacha rivojlangan bo_ladi. Ularda inson shaxsining jamiyat tomonidan shakllanishi, bir jamiyatda turib, yashab turib, undan tashqarida turishning imkonsizligi haqida muayyan qarashlar mavjud. Demak, yozuvchi shaxsiyati, ma'naviyati bu sinf o_quvchilarining axloqiy sifatlariga ta'sir etishi mumkin. Yuqori sinflardagi mashg_ulotlarda o_qituvchi adib shaxsiyati qirralarining, u qachondir boshidan kechirgan voqealarning asarlarda qay tarzda namoyon bo_lishiga alohida e'tibor berishi kerak.

Katta maktab yoshidagi o_quvchilar o_zlari intensiv ravishda shaxs sifatida shakllanib borayotganliklari uchun yozuvchilar shaxsiyatiga astoydil qiziqadilar. O_qituvchi adib qarashlarning, kayfiyatlarining tadrijiy yo_li, bu yo_lning asarlarda aks etishi kabi muammolarni yuqori sinf talabalarida aniqlab olgani ma'qul. Bu xol birinchidan o_quvchilarning avval bilganlarini esga solib, ma'ruzani o_zlashtirishda bolalar faolligini oshirsa, ikkinchidan, berilayotgan bilim mustahkam ilmiy poydevor ustiga qurilib, yaxshiroq esda qoladi. O_quvchilar o_ylashga majbur bo_lishadi. O_ylash jarayoni ularning yangi bilimlarni o_zlashtirishlarida ham qo_l keladi.

9-sinfdan e'tiboran adiblarning tarjimai holini o_rganishga alohida vaqt ajratiladi, ularning hayotidagi muhim hodisalargina emas, balki ijodiy qiyofalarning shakllanish bosqichlari ham tekshiriladi. O_quvchilar shu sinfda adib shaxsi bilan uning asari o_rtasidagi bog_lanishni ilg_aydigan bo_ladi. Adabiyot o_qituvchisi yuqori sinflarda yozuvchining hayot va ijod yo_li haqida va'z o_qishdan oldin o_quvchilar avvalgi sinflarda adiblarning hayot va ijod yo_llari haqida nimalar o_rganganliklarini esga solishi maqsadga muvofiq bo_ladi. Yozuvchining hayoti o_rganilar ekan, uning o_ziga zamondosh, o_zidan oldin o_tgan va keyin paydo bo_lgan ijodkorlarga ta'siriga ham o_rni bilan to_xtalish joiz. Adib hayotini o_rganishning shakl va usullari xususida fikrlar o_rtaga tashlanadi. Ijodkor umrbayonini o_rganishda adiblarning o_zlari yozib qoldirgan tarjimai hollardan, adib haqida aytilgan zamondoshlar, uning tengdoshlari, ustozlari yoki shogirdlari, tanish-bilishlari, muxlislari tomonidan aytilgan fikrlar yoki yozma holda yetib kelgan manbalardan olish mumkin. Bu boradagi eng yaxshi omillardan yana biri shoir va yozuvchilarning asarlarida saqlanib qolgan materiallardir.

Masalan, Abdulla Oripov haqida gapirib turib, Erkin Vohidov shunday degan edi: ―Barcha isyonkor shoirlar kabi Abdullaga ham oson bo_lgan emas. Qattol tuzum qamchisidan u ham omon qolmagan. Lekin ruhiy azoblar, siquvlar, ming iztiroblar so_nggida shoirga nasib bo_lgan kattakon baxt shuki, u xalqi mehrini qozondi, o_zi kurashgan ozodlik va mustaqillik g_oyasining kurtak yozganiga guvoh bo_ldi... ‖.

A.Navoiy, Z.M.Bobur, Ogahiy, Furqat singari ko_plab mumtoz adabiyotimiz vakillarining hayoti va ijodini o_rganishda ana shu usuldan foydalanish yaxshi samara beradi.

Iijodkor tarjimai holini o_rganishda ularning o_z asarlarida saqlanib qolgan materiallardan foydalanish usullari ham juda samaralidir. Jumladan, Yusuf Xos Hojibning hayoti va ijodini o_rga nishda uning ―Qutadg_u bilig‖ asaridagi yoki Xorazmiyning tarjimai holini o_rganishda uning ―Muhabbatnoma‖ asaridagi, Muqimiy va Furqatlarning ―Sayohatnoma‖laridagi ma'lumotlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Yozuvchi tarjimai holi va uning uslubi o_rtasidagi aloqadorlik klaster yordamida ochib beriladi. O_qituvchi adib haqida gapirar ekan, uning hayotidagi u yoki bu voqeani shunchaki sodir bo_lgan fakt sifatida emas, balki bo_lajak san'atkorning ijodiy qiyofasini belgilaydigan omil sifatida yoki biror asarning bitilishiga turtki sifatida talqin etsa maqsadga muvofiqdir. Bu sinf o_quvchilari bir yozuvchi uslubining boshqasinikidan farqli ekanligi sabablarini adiblar voyaga yetgan muhitdan, ularning xarakter xususiyatlaridan qidirishni o_rganishlari kerak.

H.Olimjonning dilbar she'riyati, G_.G_ulomning tarixiy xulosalarga yo_g_rilgan qasirg_ali falsafiy asarlarining yaratililishini ularning tarjimai hollari, xarakter xususiyatlarining o_ziga xosligi bilan bog_lash, ulardan keltirib chiqarish muhimdir. Odatda, o_quvchilar turli asarlarning qahramonlarini, ularning shaxsiyatidagi birbiridan farqli xususiyatlarini bir muncha

yaxshi tadqiq etadilar. Gulnor Kumush bilan adashtirilmaydi. Ammo bu o‗ziga xoslik ildizi o‗sha obrazlarni yaratgan adiblarning shaxsiyatidagi o‗ziga xosliklarga bog‗liq ekanligi o‗quvchilar nazaridan chetda qoladi.

A.Qahhor shaxsiyatida mavjud bo‗lgan prinsipiallik, murosasizlik, halollik, uning asarlarida qay tarzda aks etganini o‗quvchilar bilishsa, adabiyot uchun, bolalar ma‘naviyati uchun juda foydali bo‗ladi. Cho‗lpon, Hamza, Qodiriy kabi murakkab taqdirli ijodkorlarning hayot yo‗lini o‗rganish, ularning asarlarini tushunish kalitigina emas, balki bolalar ma‘naviyatinishakllantirish yo‗li hamdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Khodjamkulov, U., Makhmudov, K., & Shofkorov, A. (2020). The Issue of Spiritual and Patriotic Education of Young Generation in the Scientific, Political and Literary Heritage of Central Asian Thinkers. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(05), 6694-6701.

2. Makhmudov, K. (2020). Ways of Forming Intercultural Communication in Foreign Language Teaching. Science and Education, 1(4), 84-89.

3. Makhmudov, K. (2020). Current Problems of Teaching English and New Approaches to Resolve in Secondary Education Schools. Modern Trends in Linguistics: Problems and Solutions, 271-273.

4. Makhmudov, K. (2020). Integrating a Mother Tongue while Teaching a Foreign Language: Problems and Solutions. Literature and History, (1), 89-91.

5. Mukhamedov, G., Khodjamkulov, U., Shofkorov, A., & Makhmudov, K. (2020). Pedagogical Education Cluster: Content and Form. ISJ Theoretical & Applied Science, 1(81), 250-257.

5 YANVAR / 2022 YIL / 14 – SON

# ELEKTROMOBIL AVTOMOBILLARNI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA ISHLASHINI TAKOMILLASHTIRISH BO‘YICHA MA‘LUMOTLAR

**Yo‘ldoshev Qodir Eshqobil o‘g‘li**
*Toshkent avtomobil va yo‘llar texnikumi1-20-tk guruh talabasi*

**Annotatsiya:** *Elektromobillar transport xarajatlari pastligi bilan ajralib turadi. Ford Ranger 1 km uchun 0,25 kVt / s , Toyota RAV4 EV - 0,19 kVt / soat iste'mol qiladi . AQShda avtomobilning yillik o'rtacha yurish masofasi 19200 km (ya'ni kuniga 52 km). AQShda elektr energiyasi narxi bir kVt /s uchun 5 sekundan 20 sentgacha bo'lgan, Ford Rangerning yillik yugurish narxi 240 dan 1050 dollargacha, RAV -4 - 180 dollardan 970 dollargacha. Yilda Rossiya, qiymati elektr kun kursi kVt boshiga 12 sent (3,8 rubl) haqida va kunda kVt boshiga 3 sent (0.95 rubl) haqida. Shunday qilib, Rossiyada elektromobilning transport xarajatlari AQShga qaraganda bir oz past bo'ladi, chunki u, ehtimol, kechasi zaryadlanadi. Tortish dvigatelining samaradorligi 88-95%ni tashkil qiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *Avtomobil, rivojlanish, maqsad, ilmiy, ko‘rsatkich, fabrika, asosiy, prezident, qaror, hajm, sanoat, texnika, xalqaro*

## MUQADDIMA (Abstract)

Avtomobil sanoatini jadal rivojlantirish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishni ta‘minlash, ilg‗or xalqaro tajriba asosida zamonaviy bozor mexanizmlari va boshqaruv usullarini joriy qilish, shuningdek, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh ishlab chiqarishni yaratish maqsadida:

2019–2023 yillarda avtomobil sanoatini rivojlantirishning asosiy ko‗rsatkichlari belgilandi - Prezident qarori

Hujjat raqami PQ-4397

Organ O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI

Imzolangan sana 18.07.2019

Kuchga kirish sanasi 19.07.2019

O‗zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‗zbekiston Respublikasi avtomobil sanoatini jadal rivojlantirish bo‗yicha chora-tadbirlar haqida»gi qarori qabul qilindi.

yengil avtomobillar ishlab chiqarish hajmini 350 ming donagacha oshirish;

yengil avtomobillarni mahalliylashtirish darajasini o‗rta hisobda 60 foizgacha yetkazish;

yuk avtomobillari va avtobuslar ishlab chiqarish hajmini 10 ming donagacha oshirish;

avtomobillarning yillik eksport hajmini 100 ming donagacha yetkazish;

korporativ boshqaruvning zamonaviy usullarini, shuningdek, ―ERP‖ avtomatlashtirilgan hisobga olish tizimini joriy etish;

aholining keng qatlamlari uchun hamyonbop bo‗lgan yengil avtomobilning yangi zamonaviy modeli ishlab chiqarilishini nazarda tutgan holda avtomobillarning modellar qatorini yangilash;

―O‗zavtosanoat‖ AJ tarkibiga kiruvchi kamida ikkita aksiyadorlik jamiyati aksiyalarini mahalliy va xalqaro fond bozorlarida birlamchi ommaviy joylashtirish (IPO) orqali investorlarni jalb etish.

2. O‗zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi hamda ―O‗zavtosanoat‖ AJ yetakchi xorijiy kompaniyalar va xalqaro ekspertlarni jalb etgan holda bir oy muddatda quyidagilar bo‗yicha aniq takliflarni tayyorlash uchun mas‘ul bo‗lgan ―O‗zavtosanoat‖ AJ huzurida doimiy faoliyat yurituvchi loyiha ofisini tashkil etish choralarini ko‗rsin:

O‗zbekiston Respublikasi avtomobil sanoatini 2023-yilgacha yanada jadal rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish;

Ilg‗or xalqaro tajriba asosida zamonaviy bozor mexanizmlari va boshqaruv usullarini joriy etish;

avtomobil sanoatining investitsiyaviy jozibadorligini, shu jumladan motor transport vositalari va ularning butlovchi buyumlarini ishlab chiqarish bilan shug‗ullanuvchi barcha korxonalar uchun soliq va bojxona rejimlarini unifikatsiyalash yo‗li bilan oshirish;

ehtiyot qismlar va butlovchi buyumlarni o‗zlashtirish darajasini oshirish va import hajmlarini pasaytirish imkonini beradigan qo‗shimcha ishlab chiqarishlarni tashkil etish;

ehtiyot qismlar va butlovchi buyumlar ishlab chiqarishning ustuvor segmentlarida ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini rivojlantirish, milliy muhandislik markazlarini tashkil etish;

avtomobil sanoatida kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonlarini takomillashtirish.

**KIRISH** (Introdustion)

Elektromobillar transport xarajatlari pastligi bilan ajralib turadi. Ford Ranger 1 km uchun 0,25 kVt / s , Toyota RAV4 EV - 0,19 kVt / soat iste'mol qiladi . AQShda avtomobilning yillik o'rtacha yurish masofasi 19200 km (ya'ni kuniga 52 km). AQShda elektr energiyasi narxi bir kVt /s uchun 5 sekundan 20 sentgacha bo'lgan, Ford Rangerning yillik yugurish narxi 240 dan 1050 dollargacha, RAV -4 - 180 dollardan 970 dollargacha. Yilda Rossiya, qiymati elektr kun kursi kVt boshiga 12 sent (3,8 rubl) haqida va kunda kVt boshiga 3 sent (0.95 rubl) haqida. Shunday qilib, Rossiyada elektromobilning transport xarajatlari AQShga qaraganda bir oz past bo'ladi, chunki u, ehtimol, kechasi zaryadlanadi. Tortish dvigatelining samaradorligi 88-95%ni tashkil qiladi.

Elektr transport vositalarining past shovqinlari muammo tug'dirishi mumkin degan fikr bor -piyodalar, yo'lni kesib o'tishda, ko'pincha avtomobil ovozi bilan boshqariladi. Albatta, ishlaydigan kuchli elektr dvigatelining keskin shovqinini biror narsa bilan chalkashtirib yuborish qiyin, trolleybus elektr haydovchilarining shovqini (asosan eski modellarda havo kompressorlari va ventilyatorlar), mexanik uzatmalar (differentsial va kardan uzatish). **Ichki yonish dvigatellari bilan jihozlangan avtomobillar bilan solishtirish** Quvvatli elektr motorlarining (TED) samaradorligi 90–95% gacha, ichki yonish dvigateli uchun 22–42% ni tashkil qiladi. Elektromobilga qimmat, katta va har doim ham ishonchli bo'lmagan uzatmalar qutisi kerak emas. Elektr transport vositasi dvigatel moyini iste'mol qilmaydi. Elektr avtomobil akkumulyatorini zaryadlash uchun regenerativ tormoz tizimidan foydalanishi mumkin.

Batareyani zaryad qilish uchun elektromobil elektr tokini ishlab chiqaruvchi amortizatorlardan ham foydalanishi mumkin. Ba'zi modellarda radiator va boshqa sovutish tizimlarining yo'qligi tufayli mashinaning tortilishini kamaytirish. Biroq, kuchli elektromobillar hali ham suyuq sovutish tizimiga va shunga mos ravishda radiatorga ega. Xizmat ko'rsatish

qulayligi, katta xizmat yurishi, rejalashtirilgan texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlashning nisbatan arzonligi. Evropa transport va atrof -muhit federatsiyasining (T&E) 2020 yil aprel oyidagi tadqiqotiga ko'ra, elektromobillar ishidan karbonat angidrid chiqindilarining miqdori, batareyalar ishlab chiqarishdan chiqadigan zararli moddalar chiqindilari, elektr holatida. transport vositalari dizel dvigatelli mashinalarga qaraganda 22% ga, benzinli mashinalarga qaraganda 28% ga kam

**SHU PAYTGACHA QILIINGAN ISHLAR TAHLILI**

Elektr transport vositalarining global savdosi 2020 yilda portlovchi o'sishni qayd etdi va koronavirus pandemiyasi davrida yo'lovchi avtomobillarining umumiy savdosi 14 foizga kamayganiga qaramay, 43 foizga oshib, 3,24 million donadan oshdi.

EV-volves shved konsalting kompaniyasi ma'lumotlariga ko'ra, 2020 yilda Evropada elektromobil sotuvi ikki barobardan oshdi va bu mintaqani Xitoyni ortda qoldirib, dunyodagi eng yirik bozorga aylantirdi.




Akkumulyatorli elektromobillar (BEV) va plaginli gibrid elektromobillar (PHEV) 2020 yilda jahon avtomobil bozorining 4,2% ini tashkil etdi, bu 2019 yildagi 2,5% dan yuqori. Global BEV va PHEV savdosi 2020 yilda 3,24 millionni tashkil etdi, bu 2019 yildagi 2,26 milliondan.

BEV va PHEV rusumli avtomobillarning jahon savdosi 2010-2020 yillar,

Savdo hajmining o'sishi hukumatning CO2 chiqindilarini kamaytirish siyosati bilan bog'liq, biroq EV-hajmli sotish va marketing bo'yicha tahlilchi Viktor Irlening so'zlariga ko'ra, "EV-bu eng yaxshi texnologiya".

EV-hajmli ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, 2020 yilda eng yuqori beshta milliy avtomobil sotuvi Xitoy (1,3 million), Germaniya (0,4 million), AQSh (0,3 million), Frantsiya va Buyuk Britaniyada (0,2 million) bo'lgan. Biroq, 2020 yilda AQShda o'sish 4% ni tashkil etdi, chunki bozorda yangi modellar kam edi.

2015 yildan beri birinchi marta Evropada BEV va PHEV sotuvi Xitoyda NEV (yangi elektromobillar, gibrid va vodorodli yonilg'i xujayralari) sotilishidan oshdi. EFTA mamlakatlarini (Norvegiya, Islandiya, Lixtenshteyn, Shveytsariya), shu jumladan Buyuk Britaniyani hisobga olgan holda, BEV va PHEV avtomobillarining Evropadagi ulushi bo'yicha sotuvlar 2019 yildagi 3,3% dan 2020 yilda 10,2% gacha oshdi.

Xuddi shu davrda Xitoyda NEV ulushi 5,1% dan 5,5% gacha oshdi. Ko'pgina Evropa bozorlari 2019 yildan buyon avtomobil savdosini ikki yoki uch barobarga oshirdi va Evropa Ittifoqi 2020 yilda avtomobil sotishning 43 foizini tashkil etdi, bu 2019 yildagi 26 foizdan.

Taxminan 150 ta yangi BEV va PHEV modellari 2021 yilda bozorga chiqishi kutilmoqda. Bu shuni anglatadiki, o'sish 2021 yilda ham davom etadi, dedi Irle.2019 yil

Elektromobillar eksportining o'sishi 25,7 milliard dollarga etdi.

(2019 yilda global avtomobil eksporti 25,7 milliard dollarni tashkil etdi. Bu dollar miqdori 2017 yildagi 8,4 milliard dollardan 207,4 foiz o'sishni va 2018 yilga nisbatan 123,1 foizni aks ettiradi.

2019 yilda 758,4 milliard dollarlik xalqaro avtomobil savdosi bilan taqqoslaganda, elektromobillar eksport qilingan barcha transport vositalarining 3,4 foizini tashkil qiladi. Biroq, sotiladigan elektromobillarning ulushi barqaror o'sib bormoqda.

Qit'alar orasida, Evropa mamlakatlaridagi etkazib beruvchilar 2019 yil davomida eng ko'p eksport qilingan elektromobillarni sotishdi, bu 14,6 milliard dollarlik yuklarni etkazib berdi yoki bu dunyo umumiy hajmining 56,8 foizini tashkil etdi. Ikkinchi o'rinni 30,5% bilan Shimoliy Amerika eksportchilari egalladi, xalqaro avtomobillar savdosining 12,6% Osiyo hissasiga to'g'ri keldi.

Quyida 2019 yildagi eng yuqori narxli avtomobillarni eksport qilgan 15 davlat keltirilgan.

1. AQSh: 7,9 milliard dollar (eksport qilingan avtomobillarning 30,5 foizi)
2. Belgiya: 5,1 milliard dollar (19,8%)
3. Germaniya: 3,9 milliard dollar (15,1%)
4. Janubiy Koreya: 2,4 milliard dollar (9,1%)
5. Avstriya: 1,3 milliard dollar (4,9%)
6. Gollandiya: 1,19 milliard dollar (4,6%)
7. Frantsiya: 1,17 milliard dollar (4,5%)
8. Buyuk Britaniya: 1,1 milliard dollar (4,3%)
9. Xitoy: 438,1 million dollar (1,7%)
10. Yaponiya: 431,5 million dollar (1,7%)
11. Slovakiya: 387,9 million dollar (1,5%)
12. Ispaniya: 264,5 million dollar (1%)
13. Sloveniya: 113 million dollar (0,4%)
14. Shved: 38,4 million dollar (0,1%)
15. Vengriya: 28 million dollar (0,1%)

Ro'yxatga kiritilgan 15 davlat 2019 yilda jahon eksport qilinadigan elektromobillarining 99,6 foizini jo'natdi.

Elektromobil ishlab chiqarish quvvatiga ega dunyodagi eng yirik avtomobil ishlab chiqaruvchilari:

BMW i (Germaniya)
BYD Auto Co. (Xitoy)
Daimler AG (Germaniya)
Ford Motor Company (AQSh)
General Motors (AQSh)
Nissan (Yaponiya)

PSA guruhi (Frantsiya)

Renault (Frantsiya)

Rimac Automobili (Xorvatiya)

Tesla (AQSh)

Toyota (Yaponiya)

Volkswagen guruhi (Germaniya)

Iyul: tarixda bozorning birinchi pasayishi

Elektromobillar sotuvi tarixda birinchi marta kamaydi. 2019 yil 3 sentyabrda e'lon qilingan Sanford C. Bernstein tahlilchilarining ma'lumotlari shundan dalolat beradi.

Iyul oyida elektr motorli (ichki yonish dvigateli bo'lmagan) 128 mingga yaqin engil avtomobil sotildi, bu bir oy avvalgidan 14 %% kamroq. Xitoyda va Shimoliy Amerikada elektromobillarga talab kamaydi, lekin Evropada ortdi.

Mutaxassislar bozorning pasayishini Xitoyda elektromobillarni sotib olish uchun subsidiya dasturlarining kamayishi bilan bog'lashdi. Hukumat 26 -iyunda qo'llab -quvvatlashni cheklab qo'ydi va buni avtomobil ishlab chiqaruvchilarni avtomobilsozlik sohasidagi yangiliklarni rivojlantirishga undash istagi bilan izohladi. Iyul oyining pasayishiga qaramay, elektromobillarning jahon bozori 2019 yilning etti oyida 35 foizga o'sdi. Tadqiqotchilar bunday avtomobillarning yillik savdosi 2019 yil oxirigacha 23-48 foizga oshib, 2,4-2,9 million donaga yetishini kutishmoqda. 2019 yilning ikkinchi yarmida kutilayotgan bozorning qisqa muddatli zaifligiga qaramay, biz elektromobillarga uzoq muddatli talabning ijobiy prognozini saqlab qolmoqdamiz.




Axborot agentligi ta'kidlaganidek, elektromobillar avtomobil bozorining kichik bir qismini tashkil etsa -da, ishlab chiqaruvchilar bu segmentda pul tikishmoqda, chunki u o'sayotgan biznes. Bloomberg yozishicha, "ochko'z" mashinalarga talabning pasayishi butun dunyodagi avtomobil bozorlarining pasayishiga olib keldi va Xitoy tarixdagi eng yomon qulashni boshdan kechirdi.

Dunyodagi eng yirik elektromobil ishlab chiqaruvchilari Sanford C. Bernsteinga berilgan Tesla 2019 yilning iyulida 20 mingga yaqin shunday avtomobil sotgan eng yirik elektromobil ishlab chiqaruvchisi bo'lib qoldi. Xitoyning BYD markasi ortda qoldi va BMW kuchli uchlikni yopdi. [3]

Rossiyada elektromobillar kam sotiladi. 2019 yil yanvar-may oylarida ruslar bu mashinalardan atigi 119tasini sotib olishgan (Avtostat ma'lumotlariga ko'ra).

2018 yil Frost & Sullivan: Ikki million elektromobil sotildi

Frost & Sullivan xalqaro konsaltingi ma'lumotlariga ko'ra, 2018 yilda butun dunyo bo'ylab ikki million elektromobil sotilgan va 2025 yilga kelib sotuv 25 milliongacha oshadi, bu esa barcha avtomobillarning 20-22 foizini tashkil qiladi.

Bloomberg New Energy Finance: Elektromobil sotuvi - 1,3 million dona; Xitoyning ulushi 60% 2018 yilda butun dunyo bo'ylab 1,3 millionga yaqin elektromobillar (gibridlar bundan mustasno) sotildi, ularning 60% Xitoy bozorida. Bunday ma'lumotlarni 2019 yil mart oyida Bloomberg New Energy Finance tahlilchilari taqdim etgan.

Ularning hisob -kitoblariga ko'ra, Tesla eng yirik elektromobil ishlab chiqaruvchi bo'lib qolmoqda, u 2018 yilda 245 240 ta shunday avtomobil sotdi. Uchta yetakchi orasida Xitoyning Pekin elektr mashinasi (BJEV) va BYD bor edi. Bozorning etakchi 10 kompaniyasidan 7 tasi O'rta Qirollikdan.

- Belgiya-48 ming;
- Kanada-47 ming




Bloomberg New Energy Finance tomonidan berilgan eng yirik elektromobil ishlab chiqaruvchilari

Xitoylik ishlab chiqaruvchilarning keng ishtiroki bunday kompaniyalarning davlat tomonidan kuchli qo'llab -quvvatlanishi bilan bog'liq. Xitoy Xalq Respublikasi Sanoat va axborotlashtirish vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, hukumat iste'molchilar tomonidan yashil mashinalarni sotib olishni rag'batlantirish uchun 2017 yilda 6,64 milliard yuan (1 milliard dollar) sarflagan. Federal hukumat subsidiyalaridan tashqari, Xitoy shaharlari va provinsiyalari ham elektromobillarni xaridorlarga jozibador qilish uchun qo'shimcha rag'batlantirish dasturlarini taklif qilmoqdalar.

## MAQOLANING ILMIY YANGILIGI

Dunyo tajribasini o‘rganilgan holda O‘zbekiston hududlariga to‘g‘ri keluvchi elektromobilarni tanishtirib o‘taman.

Elektromobillar rivojlanayotgan davrda bizning davlatimiz O‘zbekistonda elektromobillarning har xil modilari kirib kelmoqda toshkent shahrida va boshqa viloyotlarda elektromobilarni zaryadlovchi elektr Istansiyalar qurilmoqda lekin tunda tunda ko‘p elektromobillar uyda zaryadlanmoqda elektr istansiyallarda energiya narxni 10%-20%-ga arzonlashtirilsa zaryodlovchi insonlar soni ko‘paygan bo‘lar edi degan fikrdaman.

2010 yil may oyida Toyota va Kaliforniyada elektromobillar ishlab chiqaruvchi Tesla Motors o'rtasida ekologik toza avtomobillarni birgalikda yaratish to'g'risida shartnoma imzolandi. Bir muncha vaqt davomida loyihaning tafsilotlari oshkor qilinmadi, lekin 2010 yil

iyul oyining o'rtalarida kompaniyalar Toyota RAV4 elektromobilining ikkinchi avlodi ustida birgalikda ishlay boshlagani e'lon qilindi . 2011 yilda 35 ta RAV4 sinovli EV sinov mashinasi qurildi va 2012 yilda ushbu avtomobillarni seriyali ishlab chiqarish boshlandi. 2012 yildan 2014 yilgacha bo'lgan davrda, jami 2425 ta elektromobil ishlab chiqarilgan. Elektromobil ikkita versiyada ishlab chiqarilgan: Sport va Oddiy. Elektr dvigateli Tesla tomonidan ishlab chiqarilgan 41,8 kVt / soat lityum metall oksidi batareyasi bilan ishlaydi.

Zaryadlanmagan masofa 160-200 km. Ma'lumki, elektromobil AQShda 2012 yilda tekin sotuvga qo'yilgan. Elektromobil quyidagi texnik xususiyatlarga ega edi: Tortish dvigateli - 115 kVt (154 ot kuchi) Balandligi: 160-200 km. Batareyalar: Li-Ion, 41,8 kVt / soat. Maksimal tezlik: 161 km / soat 100 km / soat tezlashuv: 8,6 s. (7.0 v. Sport) Tananing o'lchamlari (L x G x Y), 4574 x 1816 x 1684 mm Vazni: 1829 kg Nissan Leaf yangi Nissan V platformasida qurilgan bo'lib, u elektr toki Juke krossoveri va Micra 2011 yil kichik joy almashish bilan bo'linadi . Kaput ostida 80 kVt (taxminan 109 ot kuchi) elektr dvigateli o'rnatilgan, uning momenti 280 Nm ga etadi. Elektromobilninghaydovchisi old tomonda. Mashinaning eng og'ir elementi - akkumulyatorning pastki pozitsiyasi bu sinfdagi an'anaviy mashinalarga qaraganda yaxshiroq barqarorlikni ta'minlaydi. Bundan tashqari, batareya shunga o'xshash tarzda ishlab chiqilgan besh eshikli xetchbeklar uchun yanada katta strukturaviy qat'iylikni ta'minlaydi

| | |
|---|---|
| **Dizayn** | |
| **tananing turi** | 5 eshikli xetchbek (5 o'rindiq) |
| **Platforma** | Nissan v |
| **Joylashtirish** | oldingi dvigatel, oldingi g'ildirak |
| **G'ildirak formulasi** | 4 × 2 |
| **Yuqish** | |
| 794: 100 tishli nisbati bilan 1 bosqichli vites qutisi | |
| **Massa va o'lchov xususiyatlari** | |
| **Uzunlik** | 4445 mm |
| **Kenglik** | Balandligi 1770 mm |
| **Balandlik** | 1550 mm |
| **G'ildirak bazasi** | 2700 mm |
| **Og'irligi** | 1521 kg |

Tesla S modelida 362 ot kuchiga ega suyuq sovutgichli AC dvigateli ishlatiladi. AQSh atrofmuhitni muhofaza qilish agentligi (EPA) ma'lumotlariga ko'ra , 85 kVt soat quvvatga ega lityum-ionli batareya 426 km (265 mil)

| | |
|---|---|
| **Dizayn** | |
| **tananing turi** | 5 eshikli yuk ko'taruvchi (5 o'rinli) |
| **Joylashtirish** | orqa dvigatel, orqa g'ildirakli haydovchi |
| **G'ildirak formulasi** | 4 × 2, 4 × 4 |
| **Yuqish** | |
| 1 bosqichli vites qutisi (9.73: 1) | |
| **Massa va o'lchov xususiyatlari** | |
| **Uzunlik** | Balandligi 4976 mm |

| | |
|---|---|
| **Kenglik** | 1963 mm (ko'zgular bilan) |
| **Balandlik** | 1435 mm |
| **Tozalash** | o'zgaruvchan, 160 mm gacha |
| G'ildirak **bazasi** | 2959 mm |
| **Og'irligi** | 1886 kgdan 2175 kg gacha |

**METODLAR**

Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg_i-energetika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo_shimcha chora-tadbirlar to_g_risida

O_zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 10.07.2020 yildagi PQ-4779-son

Yoqilg_i-energetika resurslaridan samarali va oqilona foydalanishni rag_batlantirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini mamlakat iqtisodiyotiga keng joriy etish, iqtisodiyot tarmoqlari va aholiga elektr energiyasi va neft-gaz mahsulotlarining uzluksiz yetkazib berilishini ta‘minlash maqsadida:

1. Belgilab qo_yilsinki:

2020-yil 1-avgustdan hududiy elektr tarmoqlari korxonalari tomonidan elektr energiyasini yangi ishga tushiriladigan quyosh, shamol, biogaz elektr stansiyalari, quvvati 1 MVt gacha bo_lgan mikro va kichik gidroelektrstansiyalardan, shu jumladan o_z ehtiyojlari uchun ishlab chiqarilgan ortiqcha elektr energiyasini kafolatlangan tarzda sotib olish bo_yicha tarif sotish, tarqatish va yetkazib berish xarajatlarini chegirib tashlagan holda II tarif guruhi iste‘molchilari darajasida belgilanadi; sanoat ko_lamidagi (1 MVt yoki undan ortiq) qayta tiklanuvchi energiya manbalari (gidroelektrstansiyalardan tashqari) sohasidagi loyihalarni amalga oshirish uchun potensial investorlarni aniqlash shaffof auksion (tanlov) savdolari orqali amalga oshiriladi;

O_zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi Suv xo_jaligi vazirligi, ―O_zbekgidroenergo‖ AJ va mahalliy hokimiyat organlari bilan birgalikda potensial investorlarni jalb qilish masalasini o_rganish uchun axborotni o_z rasmiy veb-saytida joylashtirish hamda foydalanish mumkin bo_lgan boshqa rasmiy usullar yordamida tarqatish, shu jumladan biznes-tadbirlarda ishtirok etish va xorijda ―road-show‖lar o_tkazish orqali tizimli asosda, biroq yiliga kamida bir marotaba belgilangan quvvati 1 MVt gacha bo_lgan mikro va kichik gidroelektrostansiyalar portfelini shakllantiradi.

2. Quyidagilar:

3,3 mlrd kVt soat elektr energiyasi, 2,6 mlrd $m^3$ tabiiy gaz va 16,5 ming tonna neft mahsulotlarini tejashni nazarda tutuvchi 2020 — 2022-yillarda iqtisodiyot tarmoqlarida yoqilg_i-energetika resurslarini tejashning maqsadli parametrlari 1-ilovaga muvofiq;

Iqtisodiyot tarmoqlarining yirik energiya sarflovchi korxonalarida energiya samaradorligini oshirish va yoqilg_i-energetika resurslarini tejash bo_yicha ―Yo_l xaritasi‖ 2-ilovaga muvofiq;

Yoqilg_i-energetika resurslari jami yillik iste‘moli ikki ming tonnadan ortiq shartli yoqilg_i yoki bir ming tonnadan ortiq motor yoqilg_isi bo_lgan korxonalarni majburiy energetik tekshiruvdan (energiya auditidan) o_tkazishning 2021-2022-yillar davriga mo_ljallangan jadvali 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Vazirliklar, idoralar va xo_jalik tashkilotlarining birinchi rahbarlariga ushbu qaror bilan tasdiqlangan yoqilg_i-energetika resurslarini tejashning maqsadli ko_rsatkichlari va majburiy energetik tekshiruvlar o_tkazish jadvalini bajarish yuzasidan shaxsiy javobgarlik yuklatilsin.

3. –Energiyadan oqilona foydalanish to_g_risida‖gi O_zbekiston Respublikasining Qonuni bilan budjetdan tashqari Tarmoqlararo energiyani tejash jamg_armasini (keyingi o_rinlarda — Jamg_arma) tashkil etish nazarda tutilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

Belgilansinki, Jamg_arma O_zbekiston Respublikasi Energetika vazirligining tuzilmasiga kiradi va davlat muassasasi shaklidagi yuridik shaxs hisoblanadi.

**XULOSA**

Mamlakatda tarkibiy o_zgartirishlarni chuqurlashtirish, iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash hamda hududlarni bir maromda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Joriy yilning 8-9-iyul kunlari Toshkent shahrida –yashil‖ iqtisodiyot bo_yicha normativ-huquqiy bazani va siyosatni takomillashtirish, davlat va xususiy sektor o_rtasidagi sheriklik munosabatlari orqali innovatsion –yashil‖ investitsiyalarni qo_llab-quvvatlashga qaratilgan Yevropa va MDH davlatlarining –yashil‖ iqtisodiyot bo_yicha mintaqaviy vazirliklar konferensiyasi o_tkazildi.

Shu bilan birga, o_tkazilgan tahlil iqlimning o_zgarishi sharoitida samarali, resurs tejamkor va ekologik xavfsiz iqtisodiyotni ta‘minlashda o_zaro bog_liq muammolar va ehtiyojlar mavjudligini ko_rsatdi. texnologik modernizatsiyalash va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish orqali iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish;

Iqlim o_zgarishi oqibatlariga moslashish va ularni yumshatish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va tabiiy ekotizimlarni asrash; sanoat korxonalari infratuzilmasini modernizatsiyalash, energiya samaradorligini 20 foizdan kam bo_lmagan miqdorga oshirish hamda sof va ekologik xavfsiz texnologiyalar va sanoat jarayonlaridan yanada keng foydalanish hisobiga ularning barqarorligini ta‘minlash;

Energiya samaradorlik va ekologik jihatdan yaxshilangan tavsiflarga ega motor yoqilg_isi va avtotransport vositalari ishlab chiqarishni hamda ulardan foydalanishni kengaytirish, shuningdek, elektr transportni rivojlantirish

transport xarajatlarini qisqartirish va transport sohasining samarali faoliyatini ta‘minlashga qaratilgan yagona kompleks rivojlanish siyosatini shakllantirish, shaharni uzoq muddatli rivojlantirish rejalari va ekologik xavfsizlik choralariga muvofiq –yashil‖ transportni rivojlantirish;

standartlarga mos keluvchi energiya samaradorligi va ekologik tavsiflari yaxshilangan avtotransport vositalari, elektromobillar, avtomobillar ishlab chiqarish va ulardan foydalanishni kengaytirish;

**KELAJAKDAGI ISHLAR**

Quyosh energiyasi bilan ishlaydigan elektr transport vositalarining ko'plab dizaynlari mavjud, ular "quyosh mashinalari" deb ataladi, lekin ularning umumiy muammosi-batareyalarning past samaradorligi (odatda taxminan 10-15%, ilg'or ishlanmalar 30%ga erishish imkonini beradi). kuniga katta miqdordagi energiyani saqlashga, kunlik yurishni kamaytirishga imkon beradi; Bundan tashqari, quyosh batareyalari tunda va bulutli ob -havoda foydasiz

bo'ladi. Ikkinchi muammo - quyosh panellarining yuqori narxi. Quyosh transport vositalariga misollar: *Venturi Astrolab* , *Venturi Eclectic* (qo'shimcha shamol turbinasi bilan jihozlangan), *ItalDesign-Giugiaro Quaranta* kontsept - *kar prototiplari* (shu bilan birga, quyosh panellari tomonidan to'plangan energiya bort elektronikasini quvvatlantirish uchun etarli), Italiya *Phylla* , shuningdek , 2012 yil butun dunyo bo'ylab marafonni yakunlagan *SolarWorld GT* [36]... Ikkinchisi har biri nominal quvvati 1,4 kVt bo'lgan ikkita Loebbemotor g'ildiragi bilan jihozlangan (har birining kuchi 4,2 kVt yoki jami 11,42 ot kuchiga teng). Kam vazn tufayli (uglerod tanasi 260 kg og'irlikka erishishga imkon berdi, tananing o'zi 85 kg og'irlikda) va aerodinamik jihatdan mukammal tana shakli ( $Cx$ = 0.137) tufayli maksimal 120 tezlikka erishish mumkin edi. km / soat Kruiz tezligi soatiga 50 km ni tashkil qiladi (dvigatellar nominal quvvat bilan ishlaganda), SolarWorld GT 275 km masofani bosib o'tishi mumkin - bu ko'plab zamonaviy elektromobillarga qaraganda ko'proq. Bu yurish quvvati 4,9 kVt soat bo'lgan 21 kg lityum-ionli akkumulyator bilan ta'minlangan.

Mamlaakatimizda quyoshli kunlar ko‘pligi va energiyani saqlash hamda transport xarajatlarini qisqartirish va transport sohasining samarali faoliyatini ta‘minlashga qaratilgan yagona kompleks rivojlanish siyosatini shakllantirish, shaharni uzoq muddatli rivojlantirish rejalari va ekologik xavfsizlik choralariga muvofiq ‒yashil‖ transportni rivojlantirish;

Strategiyani amalga oshirish natijasida 2030-yilga borib quyidagilarga erishish kutiladi: sanoat korxonalari infratuzilmasini modernizatsiyalash, energiya samaradorligini 20 foizdan kam bo‗lmagan miqdorga oshirish hamda sof va ekologik xavfsiz texnologiyalar va sanoat jarayonlaridan yanada keng foydalanish hisobiga ularning barqarorligini ta‘minlash;

energiya samaradorlik va ekologik jihatdan yaxshilangan tavsiflarga ega motor yonilg‗isi va avtotransport vositalari ishlab chiqarishni hamda ulardan foydalanishni kengaytirish, shuningdek, elektr transportni rivojlantirish;

## FOYDANILGAN ADBIYOTLAR:

1. LEXUZ https://lex.uz/uz/docs/-4429732
2. Manba https://ru.wikipedia.org/w/index.php?title=Toyota_RAV4_EV&oldid=111188365
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Elektromobil
4. https://lex.uz/docs/-4890081

5 YANVAR / 2022 YIL / 14 – SON

# QUR'ON KARIMNI O`ZBEK TILIGA TARJIMA QILINISHI, TARJIMALARINING RIVOJI VA UNING HOZIRGI KUNDAGI AXAMIYATI

**Numanov Ziyodbek Baxodirjonovich**
O̱zbekiston xalqaro islom akademiyasi magistranti

Asrlar davomida shakllangan davlatchilik XIX asr oxirida tanazzulga yuz tutdi. Xalq chor imeriyasining mustamlakachilik siyosatiga duchor bo'ldi. Mana shu davrdan boshlab yuksak va qadimiy madaniyatimiz, qadryatlarimiz toptala boshladi. Shunday bo'lsada, xalq imkon qadar o'z dinini saqlashga harakat qildi. Lekin tarix sahnasiga bolsheviklar kelgandan so'ng, ahvol yanada og'irlashdi. Bolsheviklar o'zlarini ateistik (Xudosiz) jamiyat deb e'lon qildilar. Nafaqat islom balki, boshqa din vakillari ham siquvga olindi. Uyidan arab alifbosidagi biror kitob chiqqan odam, bu davlatga qarshi xoin deb atalib otib tashlangan. Bunday zo'ravonlik kayfiyatida Qur'on haqida tadqiqot uyoqda tursin, uni o'qish jinoyat darajasiga ko'tarildi.

Ammo shunday ayovsiz zamonda ham yurtdoshlarimiz orasidan fidoiy islom olimlari yetishib chiqdi va ular mavjud xavf-xatarni pisand etmay, Qur'on tafsiri va tarjimalari borasida diqqatga sazovor ishlar amalga oshirdilar[7]. Shu o'rinda ularning ba'zilari xususida so'z yuritamiz.

Sayyid Mahmud ibn Sayyid Nazir at-Taroziy Oltinxon to'ra 1896-yilda Farg'onaning Chimyon qishlog'ida tavallud topdi[8]. Otasi Sayyid Nazir Qur'onni to'liq yodlagan va hadis ilmining bilimdonlaridan bo'lib, xalq ichida Eshonxon domla nomi bilan mashhur edi. U Oltinxon To'ra yoshlik davrida oilasi bilan Qozog'istonning Jambul – hozirgi Taroz shahriga ko'chib o'tgan. Ba'zilar unga al-Farg'oniy nisbatini beradilar. Lekin buning haqiqatga unchalik yaqin emasligi haqida filologiya fanlari doktori H. Karamatov shunday yozadi: ―Chet ellarda Turkiston o'lkasining ko'zga ko'ringan ulamolaridan biri sifatida tan olingan o'zbek tarjimoni Avliyo Ota deb nomlangan Taroz shahrida tug'ilgan.‖[9] Dastlabki ta'limni otasidan, so'ngra Shayx ibn Kamol Nosirhon To'ra Kosoniydan, davrining boshqa yetuk olimlaridan oldi. Arab, fors, turk tillarining barcha lahjalarini mukammal egallab, mudarris bo'lib yetishdi. Shu tariqa xalq orasida Oltinxon to'ra nisbati bilan shuhrat topdi. Mana shuning o'zi unga al-Farg'oniy emas, balki at-Taroziy nisbatini berishga yetarli dalil bo'ladi.

1930 yil u ona vatanidan bosh olib chiqib ketishga majbur bo'ladi. Buning boisi qatag'on siyosati uni ham chetlab o'tmadi. Buning sababidan avval u Afg'onistonda, Pokistonda, so'ng Hindistonning Bombay shahridagi masjidda imom-xatib bo'lib ishladi. Ikkinchi jahon urushi boshlangandan keyin, Saudiya Arabistoniga ko'chib bordi. Umrining oxirigacha Makka va Madina shaharlarida yashab ijod qildi. U Ka'batulloh joylashgan harami sharifda, Madinadagi ―Masjid an-Nabaviyda‖ mudarrislik qilib, Qur'on va hadislardan saboq berdi. Tafsir, hadis, fiqh, adabiyot va ilmning boshqa sohalariga oid asarlar muallifi va tarjimon bo'libgina qolmasdan, u Qur'oni karimni zamonaviy o'zbek tiliga ilk bor tarjima qilib, tafsir yozganlardandir. Bu kitob Hindiston, Pokiston va Saudiya Arabistonida qayta-qayta chop

[7] Obidov R. O'rta Osiyo olimlarining tafsir sohasidagi xizmatlari. –T.: Toshkent islom universiteti nashriyot matbaa birlashmasi, 2009. –B. 31.
[8] O'sha manba. –B. 31.
[9] Karomatov H. O'zbek adabiyoti va Qur'on mavzulari. Fil.fan.dok....dissert. –T.: 1993. –B. 46.

etilgan. Bundan tashqari Imom an-Navaviyning Payg‘ambar hadislariga bag‘ishlangan "Riyoz us-solihiyn" nomli 4 jildli asarini, Imomi A‘zamning "Fiqh al-akbar", "Nur ul-basar", "Aqoid islomiya", "Hizb al-A‘zam", at-Termiziy qalamiga mansub "Kitob ash-shamoil an-Nabaviya" kabi kitoblarini o‘zbek tiliga o‘girdi.

Ko‘p yillar vatandan uzoqda ijod qilib yashagan bo‘lsada, u vatanini ko‘p qumsardi. U 1991 yil 23 iyunda 98 yoshda Madina shahrida vafot etdi. Toshkent shahrida uning qizi va Yangiyo‘l tumanida bir o‘g‘li yashaydilar. Qolgan farzandlari Madina shahrida istiqomat qiladilar[10]. O‘zbekcha tarjimalar haqida keyingi bo‘limda batafsil ma‘lumot berilgani uchun olimning tafsirig to‘xtalmadik.

Bunday tahlikali davrda yurtimizdan yana bir yetuk olim yetishib chiqdi. Asli Tataristonlik Muti‘ulloh Sunnatulloh o‘g‘li 1891 yilda tavallud topgan. Ko‘p yillar TASSR Nurlat-Oktabr shahri, Zapadnaya ko‘chasida istiqomat qilgan. 1959 yildan boshlab umrining oxirigacha Toshkentda yashab ijod qilgan[11].

U Qur‘oni karimni ma‘naviy tarjima qilgan bo‘lib, Qur‘oni karim ma‘nolarini boshqa tildagi tafsiri deyiladi. Uni o‘zi yozishicha, u o‘z tafsirini Qozon shahrining Oqsuv rayonida 1963–1967 yillarda yozgan. Uning haqiqatda ham mazkur tafsirni o‘zi yozganligi, qo‘lyozmaning egasi ham o‘zi ekanligini tasdiqlovchi hujjat ham bo‘lib, ushbu hujjatni Tatariston ASSR mutasaddilari yozma ravishda tasdiqlaydilar.

Muallif tafsirini nihoyasiga yetkazganidigan so‘ng, uni nashr qilishga so‘rab 1966 yil dekabr oyida KPSS Markaziy komitetida bosh kotibi Brejnev nomiga ariza bilan murojat qiladi va 1967 yil 24 yanvarda Bosh kotib bilan uchrashadi. Bosh kotib tavsiyasi bilan uni O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy idorasiga boradi. U yerda asarga yuqori baho berildi. Ammo bunday davrda din asoslarini o‘zbek-tatar tilida nashr etishga ijozat berilmas edi. Muftiy tarjimonga xat yozib, tafsir eski adabiyotlardan foydalinib yozilganini bahona qilib uni nashr etishdan bosh tortadi. SSSRning Yevropa qismi va Sibir musulmonlari idorasi ham ko‘rib chiqib yuqoridagi xulosani beradilar. Keyinchalik Tatariston nashriyotlari ham arabcha shirift yo‘qligini bahona qilib, asarni chop etishdan bosh tortadilar.

1971 yil 24 avgustda olim ikkinchi marta Brejnevga ariza bilan murojaat qiladi. U yerdan SSSRning din ishlari vazirligiga, u yerdan esa, Toshkentga yuboriladi. Toshkentdagi Respublika din ishlari bo‘yicha kengash tavsiyasi bilan Toshkent shahar Navoiy ko‘chasi 30 uyda joylashgan nashriyotga boradi. Olimni bu yerda ham vaqti zoe ketadi. Nashriyot rahbari Moskovadan rasmiy xat talab qiladi. Muallif bir necha yil qimmatli vaqtini sarf qilib yozgan asarini nashr qila olmay, 1986 yili Toshkentda vafot etadi[12]. Bunga mansabdor shaxslarni bee‘tiborligidan emas, balki SSSR davltining johilona siyosati sabab bo‘lgan.

Tafsirni hajmi haqida Muti‘ulloh o‘z xatlarida uni 1460 sahifadan iboratligini ta‘kidlagan. Ammo qo‘lyozmaning o‘zi esa, 1343 sahifani tashkil etadi. Bunga 514 sahifadan so‘ng, 642 sahifadan yozib ketilgani, oradagi raqamlar tashlab ketilganini sabab qilib keltirish mumkin. Tafsir tatar tilida deyish unchalik to‘g‘ri bo‘lmaydi. Chunki, asarni o‘qigan kitobxon uni

---

[10] Sayyid Mahmud ibn Sayyid Nazir at-Taroziy Oltinxon To’ra. Al-Qur’on al-karim ma’nolarining tarjimasi va sharhlar. – T.: Fan, 2002 – –B.10.

[11] Obidov R. O’rta Osiyo olimlarining tafsir sohasidagi xizmatlari. –T.: Toshkent islom universiteti nashriyot matbaa birlashmasi, 2009. –B. 34

[12] Obidov R. O’rta osiyo olimlarining tafsir sohasidagi xizmatlari. –T.: Toshkent islom universiteti nashriyot matbaa birlashmasi, 2009. –B. 38.

o'zbek tiliga yaqin qilib yozilgani bilib oladi. Oyatlar ham, uning tarjimasi ham arab alifbosida yozilgan. Asar boshqa tafsirlardan bir jihati bilan ajralib turadi. Oyatdan keyin qisqacha tarjima berilmasdan uning tafsiriga o'tib ketiladi. Har bir oyatning ketidan ―Alloh taolo aytadi‖ jumlasi qo'llanilgan[13]. Kelajakdagi tadqiqotlarimizda albatta bu olimning asarini qunt bilan o'rgansihga harakat qilamiz.

―Domla Hindistoniy‖ nomi bilan mashhur bo'lgan yana bir buyuk olim Shayx Muhammadjon mullo Rustam o'gli. U 1982 yilda Qo'qon muhofazatiga qarashli Xoja Muhammad Valiy qabristoniga yaqin Chorbog' qishlog'ida tug'ilgan[14]. To'liq ismi Mavlono mullo Muhammad Sharif Hindistoniy Rustam o'gli. Otasi uni qori qilish maqsadida Muhammad Amin Qoriga beradi. Bir oydan so'ng Qo'qondagi Zikriyoqori huzurida Qur'oni karimni yod oldi. Ilmga chanqoq yosh Muhammad 1910-yilda Buxoroga borib, u yerda ―Qozi domla‖ nomi bilan mashhur bo'lgan Muhammad G'avsdan ilm o'rgana boshlaydi. Biroq issiq havo talabaga ta'sir qilib Toshkentga qaytishga majbur bo'ladi. Bir muddat Toshkentda yashab, Ko'kaldosh madrasasida dars berdi. Shundan so'ng Afg'oniston amiri uni chaqirib olib, Jalolobod shahriga qozi etib tayinlaydi[15].

Keyinchalik ham olim izlanishda davom etdi. Bizga ma'lumki so'nggi asrlarda Hind diyorida islomiy ilmlar rivojlangan. Muhammadjon Rustam o'g'li ham ko'p yillar davomida Ajmir shahridagi ―Usmoniya‖ madrasasida tahsil oladi[16]. U yerda 8 yil o'qiydi. Taqdir taqozosi bilan poezda haj safariga ketayotgan otasi bilan uchrashib qoladi. Otasi u kishiga: ―Endi maslahat shulki tezlik bilan madrasadan javob ol. Meni hajga olib bor‖. Otasi Makkada vafot etadi. Hindistoniy Ajmirda madrasani oxirgi bir yilini o'qib, shahodatnoma olgandan so'ng 1929 yil Vatanga qaytadi. Mahallada ozgina imomlik qilgandan so'ng tuhmat bilan qamaladi. Oqlanib chiqqach, ateistik jamiyat uni madrasida mudarrislik qilish uyoqda tursin, uni mahallaga imomlik qilishga ham yo'l qo'ymadi. Natijada pilla punkitida pillachi bo'lib ishga kirishga majbur bo'ldi. Hindistoniy yana uch yil qamoq jazosini o'tab chiqadi. E'tiborli jihati pasportida yoshi kichik qilib yozilgani uchun 1943 yili uni urushga olib ketildi. Minskda qo'lidan yarodor bo'lib, Smol'insk kasalxonaga yotqiziladi. Moskvada qo'lini ikki marta operatsiya qildirib tuzalgandan so'ng yog' zavodining qo'ylarini boqish uchun ishga kiradi. O'z ishiga merh bilan qilgani uchun, xurmatga sazovor bo'lib, mukofotlar oladi.

1946 yil Qo'qonga qaytadi. 1947 yilda O'rta Osiyo va Qozog'izton musulmonlari idorasi tashabbusi bilan Dushanbedagi Mavlono Yaqub Charxiy mozoriga mutavalli etib tayinlanib, bir yildan so'ng imom qilib tayinlandi. Yana ko'p vaqt o'tmay xalq dushmani deb qamatib yuboriladi. To'rt yarim yildan so'ng oqlanib, Dushanbe Fanlar Akademiyasiga fors-arab tarjimoni sifatida qabul qilinadi. Shunday qiyinchiliklarga qaramay ilm-ma'rifat uchun katta xizmatlarni qilib ketdi. Mavlono mullo Muhammad Sharif Hindistoniy Rustam o'gli 1949-yildan to umrlarining oxirigacha ya'ni, 1989-yilgacha Dushanbe shahrida istiqomat qildi[17].

---

13 Obidov R. O'rta osiyo olimlarining tafsir sohasidagi xizmatlari. –T.: Toshkent islom universiteti nashriyot matbaa birlashmasi, 2009. B 39.

14 Mavlono mulla Muhammad Sharif Hindistoniy Rustam o'gli. Qur'oni karim oyatlari ma'nolarining izohli tarjimasi. –T.: Movarounnahr, 2006. –B. 10.

15 Obidov R. O'rta osiyo olimlarining tafsir sohasidagi xizmatlari. –T.: Toshkent islom universiteti nashriyot matbaa birlashmasi, 2009. –B. 44.

16 Bu olimning ustozi qilgan vasiyati edi.

17 Mavlono mulla Muhammad Sharif Hindistoniy Rustam o'gli. Qur'oni karim oyatlari ma'nolarining izohli tarjimasi. –T.: Movarounnahr, 2006. – –B. 11.

Muhammad Sharif Hindistoniydan ulkan ilmiy meros qoldi. U kishi Tojikiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar bo'limida ishlagan paytlarida juda ko'p qo'lyozmalarni arab tilidan fors tiliga tarjima qildilar. Yana muhim jihat Hindistoniy firqachilik va oqimlarga qattiq qarshilik qilganlar. Olim Imomi A'zam mazhabi va naqshbandiya tariqatida bo'lgan. Chet ellarda yurgan paytlarida Mullo Faqir degan murshidga murid bo'lgan[18]. Hindistoniydan qolgan ilmiy merosni shartli ravishda uch qismga ajratish mumkin

1. Yozgan asarlari: Qur'oni karimning ma'naviy tarjimasi - ―Bayonul Furqon fi tarjimatil Qur'on‖ kitobi. Shu bilan birga, ba'zi o'zbekcha va forscha sherlari.
2. Tarjimalari: Tojikiston Fanlar akademiyasining qo'lyozmalar insitutida ishlab, arab tilidan fors tiliga o'girgan kitoblari: Qur'on, hadis, fiqh, ilmu maoniy, mantiq, ilmu kalom, sarfu-nahv va boshqa fanlardan qilgan tarjimalari. Ularni asosiylarini quyida sanab o'tamiz: Zamaxshariyning ―Navobig'ul kalim‖ hamda ―Maqomoti Zamaxshariy‖ asarlarini arab tilidan fors tiliga, Imom Busiyriyning ―Qasidai Burda‖ asarining fors tilidagi tarjimasi, arab shoiri Farazdaqning Imom Zaynul Obidinga bag'ishlangan qasidasini o'zbek tilidagi tarjimasi, Usmon O'shiyning ―Qasiydai Omoliy‖ asarining forscha tarjimasi kabilar.
3. Video va kassetada yozib olingan ma'ruzalari va ilmiy suhbatlari. Bu ma'ruzalarida asosan Qur'on, hadis, fiqh, islom tarixi va odob-axloq kabi mavzulari yoritib berilgan[19].

Shunday og'ir davrda yashgan yana bir ajdodimiz bir necha yillar xalqimizga din arkonlarini o'rgatib kelgan Shamsuddin Boboxondir. U 1937 yil 8-aprelda Toshkent shahri ―Hazrati Imom‖ mahallasida Eshon Bobohonning xonodonida tavallud topgan[20]. Otasi va bobosi kabi ilmga chanqoq bolakay oldiniga otasidan, kyenchalik Toshkent islom insitutida o'qiydi. 1975-82 yillarda Toshkent islom universitetida rektor, 1982-89 yillarda O'rta Osiyo va Qozog'iston musulomonlari diniy idorasi muftisi, 1994-2001 yillarda O'zbekistonning Misr Arab Respublikasi, Saudiya Arabistoni hamda o'rindoshlik asosida Jazoir, Iordaniya, Kuvayt va Bahraynda Favqulodda va Muxtor elchisi lavozimlarida ishlagan. U Iordaniya qirollik Akademiyasining haqiqiy a'zosi[21].

Shamsuddin Boboxon qator ilmiy va ommabop kitoblar, risolalar va maqolalar muallifidir. Xususan, uning qalamiga mansub ―Shayx Ziyovuddin ibn Eshon Boboxon‖ nomli kitobida dinga sadoqat, tinchlik, birdamlik, xalqlar o'rtasida do'stona va odilona munosabatlarini rivojlantirish yo'lida otashin kurashchi muftiy Ziyavuddin ibn Eshon Boboxon hazratlarining hayot va faoliyatiga bag'ishlanadi.

U tarjimon sifatida ham faoliyat ko'rsatib, Qur'oni karimning 36 ta surani o'z ichiga olgan 30-Amma porasini o'zbek tiliga o'girdi va izohlar bilan 1991 yilda chop ettirdi. Asarning kirish qismida tarjimon shunday deydi: ―Garchi Qur'oni karimning sharqiy tillarga qilingan tarjima, izoh va tafsirlari ancha qadimdan mavjud bo'lsa ham, lekin uning ma'nolarini hozirgi o'zbek tiliga tarjima qilish jarayoni endigina boshlandi. Bu ishda biz izohli tarjima uslubini ixtiyor etdik va oyatlar ma'nosini iloji boricha aniqroq tarjima etishga harakat qildik.‖

---

[18] O'sha manba. –B. 13.
[19] Mavlono mulla Muhammad Sharif Hindistoniy Rustam o'gli. Qur'oni karim oyatlari ma'nolarining izohli tarjimasi. –T.: Movarounnahr, 2006. – –B.
[20] Muxtorov A. Markaziy Osiyoda islom ilmi rivojida Toshkent islom insitutining o'rni. –T.:Fikr, 2010. –B. 36.
[21] Obidov R. O'rta osiyo olimlarining tafsir sohasidagi xizmatlari. –T.: Toshkent islom universiteti nashriyot matbaa birlashmasi, 2009. –B. 59.

Yuqoridagi tarjimonlar mustaqillik ne‘matlaridan bahramand bo‘la olmay bu dunyoni tark etdilar. Endi quyida bugun istiqlol gulshanida emin-erkin ijod qilayotgan mufassirlar bilan tanishib chiqamiz.

Falsafa fanlari doktori professor Mutallib Usmonov uzoq yillar davomida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Abu Rayhon al-Beruniy nomidagi Sharqshunoslik qo‘lyozmalar insitutida ishlab kelgan. U Qur‘oni karimning o‘zbek tilidagi ilmiy-izohli tarjimasi ustida ish olib brogan shrqshunos olimlardan hisoblanadi. Uning asari Qur‘onni 15 porasini o‘z ichiga olgan. Olim bilan birga mualliflar guruhida: Hoji Ismatulloh Abdullaev, Abdusodiq Irisov va Ubaydulla Uvatov kabi sharqshunoslar ham bor. Asar mustaqillikning ilk yillarida nashrga tayyorlangan bo‘lsada, uni nashri 2004 yilda aqmalga oshirildi[22].

Akademik Nematillo Ibrohimov asarga yozilgan taqrizda shunday jumlalarni keltiradi: ―Bu davrda zamonaviy o‘zbek arabshunosligi va islomshunosligida Qur‘oni karimning o‘zbekcha tarjimasini amalgam oshirish tajribasi yo‘q edi. Shu boisdan islomshunos mutaxasislar oldida g‘oyat murakkab vazifa turardi. Zero, bu tarjima mavjud bo‘lgan tarjimalaridan farqlanib turuvchi ilmiy-akademik tarjima nashri bo‘lishi lozim edi. Olimlar zimmmasida Qur‘oni karim va islom tarixi bo‘yicha ko‘pchilikka ma‘lum bo‘lmagan ma‘lumotlarini zamonaviy til va uslubida o‘zbek kitobxonlariga yetkazish masalasi turardi. Nazarimda, qo‘lingizdagi ushbu ilmiy-tarixiy izolhli tarjima mutaxasislar o‘z oldirariga qo‘ygan vazifani muvaffaqiyat bilan uddalaganlar.[23]‖

Aytib o‘tilganidek, ilmiy-akademik tarjimaga, bir guruh yetuk bilimga ega bo‘lgan olimlar o‘z hissalarini qo‘shganlar. Tarjima turli saviyada bo‘lsa ham, umuman olganda, uning oyatlari mazmunlari bilan o‘zbek xalqini tanishtirish yo‘lida juda katta ish qilingan. Marhum professor Mutallib Usmonov Qur‘oni karimning ochqichi bo‘lgan ―Fotiha‖ va eng uzun ―Baqara‖ hamda ―Oli Imron‖ suralarini tarjima qilib, izohlar bergan. Kitobning kirish qismi ham shu olimning qalamiga mansub[24].

Kirish ikki fasldan iborat bo‘lib, ―Qur‘oni karim – qadimiy-diniy, tarixiy va madaniy obida‖ degan, birinchi faslda ―din tarixi fanining muommolari‖, ―Xalqlar tarixi va diniy yozuvlar‖, ―Sharqshunoslik fanida Islom va Qur‘on tadqiqotlari‖, ―islom tarixining davrlari va manbalari‖ haqidagi muallif Sovet tuzimi davrida Qur‘oni karimni o‘rganish darajasi haqida batafsil ma‘lumot berilgan. Kirishning ikkinchi qismida ikkinchi faslida esa ―Muhammad payg‘ambarning hayoti va faoliyati‖, ―Muhammad payg‘ambarning islomdan oldingi hayotlari‖, ―Makkadagi faoliyat‖, ―Madinadagi faoliyat‖ haqida juda keng va batafsil ma‘lumot berilgan. Uchinchi faslda esa Qur‘on tarixi bayon etilgan.

―Muhammad payg‘ambarning hayot va faoliyatlari‖ni ilova tarzida berilishini muallif shunday izohlaydi: ―Ikki-uch avlodning Islom tarixi haqidagi bilimlardan behabar qolganligi oqibatida muqaddas kitob va nodir tarixiy-adabiy yodgorlik bo‘lgan Qur‘oni karim mazmuni bilan tanishish va uning tarixini o‘rganish hozirgi o‘zbek kitobxoni uchun ancha muncha mushkul bo‘lib qoldi. Shuning uchun tarjimaga ilova sifatida berilayotgan Muhammad payg‘ambarning hayotlari va faoliyatlari hamda Qur‘oni karim tarixiga oid ushbu lavhalar

[22] Qur’oni karim. Tarjima va ilmiy-tarixiy izohlar muallifi M.Usmonov. I-kitob. –T.: Fan nashriyoti, 2004. 366. –B.1.
[23] O’sha manba. –B. 1.
[24] Obidov R. O’rta osiyo olimlarining tafsir sohasidagi xizmatlari. –T.: Toshkent islom universiteti nashriyot matbaa birlashmasi, 2009. –B. 50.

kitobxonlar oldida paydo bo'ladigan qiyinchiliklarini ma'lum darajada yengillashtirsa ajab emas, degan umiddamiz[25]‖.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, bugun mustaqillik havosidan erkin nafas olib ijod qilayotgan mutarjimlar bir nechani tashkil etmoqda. Ular haqida so'zlashda davom etamiz.

Navbatdagi tarjimon xalq ichida ―Shayx‖ nomi bilan mashhur bo'lib borayotgan yetuk olim Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufdir. U 1952 yilda Andijon viloyati Buloqboshi tumanida tug'ilgan[26]. 1946-1971 yillarda Buxorodagi Mir Arab madrasasida o'qigan. Keyinroq 1971-1975 yillarda Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom insitutida tahsil olgan. ―Sovet Sharqi musulmonlari‖ jurnalida o'zbek tili bo'limi mudiri bo'lib ishlagan. 1976 yilda O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari idorasi tavsiyasi bilan Liviyadagi ―Islom Da'vati Oliy‖ universitetiga o'qishga boradi[27]. 1980-1982 yillarda O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy idorasining ―Xalqaro aloqalar‖ bo'limida ishlaydi. Keyingi yetti yil davomida Toshkent islom insitutida avvaliga rektor o'rinbosari keyinchalik rektor lavozimida faoliyat yuritadi. 1989 yildan boshlab O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari idorasi muftisi etib tayinlanadi.

Olim islom ilmlari bo'yicha bir qator kitoblar ta'lif etib kelmoqda. Jumladan, ―Iymon‖, ―Tasavvuf haqida tasavvur‖, ―Ixtiloflar haqida‖, ―Din nasixatdir‖, ―Vasatiylik hayot yo'li‖, ―Shoyadki taqvodor bo'lsangiz‖, ―Tafsiri hilol‖, ―Aqoid‖, ―Usulul fiqh‖ kabilarni misol qilish mumkin. Bundan tashqari, bir necha o'n jildlik ―Hadis va hayot‖ (Muhammad (s.a.v.)ning hadislari to'plami sharhi) asarini ham alohida ta'kidlash lozim.[28] Bu asarlar bugungi kunda rus, tojik, qirg'iz, qozoq, ozarbayjon, uyg'ur kabi tillarga tarjima qilinmoqda[29].

Olimning eng katta ishlaridan biri bu ―Tafsiri hilol‖ nomli ko'p jildli asarni yaratishidir. Mustaqillikning ilk yillaridadayoq xalqimizning iltimosiga va ―Islom Olami uyushmasi‖ rahbarlarining tavsiyalari bilan Qu'roni karimni so'nggi juzlarini tarjima qilib chop ettirdi.

Bugun hanafiy mazhabi bo'yicha yetuk olimlar diyorimizda ko'payib bormoqda. Ularga ustozlik vazifasini ko'p yillardan buyon bajarib kelayotgan olimlarimizdan biri ―Qur'oni karim ma'nolarining tarjimasi‖ asarini yozib, xalqimizning duo va olqishlariga sazovor bo'lib kelayotgan, Shayx Abdulaziz Mansur Dadajon o'g'li haqida gapirish fursati keldi. U 1944-yil 14-aprelda Farg'ona viloyatining Mindon qishlog'ida tavallud topgan[30]. Yoshlikdan ilmga chanqoq bo'lib o'sdi. O'n yillik o'rta ta'lim maktabini bitirgach, ishlab chiqarishdan ajralmagan holda viloyatning ko'zga ko'ringan olimlari huzuriga qatnab islomiy fanlardan ta'lim olgan.

1975-1979 yillarda ―Imom Buxoriy nomidagi‖ Toshkent islom institutida tahsil oldi. Ilm izlashda davom etgan talaba Sudan Arab Respublikasining ―Ummi Do'rmon‖ islom universitetida ikki yil o'qib izlandi. Asosiy ish faoliyatini 1982- yilda Musulmonlar idorasining fatvo va masjidlar bo'limida boshlagan. Keyinchalik nashriyot direktori lavozimida ishlagan. 1997-1998 yillarda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mitada bo'lim

---

[25] Qur'oni karim. Tarjima va ilmiy-tarixiy izohlar muallifi M.Usmonov. I-kito–B. –T.: Fan nashriyoti, 2004. –B. 1.
[26] Muxtorov A. Markaziy Osiyoda islom ilmi rivojida Toshkent islom insitutining o'rni. –T.:Fikr, 2010. –B. 38.
[27] Muxtorov A. Markaziy Osiyoda islom ilmi rivojida Toshkent islom insitutining o'rni. –T.:Fikr, 2010. –B. 38.
[28] Obidov R. O'rta osiyo olimlarining tafsir sohasidagi xizmatlari. –T.: Toshkent islom universiteti nashriyot matbaa birlashmasi, 2009. –B. 54.
[29] Muxtorov A. Markaziy Osiyoda islom ilmi rivojida Toshkent islom insitutining o'rni. –T.:Fikr, 2010. –B. 39.
[30] Obidov R. O'rta osiyo olimlarining tafsir sohasidagi xizmatlari. –T.: Toshkent islom universiteti nashriyot matbaa birlashmasi, 2009. –B. 56.

mudiri, 1998-2000 yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Millatlararo munosabatlar va din ishlari bo‘yicha davlat maslahatchisi lavozimida ishlagan[31].

U ―Musulmonchilikdan ilk saboqlar‖, ―Haj ibodati qoidalari‖, ―Aqoid matnlari‖, ―Naqshbandiyaga doir qo‘lyozmalar fihristi‖, ―Islom giyohvandlikka qarshi‖, ―Ming bir fatvo‖ kabi asarlarni keng xalq ommasiga yetkazib berdi.

Uni mashhur va ma‘lum qilgan eng katta ishi ―Qur‘oni karim ma‘nolarining tarjimasi va tafsiri‖ asari bo‘ldi. Bu tarjima istiqlol sharofati bilan o‘zbek xalqi diniy erkinligiga erishgan, diniy-ilmiy meroslarni o‘rganishga o‘ta chanqoq bo‘lgan davrda, xalq uchun ushalmagan armon sifatida tuhfa bo‘ldi, desak xato qilmagan bo‘lamiz.

Navbatdagi tarjimon mashhur ―Qur‘oni karim. O‘zbekcha izohli tarjima‖ asarining muallifi sifatida xalqimizga tanilgan Alouddin Mansur Rustamov o‘g‘lidir. U 1950-yilda Qirg‘iziston Respublikasining O‘sh viloyatida xizmatchi oilasida dunyoga keldi. Boshlang‘ich ta‘limni otasidan keyinroq, marg‘ilonlik Abdulhakim qoridan nahv, sarf, arab adabiyoti, hadis va tafsir ilmlarini o‘rgandi[32]. O‘rta maktabni tamomlab, mustaqil ta‘lim bilan shug‘ullangan. 1995-yilda Qirg‘iziston davlat universiteti faxriy professori, 1997-yildan Qur‘oni karimni o‘rganish tadqiqot markazining direktori lavozimida ishlab kelgan.

Yozuvchi Xayriddin Sultonov aytishicha, 80-yiillarning boshlaridayoq Alouddin Mansur ziyolilar orasidadin aqidalaridan xabar bera boshlagan va ko‘pchilikni iymonga qaytargan. Sovet davlatida bunday ishga jazm etishning o‘zi bir jasorat bo‘lib, Alouddin Mansurning e‘tioqodini mustahkamligidan dalolat beradi[33]. Olim boshchilik qilgan Qur‘oni karimni o‘rganish markazi ushbu xayrli ishni davom ettirib, Qur‘oni karimni o‘zbek tilidan tashqari qirg‘iz, qozoq, qoraqalpoq va rus tillariga tarjima qilib kitobxonlarga yetkazib berdilar.

Umuman olganda, XX asr ikkinchi yarmida tafsir ilmlari sohasida yurtimiz ulomolari tomonidan ancha-muncha ishlar amalga oshirildi. Ularning ilmiy saviyasi, yo‘nalishlari turlicha bo‘lishiga qaramay, umumiy suratda, Qur‘oni karim ma‘nolarini xalqimiz ongiga yetkaizshda katta yordam bo‘lganligi shubhasizdir. Istiqlol sharofati bilan diniy ilmlarga keng yo‘l ochilganligi, qator diniy ta‘lim muassasalari ishga tushib, yosh avlodning chanqoqlik bilan bilim olayotgani bu sohada kelgusida yanada ulkan yutuqlarni qo‘lga kiritishimiz mumkinligiga ishonch tug‘diradi.

## FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Obidov R. O‘rta osiyo olimlarining tafsir sohasidagi xizmatlari. –T.: Toshkent islom universiteti nashriyot matbaa birlashmasi, 2009.

2. Muxtorov A. Markaziy Osiyoda islom ilmi rivojida Toshkent islom insitutining o‘rni. –T.:Fikr, 2010.

3. Qur‘oni karim. Tarjima va ilmiy-tarixiy izohlar muallifi M.Usmonov. I-kitob. –T.: Fan nashriyoti, 2004. 366.

---

[31] Obidov R. O’rta osiyo olimlarining tafsir sohasidagi xizmatlari. –T.: Toshkent islom universiteti nashriyot matbaa birlashmasi, 2009. –B. 57.

[32] O’sha manaba. –B. 56.

[33] Karomatov H. O’zbek adabiyoti va Qur’on mavzulari. Fil.fan.dok….dissert. –T.: 1993. –B. 47.

# BLOKSXEMADA ARALASH ALGORITMLAR TUZISH

**Elshod Obloberdiyev Kamol o'g'li**
*Samarqand viloyati Urgut tumani 13-maktab o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada bloksxemada aralash algoritmlar tuzish haqida ma'lumot berilgan. Algoritm, bloksxama tushunchalari misollar yordamida tushuntirilgan.*
**Kalit so'zlar:** *Algoritm, dastur, aralash algoritm, siklli, takrorlanuvchi, bloksxema.*

Algoritm - bu berilgan natijaga erishish uchun qilinishi kerak bo‘lgan aniq ko‘rsatmalarning tartibli ketma-ketligi hisoblanadi. Algoritm keng ma’noda faqat kompyuterga oid atama bo‘lmay, balki unda berilgan ko‘rsatmalarni bajara oluvchi har qanday narsaga oid tushunchadir.

Algoritm – ma’lum bir turga oid masalalarni yechishda ishlatiladigan amallarning muayyan tartibda bajarilishi haqidagi aniq qoidalar majmuyi ya'ni dastur. Kibernetika va matematikaning asosiy tushunchalaridan biri. O‘rta asrlarda o‘nli sanoq tizimi bo‘yicha to‘rt arifmetik amal bajariladigan qoidani algoritm deb atashgan. "Bu qoidalarni matematikaga IX-asrda al-Xorazmiy tomonidan kiritilgan. Yevropada bunday qoidalar uning tug'ilgan yurtiga nisbatan lotinchalashtirilgan (Algoritmus yoki Algorithmus shaklida "algorizm" deyilgan), keyinchalik "algoritm"ga aylangan" Algoritm tushunchasi tobora kengayib borib, kibernetikaning nazariy va mantiqiy asosi hisoblangan algoritmlar nazariyasi paydo bo‘ldi.

Har qanday algoritm mantiqiy tuzilishiga, ya‘ni bajarilish tartibiga qarab uch asosiy turga bo‗linadi: chiziqli, tarmoqlanuvchi va takrorlanuvchi.

Chiziqli algoritmlar. Barcha ko‗rsatmalari ketma-ket joylashish tartibida bajarib boriladigan algoritmlar chiziqli algoritmlar deyiladi. ―Choy damlash‖, doira yuzini hisoblash algoritmlari chiziqli algoritmlarga misol bo‗ladi. Lekin hayotimizdagi juda ko‗p jarayonlar shartlar asosida boshqariladi.

Tarmoqlanuvchi algoritmlar. Shartga muvofiq bajariladigan ko‗rsatmalar ishtirok etgan algoritmlar tarmoqlanuvchi algoritmlar deb ataladi. Algoritmlarning bu turi hayotimizda har kuni va har qadamda uchraydi. Eshikdan chiqishimiz eshik ochiq yoki yopiqligiga, ovqatla-nishimiz qornimiz och yoki to‗qligiga yoki taomning turiga, ko‗chaga kiyinib chiqishimiz ob-havoga, biror joyga borish uchun transport vositasini tanlashimiz to‗lash imkonimiz bo‗lgan pulga bog‗liqdir. Demak, tarmoqlanuvchi algoritmlar chiziqli algoritmlardan tanlanish imkoniyati bilan farqlanar ekan. Avvalgi darslardagi kvadrat tenglamani yechish, ikki sonning EKUBini topish algoritmlari tarmoqlanuvchi algoritmlarga misol bo‗ladi.

Takrorlanuvchi algoritmlar. Masalalarni tahlil etish jarayonida algoritmdagi ba‘zi ko‗rsatmalar takroran bajarilishini kuzatish mumkin. Masalan, eng katta kvadratlar kesib olish masalasi, Evklid algoritmi. Hayotimizda ham juda ko‗p jarayonlar takrorlanadi. Masalan, darslarning har hafta takrorlanishi, har kuni nonushta qilish yoki maktabga borish va hokazo. Ko‗rsatmalari takroriy bajariladigan algoritmlar takrorlanuvchi algoritmlar deb ataladi.

Algoritmlarni yozish usullaridan biri blok - sxema bo‗lib, u algoritmning ma‘lum geometrik shakllar yordamida yaqqol yozilishidir.

Har bir geometrik shakl (blok) ma‘lum ma‘noni anglatadi. Bloklar o_zaro yo_naltirilgan chiziqlar orqali bog_lanadi va chiziqning yo_nalishi algoritmning bajarilish ketma - ketligini belgilaydi.

Blokdagi shakllar ichida oddiy tilda tushunarli matematik simvollarni qo_llash mumkin.

Blok - sxema algoritm tuzuvchi uchun dastur tuzilishini yaqqol tasavvur qilishning yaxshi usulidir. Berilgan masala algoritmining blok - sxemasini dasturlash tillarining qoidalariga moslab tuzish shart emas. Chunki blok - sxema shaklida yozilgan algoritmni dasturlash tillaridan xabarsiz har bir kishi ham o_qiy olishi lozim.

Agar masalaning blok - sxemasi berilgan bo_lsa, undan foydalanib, dastur tuzish mumkin. Buning uchun har bir blokni shu til qoidalari asosida ko_chirib yozish yetarli.

Blok - sxema quyidagi asosiy elementlardan iborat :

1) Algoritmning boshlanishi yoki oxirini bildiruvchi blok;

Ular shakl jixatidan bir xil bo_lgani uchun algoritm boshlanishini bildirgan blok ichiga "Boshlash", oxirini bildiruvchi blokning ichida esa "Tamom" so_zlari yozib quyiladi. Algoritmning boshlanishini bildiruvchi blokdan faqat chiqish mumkin.

2) Blok - sxemalarda ma‘lumotlarni standart kiritish va chiqarish blokining umumiy ko_rinishi parallelogramm shaklida bo_lishi mumkin. Qaysi o_zgaruvchilarning qiymatini kiritish kerak bo_lsa, shu o_zgaruvchilarning nomlari blokning ichiga yozib qo_yiladi. Bu blokka kirish va undan chiqish mumkin, ya‘ni blok bitta kirish va bitta chiqish ko_rsatkichiga ega.

3) Amallar bajaruvchi blokning ko_rinishi to_g_ri to_rtburchak shaklida bo_ladi.

Bu ko_rinishdagi blok chiziqli blok ham deyiladi. Bajarilishi lozim bo_lgan ish blokning ichiga yozib qo_yiladi. Blokning ichida bir qancha formulalar ham bo_lishi mumkin. Blokdan chiqish uchun blok ichidagi hamma buyruqlarni bajarish lozim. Blokni tartibli raqamlash ham mumkin. Bu bloklar ham bitta kirish va bitta chiqish ko_rsatkichiga ega. Bu turdagi blok ichiga yozilgan tenglik belgisini matematik ma‘noda tenglik deb tushunmaslik kerak, balki bu belgining o_ng tomonida turgan ifodaning qiymati chap tomonda turgan o_zgaruvchiga jo_natilyapti yoki o_zgaruvchiga qiymat berilyapti yoki qiymat ta‘minlanayapti deb tushunish zarur.

Shartli shaklda ikki vaziyatdan biri bajariladi, agar undagi ifoda bajarilsa yo_naltirilgan chiziq ustida + (yoki "ha" so_zi) , aks holda - ishorasi (yoki "yo_q" so_zi) qo_yiladi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. A. Axmedov N. Taylaqov ―Informatika‖, Toshkent ―O‘zbekiston‖, 2001.
2. B.J. Boltayev, A.R. Azamatov A.D. Asqarov, M.Q. Sodiqov, Gulnoza A.G. Azamatova INFORMATIKA 9-sinf. darslik.
3. A. Abduqodirov va boshqalar ―Informatika‖, T.: ―Me‘ros‖. 2002.
4. A. Sattorov «Informatika va axborot texnologiyalari» Toshkent «O‘qituvchi», 2002.
5. www.kompy.info
6. www.kitob.uz
7. www.microsoft.com

# ОРГАНИЗАЦИЯ РАЗВИВАЮЩЕГО ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОСТРАНСТВА В УСЛОВИЯХ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО УЧРЕЖДЕНИЯ.

**Г.Д.Ниязова**

*Старший преподаватель кафедры «Дошкольного образования» Педагогический институт Бухарского государственного университета*

**С.С. Шарифова**

*Студентка 1-курса Дошкольного образования Педагогического института Бухарского государственного университета*

**Аннотация:** *В статье речь идет о развивающей образовательной средой понимается как специально смоделированные условия, обеспечивающие различные варианты выбора пути развития и взросления личности.*

**Annotation:** *The article deals with a developing educational environment, understood as specially modeled conditions that provide various options for choosing the path of development and maturation of a personality.*

**Ключевые слова:** *предметно-развивающая среда, стимульности свободы, природосообразности, биологизаторское направления, среда и наследственность, экспериментальная педагогика.*

**Key words:** *subject-developing environment, stimulus of freedom, conformity to nature, biologic direction, environment and heredity, experimental pedagogy.*

Под развивающей образовательной средой понимаем специально смоделированные условия, обеспечивающие различные варианты выбора пути развития и взросления личности. Создание образовательной среды позволяет ребенку осознать собственные возможности, проявить инициативу и всесторонне реализовать себя [1]. Образовательное пространство дошкольной образовательной организации состоит из следующих компонентов: взаимодействие с различными образовательными институтами, социальными партнерами и участниками педагогического процесса; предметно-развивающая среда; освоение содержания дошкольного образования. Модель образовательного пространства в условиях современной дошкольной образовательной организации является взаимодействием внешних и внутренних компонентов, процессуально и содержательно связанных благодаря соблюдению таких принципов: наличие базиса среды для всех видов деятельности ребенка; гетерогенности (разнообразия) элементов среды; свободы выбора деятельности и перехода от одной к другой; гибкости и открытости по отношению к деятельности и взаимодействия как со стороны ребенка, так и со стороны взрослого; «стимульности свободы» и творчества как со стороны взрослого, так и со стороны ребенка [4]. Образовательное пространство дошкольной образовательной организации относится к сложным, многоаспектным педагогическим явлениям, которые характеризуются не столько количественными, сколько

качественными показателями. Необходимым условием проектирования образовательного пространства в дошкольной образовательной организации является определение аспекта восприятия этого особого педагогического явления. Избранный аспект относится к ряду сущностных характеристик образовательного пространства дошкольной образовательной организации и является системообразующим фактором [3].

Таким образом, дошкольное образовательное учреждение является первым в жизни ребенка формальным институтом его развития. Именно в детском саду ребенок дошкольного возраста и приобретает начальный опыт взаимодействия с другими людьми – педагогами, родителями сверстников, наконец, ровесниками. В качестве одного из серьезных факторов приобретения ребенком социального опыта выступает образовательное пространство дошкольного учреждения, формирование которого является ведущим направлением деятельности современного детского сада.

Возрастные особенности – это характерные для определенного периода жизни психические и анатомо-физиологические качества. Поскольку объективно существуют периоды биологического созревания организма, его органов и нервной системы, а также связанное с ним развитие познавательных сил, то разумно организованное воспитание должно приспосабливаться к возрастным особенностям, основываться на них. Если отрицать или игнорировать природные ступени развития, то неизбежно возникнет ошибочное утверждение о возможности усвоить любые знания, всякий социальный опыт, практические умения и навыки в любом возрасте, при выборе и использовании соответствующей методики. Разумеется, ускоренные темпы социального развития и широкий доступ к различным источникам информации способствуют возрастанию человеческих возможностей, но не беспредельно. Возраст сильно удерживает развитие и диктует свою волю. Возможности развития существенно зависят от закономерностей, которые действуют в данной области [3].

Я.А. Коменский первый стал настаивать на строгом учете возрастных особенностей, учащихся при планировании учебно-воспитательной работы. Он выдвинул и аргументировал принцип природосообразности, утверждающий, что воспитание и обучение должны отвечать возрастным этапам развития. В природе все процессы происходят последовательно и своевременно, точно так же и в воспитании все должно идти своим чередом. Только в этом случае можно естественно привить нравственные качества, и добиться полноценного усвоения истин, для понимания которых уже созрел ум [2].

В конце XIX-начале XX в. как в Европе, так и в Америке при изучении теоретических проблем развития психики ребенка преобладало биологизаторское направление, представители которого утверждали, что судьба ребенка определяется врожденными особенностями, и объясняли развитие психики биогенетическим законом. В основе этого закона лежала идея спонтанности (или самопроизвольности) психического развития ребенка, то есть независимости от воспитания. Они

рассматривали воспитание только как внешний фактор, который может либо ускорить, либо наоборот замедлить процесс определения некоторых природных, наследственно обусловленных психических качеств.

Беря за основу биогенетический закон, американский психолог С. Холл утверждал, что каждый ребенок в своем индивидуальном развитии повторяет этапы истории человеческого рода. Поэтому нужно дать ему возможность беспрепятственно изживать первобытные инстинкты [6]. С. Холл выдвинул идею создания специальной комплексной дисциплины, которая бы включала педагогические, физиологические, и психологические знания об учащемся. Впоследствии данная дисциплина, которая возникла в первой половине XX века, стала называться педологией [6]. Многие психологи принадлежали к биологизаторскому направлению в психологии. Они рассматривали развитие лишь как количественное изменение, следовательно, развитие - это пассивное, от воли людей не зависящее вызревание, так что для каждого человека предопределен предел его развития.

Швейцарский психолог Э. Клапаред также занимался проблемами развития возрастной психологии. Он утверждал, что на поведение ребенка особое влияние оказывают мотивы, потребности и интересы. Э. Клапаред основательно изучил особенности детского мышления, и выделил набор закономерностей, в том числе положение о синкретичности (или слитности) первоначальных обобщений, о соотношении осознания ребенком сходства и различия [1]. Ученый посвятил много работ внедрению психологии в педагогическую практику. В своей книге «Психология ребенка и экспериментальная педагогика» он уделяет особое внимание тому, что педагог должен знать педагогическую психологию, задачами которой является: развитие характера ребенка, обучение его получению новых знаний, развитие у ребенка любви к труду, а также содействие становлению положительных качеств личности.

В конце XIX - начале XX вв. заметно повышается интерес к изучению социальных явлений, а также развиваются теории социологического направления в психологии. В социологических теориях развитие ребенка рассматривается как результат прямых воздействий пространственной среды. К данному направлению относятся такие французские психологи, как Ш. Блондель, Э. Дюркгейм [4].

Согласно Э.Дюркгейму, психологическое развитие является усвоением верований и чувств окружающих. Характер душевной деятельности детей определяется эмоциями и мыслями, которые были восприняты извне. В процессе развития дети должны усвоить накопленный человеческий опыт, обычаи и традиции. Это осуществляется за счет подражания. В обществе оно имеет такое же значение, как в биологии наследственность. Способность к подражанию свойственна всем от рождения [4].

П. Жане изучал вопрос о соотношении социального и биологического в развитии психики. По его мнению, человеческая психика социально обусловлена, а ее развитие состоит в становлении системы разнообразных связей с обществом и природой. Под

связями П. Жане подразумевал действия, которые являются не чем иным, как формами отношения человека к миру. Наиболее значимы среди них являются социальные действия, которые выражаются в отношениях сотрудничества. Ученый считал, что внешние взаимоотношения между людьми являются принципом развития психики каждого человека [9]. Правильное решение проблем психического развития не смогли обеспечить ни социологическое, ни биологизаторское направления в психологии.

В работе «Психология раннего детства» немецкого психолога В. Штерна раскрываются главные теоретические положения психического развития ребенка. Его теория конвергенции заключается в том, что взаимодействие таких двух факторов, как среда и наследственность определяют процесс развития психики. При этом наследственность играет определяющую роль, а среда играет роль условий, которые реализуют наследственно предопределенные особенности психики, что в принципе не выходило за рамки традиционного противопоставления двух факторов и не решало проблему [9]. Развитие зарубежной педагогической и возрастной психологии сопровождалось сменой различных теорий, которые отличаются разными методологическими принципами.

Значительный интерес зарубежные ученые начинают проявлять к философской основе российских психологов, а также стремятся объяснить накопленный экспериментальный материал. Видное место в истории формирования и развития педагогической и возрастной психологии в России занимают работы К.Д. Ушинского. Заслуга ученого заключается в том, что, используя научные знания, которыми владели его современники, он смог не только сделать психолого-педагогические выводы, а и выдвинуть целостную психологическую концепцию человека [5].

Исследованием проблем педагогической и возрастной психологии занимался также П.П. Блонский. В таких трудах, как «Память и мышление» и «Психологические очерки» он не только объяснял психологические явления, но также стремился дать им педагогический выход [7]. Существенные достижения в становлении теоретических основ российской психологии произошли вначале 30-х гг. В первую очередь, к ним относится выработанная Л.С. Выготским, совместно с А.Н. Леонтьевым и А.Р. Лурия, теория культурно-исторического развития психики. Она начала противостоять биологизаторскому направлению, которое имело глубокие корни в зарубежных исследованиях. По мнению ученого, рождение ребенка – это конец биологического типа существования человека; это качественный переход к новому типу развития, а именно к социальному. Условием жизни ребенка при этом является деятельность окружающих людей, которые с ним взаимодействуют. Согласно Л.С. Выготскому, деятельность ребенка, а также его взаимодействие с взрослыми являются движущими силами развития. Они являются факторами, которые формируют психическую жизнь человека. Ученый стремился понять, как влияет воздействие пространственной среды на становление психики. При решении данной проблемы, он брал за основу положение, что условия жизни не могут непосредственно определить психическое

развитие ребенка. В первую очередь, психическое развитие определяется тем, в каких именно взаимоотношениях со средой пребывает ребенок. Л.С. Выготский говорил, что среда может по-разному воздействовать на ребенка [8]. Согласно его теории развития высших психических функций, «всякая функция в культурном развитии ребенка появляется на сцену дважды, в двух планах, первое – социальном, потом – психологическом, сначала между людьми, как категория интерпсихическая, затем – внутри ребенка, как категория интрапсихическая» [10]. В отличие от механистических концепций, рассматривавших развитие ребенка как результат воздействия «внешней», социальной среды, ученый подчеркивал, что среду надо рассматривать не как «обстановку развития», которая извне определяет развитие ребенка, а как воздействия среды сами меняются количественно и качественно, в зависимости от того, через какие ранее возникшие психологические свойства, включая возрастные особенности ребенка, они преломляются. По Л.С. Выготскому, формирование человека как личности и индивида предполагает диалектическое взаимодействие двух относительно самостоятельных, но неразрывно связанных друг с другом рядов развития – социального и натурального [3]. К началу всякого возрастного периода создается своеобразное, индивидуальное для этого возраста, единственное и неповторимое взаимоотношение между ребенком и окружающей действительностью, в первую очередь социальной. По Л.С. Выготскому, данное отношение называют социальной ситуацией развития. Она является исходным моментом для всех динамических изменений, которые происходят в развитии на протяжении этого периода. Социальная ситуация развития целиком и полностью определяет формы и путь, следуя по которому ребенок приобретает новые свойства личности, черпая их из социальной действительности, как из основного источника развития, путь, по которому социальное становится индивидуальным [3].

Исследование показало, что формирование ключевых компетенций дошкольника требует систематических и целенаправленных действий, в связи с чем была разработана индивидуально-дифференцированная модель двухуровневого развивающего образовательного пространства дошкольного образовательного учреждения, обеспечивающая совершенствование данного вида компетенций, обозначенная нами как структурно-функциональная. Данная модель

- опирается на системный, личностно-деятельностный и компетнтно-стный подходы;

- отличается системностью, вариативностью, индивидуализированию и включает пять взаимосвязанных блоков: целевой блок устанавливает цель, определяет назначение модели, содержание и структурные связи еѐ компонентов, определяет принципы образования дошкольников, диагностический блок — позволяет проектировать индивидуальный и коллективный маршруты развития дошкольников, обеспечивает отслеживание формирования ключевых компетенций в динамике, что обеспечивает эффективность образовательного процесса, подбор методов и приѐмов воздействия на ребѐнка.

## СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Абдуллина, О.А. Общепедагогическая подготовка учителя в системе высшего педагогического образования Текст. / О.А. Абдуллина. М.: Просвещение, 1990. -141 с.

2. Абульханова-Славская, К.А. Деятельность и психология личности Текст. / К.А. Абульханова-Славская. — М.: Наука, 1980. — 335 с.

3. Аверьянов, А.Н. Система: философская категория и реальность Текст. / А.Н. Аверьянов. М.: Мысль, 1976. - 188 с.

4. Аверьянов, А.Н. Системное познание мира: методологические проблемы Текст. / А.Н. Аверьянов. М.: Политиздат, 1985. - 263 с.

5. Аитов, Н.А. Непрерывное образование и вуз Текст. / А.Н. Аитов и др.-М.: Знание, 1989.

6. Алексеев, Н.А. Личностно ориентированное обучение Текст.: вопросы теории и практики / Н.А. Алексеев. — Тюмень: ТГУ, 1997. 216 с.

7. Аменд, А.Ф. Дошкольная образовательная система: модели развития Текст. / А.Ф. Аменд, М.В. Жукова, Е.Ф. Фролова // Управление ДОУ. -2004.-№5.-С. 10-17.

8. Аналитический отчет экспертов ИПОП «Эврика» Электронный ресурс. Режим доступа: http: // wAvw.eurekanet.ru.

9. Ананьев, Б.Г. Избранные психологические труды Текст. / Б.Г. Ананьев; под ред. А.А. Бодалева, Б.Ф. Ломова. М.: Педагогика, 1980. — 232 с.

10. Ю.Андреев, В.И. Педагогика творческого саморазвития: инновационный курс Текст.: учеб. пособие для студентов высш. пед. учеб. заведений / В.И. Андреев. Казань, 1998. - 320 с.

# BOSHLANG'ICH SINFLARDA XALQ OG‘ZAKI IJODINING TARBIYAVIY AHAMIYATI

**Nurmetova Salomat**
*Xorazm viloyati Yangibozor tumani 14-umumiy o'rta ta'lim maktabi*
*Boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Maqolada o'zbek xalq maqollarining bola tarbiyasi va ruhiyiatidagi ahamiyatiga oid ma'lumotlar keltirilgan.*
**Kalit so'zlar:** *ma'naviyat, xalq maqollari, tarbiyaviylik, komillik, ertak, didaktik g'oya.*

Boshlang‘ich ta‘limda xalq o‘g‘zaki ijodi janri namunalari o_zining salmog'i bilan inson tarbiyasiga xizmat qiladi, uni ziyraklik va zukkolikka undaydi. Ma‘naviyat qadim zamonlardan inson dunyoqarashini, xatti-harakatini, jamiyatda tutgan o_rnini, xalqqa, vatanga, atrofidagi odamlarga bo_lgan munosabatini boshqaruvchi omil hisoblanadi. Ma‘naviy qashshoq kimsa hayotda ro_y berayotgan voqealarga loqayd bo_ladi. Loqaydlik esa tuzatib bo_lmas oqibatlarga olib keladi. Ma‘naviy qashshoq odam uchun Vatan, xalq, oila kabi muqaddas tushunchalar yot. Shuning uchun keksa avlod, avvalo, farzandning ma‘naviy dunyosini shakllantirish chorasini rejalashtirgan. Aslini olganda, xalq dostonlari, ertaklari, qo_shiqlari, maqollari va boshqa o_nlab janrdagi asarlar yosh avlodning ma‘naviyatini boyitish, uni haqiqiy inson darajasiga yetishini ta‘minlash maqsadini nazarda tutgan holda yaratilgan. O_tgan asrgacha bugungi kundagi matbuot, o_quv dargohlari, madaniyat markazlari, radio, televidenie, internet kabi ta‘lim, ma‘rifat tizimi bo_lmagan. Bu vazifalarni bajarish, asosan, xalq og_zaki ijodi zimmasiga yuklatilgan. Natijada, xalq og_zaki ijodi xalq pedagogikasi zaminini tashkil etgan.

Qadimdan ota-bobolarimiz o`z orzu-umidlarini turmush haqiqatlari bilan uyg`unlashtirgan holda go`zal mo`jizakor manzaraga, sodda va o`ta teran mazmunga ega ertaklarni yaratganlar. Hayot haqiqati va kishilarning ruhi, psixologiyasini o`zida aks ettirgan ertaklarning badiiy kuchi hanuzgacha kattalar va kichiklar uchun ham birday qiziqarli, jozibali xalq kitobi sifatida ta`sir etib kelmoqda.

Ertaklar – yaxshilikka yetaklar, deb xalqimiz bejizga aytishmagan. Ertak- larning tarbiyaviy ahamiyati katta. Ertaklarda voqealar asosan mo`jizali tarzda ifodalanadi. Binobarin, mo`jiza yoki fantaziya voqea va hodisalarni hayot bilan bog`lab, haqiqat, ozodlik, to`g`rilik, odamiylik kabi didaktik g`oyalarni tashviq etadi, syujet rivojiga kuch bag`ishlaydi, tinglovchi e`tiborini o`ziga jalb qilib, ajoyibotlar olamiga olib kiradi, shirin tuyg`ular dunyosiga g`arq etadi.

Ertaklar, avvalo, bolalarning jonivor hayvonlarga, parrandalarga bo`lgan qizi- qishi, mehrini oshirsa, ikkinchidan,mehnat orqali farovon, tinch, osoyishta turmush kechirish mumkinligi uqtiriladi. Ertaklarning yakuni qissadan hissa chiqarishga undaydi. Ya`ni, ―Yaxshilik qilsang – yaxshilik topasan, yomonlik qilsang – jazo olasan‖, ‖Mehnat qilsang-rohat ko`rasan‖,‖Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo`lar chiroylik‖ kabi maqollarning ma`nosi izohlansa, bolalar har bir o`qigan ertak- larining xulosasini maqollar bilan izohlashga harakat qiladilar. Bu bolalarning tafakkurini charxlash bilan birga, ko`proq maqollar yod olishiga ham yordam beradi.

Ertak qahramoni aql bilan ish tutib, qiyin jumboqlarni yechadi, tadbir bilan ish tutib, dahshatli kuchlarni yengadi. Masalan, ―Susambil‖, ―Uch og‘a-ini botirlar‖ ertaklarida sujet tuzilishi ixcham voqea va hodisalardan iboratligi, sodda ifodalanishi o`qimishlilikni ta`minlaydi. Ma‘lum bo_ladiki, qahramon ismi berilsa ham, berilmasa ham asosiy maqsad ertakdagi hikoya qilinayotgan voqea oddiy maishiy turmush sharoitida kechganini ta‘kidlashdan iborat bo_ladi. Keyingi maqsad asar ishtirokchilari boshidan kechirgan turmush lavhalari vositasida yosh avlodning barkamol inson bo_lib etishuvi uchun tarbiyaviy zamin hozirlashdan iboratdir. «Uch og_a-ini botirlar» ertagida mo_ysafid ota o_z o_g_illarini qo_rqmas, jasur qilib o_stiradi. O_z farzandlarini baxt topish safariga otlantirar ekan, ularga uchta maslahat beradi: «To_g_ri bo_ling, bexavotir bo_lasiz. Maqtanchoq bo_lmang, uyatga qolmaysiz. Dangasa bo_lmang, baxtsiz bo_lmaysiz». Bu pand mohiyatini tahlil qilsak, hayotga tayyorlanishi lozim insonning haqiqiy amal qilishi kerak hisoblangan fazilatlar aks etganiga ishonch hosil qilamiz.

Bu ertaklarda tarbiyaviylik, ma`naviy yetuklik, komillik, odamiylik, fikran teranlik ustivor darajada tavsiflanadi.

Xalq maqollari - boyligimiz. Ota-bobolarimizning siz bilan bizga qoldirgan xazinalaridan biridir. Ulardan kerak o_rinlarda foydalanishni odat qilishimiz kerak. Shunda ular butun umrimiz davomida hamrohimiz bo_ladi. Har bir gapirgan gapning salmog_i oshadi. Sermazmun, ta‘sirchan, keskir bo_ladi.

Shunday qilib, o_zbekning butun fazilati, falsafasi, donoligi, dunyoqarashi, oliy himmatliligi, turli hayotiy vaziyatlarga munosabati maqollarda aks etgan. Insondagi mehnatga muhabbat, ishq tuyg_ulari qo_shiqlarda eng go_zal ichki kechinmalar sifatida ifodalangan. Ertaklarda xalqimizning eng oliy orzu-havaslari namoyon bo_ladi. Ular bilan tanishgan yosh avlod o_zbek uchun vatan, xalq, oila, mehnat, ilm, g_urur naqadar muqaddas tushunchalar ekanini anglab etadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Boshlang‘ich sinflarning takomillashtirilgan davlat ta'lim standarti. ―Boshlang‘ich ta'lim‖ jurnali. 2006-yil, № 5.
2. Boshlang‘ich ta'limning takomillashtirilgan o‘quv dasturi.-Boshlang‘ich ta'lim‖ jurnali . 2006, №5
3. Jumaboyev M. ―Bolalar adabiyoti va folklor‖. –T.,O‘qituvchi, 1990.
4. Madayev O., Sobitova T. Xalq og`zaki poetik ijodi. –Toshkent: ‖Sharq‖ nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2003.

# TA‘LIM JARAYONIGA INNOVATSION YONDASHUV DARS SAMARADORLIGINING MUHIM OMILI

**Sultonova Nilufar Ravshanovna**
*Navoiy viloyati Navbahor tumani 31-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi*
*Tasviriy san'at fani o‘qituvchisi*
**Choriyeva Aziza Narzullayevna**
*Navoiy viloyati Navbahor tumani 31-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi*
*Texnologiya fani o‘qituvchisi*

O‗zbekiston Respublikasining «Ta‘lim to‗g‗risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning amaldagi tadbiqi bugungi kunda ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish va jahon andozalariga mos ravishda rivojlantira borishni taqozo etmoqda. Tabiiyki, ushbu vazifani muvaffaqiyatli amalga oshirish ko‗p jihatdan barcha turdagi ta‘lim muassasalarida ta‘limni zamonaviy axborot texnologiyalarining tadbiq etilishi va ulardan samarali foydalanishi bilan bog‗liq.

Ta‘lim amaliyoti ko‗rsatishicha, maktab ta‘limida fanlararo aloqadorlikni yo‗lga qo‗yish fan va jamiyat hayotida bugungi kunda sodir bo‗layotgan integratsion jarayonlarning yorqin ifodasidir. Ushbu aloqadorlik o‗quvchilarning bilimlarni ongli o‗zlashtirishi, dunyo haqidagi yaxlit tasavvurlarini rivojlantirish amaliy va ilmiymetodik tayyorgarligini oshirishda muhim o‗rinni egallaydi. Bunday tayyorgarlik umumiy o‗rta ta‘lim bitiruvchilarini darsda va darsdan tashqari mashg‗ulotlarda, ishlab chiqarishda va umuman har qanday faoliyatda o‗zlashtirgan bilim, ko‗nikma va malakalarini erkin qo‗llash imkoniyatini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev Farmoni bilan qabul qilingan ―2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi‖da umumiy o‘rta ta‘lim sifatini tubdan oshirish, bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan.

Yurtimizda ta‘lim tizimi islohatiga ustivor vazifa sifatida qaralishining zamirida kelajagimiz, ertangi taraqqiyotimizni ko‘rish istagi mujassam. Anashu maqsadlarni amalga oshirishimiz uchun, uzluksiz ta‘lim tizimida tashkil etiladigan o‘qitish jarayonining samaradorligini oshirish uchun xalqaro baholash dasturlarini joriy etish bo‘yicha ilg‘or tajribalarni o‘rganish, qabul qilingan me‘yoriy hujjatlarda pedagogik va axborot texnologiyalaridan uyg‘un foydalanish muhim vazifa sifatida belgilangan.

Ilg‘or pedagogik tajribani o‘rganish, unga asoslanib yangi pedagogik hodisa va qonuniyatlarni ochish o‘quv-tarbiya jarayoniga yaxshi sifatli o‘zgarishlar, ilg‘or texnologiyalarni kiritadi, o‘quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish, yangi ko‘rinishdagi o‘quv jarayonini modellashtirish muammolarini yechishga sabab bo‘ladi. Ilg‘or tajribalarni o‘rganish va ommalashtirish eng avval maktabdan boshlanadi. Bu har bir maktab direktori, o‘quv ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari, ma‘naviy va ma‘rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari hamda metod birlashmalar faoliyatining asosini tashkil etmog‘i kerak. Maktab pedagogik jamoasi ilg‘or tajriba egasining faoliyatini to‘liq bilishi, o‘rganishi va uning foydali tomonlarini ma‘qullashi natijasida metod birlashma, tuman, shahar metodika bo‘limlariga o‘rganish uchun

tavsiya etiladi. Pedagog kasbi – o‘zgarmas va qotib qolgan kasb emasligini har bir pedagog yaxshi bilishi kerak.

Barkamol shaxs tarbiyasini tashkil etish barcha davrlarda xam jamiyatning muxim talabi va asosiy maqsadi bo‘lib kelgan. Ta‘lim va tarbiya katta e‘tibor berilishi barkamol shaxsni kamol toptirishga asoslanadi. O‘zbekiston Respublikasining ―Kadrlar tayyorlash milliy dasturi‖ da: Kadrlar tayyorlash soxasidagi davlat siyosiy insonni intelektual va ma‘naviy –axloqiy jixatdan tarbiyalash bilan ilmiy uzluksiz ta‘lim berish orqali xar tomonlama barkamol shaxs- fuqoroni shakllantirishni nazarda tutadi‖ deb takidlanadi. Bugungi kunda innavatsiyalarni o‘quv jarayoniga tatbiq etishning maqsadimizda qo‘la kiritilgan ilg‘or pedagogik tajribalarni, bunyodkorlik va ijodkorlik namunalarini pedagogic texnologiya talablariga mos xolda axborot texnologiya vositalari asosida ta‘lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etishdan iborat.

Bu jarayonda texnologik, tizimli va ijodiy yondashuv uyg‘un xolda amalga oshirilib, vaqt meyori tejaladi, tinglovchi (o‘quvchi) ortiqcha zo‘riqmaydi, eng asosiysi mustaqil fikr, ijodiy izlanish tinglovchinin kundalik faoliyatiga aylaniib boradi. Pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq jarayonida ta‘limning shakllari jarayonida ta‘limning, metodlari, usullari hamda vositalari takomillashib boradi. Bu albatta o‘qituvchilarning kasbiy pedagogik mahorati bilan bog‘liq bo‘lib har doim tinglovchini izlanishga o‘z o‘rnida izchil ishlashga va ijodkorlikka safarbar etadi.

Xulosa shuki, agar o‗qituvchida shaxs sifatida yangiliklarni yaratishga ichki moslashuv va fikrlash usullari shakllangan bo‗lsa, u barcha o‗zgarishlarga o‗z munosabatini oson bildiradi, ularni to‗g‗ri baholaydi, boshqaradi va o‗z kasbiy sohasida ularni amalga oshiradi. Bu borada olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‗ra, yuqoridagi kabi vazifalarni amalga oshirish malaka oshirish tizimida pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga tayyorlash bilan belgilanadi. Ta‘lim muassasasi o‗qituvchilarini innovatsion faoliyatga jalb etuvchi omillar innovatsion faoliyatga ularni motivlashtirish (undash) vositalari sifatida xizmat qiladi. Bunda o‗qituvchining pedagogik imkoniyatlarini to‗liq qamrab olgan, kasbiy salohiyatini namoyon eta oladigan, psixologik va individual imkoniyatlari hisobga olingan amaliy mashg‗ulotlarni tashkil qilish va o‗tkazish o‗ziga xos ahamiyat kasb etadi. Shunga ko‗ra, tinglovchilarning malaka oshirish jarayonida egallagan nazariy ma‘lumotlari asosida ularning amaliy tayyorgarlikka ega bo‗lishlariga e‘tibor qaratish maqsadga muvofiq bo‗ladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‗YXATI:

1). O‗zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 9- sentabrdagi PF-5815-son farmoni.

2).O‗zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi ―Xalq ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‗g‗risida‖gi 997-sonli qarori.

2). N.Egamberdiyeva ―Tarbiya texnologiyasi‖ Fan va texnologiyalar. 2016-yil

3). ―Maktab va hayot‖ 2018-iyul 4-son.

4). Mavlonova R., Abdurahimova D. ―Pedagogik mahorat‖. T:. Fan va texnologiyalar. 2012-yil.

# YOSHLARDA SOG‘LOM DINIY E‘TIQODNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY - PSIXOLOGIK OMILLARI.

**Xushvaqov Elbek Ashurovich**
*O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi magistranti*

**Annotatsiya:** *Maqolada yoshlarda sog‘lom diniy e‘tiqodni shakllantirishda ijtimoiy - psixologik omillarning o‘rni tahlil qilingan. E‘tiqodning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati, e‘tiqodning shakllanish bosqichlari o‘rganilgan. Yoshlarni sog‘lom e‘tiqodli qilib tarbiyalash borasida xulosalar berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *e‘tiqod, diniy e‘tiqod, diniy axloq, imon, ixlos, axloqiy me‘yorlar, tarbiya, hissiyot.*

Yoshlarni sog‘lom e‘tiqodli qilib tarbiyalash vazifasi hamma vaqt jamoatchilik diqqat markazida bo‘lib kelgan va u har bir davrda zamon talablaridan kelib chiqib hal qilingan. Farzandlarimizni komil inson qilib tarbiyalashni xohlar ekanmiz, bu borada to‘plangan boy tajribaga murojaat qilishimiz shart.

Ma‘nan komil inson avvalo oilada, maktabda, mahallada tarbiyalanadi va shakllanadi. Bunda maktab yetakchi rol o‘ynab, buning uchun ma‘naviyatning asosini sog‘lom e‘tiqodning asosini tayanchini tashkil etadigan halollik, adolat, oriyat, nomus, vijdon, diyonat kabi asosiy tushunchalar haqida tizimli uzluksiz ilmiy ma‘lumot olmog‘i hamda ularni hayotda qo‘llash bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘nikma odatlarni tarkib toptirish shart. Bu kabi diniy ma‘naviy tushunchalar sho‘rolar davrida o‘quvchi yoshlar tarbiyasida hisobga olinmaganligi oqibatida pedagogik tizimda salbiy voqealarni keltirib chiqardi. Buning oqibatida jamiyat hayotining barcha jabhalarida pasayish ro‘y berdi.

Sog‘lom e‘tiqodni shakllantiishda avvalo, ilm o‘rganish, ta‘lim olishning muhimligi haqida Abdulla Avloniy batafsil to‘htalib o‘tgan: ―Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g‘oyat oliy va muqaddas fazilatdur. Zeroki, ilm bizga savobni gunohdan, halolni haromdan, tozani murdordan ayirib berur, ilmsiz kishilar ota-onasiga, qarindosh urug‘iga, yor do‘stiga, din va millatiga foyda yetkurmak bir tomonda tursin, o‘z ustiga lozim bo‘lgan ibodat va toatni ham lozim qila olmas.‖[34]

Sog‘lom e‘tiqodni shakllantirishning nazariy masalalarini ko‘rib chiqish asrlar davomida shakllangan islom dinida e‘tiqod tarbiyasining mazmuniga maxsus to‘xtalish zarurligini taqozo qiladi. Islom dini tarqala boshlagach, ijtimoiy-iqtisodiy va diniy faoliyatni qamrab oluvchi axloqiy qonunlar majmuasini ishlab chiqishga ehtiyoj tug‘ildi. Buning uchun Qur‘on va sunna asos qilib olindi, natijada musulmonlarning moddiy va ma‘naviy, ijtimoiy va shaxsiy hayotini tartibga solib turuvchi tarbiya tizimi vujudga keldi.

E‘tiqodning mohiyatini tushunishda, uning psixologik, falsafiy talqinlari muhim ahamiyatga ega. E‘tiqod muayyan g‘oya, dunyoqarashga his-hayajonli yondashuv ma‘nosida iymonga yaqin turadi. Ammo e‘tiqod tushunchasida faqat ijobiy jihatlarnigina ko‘rish to‘g‘ri

[34] A.Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. T. O‘qituvchi. 1992 yil. 160-bet

emas. Ijobiy va salbiy mazmunga ega e‘tiqod shakllari o‘rtasida yana bir ma‘naviy-ruhiy hodisa - e‘tiqodsizlikning ham mavjudligini e‘tirof etish lozim.

Sog‘lom e‘tiqod tarkibini tashkil etuvchi halollik, to‘g‘rilik, birovlar haqqiga hiyonat qilmaslik, hayri ehson, sahovat va muruvvat, tejamkorlik va isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymaslik kabi fazilatlar milliy va diniy qadiyatlar zamirida shakllangan va ular oilaviy tarbiya natijasida ota-onalaridan bolalariga o‘tib, ularning ma‘naviy dunyosini yoritgan. Sog‘lom e‘tiqod, e‘tibori bilan ma‘naviy axloqiy tushuncha.

E‘tiqod muammosi bilan shug‘ullangan ayrim psixologlar uni murakkab hodisa deb tushunadilar va bunda insonning butun psixik jarayoni: hayoli, hissiyoti va irodasi keng ishtirok etadi deb hisoblaydilar. Diniy e‘tiqod dinga ishonuvchilarda juda ham kuchli bo‘ladi. E‘tiqod – bu imon bilan bog‘langan holda inson qalbida chuqur tomir otadi. e‘tiqod ihlos zaminida shakllanadi. Ixlos bo‘lmagan joyda e‘tiqod ham bo‘lmaydi. Imon bilan bog‘langan e‘tiqod inson hayotining eng murakkab sharoitlarida to‘g‘ri yo‘l topa olishga imkon beradi.

U. Djems o‘zining ―E‘tiqodga bo‘lgan irodaǁ asarida irodani e‘tiqod bilan bog‘liqligini tushuntirib beradi. Ko‘pgina faylasuf va psixologlar inson e‘tiqodining asosini – hissiyot tashkil etadi deb hisoblaydi. Faylasuf va psixolog G.Geffding bu haqida shunday yozadi: ―Hissiyot – hamma dinlarni va diniy qarashlarning asl mohiyatini, xususiyatlarini tashkil etadi. Unga nisbatan hamma tasavvurlar bo‘ysunadi va bog‘liq bo‘ladiǁ[35].

Sog‘lom e‘tiqod aslini olganda, axloqiy me‘yor hamdir. Agar, e‘tiqod qilish me‘yorda bo‘lsa, u axloqiy mezon hisoblanadi. Agar, e‘tiqod me‘yordan oshib ketsa, yoki, me‘yorga yetmay qolsa, u inson uchun kulfat keltiruvchi manbaaga aylanib qoladi. Shuning uchun, sog‘lom e‘tiqodni shakllantirishda ta‘lim-tarbiya jarayonining pedagogik, psixologik xususiyatlari, shaxsning o‘ziga xosligi kabi jixatlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Ana shulardan kelib chiqqan holda, har bir inson oldida farzandlarni sog‘lom e‘tiqodli, bilimli qilish va ularni ilmga va ilmli kishilarga muhabbat ruhida tarbiyalash mas‘uliyati turadi. Uni bajarish esa, farzanlari tarbiyasi uchun qayg‘urgan har bir ota-ona uchun muhim hisoblanadi.

Yoshlarda din haqida holis bilimlarning shakllantirilishi dinning mohiyati va jamiyat hayotidagi o‘rni, vazifalari to‘g‘risidagi ilmiy-nazariy qarashlarini sog‘lom e‘tiqod shakllanishi uchun asos bo‘la oladi.

Yoshlarni sog‘lom e‘tiqodli qilib tarbiyalash vazifasi hamma vaqt jamoatchilik diqqat markazida bo‘lib kelgan va u har bir davrda zamon talablaridan kelib chiqib hal qilingan. Farzandlarimizni komil inson qilib tarbiyalashni xohlar ekanmiz, bu borada to‘plangan boy tajribaga murojaat qilishimiz shart.

[35] Геффдинг “Философия религии” - 1912 .С. 104-б.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. A. Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. T. O‘qituvchi. 1992 yil.
2. Геффдинг ―Философия религии‖ - 1912 .
3. U. Djems o‘zining ―E‘tiqodga bo‘lgan iroda‖
4. Tulepov.A ―Islom va aqidaparast oqimlar‖.,T.2013.
5. O. Musulmonova. Oila ma‘naviyati-milliy g‘urur. T. ―O‘qituvchi‖. 1999 yil.
6. M. Inomova. Oilada bolalarni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalash. T. 1999 yil.

# BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANINING O‘RNI

**Almamatova Sarvinoz Abdurasul qizi**
*Abdulla Qodiriy nomli Jizzax davlat pedagogika instituti boshlang'ich ta'lim fakulteti boshlang'ich ta'lim yo'nalish 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya**: *Bugun men ushbu maqolamda boshlang'ich sinflarda matematika fanining o'rni haqida ma'lumot berib o'tmoqchiman.*

**Kalit so‘zlar:** *Matematika fani,o'qitish metodikasi,pedagogika metodikalari,ta'lim integratsiyasi,kuzatish,eksperement,axborot texnologiyalaari yutuqlari,pedagogic tadqiqotlar.*

Matematika so‘zi qadimgi grekcha so‘zidan olingan bo‘lib, uning ma‘nosi ― ―fanlarni bilish‖ demakdir. Matematika fanining o‘rganadigan narsasi (ob‘yekti) fazoviy formalar va ular orasidagi miqdoriy munosabatlardan iboratdir.

Bu matematik bilimlar sistemasi ma‘lum usullar (metodika) orqali o‘quvchilarga yetkaziladi.―Metodika‖ grekcha so‘z bo‘lib, ―metod‖ degani ―yo‘l‖ demakdir.Matematika metodikasi pedagogika fanlari sistemasiga kiruvchi pedagogika fanining tarmog‘i bo‘lib, jamiyat tomonidan qo‘yilgan o‘qitish maqsadlariga muvofiq, matematikani o‘qitish qonuniyatlarini matematika rivojining ma‘lum bosqichida tatbiq qiladi.

Maktab oldiga hozirgi zamon talabalari va ta‘lim maqsadlarning qo‘yilishi matematika o‘qitish mazmunining tubdan o‘zgarishiga olib keldi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga matematikadan samarali ta‘lim berilishi uchun o‘qituvchi boshlang‘ich sinflar uchun o‘qitish metodlarini mukammal egallab, chuqur o‘zlashtirib olmog‘i zarur.

Boshlang‘ich ta‘limi metodikasining matematika predmeti quyidagilardan iborat:

1. Matematikani o‘qitishdan ko‘zda tutilgan maqsadlarni asoslash (Nima uchun matematika o‘qitiladi, o‘rgatiladi?).

2. Matematika o‘qitish mazmunini ilmiy ishlab chiqish (nimani o‘rgatish) bir tizimga keltirilgan bilimlar darajasini o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos keladigan qilib qanday taqsimlansa, fan asoslarini o‘rganishda izchillik ta‘minlanadi, o‘quv ishlariga o‘quv mashg‘ulotlari beradigan o‘quv yuklama hal qilinadi, ta‘limning mazmuni o‘quvchilarning real bilish imkoniyatlariga mos keladi.

3. O‘qitish metodlarini ilmiy ishlab chiqish (qanday o‘qitish kerak, ya‘ni, o‘quvchilar hozirgi kunda zarur bo‘lgan iktisodiy bilimlarni, malaka, ko‘nikmalarni va aqliy faoliyat qobiliyatlarini egallab olishlari uchun o‘quv ishlari metodikasi qanday bo‘lishi kerak?

Bunday topshiriqlarni bajarish bolalarni ko‘rsatilgan to‘plamlar elementlari orasida o‘zaro bir qiymatli moslik o‘rnatishga undaydi, bu esa natural son tushunchasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Bir tomondan, matematika metodikasi pedagogikaning umumiy nazariyasiga tayanadi va shu asosda shakllanadi, bu hol matematika o‘qitish masalalarini hal etishda metodik va nazariy yaqinlashishning bir butunligini ta‘minlaydi.

Ikkinchi tomondan – pedagogika umumiy qonuniyatlarini shakllantirishda xususiy metodikalar tomonidan erishilgan natijaga tayanadi, bu uning hayotiyligi va konkretligini ta‘minlaydi.

Shunday qilib, pedagogika metodikalarning konkret materialidan ―oziqlanadi‖, undan pedagogik umumlashtirishda foydalaniladi va o‘z navbatida metodikalarni ishlab chiqishda yo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi.

Matematika o‘qitish metodikasi pedagogika, psixologiya va yosh psixologiyasi bilan bog‘liq. Boshlang‘ich matematika kursi nazariyasi va metodikasi ta‘limning boshqa metodikalari (ona tili, tabiatshunoslik, rasm va boshqa fanlar metodikasi) bilan boqliq.

Boshlang‘ich ta‘limda integratsiyalashgan ta‘limni to‘g‘ri amalga oshirish uchun o‘qituvchi buni hisobga olishi juda muhimdir. Ilmiy tadqiqot metodlari – bu qonuniy bog‘lanishlarni, munosabatlarni, aloqalarni o‘rnatish va ilmiy nazariyalarni tuzish maqsadida ilmiy axborotlarni olish usullaridir.

Kuzatish, eksperement, maktab hujjatlari bilan tanishtirish, o‘quvchilar ishlarini o‘rganish, suhbat va anketalar o‘tkazish ilmiy-pedagogik tadqiqot metodlari jumlasiga kiradi.

So‘nggi vaqtlarda matematik va kibernetik metodlardan, shuningdek, o‘qitishni modellashtirish metodlaridan foydalanish qayd qilinmoqda.

(O‘quvchi fikrini doskada chizmada tushirish va chizmada o‘quvchi fikrini o‘qiy olishi nazarda tutiladi). Matematika o‘qitish metodikasi ta‘lim jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan quyidagi uch savolga javob beradi:

1. Nima uchun matematikani o‘rganish kerak?
2. Matematikadan nimalarni o‘rganish kerak?
3. Matematikani qanday o‘rganish kerak?

Matematika metodikasi haqidagi tushuncha birinchi bo‘lib SHveytsariyalik pedagog matematik G.Pestalotsining 1803 yilda yozgan ―Sonni ko‘rgazmali o‘rganish‖ asarida bayon qilingan, boshlang‘ich ta‘lim haqida ulug‘ mutafakkir Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino va boshqalar ta‘lim va tarbiya haqidagi hur fikrlarida boshlang‘ich ta‘lim asoslarini o‘rganish muammolari haqida o‘z davrida ilg‘or g‘oyalarni olg‘a surganlar.

Boshlang‘ich matematika o‘qitish metodikasi butun pedagogik tadqiqotlarda pedagogik texnologiya, axborot texnologiyalari yutuqlarida qo‘llaniladigan metodlarning o‘zidan foydalaniladi. Kuzatish metodi – odatdagi sharoitda kuzatish natijalarini tegishlicha qayd qilish bilan pedagogik jarayonni bevosita maqsadga yo‘naltirilgan holda idrok qilishdan iborat.

Matematika o‘qitish metodikasi boshqa fanlar, eng avvalo, matematika fani – o‘zining bazaviy fani bilan uzviy bog‘liq.Hozirgi zamon matematikasi natural son tushunchasini asoslashda to‘plamlar nazariyasiga tayanadi.

So‗ngi yillarda mamlakatimizda maktabda matematika o‘qitish ayniqsa boshlang‗ich ta‘lim tizimida o‗z ko‗lami va ahamiyati jihatidan nihoyatda katta bo‗lgan o‗zgarishlarni amalga oshirdi va oshirmoqda.

Masalan, 1997-yil 27-avgustdagi «Ta‘lim to‗g‗risida»gi Qonunning 12-moddasi I–IV sinflarni o‘qitishga bag‗ishlangan. 1997-yil 6-oktyabrdagi «O‗zbekiston Respublikasida kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning 3.3.1 bandi uzlusiz ta‘limni rivojlantirishda I-IV sinflarda O‘qitishni tashkil qilishning rejalari ko‗rsatilgan.

Maktab ta‘limi oldiga tamoyili yangi maqsadlarning qo_yilishi matematika o‘qitish mazmunining tubdan o_zgarishiga olib kelmoqda. Matematika boshlang_ich kursi mazmunida ham, darslik va qo_llanmalardan foydalanish metodikasida ham rivojlanish bo_lishini talab qiladi.

So_ngi yillarda mamlakatimizda maktabda matematika o‘qitish ayniqsa boshlang_ich ta‘lim tizimida o_z ko_lami va ahamiyati jihatidan nihoyatda katta bo_lgan o_zgarishlarni amalga oshirdi va oshirmoqda.

Masalan, 1997-yil 27-avgustdagi «Ta‘lim to_g_risida»gi Qonunning 12-moddasi I–IV sinflarni o‘qitishga bag_ishlangan. 1997-yil 6-oktyabrdagi «O_zbekiston Respublikasida kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning 3.3.1 bandi uzlusiz ta‘limni rivojlantirishda I-IV sinflarda O‘qitishni tashkil qilishning rejalari ko_rsatilgan.

Maktab ta‘limi oldiga tamoyili yangi maqsadlarning qo_yilishi matematika o‘qitish mazmunining tubdan o_zgarishiga olib kelmoqda. Matematika boshlang_ich kursi mazmunida ham, darslik va qo_llanmalardan foydalanish metodikasida ham rivojlanish bo_lishini talab qiladi.

Sarlavha «*Dono oqsoqol*»; «*Adolatparvar shoh*» tarzida bo_lishi mumkin. Bugungi kunda dunyo adabiyotida, shu bilan birga o_zbek adabiyotida har qanday insonni ta'sirlantira oladigan, o_zi atigi bir nechta so_zdangina iborat qisqa hikoyalar yozish tajribasi amalga oshirilmoqda. Bunday hikoyalar tafakkurni charxlashga, talabalarning mustaqil fikrlash doirasini kengaytirishga xizmat qiladi. «Yangi poyabzal sotib olganimda doim bitta qo_shimcha bog_ichga ega bo_lishimni o_ylab quvonaman». Ushbu qisqa hikoya kishini o_ylashga undaydi. Bunda eng avvalo ko_z oldimizga garchi bir oyog_i bo_lmasa-da, hayotdan rozi, shukr qiluvchi inson keladi. Ushbu hikoyaga «Shukrona» deb sarlavha qo_yishimiz mumkin. Talabalar mana shunday hikoyalarni tahlil qilish orqali ham tarbiyaviy, ham nazariy bilimlarini mustahkamlaydilar. «Xizr yigitdan: «Oyoqlarim yurib ketsin!» degan tilakni kutgan edi, biroq uning tilidan: «Suyganim ham yurolmay qolsin» degan so_zlar chiqdi». «Mashinasida bolakayni urib qochdi-yu, kechga borib o_g_ilchasini qabrga qo_ydi»kabi.

Har bir til o_ziga xos sinonim, antonim, omonim hamda paronim so_zlarga ega. Navbatdagi topshiriq aynan mana shunday so_zlar asosida beriladi. Odatda sinonimlar yoki antonim so_zlardan birini aytganimizda ikkinchisi yodimizga keladi. Bu topshiriq «Qaynoq koptokcha» deb nomlanib o_qituvchi istagan talabaga koptokchani talabaga sinonimik yoki antonimik qatordan istalgan so_zni aytib uloqtiradi. Talaba o_ylab o_tirmasdan koptokchani tutib o_z javobi bilan o_qituvchiga qayta uloqtirishi kerak. Noto_g_ri javob bergan yoki koptokchani uzoq vaqt davomida ushlab turgan talabaning qo_li «kuygan» hisoblanadi.U o_z-o_zidan o_yindan chetlashtiriladi. Masalan:

***Aloqador-daxldor avval — keyin***

***Atigi — bor-yo_g_i ayyor — sodda***

***Ashula — qo_shiq baland — past***

***Beg_ubor-toza so_ramoq — javob bermoq***

***Botir — jasur ijobiy — salbiy***

***Dunyo — jahon obyektiv — subyektiv***

O_zbek tili darslarida mashg_ulotning so_nggi bosqichida «Pantomimo» o_yinini o_tkazish mumkin. Bunda talabalar 3 guruhga ajratiladi. Har bir guruhdan bittadan kishi doskaga chiqariladi. Ularga turli so_zlar ro_yxat asosida beriladi. Ular biror bir so_z aytmasdan imo-ishoralar, harakatlar orqali so_zlarni qolgan guruh a'zolariga tushuntirishlari kerak:

***O_sma tuyaqush gultojixo_roz***

***Belanchak taqinchoq uchburchak***

***Novvoy supurgi kompyuter***
***Kuchli odobli epchil***
***Qisqa tentak g‗amgin***
***Keng chiroyli xursand***

Topshiriqni bajarish uchun 1 daqiqa vaqt belgilanadi. Shart bajarilishi davomida guruh a‘zolari topilgan so‗zlarni daftarlariga qayd etib boradilar. Mashg‗ulot mavzusiga mos ravishda so‗zlarni fonetik, morfemik, leksik, morfologik, sintaktik jihatdan ham tahlilga tortishlari mumkin. Xullas o‗zbek tili darslarida bir qator interfaol usullardan samarali foydalanish mumkin. Bunda asosiy e‗tibor o‗quvchilarning tafakkurini o‗stirish, ularning mustaqil ishlash mahoratini oshirishga qaratilsa, maqsadga muvofiq bo‗ladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hojiyev A. O‗zbek tili sinonimlarining izohli lug‗ati. — Toshkent: O‗qituvchi, 1974. — 308 bet.
2. Rahmatullayev Sh., Mamatov N., Shukurov R. O‗zbek tili antonimlarining izohli lug‗ati. — Toshkent: O‗qituvchi, 1989. — 232 bet.
3. Yo‗ldosheva D. Ona tili maqsadining tadrijiy taraqqiyoti. — Toshkent: O‗zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2013. — 168 bet.

# O‘RXUN ENASOY BITIKLARINI O‘RGATISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

**Maxmudova Sarvinoz Shavkatovna**
*Toshkent viloyati Toshkent tumani 8-son umumiy o‘rta ta‘lim maktabi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada adabiyot darslarida O‘rxun Enasoy bitiklarini o‘rgatishda pedagogik texnologiyalardan, metodlardan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar, ma‘lumotlar keltirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *O‘rxun Enasoy, bitik, pedagogic texnologiya, metodika, turki tillar.*

O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An‘anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta‘lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta‘lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasi o‘sishiga olib keladi. Shuningdek ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta‘limda o‘quvchini faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari izlab topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funktsiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o‘quvchi asosiy figuraga aylanadi. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o‘quvchilarni bilimli, yetuk malakaga ega bo‘lishlarini ta‘minlaydi. Yangi pedagogik texnologiyalarga bag‘ishlangan adabiyotlar va maqolalarda bir qator oqitish usullari haqida soz yuritilmoqda. Bu usullar innovatsion metodlar sifatida taqdim etilmoqda.

O‘rta Osiyo qadimdan ma’rifat-madaniyat o‘choqlaridan biri sifatida shuhrat qozonganini siz tarixdan, adabiyotdan yaxshi bilasiz. O‘tmishning ko‘plab madaniy yodgorliklari yozma va og‘zaki manbalar orqali bizgacha yetib kelgan. O‘rxun-Enasoy yodgorliklari shunday qadriyatlardan hisoblanib, u VI–VIII asr hayotini o‘zida aks ettirgan. Mazkur obidalar O‘rxun, Enasoy daryolari qirg‘oqlaridan topilgani uchun ―O‘rxun-Enasoy yodgorliklari‖ nomi bilan mashhur bo‘lgan. Bu yodgorliklar toshlarga o‘yib yozilgani bois ―tosh bitiklar‖ deb ham yuritiladi.

Bilga xoqon, Kultegin, To‘nyuquq va boshqa yodnoma tosh bitiklar qadimiy yozma badiiyat namunalari bo‘lib, ularda tarixiy voqealar, hayot haqiqati o‘sha davr nuqtayi nazari bilan aks ettirilgan. Ularda turkiy elatlarning mamlakat mustaqilligi, el-yurt ozodligi uchun chet bosqinchilarga qarshi qahramonona kurashganliklari, turk xoqonligining paydo bo‘lishi, turkiy qavmlarning urfodatlari, rasm-rusumlari, kasb-korlari haqida qiziqarli hamda qimmatli ma’lumotlar keltiriladi. Masalan: Turk xoqonligi tarixi haqida Kultegin bitiktoshida shunday

deyiladi: ―Yuqorida ko‘k osmon, ostida qora yer qilinganda ikkisi-ning o‘rtasida inson bolalari yaratilgan. Inson bolalari ustidan ota-bobom Bumin xoqon va Istamin xoqon o‘rnashganlar. O‘rnashib, turk xalqining davlatini, qonun va qoidalarini boshqarganlar‖.

Mazkur fikr mag‘zida tarixiy haqiqat mavjud bo‘lib, kuchli va jasur urug‘boshisi Ashinning o‘g‘li Bumin turk xoqonligiga asos solgan. Kultegin bitigi muallifi Yo‘llug‘ tegin bu fikrni asoslab, Bumin va Istamin turk davlatining asoschilari, ular taxtga o‘tirgach, to‘rt tarafdagi xalqni birlashtirib qudratli davlat barpo etganlar, deydi. Keyinchalik turkiy xalqlarning qat’iyatsizligi bois Turk xoqonligi Tabg‘ach (Xitoy) davlatiga bo‘ysundirilgan, yigitlar qul qilingan. To‘nyuquq ikkinchi turk xoqonligiga asos solgan Eltarish xoqonning maslahatchisi, sarkardasi bo‘lgan. Bitiktosh uning sharafiga yozilgan. To‘nyuquq bitigi uning hayotligida – 712–716-yillarda uning o‘zi tomonidan toshga o‘yib yozdirilgan.

Bitiktoshda turkiylarning dushman qabilalariga qarshi kurashi, To‘nyuquqning bu kurashlarda ko‘rsatgan qahramonliklari hikoya qilinadi. Toshbitik To‘nyuquqning Tabg‘ach elida tarbiya topganligi, turkiylarning tabg‘achlarga qaram ekanligini hikoya qilish bilan boshlanadi. ―Bilga (dono) To‘nyuquq men o‘zim, Tabg‘ach davlatida tarbiyalandim. Turk xalqi Tabg‘ach davlatiga bo‘ysunar edi…‖ To‘nyuquqning bu xabari haqida N. Rahmonovning ―Turk xoqonligi‖ risolasida shunday tarixiy voqea keltiriladi: ―To‘nyuquq turk zodagonlarining Tabg‘ach imperatori saroyida garov sifatida ushlab turilgan o‘g‘illaridan biri edi. Bundaylarga ular xitoycha nom berar, xitoycha o‘qitar va xitoyparastlik ruhida tarbiya qilar edilar. To‘nyuquqning xitoycha nomi Yuanchjen ham xitoyparastlik sabab qo‘yilgan edi. Yuanchjen ―To‘nyuquq‖ so‘zining aynan tarjimasi bo‘lib, ―to‘ng‘ich javhar‖ degan ma’noni bildiradh).

To‘nyuquq Xitoyda tutqunlikda, zindonlarda yotadi, keyinchalik imperator saroyida ishonch qozonadi. U Xitoy imperiyasiga qarshi bosh ko‘targan Qutlug‘ tomonga o‘tib, uning maslahatchisiga aylanadi. To‘nyuquq bitiktoshida Vatan tushunchasi, vatanparvarlik va erk g‘oyalari asosiy o‘rin tutadi. To‘nyuquq xalqning, vatanning haqiqiy, asl o‘g‘loni sifatida gavdalanadi. U turk xalqini tabg‘achlar asoratidan qutqarish uchun astoydil kurashadi.

Xalq o‘z erkini himoya qilmasa, u og‘ir fojialarga, hatto yo‘qlikka yuz tutishi mumkinligi yodnomada shunday tasvirlanadi: ―Xoningni qo‘yib taslim bo‘lding. Shuning uchun tangri ―O‘l!‖ degan, shekilli, turk xalqi o‘ldi, tugadi, yo‘q bo‘ldi. O‘z xonini qo‘yib, Tabg‘ach xoqoniga sajda qilgani tangriga ham xush kelmadi. Ularni har tomonga tarqatib yubordi. Turk xalqi yerida biror ulug‘ qolmadi. Chakalak orasida qolgani yetti yuz nafar bo‘ldi‖. To‘nyuquq turk xalqi fojiasi, alam-qayg‘ularini ko‘rar ekan, ota-bobolari asos solgan Turk xoqonligini tiklash bilangina erkinlikka erishish mumkin deb hisoblaydi va yetti yuz sonli askar bilan ko‘p sonli dushmanga qarshi kurashadi. Xalqni nihoyatda og‘ir vaziyatdan olib chiqadi. To‘nyuquq mard, dovyurak sarkarda va dono maslahatchi, kerak bo‘lganda xalqni birlashtira oladigan jasoratli boshliq sifatida namoyon bo‘ladi va ―Shad‖ (Turk xoqonligida oliy darajadagi unvon) unvonini oladi. To‘nyuquqda tushkunlik, qo‘rqoqlik mutlaqo yo‘q. Unda o‘ziga, xalqiga mustahkam ishonch bor. Shuning uchun u doimo g‘alabaga erishadi.

Bitiktoshlar badiiy jihatdan ham qimmatli. Unda xalq og‘zaki ijodining hikmat, maqol, o‘gitlari ko‘plab keltiriladi. Masalan, ―Yupqa yig‘in tor-mor qilishga oson emish, ingichka

yig‘in uzishga oson emish‖, ―Yupqa qalin bo‘lsa, tor-mor qiladigan bahodir emish‖ yoki ―G‘am o‘z uyingda‖ kabi maqollar, ―Vatan mustaqilligi uchun jon kuydirish hammaning burchi, beparvolik yomon oqibatlarga olib keladi‖ singari o‘gitlar bitikni o‘qishli va ta’sirchan etgan. Bitiktoshlar Shimoliy Mo‘g‘ulistondan topilgan bo‘lib, hozir ham o‘sha yerda saqlanadi.

Biz sizga bu bitiklardan keltirilgan namunalarning, afsuski, mazmunini o‘rganishga taqdim etmoqdamiz. Mana shu mazmunni yaxshilab uqib olish sizda o‘zlikning shakllanishiga, milliy iftixor hissi, farzandlik g‘ururi, o‘zbeklik faxri tuyg‘ularining kurtak otishiga ko‘maklashadi, deb umid qilamiz. Siz ham bu bitiklarga shunday niyat bilan yondashing. O‘zbek millati alohida Sizlardan tashkil topishini unutmang. Bilasizki, Odamning shakllanishi oson kechadigan jarayon emas. Qiyinchilik bilan, mashaqqatli mehnat bilan o‘zlashtirilgan bilim insonga yuqadi, ko‘nglida iz qoldiradi. Bu iz Shaxs shakllanishida, albatta, o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Расулов Р. Умумий тилшунослик. -Тошкент. Фан, 2007. - Б. 255.
2. Узбек тилининг изохли лугати. 1 жилд. Мадвалиев А. тахрири остида. -Т.: Узбекистон миллий энциклопедияси, 2006. 624-б.
3. Rasulov R. (2020). Kelajak - til sohiblariniki. Til va adabiyot ta ‘limi, 7(7),

# OLMOSH YUZASIDAN O‘TILGANLARNI MUSTAHKAMLASH

**Boboyorova Gavhar**
*Samarqand viloyati Oqdaryo tumani xalq ta‘limi bo_limi tasarrufidagi 52-ixtisoslashtirilgan maktab-internati ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi*

*8-sinf ona tili fanidan dars ishlanmasi*

**Mavzu:**

Darsning texnologik xaritasi

| | |
|---|---|
| Malaka talablari | **Bilim:** Olmosh so‘z turkumi mavzusi yuzasidan bilim hosil qilinadi.<br>**Ko`nikma:** Mashq va topshiriqlar asosida bilimlarni tanish vaziyatlarda qo`llash malakasi shakllantiriladi .<br>**Malaka:**Egallagan ko`nikmalarni notanish vaziyatlarda qo`llay oladi.<br>**Kompitensiya:** Tushuna oladi, matnni orfoepiya qoidalariga amal qilib o`qiydi, imlo qoidalariga amal qila oladi, tanish va notanish vazaiyatlarda qo`llay oladi va farqini ajrata oladi. |
| *Maqsad va vazifalar* | **a) ta‘limiy:** O‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqlarini o‘stirish. Mustaqil fikrlashga o‘rgatish. Tez va ravon, to‘g‘ri o‘qishga chiroyli va ravon yozishga o‘rgatish.<br>**b) tarbiyaviy:** O‘quvchilami mehnatsevarlikka, insoniylikka o‘rgatish. Ulami vatanga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash. Ularga odob, axloq tushunchalarini sindirish.<br>**v) rivojlantiruvchi**: O‘quvchilaming bilim samaradorliklarini oshirish. Har bir fanga alohida qiziqish uyg‘otish, bilish qobiliyatlarini rivojlantirish O`quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg`otish, bilimlarini kengaytirishga erishish. |
| O`quv jarayonini mazmuni | Mavzu haqida o_quvchilarga tushuncha va ko_nikmalar berish, mavzuni taxhlil qilish. |
| O`quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi | **Metod:** Amaliy, nazariy, aralash, noan`aviy, ananaviy<br>**Usul:** Aqliy hujum, savol-javob, guruhlarda ishlash.<br>**Shakl:** yakka va guruhlarga ishlash.<br>**Vosita:** Darslik. Testlar. Jadavallar, audio va video materilalar, didaktik va tarqatma materiallar.<br>**Nazorat:** Og`zaki, yozma savol-javob test.<br>**Baholash**: 5 balli tizim asosida |
| Kutiladigan natija | **O`qituvchi:** Mavzuni qisqa vaqt ichida o`quvchilar tomonidan o`zlashtirishlariga erishaman, o`quvchi faolligini oshiraman, o`quvchilarda fanga nisbatan qiziqish uyg`otaman, o`quvchilarga mustaqil o`rganish va hotirasida saqlash boshqalarga etkaza olish, savol berish va savollarga to`g`ri javoblarga o`rgataman.<br>**O`quvchi:** O`quvchilar mavzu yuzasidan bilim va ko`nikma hosil qiladilar, mustaqil fikrlay oladilar, nutqi rivojlanadi, qisqa vaqt ichida ma‘lumotlarga ega bo`ladilar |
| Kelgusi rejalar | **O`qituvchi:** Pedagogik texnologiyalarni o`zlashtirish va darsga tatbiq etish, takomillashtirish, AKT vositalaridan unumli foydalanish yo`llarini o`rganish, o`z ustida ishash<br>**O`quvchi:** Mustaqil tadqiqot, izlanishni yo`lga `oyadi, o`z fikrini savodli ifodalay olish va do`stlarini fikrini hurmat qilishga o`rganish mavzu asosida qo`shimcha materiallar izlab topishga harakat qilish, ularni o`rganish. Do`stona muhitda hamkorlikda ishlash ko`nikmasini shakllantirish |

| | |
|---|---|
| Uyga vazifa | Mavzuni o`qib o`rganib kelish |

*Darsning texnik chizmasi:*

| *Dars bosqichlari* | *Vaqt* |
|---|---|
| Tashkiliy qism. | 2 daqiqa |
| Yangi mavzuni boshlashga hozirlik | 3 daqiqa |
| She'rxonlik | 5 daqiqa |
| Guruhlarda ishlash: Tezkor savol-javoblar | 10 daqiqa |
| Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| Mustahkamlash | 3 daqiqa |
| Uyga beriladigan topshiriqlar | 2 daqiqa |
| Tabrik | 3 daqiqa |
| Baholar tahlili | 2 daqiqa |

***Darsning borishi (reja):***

**1. *Tashkiliy qism:*** *a)Salomlashish, b)tozalikni aniqlash, d)davomatni aniqlash c) darsga tayyorgarlik ko`rish va dars rejasi*

**2. *Uyga vazifani so`rab baholash:*** *a) og`zaki so`rov; b) daftarni tekshirish; v) tarqatma materiallar orqali ishlash.*




***SHIORIMIZ:***

*Go`zallik, nafosat shu tilga xosdir.*

***MAQSADIMIZ:***

*Yuksak ma`naviyatli, barkamol farzandlar bo`lib, fan cho`qqilarini egallaymiz.*







**Ma‘naviyat daqiqasi:**







**2. O‘tilgan mavzuni so‘rash va baholash**

Har bir guruhga o‘tilgan mavzu bo‘yicha savollar yozilgan kartochkalar tarqatiladi:

*1- guruh:*

1. Qanday so„zlar modal so„zlar deyiladi?
2. Modal so„zlar qanday tinish belgilari bilan ajratiladi?
3. Qanday modal so„zlar sof modal so„z hisoblanadi?
4. Vazifadosh modal so„zlarni ayting.

*2- guruh:*

1. Qanday so„zlar taqlid so„zlar deyiladi?
2. Qanday so„zlar holatga taqlid so„zlar deyiladi?
3. Takroriy taqlid so„zlar qanday hosil qilinadi?
4. Takroriy taqlid so„zlar qanday ma‟nolarni anglatadi?

*3- guruh:*

1. Qanday so„zlar undov so„zlar deyiladi?
2. Undovlar ma‟nosiga ko„ra qanday turlarga bo„linadi?
3. Nima uchun bu undovlar his-hayajon undovlari deb ataladi?
4. Qanday undovlar buyruq-xitob undovlari deyiladi?

**3. Yangi mavzu bayoni**




KISHILIK OLMOSHLARI
....... shaxmat to‘‘garagiga qatnashaman.
...... kimga sovg‘‘a qilmoqchisiz,yoshi nechada?
Men
Biz
Sen
Siz
U
Ular


KO`RSATISH OLMOSHLARI
U, BU, SHU, O`SHA, ANA BU, MANA BU , ANA SHU, MANA SHU
- .... yigit qo`shnimiz Maryam xolaning katta o`g`li ekan. tushunasiz?
U, BU
SHU, O`SHA
ANA BU, MANA BU
ANA SHU, MANA SHU


SO`ROQ OLMOSHLARI
Qanday?, qanaqa?, qaysi?
kim? nima? qayer?
qancha? qachon? nega?
- Kechagi gaplardan keyin ..... yuzi bilan boradi?
- ..... fazilatlar insonga ziynat bag‘‘ishlaydi?
qizil
Go‘‘zal
Qanday
shirin
qiziqarli


BELGILASH OLMOSHLARI
...... EKKANINI O`RADI.
...... INSON O`Z BAXTI UCHUN KURASHADI.
YUTUQLARI BILAN ..... MAQTANSA ARZIYDI.
AJRATIB KO`RSATADI:
HAR
+
SO`ROQ OLMOSHLARI,
BIR SO`ZI
JAMLIKNI IFODALAYDI:
HAMMA
BARCHA
JAMI
BUTUN


GUMON OLMOSHLARI
alla qo`shimchasi
+
SO`ROQ OLMOSHLARI
SO`ROQ OLMOSHLARI
+
-dir qo`shimchasi


Kimki yor anga ilm tolibi ilm kerak
O'rgangali ilm tolibi ilm kerak.
Oltinchi oktabr
Mavzu: Morfologiya. Olmosh yuzasidan mustahkamlash
REDMI NOTE 8T
AI QUAD CAMERA


Kimki yor anga ilm tolibi ilm kerak
O'rgangali ilm tolibi ilm kerak
REDMI NOTE 8T
AI QUAD CAMERA







**Dars yakuni:**

**Uyga vazifa: Matn yaratish**

# CHO`LPON SHE'RIYATIDA RAMZ VA TIMSOLLAR

**Maturazova Yulduz Sheripboyevna**
*Yangibozor tumani 24-maktab ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi*

**Anotatsiya:***Ushbu maqolada Abdulhamid Sulaymon o`g`li Cho`lpon lirikasidagi bir qator she'rlar sujeti, o`ziga xos ramz va timsollari, mazmun mohiyati hamda ularda mavjud muhitning, tabiatning tasvirini yoritish; falsafiy mushohadakorlikning o`ziga xos tomonlari xususida fikr yuritilgan.*

**Kalit so`zlar:** *–Binafsha‖, –Vijdon erki‖she'rlari, insonlar, ramz, timsol, bo`ri, burgut, qush va qarg`a.*

Vatanparvarlik tuyg`ularini kuylagan haqiqat va hurlikni e'tiqodiga aylantirgan o`zbek xalqini birdamlikka chorlagan shoir yangi o`zbek she'riyatining asoschilaridan biri Abdulhamid Sulaymon o`g`li Cho`lpondir. Shoirning isyonkorlik ruhi bilan yo`g`rilgan poeziyasi bilan tanishar ekanmiz, ularda jamiyat, xalq, kelajak haqida qayg`urishlari Turkistonni ozod va hur mamlakatlar safida ko`rish orzusi kuylanadi. Ijodkorning millat hurligini istovchi g`oyalar bilan sug`orilgan ramz va timsollarga boy bo`lgan she'riyati ko`pgina adabiyotshunoslar tomonidan turlicha baholangan. Cho`lpon she'riyatida hayotiylik bilan majoziylik omuxtalashib, birlashib ketadi. Shoirning –Buzilgan o`lkaga‖ she'rida ramzlar ijtimoiylik kasb etadi:

Uchar qushdek yosh yigitlar qayerda?
Tog` egasi sor burgutlar qayerda?

Bizga ma'lumki, o`zbek adabiyotida burgut-mag`rurlik, dovyuraklik ramzini ifodalaydi. She`rning mazmunini ifodalaydigan bo`lsak, bu o`lkada yovga qarshi chiqa oladigan mag`rur va jasur yoshlar qayerda degan savol o`rtaga tashlanadi.

Yoki –Binafsha‖ she`rini olib qaraylik:

Binafsha, nimaga bir ozroq ochilmay,
Bir erkin kulmasdan uzilding?
Binafsha, nimaga hidlaring sochilmay,
Yerlarga egilding, cho`zilding.

She`rda ijodkorning fikri qaratilgan bahoriy gul binafsha timsolida ham hayotiy, ham majoziy ifodani toppish mumkin. Chetdan olib qaraganda shoir gul bilan suhbatlashayotganga o`xshaydi. Ammo she'rga sinchiklab nazar tashlasak, shoirning toptalgan yurtga yoki xo`rlangan qizga murojaatini tushunamiz. Yurtning ahvolidan, xalqning qaloqligidan kuyungan ijodkor she'rida timsol va ramzlar orqali haqiqatni ifodalaydi:

Bo`rilardan omon kutmak – tentaklarning ishidir ul.
Har mane'ni hatlab o`tmak – turmushda eng to`g`ri bir yo`l.

Ushbu misrada shoir bo`ri timsoli orqali ochko`z va manfaatparast shaxslarni nazarda tutadi. Uning fikricha xalqdan ta'ma qiladigan, uning uchun qayg`urmaydigan manfur shaxslar bo`ri timsoli orqali gavdalanadi. O`zbek adabiyotida bo`ri ochko`zlik va munofiqlik ramzi sifatida qadimdan qo`llanib kelingan. Bo`ri timsoli shoirning boshqa she'rlarida ham uchraydi.

Nima uchun ko`zlaringda tutashguvchi olov yo`q?

Nima uchun tunlaringda bo`rilarning qorni to`q?

Bizga ma'lumki, bo`rilar hamisha qorong`uda qorin to`ydirish g`ami bilan yashaydi. Shoirning boshqa bir she'rida:

Yana qish: qor kafan yopildi yana,

Qarg`aga to`y, o`yin topildi yana!

Misralari keltirib o`tilgan. Bu she'rda shoir oddiygina tabiat hodisasini chizib berish bilan birga jamiyatdagi illatlarni ochib beradi. Qish – sovuq va shafqatsiz zamonni ifodalamoqda. O`sha vaqtlari jamiyatda marhumlarni ko`mish asnosida, amaldorlar ichkilik ichishni odat qilgan edilar. Bunda qarg`a ramzi orqali ochko`z va manfaatparast amaldorlar qiyofasi ochib beriladi. Boshqa she'rlarida ham qarg`a ramziga murojaat etiladi:

Qarg`alar bog`larda qag`lashib qoldilar,

Bilmadim kimlarning qismati uzilar…

Jamiyat nuqtayi nazaridan olib qaraydigan bo`lsak, bu she`rni quyidagicha ifodalash mumkin. Qarg`a tamagir insonlar ramzi. Qayerdandir tamagir insonlarning ovozi eshitilmoqda, bilmadim,balki ular qaysidir insonning ustidan hukm chiqarmoqdalar degan mazmun kelib chiqadi. Yana bir boshqa she'rida:

Qush bechora qo`rqadurkim, uyasidan ayirgaylar,

Uyasidan ayirmoq-la, qanotini qayirgaylar,

Mayda simdan silliq qilib mohirona to`qilgan bir,

Qafas topib darchasini ochib derlar: ―Maskanga kir!‖

Qush timsoli orqali inson obrazi ochib beriladi va jamiyatning jirkanch illatlari tasvirlanadi. Mansabdor shaxslarning jamiyatda tutgan o`rni shu darajaga yetdiki, endi ular oddiy xalqning faoliyatini kuzatib boradilar va kun tartibini belgilab beradilar. Agar biror biror shubhali harakatni sezsalar, ular ustidan jiddiy hukm chiqaradilar.

Tanqid she'riyat osmonida bu yorug` yulduz yuziga soya soladi. Uning ijodini bo`g`ishga, qalb tug`yonlarini jilovlashga chaqiradi.

Tiriksan o`lmagansan,

Sen-da odam, sen-da inson sen.

Kishan kiyma, boshing egma,

Ki sen ham hur tug`ulg`onsen.

U ijod olamida umid topadi, qalb iztiroblarini esa badiiyat bilan baham ko`radi. She'riyatdan erk va hurlik, umid izlaydi:

Qulf bilan sening erkingda ko`p yillar qolib ketdim,

Faqat har tebranishdan qutulishlikni umid etdim.

Ushbu bayt Cho`lponning umid bilan ilhomlanishini aks ettiradi. Uni lirik shoir sifatida ko`rishni taqozo etadi.

Cho`lponning poetik mahorati aks etgan lirikasi ramz va timsollarga boy. Cho`lpon ijodini o`rganish tarix zarvaraqlarini o`qish bilan olib boriladi. Zero, yozuvchi muhit chashmasidan oziq oladi, ilhomlanadi.

Zulm oldida har bir narsa,

Ehtimolni bo`yin egar.

Agar zulm avjga kelsa,

Ko`k boshida yerga tegar.

Cho`lpon ijodida zulm va bosqinchilik qoralangan, erk va hurlik, umid tuyg`ulari ulug`langan. Cho`lpon poeziyasi tanqidga uchradi va she`riyat yulduzining botishiga zamin hozirladi. Mustaqillikka kelib bu yorug` yulduzyuziga tortilgan parda olib tashlandi. O`z Vatani istiqboli uchun qayg`urgan, millatining taqdiriga kuyungan ko`pgina ajdodlarimiz nomlari oqlandi. Bular qatorida Abdulhamid Sulaymon o`g`li Cho`lpon nomi ham bitilgan. Millat hayotini o`ylovchi bu kabi ijodkor millatchi emas, balki Vatanparvar, millatsevar insondir. Cho`lpon kabi siymolar adabiyot xazinasini to`ldiruvchi purma‘no asarlari bilan badiiyat olamida charag`on yulduz bo`lib qoladi.

Cho`lpon – isyonkor shoir. U o`zining hurlik haqidagi qarashlarini, o`zbek xalqining kelajagi haqida qayg`urishlarini asarlarida ramz va timsollar orqali bayon etadi. Biz shoirning she‘riyati orqali vatanga muhabbat, erkinlikka umid, ma‘naviy uyg`oqlik kuyini tinglaymiz. Asarlari orqali shoir tuyg`ularini his qilamiz. Tarixda jirkanch kuchlar qanchadan-qancha iste‘dodlarni bo`g`ishga urinadi, ammo hurlik va haqiqat hurlik va haqiqat taslim bo`lmadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Qosimov B.,Yusupov Sh.,Dolimov U.,Rizayev Sh.,Ahmedov S. Milliy uyg`onish davri o`zbek adabiyoti. Toshkent. –Ma‘naviyat‖, 2004.

2. Yo`ldoshev Q.,QosimovB.,Qodirov V.,Yo`ldoshbekov J. Adabiyot 7-sinf uchun darslik. Toshkent. –Sharq‖ Nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati-2013.

5 YANVAR / 2022 YIL / 14 – SON

# BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING TA‘LIM-TARBIYASIDA OILANING RO‘LI

**Islomov Eldor Yusupovich**

*Buxoro davlat universiteti Jismoniy madaniyat fakulteti o’qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ta‘lim va tarbiya berish jarayonida ta‘lim muassasi va oilaning birgalikdagi hamkorlik harakati gaqida fikr yurutilgan. Shuningdek, hamkorlik shakli, uslublari, qay tarzda olib borilishi va yuzaga keladigan natija to‘g‘risida ma‘lumotlar bayon etilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, ta‘lim va tarbiya, oila, ta‘lim tizimi, konsepsiya.*

Mamlakatimizda keyingi yillarda qabul qilingan ta‘lim va tarbiya to‘rg_risidagi qator me‘yoriy hujjatlar, jumladan O_zbekiston Respublikasining "Ta‘lim to_g_risida"gi qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" bozor iqtisodiyoti sharoitlarida muvaffaqiyatli ishlay oladigan, mustaqil fikrlovchi kadrlarni tayyorlashda oila, mahalla va o_quv bilim yurti nufuzini yanada yuqori pog_onaga ko‘tarishni taqzo etadi.

Zero, ta‘lim-tarbiyani takomillashtirishda ham davlat bosh islohotchidir, Prezidentimiz ta‘kidlaganidek, birinchidan, yosh avlodga o_zligimizni, muqaddas an‘analarimizni anglash tuyg_ularini, xalqimizning ko_p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga bugun qo_yilgan oliy maqsad va vazifalarni singdirish;

-ikkinchidan, jamiyatimizda bugun mavjud bo_lgan hurfikrlikdan qat‘iy nazar yoshlarni jipslashtiradigan, xalqimiz va davlatimiz daxlsizligini asraydigan, el-yurtimizni eng yuksak maqsadlar sari chorlaydigan yagona g_oya — milliy mafkuraga sadoqat ru hida tarbiyalash;

-uchinchidan, yoshlarni baynalmilal jahon xamjamiyatida, xalqaro maydonda O_zbekistonga munosib hurmat tug_dirish uchun intilish ruhida tarbiyalash;

-to_rtinchidan, yosh avlodni vatanparvarlik, el-yurtga sadokat, yuksak odamiylik va insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash;

***Davlatimiz rahbari ko_rsatib berganidek, ta‘lim-tarbiya sohasidagi islohotlar:***

-birinchidan, ijtimoiy-siyosiy iqlimga ijobiy ta‘sir ko_rsatishga, umuman mamlakatdagi mavjud muhitni butunlay o_zgartirishga;

-ikkinchidan, insonning hayotda o_z o_rnini topishini tezlashtirishga;

-uchinchidan, jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin SHaxsni shakllantirishta;

-to_rtinchidan, insondagi mavjud salohiyatni to_la ro_yobga chiqarishga;

-beshinchidan, umumiy va maxsus bilimlarga ega, ongli, tafakkuri ozod, zamonaviy dunyoqarash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga voris bo_lgan, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etadigan komil insonlarni tarbiyalashga qaratilgan.

Mazkur Konsepsiyada taraqietimizning ma‘naviy-a hloqiy negizi milliy va umuman insoniy qadriyatlar uyg_unligi ekanligi e‘tirof etildi, milliy va umuminsoniy tarbiyaning quyidagi o_zaro aloqalari, uyg_un yo_nalishlari belgilab olindi.

Konsepsiyada oilaga alohida e‘tibor qaratildi. Shuningdek, O_zbekiston Respublikasining "Ta‘lim to_g_risida"gi qonunining 30-moddasida "Voyaga etmagan shaxslarning ota-onalari yoki qonuniy vakillari shaxsning qonuniy huquqlari va manfaatlarini himoya qilishlari shart hamda ularning tarbiyasi, o_quv muassasasigacha, umumiy o_rta, o_rta maxsus, kasb-xunar ta‘limi olishlari uchun javobgardirlar", deb belgilab qo_yilgan.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning 3.2 bandida esa ta‘lim oluvchilarning o_qishi, turmushi va dam olishi uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi vazifalar hal etilishida jamoatchilik boshqaruvini rivojlantirishga alohida e‘tibor berilgan. Bu "Oila, ta‘lim bilim yurti, mahalla hamkorligi" bugungi kunning ma‘naviy, ma‘rifiy, mafkuraviy, tarbiyaviy zarurati ekanligini bildiradi. Yosh avlodni ma‘naviy-ahloqiy tarbiyalashda xalqimizning boy milliy, madaniy, tarixiy an‘analariga, urf-odatlariga hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali, zamonaviy pedagogik texnologiyaning ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilishi, shaxsni tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligini ta‘minlash; umumiy hamda milliy pedagogik madaniyatni oshirish; mamlakatimiz fuqarolari orasida milliy mafkuraviy tarbiya ishlarini takomillashtirish "Oila, mahalla, ta‘lim bilim yurti hamkorligi" Konsepsiyasining asosiy maqsadidir.

O_quv yurtining oila va keng jamoatchilik bilan aloqasi guruh rahbari orqali amalga oshiriladi. *Guruh rahbari ota-onalar bilan olib boradigan ishlariga quyidagi vazifalarni hal qiladi:*

1. Ota-onalar bilan yaqindan aloqa o_rnatadi va aloqani doimo mustahkamlab boradi;
2. O‘quvchiga nisbatan maktabning va oilaning yagona talablar qo_yishga erishadi;
3. Guruh ota-onalar jamoasini tashkil etib, ularning guruhdagi tarbiyaviy ishlariga faol qatnashishlarini ta‘minlaydi;
4. Ota-onalar o_rtasida pedagogik bilimlarni tarqatadi va ularning pedagogik madaniyatini yuqori darajaga ko_taradi;
5. Guruhga otaliq qilayotgan tashkilotlar, oila va maktab yordam beruvchi tashkilotlar bilan aloqa o_rnatadi va ularni guruhdagi tarbiyaviy ishlarga jalb qiladi.

Guruh rahbarining talabani yaxshi tarbiyalashdagi oila va jamoatchilik bilan hamkorligining muvaffaqiyati ularning bola bilan qilayotgan ishlari haqida bir-birlariga qanchalik ko_p, aniq va muntazam xabar berib turishlariga bog_liq. Ana shu maqsadda guruh rahbari oilaga bir qator tizimli axborotlar berib turishi kerak:

Sinf rahbari bilan oila o_rtasidagi bu xildagi o_zaro xabarlashuvlar o‘quvchini to_la o_rganishga, ta‘lim va tarbiyada shu talaba uchun eng maqbul tarbiya va ta‘sir vositasini topishga yordam beradi. Guruh rahbari o_z kuzatishlari, oiladan olgan axborotlari natijasini kundalikka yozib borsa, undagi to_plangan ma‘lumotlarni vaqti-vaqtida o_rganish bilan shularga asoslanib tegishli xulosalar chiqarsa, bola xulqini va fazilatlarini yaxshilash yo_llari, keyingi rejalarni belgilasa, erishilgan darajani hisobga olib yangi pedagogik talablar qo_yib bo_lsa, tarbiya albatta samarali natija beradi.

Guruh rahbarining ota-onalar bilan olib boradigan ishlari tajribasida shaxsiy, guruh-guruhli va ommaviy kabi shakllar keng tarqalgan. Ayniqsa, uning ota-onalar bilan olib boradigan ommaviy ishlari bu sohadagi faoliyatinnig asosiy yo_nalishidir. Chunki bu barcha ota-onalarni birlashtiradi hamda ularni o_quv yurti talablari bilan tanishtirish, jamiyatning tarbiyadan ko_zatadigan maqsadlari, ota-onaning vazifalari, tarbiyani amalga oshirish yo_llari,

uslub va shakllari haqida bilim berish, guruh hayotidagi o_zgarishlar, rejalar haqida maslahatlashish uchun pedagogik ma'ruzalar tashkil etish ilmiy anjumanlar, ―ochiq eshik‖ kunlari, savol-javob kechalari, ota-onalar majlislari o_tkazish ommaviy ishning turlaridir. Guruh rahbarining tajribasida ota-onalar majlislari keng tarqalgan va qaror topgan ish shaklidir. Bu majlislar guruh ota-onalar jamoasining yuqori organi sifatida o_z qarorlari bilan guruhdagi, oiladagi va turar joylardagi amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarning vazifasini va yo_nalishini belgilab beradi.

Guruh ota-onalar majlislarining bir necha xili mavjud: guruhdagi tashkiliy ishlar bilan bog_liq majlislar, ota-onalarga pedagogik ma'lumot berishga bag_ishlangan majlislar, munozara shaklidagi majlislar, yarim yillik yoki yil yakuniga bag_ishlangan majlislar. Bu majlislarning har biri o_z maqsadiga tayyorlash va o_tkazish tartibiga ega. Tashkiliy masalalar bilan bog_liq guruh ota-onalari majlisida odatda ota-onalar guruhi saylanadi, ish rejalari tasdiqlanadi, ota-onalar o_rtasidagi vazifalar taqsimlanadi.

Ko_pgina maktablarda guruh rahbarining ota-onalar bilan olib borayotgan ishlari tajribasida savol-javob kechalari, maslahatlar va munozaralar ham vujudga kelmoqda. Maslahatlar ko_proq shaxsiy ish shakli bo_lib, unga guruh rahbari ota yoki onaga farzandini tarbiyalashdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish va boshqa masalalar yuzasidan aniq maslahatlar beradi. Guruh rahbari o_zining shaxsiy suhbatini, oilani o_rganish va ko_zatish asosida to_plagan ma'lumotlarni ota-onalar bilan o_tkaziladigan ishlarni hisobga olib boradigan maxsus jurnaliga yozib borishi g_oyatda muhim. Agar bu xil jurnalni guruh rahbarlari har yili muntazam holda yuritib borsa, u tarbiyaviy ta'siri yaxshilashning muhim vositasiga aylanadi.2. Ota-onalar bilan ishlashning shakl va metodlari. Guruh rahbari ota-onalar bilan ish olib borishda ishlashning xilma-xil shakl va metodlaridan foydalanishi lozim. Ota-onalar bilan ishlashga shaxsiy ishlar jamoa bilan birgalikda olib borilsa maqsadga muvofiq bo_ladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. R.A.Mavlonova, B.Normurodova. ―Tarbiyaviy ishlar metodikasi‖. –T., 2007 yil.
2. Kaykovus «Qobusnoma» T., «O_qituvchi». 1986 yil
3. O.Bo_riev. «Oila va yangi an'analar». T., «O_qituvchi» 1988 yil
4. «Oila etikasi va psixologiyasi» (T.Maqsudov tahriri ostida) T., «O_qituvchi» 1991 yil
5. T.Javliev. «An'analar – hayot sabog_i». T., «O_zbekiston» 1992 yil
6. A.Avloniy. «Turkiy Guliston yohud ahloq». T., «O_qituvchi» 1992 yil

# GEOGRAFIYA DARSLARINI O‘QITISHDA INNOVATSION YONDASHUV

**Maturazova Ro‘za**
*Xorazm viloyati Yangibozor tumani 20-son umumiy o‘rta ta‘lim maktabi geografiya fani o‘qituvchisi*
**Maturazova Firuza**
*Xorazm viloyati Yangibozor tumani 27-son umumiy o‘rta ta‘lim maktabi geografiya fani o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada o‘quvchi shaxsini hurmat qilish, unda mustaqil fikrlash o‘rta ta’lim maktabi va mustaqil ishlash imkoniyatlari hamda jarayonlarini yaratish, geografiya fanining o‘qitilishida boshqotirmalar, amaliy mashg‘ulotlardan, turli usul va uslublardan o‘rta ta‘lim maktabi foydalanish yo‘llari ochib beriladi. o‘rta ta’lim maktabi*

**Kalit so‘zlar:** *geografiya, innovatsiya, ta‘lim, pedagogik mahorat, zamon talabi, amaliylim maktabi mashg‘uloti.*

Ilm–fan, texnika va ishlab chiqarish sohalari jadal rivojlanib borayotgan hozirgi kunda jamiyat ravnaqi zamon talablariga javob beradigan mutaxassislarning zamonaviy axborottexnologiyalaridan qay darajada foydalana olishiga ham bog‘liq. Bu, o‘z navbatida, maktab o‘qituvchilarining ham zimmasiga darslarning o‘rta ta‘lim maktabi samaradorligiga erishish, ularning sifati va mazmundorligini ta minlash, maktabdagi o’lim maktabi o‘quv mashg ulotlari jarayonida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarinio‘rta ta‘lim maktabi o‘rta ta‘lim maktabi yuqori darajada egallashlariga ko‘maklashish kabi yuksak masuliyatni yuklaydi.

Yuqori darajada egallashlariga ko‘maklashish kabi yuksak masuliyatni yuklaydi. Hozirgi kun ta‘limi ham o‘qituvchilardan darslarni o‘qitishda zamonaviy o’lim maktabi o‘rta ta‘lim maktabi yondashuvni talab qilmoqda. Bugun o‘quvchini an‘anaviy, bir xil qolipdagi darslar o‘rta ta’lim maktabi o’lim maktabi bilan sinfda ―mixlab‖ o‘tirishning iloji yo‘q, ularni darslarga qiziqtirish ancha o‘rta ta‘lim maktabi qiyinlashgan. Chunki atrof-muhitda o‘quvchini chalg‘itadigan axborotlar ko‘p, ular o‘qituvchidan ko‘ra axborot-kommunikatsiya texnikalaridan ko‘proq foydalanish imkoniyatiga ega, dunyoda bo‘layotgan voqea-hodisalardan tezroq xabardor bo‘ladilar. Darslarda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llash bilan birga, internet saytlaridan samarali foydalanish, darslikdan tashqari yangi ma‘lumotlarni tezkor yetkazish ham o‘qituvchi mahoratini belgilashda asosiy omil bo‘lib bormoqda. Shu o‘rta ta‘lim maktabi bilan birga, darslarni tashkil etishda ilmiylikka, o‘quvchilarni mulohaza va munozaraga chorlaydigan jarayonni tashkil etish o‘qituvchidan katta bilim, tajriba, mahorat hamda izlanuvchanlikni talab etadi.

O‘quvchilarni o‘z fikrini ilgari suradigan, mustaqil fikrlaydigan, tashabbuskor o‘rta ta‘lim maktabi bo‘lishlariga imkoniyat yaratish, ularni o‘z qiziqishlari bo‘yicha yo‘naltirish yaxshi samara beradi. Xato fikr bildirib o‘qituvchidan dakki eshitgan o‘quvchida o‘rta ta‘lim maktabi keyinchalik o‘z fikrini erkin bayon eta olmaslik holati yuzaga keladi. Har qanday o‘rta ta’lim maktabi holatda ham o‘quvchi bildirgan fikr o‘qituvchi tomonidan rag batlantirilsa, xato va kamchiliklari tushuntirib borilsa, o‘quvchi o‘z mulohazalari va fikrlari bilan o‘rtoqlashishdan

cho‘chimaydi. Shu bilan birga, shunday imkoniyat yaratib bergan ustozdan minnatdor bo‘ladi, u o‘rgatayotgan fanni ham sevib o‘qiydi, ustoz va o‘quvchi o‘rtasida samimiy munosabat yuzaga keladi. Ba‘zi o‘quvchilar ayrim o‘rta ta‘lim maktabi o‘rta ta‘lim maktabi fanlarni o qituvchini hurmat qilgani uchun o‘qiydi, sababi o‘sha o‘qituvchi o‘zining bilimi, muomalasi, mahorati bilan o‘quvchilar ko‘nglidan joy olgan. O‘quvchining psixologik holatini to‘g‘ri baholay olish uni fanga qiziqtira olishda muhim omil hisoblanadi. Mana shunday holatlarga pedagogik faoliyatim davomida juda ko‘p duch kelganman.

Ma‘lumki, dunyoviy bilimlarni egallashda barcha fanlar qatorida geografiyani o’lim maktabi o‘rganish ham zarurat hisoblanadi. 2020-2021-o‘quv yilidan boshlab oliy ta‘limda geografiya fanidan kirish imtihonlarining topshirilishi ham mazkur fanning zamonaviy ilm-fandagi o‘rni beqiyosligini, respublikamiz iqtisodiy hayotida zaruriy o‘rta ta’lim maktabi yo‘nalishlaridan biri ekanini isbotladi. Shu bilan birga, o‘quvchilar o‘rtasida bu fanga o‘rta ta‘lim maktabi nisbat qiziqish ortganiga hamda fanning obro‘yi bir pog‘ona ko‘tarilganiga guvoh bo‘lamiz.

Hozirgi davrda geografiyani o‘rganishga kirishgan o‘quvchilar faqat darslik bilan chegaralanib qolmaydilar. Ular yer yuzining tuzilishi, geografik qobiqda yuz berayotgan jarayonlar, okeanlarning paydo bo‘lishi, orollarning materiklardan ajralib, ob-havoning o‘zgaruvchanligi, iqlim hosil qiluvchi omillar kabi ma‘lumotlarni bilishda axborot texnologiyalaridan, ayniqsa, internet saytlaridan unumli foydalanishadi. Buni hozirgi murakkab davrda ham yaqqol kuzatish mumkin. Har bir fan uchun Telegram messenjerida alohida guruhlar ochib, onlayn darslar olib borilayotgan bir vaqtda o‘quvchilarga berilgan topshiriqlarni ta lim saytlaridan izlanib javob topishlari va qaysi manbalardan foydalanayotganlarini ko‘rsatishlari ham quvonarli holat.

Geografiya fanining o‘qitilishida darslar hayotga bog‘lab qiziqarli va ijodiy tashkil etilsa, maqsadga erishish oson bo‘ladi. Geografiya darslarida dars o‘rta ta’lim maktabi samaradorligini oshirishda ko‘proq ko‘rgazmali qurollardan, suhbat, bahs-munozara uslublaridan, kinofilmlardan, turli boshqotirmalardan, testlardan, amaliy mashg‘ulotlardan foydalanish mumkin.

4- sinfda ―Tabiatshunoslik‖ fanini o‘zlashtirib, 5-sinfga qadam qo‘ygan o‘quvchi uchun ―Tabiiy geografiya boshlang ich kursi‖ qiziqarli bo‘lishbilan birga biroz murakkablik qiladi. Beshinchi sinfda haftasiga atigi bir soat geografiya darsining o‘tilishi esa mavzularni o‘zlashtirishni yanada qiyinlashtiradi. Shuning uchun mavzularni tushuntirish uchun metod va usullarni qo‘llashda bolaning yosh xususiyatlarini ham hisobga olish shart. Qadim zamonlardanoq ota-bobolarimiz tabiatdagi ba‘zi o‘zgarishlarga qarab maktabi havoning qanday bo‘lishini bilishgan. Xuddi shu xususiyatni bolalarda ham o‘rta ta’lim maktabi shakllantirish lozim. Qushlarning pastlab uchishi, havoda mezon iplarining bo‘lishi, chumolilar yoki uy hayvonlarining bezovtalanishi, bulutlarning shakllari, quyosh botishidagi holatlar ertangi ob-havoning qanday bo‗lishidan darak berishini rasmli testlar orqali tushuntirish mumkin. Masalan: Quyidagi rasmlardagi holatlarga qarab ob-havoda qanday o‘zgarish bo‘lishini belgilang.






1. 2. 3. 4.

a) Havo ochiq
b) havo aynishi
c) yomg‘irli
d) shamol bo‘rta ta’lim maktabida

bunday javoblarni davom ettirish mumkin.

Rasmli testlarni ishlash davomida o‘quvchilarda tabiat hodisalarini, unda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni kuzatish, kuzatgan natijalarini tahlil qilish ko‘nikmalari shakllanib boradi. Bunday testlardan qanday usulda foydalanish o‘qituvchining yondashuviga bog liq.

Boshqotirmalar ham bugungi kunda juda ommalashgan, ularning o'quvchilar bilimini oshirish va mustahkamlashdagi o‘rnini inkor etib bo‘lmaydi. Qaysi gazeta va jurnalni varaqlamang, krossvord, chaynvord kabi boshqotirmalarning turli mavzu va ko‘rinishdagi turlariga duch kelamiz. Hattoki ularni maktab darsliklarida ham uchratamiz. Dars jarayonlarida boshqotirmalardan unumli foydalanish ham maqbul usullardan biridir. Boshqotirmalarning bolalar uchun samarali ta‘siri bor. Birinchidan, bolalar uchun oddiy matnni o‘qish yoki o‘qituvchining ma‘ruzasini tinglash ba‘zan zerikarli bo‘lib qoladi. Shunday hollarda boshqotirmada berilgan jumboqning javobi, harflarning ketma-ketlikda bir-biriga moslashib borishi o‘quvchi tomonidan qiziqarli va maroqli jarayon sifatida qabul qilinadi. Buni o‘quvchilar o‘yin tarzida ham bajarishlari mumkin.

Ikkinchidan, boshqotirmalar xotirani mustahkamlaydi. O‘tgan bobning yakunida yoki biror mavzu yuzasidan berilgan boshqotirmani yechayotgan o‘quvchi uchun javoblar boshlanadigan yoki uning o‘rtasidagi harf ma‘lum bo‘lib qolsa, u xotirasini o‘rta ta’lim maktabi titkilay boshlaydi. Masalan, o‘sha harf bilan boshlanuvchi materikning turli relyef shakllari, joy nomlari, iqlim mintaqalari, turli geografik obyektlar ko‘z oldidan o‘tadi va ma‘qul kelgan javobni yozadi. Boshqotirmalar aqlni charxlaydi, bilimlarning uzluksizligini ta'minlaydi, xotirani kuchaytiradi, zehnlilikni, tezkor fikrlashni o‘rgatadi. Ular qay shaklda, qanday mavzuda bo‘lishidan qati nazar, maqsad bitta – o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirish, DTS darajasidagi bilimlarga ega bo‘lishlariga ko‘maklashishdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. J.G .Yo ldoshev, S.A.Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari. T: ‘rta ta’lim maktabi ‘rta ta’lim maktabi ―O qituvchi‖. 2004 ‘rta ta’lim maktabi.

2. M.T.Mirakmalov, M.M.Avezov, E.Y.Nazaraliyeva. Tabiiy geografiyadan amaliy mashg ulotlar. T: ―Fan va texnologiya‖ nashriyoti. 2015.

*Professor-o‘qituvchilar, talaba-yoshlarni jamiyatda olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi rolini kuchaytirish, innovatsion g‘oyalarni amalga oshirish va takomillashtirish, shuningdek yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish va rag‘batlantirish kabi ustuvor vazifalarini amalga oshirish hamda mazkur yo‘nalishda ilmiy tadqiqot ishlarini faollashtirish, yoshlarimizning ma’naviy immunitetini kuchaytirish, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishda 5 ta muhim tashabbus muhim ahamiyat kasb etadi.*

**BOSH MUHARRIR:**

**Maqsudov Ulug‘bek Qurbonovich**

**MAS’UL MUHARRIR:**

**Yusufjonov Quyoshbek Komiljon o‘g‘li**

**MAS’UL KOTIB:**

**Xasanov Tursunali Xaydarali o‘g‘li**
*Marg‘ilon shahar 11-umumiy o‘rta ta’lim maktabi*
*Ma’naviy va ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari*